

## Loyihalar

# «O'zbek adabiyoti tarixi»

✘ O'zbek xalqi qadimiy tarixga, boy o'tmish merosga ega. Ko'p asrlik xalqning tarixi yozma yodgorliklar va og'zaki ijod namunalari orqali avloddan -avlodga o'tib kelmoqda. Yurtimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq milliy- ma'naviy merosga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi adabiyotshunoslik ilmida qatag'onga uchragan an'analarimiz, diniy va tasavvufiy adabiyot hamda uning badiiy adabiyotga ta'siri masalalari xususida ochiq-oydin mushohada yuritish imkoniyati tug'ildi. Adabiyot tariximizda mustaqil va sobit o'rniga ega bo'lgan bir qator durdonalarimizni talaba yoshlarimizga yetkazish imkoni ham ana shu milliy mustaqilligimiz sharofatidir.

## Qadimgi yozma yodgorliklar. "Avesto". O'rxun - Enasoy yodgorliklari



Qadimgi yozma yodgorliklar badiiy adabiyotimizning muhim yodgorliklari bo'lib, qadimgi madaniyat, til, yozuv, ijtimoiy hayot haqida ma'lumot beruvchi manba sifatida qadrlidir. Bunday yozma obidalar qatoriga "Avesta", "Denkard", "Bundaxishn" kabi diniy kitoblar, qadimgi sug'd kalendari, Bexistun yodgorligi va O'rxun-Enasoy yodgorliklari kiradi. "Avesta", "Denkard", "Bundaxishn" zardushtiylikning muqaddas kitoblaridir. Qadimgi sug'd kalendari qadimgi astronomiyaga oid yodgorlikdir. Dunxaundan topishgan yozma yodgorlik eramizning 2 asriga mansub bo'lib, ona va kizning yozishmalaridan iborat. O'rxun-Enasoy yodgorliklari turk xoqonligi davriga oiddir.

"Avesta" zardushtiylikka daxldor matnlar to'plamidir. "Avesta" haqida birinchi bo'lib fanga ma'lumot bergan olim fransiyalik Anketil' dyu Perron bo'lib, XVIII asr o'rtalarida u Hindistonga borib, "Avesta" matnini qo'lga kiritadi.

Fransiyaga qaytgach nashr qiladi. "Avesta" "nizom", "qoida" degan ma'nolarni anglatadi. U zardushtiylikning asoschisi Zardusht tomonidan yaratilgan deb hisoblanadi. Zardushtiylik dini tiriklikni yaxshilik va yomonlik kurashi asosida tushuntiruvchi din bo'lgan. Unga ko'ra Axura Mazda (Xurmuz) oliy iloh hisolanadi. "Avesta" 21 kitob - naskdan iborat. "Zend Avesta" - unga yozilgan sharx. "Avesta" quyidagi qismlardan iborat:

1. Vendidod.
2. Visparad.
3. Yasna.
4. Yashtlar.

Angra Manyu (Axriman) "Avesta"da Axura Mazdaga qarama-qarshi bo'lgan yovuz, zolim ruh sifatida qiyofalangan. Zardushtiylik insonning faoliyati uni yengishga qaratishi kerak deb o'qtiradi. "Avesta" Mitra, Anaxita, Jamshid (Yima) haqidagi miflar manbai sifatida ham ahamiyatlidir. "Avesta" tili hozirgi kunda ulik til bo'lib, oromi yozuvi asosidagi yozuvda yaratilgan.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari ham yozma yodgorliklarning muhim qismini tashkil etadi. Ular o'z topilish tarixiga ega. 1691 yilda Moskvadagi Gollandiya elchixonasi vakili N.Vidzen Verxotur yaqinidan noma'lum yozuvlarni topadi. 1696 yilda S. Remezov ham Sibirdan shunday yozuvlarni topadi. Nihoyat shved ofitseri F.I.Stralenberg 1930 yilda notanish bitiklarga duch keladi. Bu yozuvlar fanda runiy "sirli" deb atala boshlaydi. Messershmidt, G.Spaskiy, Yadrintsev kabi olimlar bu yozuvlarni o'rgatish buyicha ilk tadqiqotlarni olib borishadi. Mazkur Yozuvlar topilgan joylariga (O'rxun Mo'g'ilistonda, Enasoy Sibirda) ko'ra O'rxun-Enasoy yodgorliklari deb ataladi. Noma'lum yozuvlarni birinchi bo'lib daniyalik olim V.Tomsen

o'qiydi. Rus olimi Radlov ham bu paytga kelib ko'p harflarni deshifrovka qilgan edi.

Fan olamidagi baxsli fikrlarga chek qo'yib, yodgorlikning turkiy xalqlarga mansubligi aniqlanadi. Ular tarixan turk xoqonligi davriga oiddir. Turk xoqonligi VI asrlarda Oltoy, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Markaziy Osiyoni birlashtirgan. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida tilga olingan Bilkaqoon va Kulteginlar turk xoqonlaridan bo'lgan. Yodgorliklar xoqonlar va sarkardalarning qabr toshlariga o'yib yozilgan. Ular orasida Kultegin, Bilkaqoon, Tunyuquq bitig'lari, ayniqsa, qimmatli sanaladi. "Irq bitig" yodnomasi O'rxun-Enasoy yodgorliklari orasida toshga emas, qog'ozga bitilgani bilan ajralib turadi. U VIII asrlarda yaratilgan bo'lib, turmushdagi turli xolatlarni ta'bir etuvchi ta'birnomadir.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, "Avesta" va O'rxun-Enasoy yodgorliklari xalqimizning qadim madaniyatga ega ekanligi ko'rsatuvchi nodir yozma obidalardir.

### **X-XIII asrlar adabiyoti**

Somoniylar davlati, xorazmshoxlar, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, mo'g'ullar istilosi, Sharq Renessansi, madaniy inqiroz, fors-tojik adabiyoti namoyandalari, hamsachilik, M.QoShg'ariy va uning "Devonu lug'atit-turk" asari, tasavvufning bosh g'oyasi, tariqatlar.

X-XIII asrlar o'zbek adabiyoti tarixida alohida bir davr bo'ldi. Bu asrlarda O'rta Osiyo jahon madaniyati va ilm-fanning o'choqlaridan biriga aylandi.

Tarixdan ma'lumki, VIII asr boshlarida O'rta Osiyo arablar tomonidan zabt etilgan. Islom O'rta Osiyoda rasmiy dinga aylandi. Arab yozuvi asosiy yozuv bo'lib qoldi. IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda Somoniylar davlati davrida madaniy hayot rivojlandi. X asrning 2-yarmida Somoniylar davlati kuchsizlanib bordi, hokimiyat qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar o'rtasida bo'linib ketdi. XII asrda esa xorazmshoxlar sulolasi vujudga keldi. X-XII asrlardagi O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi yuksalishni olimlar Sharq renessansi – Uyg'onish davri deb baholaydilar. Bu davrda ilm-fanning turli sohalarida al-Fargoniy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat ko'rsatdilar va ko'plab yangiliklar, kashfiyotlar qilishga muvaffaq bo'ldilar. Muhammad Xorazmshox (1200-1220) davrida O'rta Osiyo mo'g'ullar tomonidan bosib olindi. Urush O'tror shahrida Chingiz karvoni tanlangani sababi bilan bo'shlanib ketdi. Muhammad Xorazmshoxning o'g'li Jaloliddin va Temur Maliklar Chingizxonga qarshi mardonavor kuraShdilar. Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyodagi madaniy hayotga o'ta salbiy ta'sir etdi. Gullab-yashnab turgan madaniyat johilona tarzda vayron etildi. Mo'g'ullar yag'mosi adabiy hayotga ham zararli ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab iste'dodli qalam sohiblari boshqa o'lkalarga ketib qoldilar. Masalan, buxorolik M.Avfiy, toshkentlik B.Chochiy, qashqadar Yulik Z.Nahshabiylar Hindistonga, balxlik J.Rumi Rum (Kichik Osiyo)ga borib qoldilar. Xo'jandlik K.Xo'jandiy, buxorolik N.Buxoriylar Hofiz va Sa'diylar vatani bo'lgan Eronda yaShab ijod qildilar.

X-XIII asrlarda turkiy adabiyot bilan doimo Yonma-Yon, hamnafas bo'lgan, unga samarali ijodiy ta'sir ko'rsatib kelgan fors-tojik adabiyoti nihoyatda rivojlandi. Bu davrda Rudakiy, Firdavsiy, Umar XayYom, Nosir Xisrav, Amir Xisrav Dexlaviy, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Farididdin Attor kabi zabardast forsigo'y so'z san'atkorlari yetiShib chiqiShdi. Firdavsiy Shoir Dakikiy bo'Shlagan asar – "Shoxnoma"ni bitkazib, nomi jahonga maShxur bo'ldi. Nizomiy o'zining "Panj ganj" deb nomlangan hamsasi bilan hamsachilik an'anasiga asos soldi. X.Dexlaviy nomi ham iste'dodli hamsanavis sifatida tarixda qoldi. U.XayYomning Shuhrati olamga ketgan ruboiylari Shu davrda yaratildi. Hofiz Sheroziy, Sa'diy, F.Attorlarning mazkur davrda ijod etilgan asarlari nafaqat fors-tojik, balki o'zbek adabiyoti vakillari uchun xham asrlar davomida adabiy ta'sir manbai bo'lib keldi.

X-XIII asrlardagi turkiy adabiyotning nodir namunasi Mahmud QoShg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridir. U XI asrda yaratilgan. Asar muallifi M.QoShg'ariy balasog'unlik bo'lib (bobosi QoShg'ardan bo'lgan) Samarqand, Buxoro, Marv, Bag'dodda taxsil ko'rgan. U o'z davrining eng atoqli tilshunoslaridan bo'lgan. M.QoShg'ariyning "Javohirun-nahv fi lug'otit turk" ("Turkiy tillar sintaksisi durdonalari") va

“Devonu lug’otit-turk” asarlaridan keyingisigina bizgacha yetib kelgan. U XX asr boShlarida Istambuldan topilgan. O’zbek tiliga olim S.Mutallibov tomonidan tarjima qilingan. Muqaddimada M.QoShg’ariy asarining YoziliSh tarixi, usuli va quriliShi haqida ma’lumot beradi. Lug’at qismida olti mingdan ortiq turkiy so’zning ma’nosini arabcha izohlaydi. So’zlarni izohlaShda muallif uch yuzga yaqin She’riy parcha, maqol va hikmatli so’zlardan badiiy misol sifatida foydalangan. Ana Shu hol asarning adabiy qimmatini belgilaydi.

Tasavvuf bir necha asrlik tarixga ega va Sharq badiiy adabiYotida muhim o’rin egallagan falsafiy ta’limotdir. Uning ilk kurtaklari VII-VIII asrlarda Shaqllanib, X-XII asrlarga kelib rivojlangan, sistemalaShgan, o’zining bir nechta Shaxobchalariga ega falsafiy maslak va oqimga aylandi. Ibn al-Arabiy, Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Boyazid Bastomiy, Abubakr Shibliy, Mansur Xalloy kabi yirik mutasavviflar yetiShib chiqdilar. Sharq adabiYoti, jumladan, o’zbek mumtoz adabiYotiga ham tasavvuf g’oyalari chuqur o’rnaShgan. O’tmiSh adabiYoti vakillari u Yoki bu darajada o’z asarlarida sufiYona g’oyalarni ilgari so’rganlar. Shuning uchun ham tasavvufini bilmay turib, o’zbek mumtoz adabiYotini chuqur o’rganib bo’lmaydi. Tasavvufning bir qancha oqimlari – tariqatlari mavjud. M-n, kubraviya, mavlaviya, qodiriya, malomatiya, naqShbandiya kabi. “Tariqat” “Yo’l” demakdir. Barcha tasavvuf tariqatlarini birlaShtirib turuvchi jixat – ularning hammasida ma’lum bir Yo’l orqali ma’naviy komillikka eriShiShning asosiy maqsad ekanligidir. Buning uchun tasavvuf Yo’liga kirgan kiShi – soliq quyidagi bosqichlarni bosib o’tiShi kerak:

1. Shariat.
2. tariqat.
3. ma’rifat.
4. haqiqat.

XIII asr oxiri XIV asr boShlarida Shakllangan naqShbandiya ta’limoti ijtimoiy faol haYot tarzini targ’ib etuvchi tasavvuf oqimidir. U “dil ba Yoru dast bakor” degan qoidaga asoslanadi (ya’ni, diling xudoda-yu qo’ling iShda bo’lsin).

Tasavvuf adabiYoti Jaloliddin Rumi, Farididin Attor, Ahmad Yassaviy kabi o’nlab maShhur namoyandalarini yetiShtirdi.

O’zbek adabiYoti o’zining taraqqiYot bosqichida arab, fors-tojik xalqlari Yozma adabiYoti va og’zaki ijodi bilan uzviy rivojlanib keldi. Bu xalqlar adabiYoti faqatgina til nuqtai nazaridagina farq qiladi. Obrazlar tizimi, badiiy -tasviriy vositalarga ko’ra fors-tojik va turkiy adabiYot orasida keskin farqlar ko’zga taShlanmaydi. Sharq adabiYotining bilimdoni E.Bertels bu haqda Shunday Yozgan edi: «Aslida biz mavzu, uslub, taShqi ko’rinishi bir xil faqat tildagina farq bo’lgan yagona adabiYotga egamiz.»

X-XII asrlar O’rta OsiYo xalqlarining madaniy taraqqiYotida katta o’rin egallagan yangi bir bosqich bo’ldi. Bu davrda O’rta OsiYo jahon madaniyati taraqqiYotining yirik va markaziy o’chog’iga aylandi. O’rta OsiYo olimlari jahon ilm-fanini o’z kaShfiYotlari va o’lmas asarlari bilan boyitdilar. Bu davrda madaniy haYotning tasviriy san’at, me’morchilik, musiqa kabi sohalarida ham katta yutuqlarga eriShdilar. Rus olimi N.I.Kondrat ham, g’arbdagi eng yirik eronShunos va adabiYotShunos E.Braun ham bu davrni haqli raviShda „Sharq uyg’oniSh davri“ deb ataShgan.

Boy madaniy-adabiy an’analarga ega bo’lgan xalqimiz Sharqdagi ko’pgina qo’Shni-qardoSh xalqlar bilan yaqin aloqada bo’lib kelganliklarini ko’ramiz. Turli etnik qatlamlarga mansubliklaridan qat’iy nazar o’zbek,tojik,ozarbayjon va Sharqdagi qator boShqa xalqlar asrlar davomida deyarli bir xil siYosiy-ijtimoiy Sharoitda yaShaganlar, zulm va zo’ravonlikka qarShi birgalaShib boSh ko’targanlar. Bu xalqlar o’rtasidagi madaniy-adabiy aloqalar Shu zaminda paydo bo’lgan va rivojlangan.

X-XII asrlar Sharq xalqlari o’rtasidagi munosabatlarning ancha jonlangan davri bo’ldi. Ular o’rtasida qadimdan davom etib kelgan bir-biridan iShlab chiqariSh madaniyatini o’rganiSh, bu davrga kelib aniq fanlar,Shuningdek falsafa,tarix,mantiq fanining yutuqlaridan ham bahramand bo’liSh bilan tobora kengayib

bordi. Somoniylar davrida Buxoroda Muhammad Bal'amiy tomonidan arab tarixchisi Abu Ja'far Muhammad bin Jarir Tabariy (838-923)ning „Tarixi rusul va muluk“ asarini fors tiliga tarjima qildi. Davlatshoh Samarqandiy (XV) o'zining „Tazkirat uSh- Shuaro“ asarida arablarning islomgacha ham boy poeziyaga ega bo'lish bilan birga ularning ko'plari fors tilida ham She'rlar Yozganligi haqida ma'lumot beradi.

IX-X asrlardan bo'shlab, ya'ni O'rta Osiyo va Eronda mahalliy Somoniylar davlati vujudga kelgan davrdan bo'shlab fors-tojik tilidagi adabiyot keng ko'lamda taraqqiy qildi. Bu davrda Somoniylar davlatining Xuroson, Hirot, Balx, Gurgon kabi siyosiy markazlarida adabiyot ancha jonlangan edi. „OdamiSh Shuaro“ Abu Abdullo Ro'dakiy, Firdavsiylar asos qo'ygan fors-tojik adabiyoti O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar uchun nihoyatda yaqin edi. Fors-tojik adabiyotining bu davrda ya'shab ijod qilgan Daqiqiy, Unsuriy, Asadi Tusiy, Salmon Sovajiy, Sa'diy, Hofiz, Umar Xayyom, Zokoniylar kabi namoyandalarning asarlari o'zbek nazm muxlislari orasida ham tarqalgan edi.

Prof. Ye. Bertels, prof. I. S. Braginskiy kabi rus Sharqshunoslari, A. Fitrat, Sadridin Ayniy singari o'zbek olimlari bu davr adabiyoti, xususan, o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi ijobiy aloqalarni o'rganish yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar.

X-XII asrlar o'zbek adabiyotida fors-tojik tilida yaratilgan asarlarning ildizlari uchraydi. XI asrning ko'zga ko'ringan olimi Mahmud Qo'shg'ariyning „Devonu lug'atit turk“ asarida keltirilgan parchalarda ham shu narsa ko'zga ta'shlanadi. Asarda Iskandarning turli Sharq mamlakatlariga yurishlarini bayon qiluvchi hikoyalar mavjud. Ana shu hikoyalarda Iskandar o'rni-o'rni bilan tojikcha gapiradi (Chigil qabilasi va uyg'urlar haqidagi hikoyalar) «Qutadg'u bilig» asarining muallifi Yusuf Xos Hojib fors-tojik adabiyoti, tarixining ham chuqur bilimdoni edi. Adib «Qutadg'u bilig»da o'zining siyosiy-axloqiy qarashlarini bayon etish jaryonida Firdavsiyning «Shohnoma»siga murojaat qiladi. Masalan, adib odil va zolim podshohlar haqida gap ochib, Firdavsiy asaridan Faridun va Zahhok obrazlarini misol kelitiradi. Ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yi'sh bilan o'z fikrlarini ravshanlashtirishga erishadi. Yusuf Xos Hojib Afrosi'yobni turk beklaridan Tug'a Alp Er (Alp Er Tunga) ekanligini ta'kidlashda yana fors-tojik manbalariga murojaat qiladi. O'zbek muallifi «Tojiklar bitigida bitimish» ma'lumotlariga mo'tabar manba sifatida qaraydi.

X-XII asrlarda fors-tojik tili o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy adabiyoti taqozosiga ko'ra dastlab somoniylar, keyinchalik g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar ta'siri ostida bo'lgan keng hududda katta mavqega ega bo'lgan. Natijada faqat tojiklarning o'zlarigina emas, o'zbek, ozarbayjon, turkman, hatto hind adabiyoti namoyandalari ham o'z asarlarini shu tilda yaratganlar. Shunday qilib, bu davrda fors-tojik tilidagi adabiyot taraqqiyotida o'zbek, ozarbayjon va bo'shqa xalqlarning ham hissasi mavjud. Muhimi shundaki, shu umumiy jaryonda, lirika, epik poeziya keng taraqqiyot yo'liga chiqib oldi. Agar biz Ro'dakiy, Sa'diy, Hofiz ijodlari misolida g'azalchilikni mustaqil janr sifatida shakllanib, taraqqiy etib borganligini kuzatsak, Firdavsiyning «Shohnoma»si, Nizomiyning «Panj ganj»i misolida qahramonlik, didaktik va ishqiylar romantik dostonchilikning ilk yetuk namunalari ko'ramiz.

Shunday qilib, XII-XIV asrlar davomida taraqqiy etgan fors-tojik tilidagi adabiyot adabiy aloqalar tarixida katta bir davrni ta'skil etdi. Badiiy ijodda fors-tojik tilining keng ko'lamda qo'llana bo'shlanganligi ikki tilda ijod etish an'anasini keltirib chiqardi.

Sobir Termiziy, Badridin Chochiy, Pahlavon Mahmud kabi ijodkorlar esa o'z asarlarini asosan fors-tojik tilida yaratdi va bu tildagi adabiyot taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

### **Yu. X. Hojibning „Kutadgu bilig“ va A. Yugnakiyning „Hibatul-xaqoyiq“ dostonlari**

„Qutadg'u bilig“ („Baxt-saodatga Yo'llovchi bilim“) dostoni quyidagi syujet asosida yaratilgan. Kuntug'di degan podshoh bo'lib, u adolati bilan mashhur edi. Unga Oyto'ldi degan donishmand vaziri Yo'l-Yo'riq ko'rsatar edi. Uning o'g'li Uzgulmish otasidan keyin vazirlik o'rnini egallaydi. Podshoh bir kuni tarki dunyo qilgan Uzgurmish ismli kishi haqida xabar topib, uni chaqirtiradi va suhbatlashadi. Ularning savol-javoblari,

munozaralari asarda hikoya tarzida berilgan. Dostondagi Kuntug'di-adolat, Oyto'ldi-davlat, UgdurmiSh-aql, UzgurmiSh-qanoat ramzidir.

"Qutadg'u bilig" 65000 baytdan iborat bo'lib, unda ijtimoiy, falsafiy, axloqiy masalalar ko'tarilgan. Har bir bob ma'lum bir mavzuga bag'iShlangan. Masalan "Til odobi" Yoki "Beklar qanday bo'liShi haqida" kabi. Ilm-ma'rifatga asarda alohida ahamiyat berilgan. Yui.X.Hojib ilmga saodat kaliti deb qaraydi, olimlarni ulug'laydi, har bir iShda ilmga asoslaniShni targ'ib qiladi. Olimlarni qadrlaSh haqida Shunday deydi:

Ularni qatig' sav, og'irla so'zin,

Biliglarin o'gran o'quSh Yo izin.

ya'ni: Ularni qattiq sev, so'zlarini qadrla,

Ko'pmi Yoki ozmi bilimlarini o'rgan.

"Qutadg'u bilig" odob va axloqqa doir qimmatli pandnoma asardir. Yu.X.Hojib til odobi, halollik, rostgo'ylik kabi masalalarda ibratli fikrlarni aytadi. Yaxshi so'zni har qanday moddiy boylikdan ustun qo'yadi. Insonning baxti ham, baxtsizligi ham tili tufayli ekanligi haqida Shunday deydi:

KiShi til og'irlar bo'lur qut kiShi,

KiShing til o'juzlar: yarir ar baShi.

ya'ni: KiShini til e'zozlaydi, kiShi u tufayli baxtga eriShadi,

KiShini til qadrsiz qiladi: (u) er boShini Yoradi.

Asarda turli ijtimoiy tabaqalar-olimlar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, elchilar, munajjimlar, tabiblar va boShqa kasb egalari haqida so'z yuritilib, ularning jamiyat haYotidagi o'rni, mas'uliyat va vazifalari, yuriSh-turiSh, fe'l-atvori qanday bo'liShi haqida nasihatlar qilinadi.

"Qutadg'u bilig" XI asr turkiy adabiYotining qimmatli Yodgorligidir. U turkiy tilda yaratilgan birinchi yirik Yozma badiiy asardir. Dostonda ko'plab xalq maqollari va hikmatli so'zlar qo'llangan bo'lib, ular asarning g'oyaviy mazmunini boyitgan, badiiy qimmatini oShirgan. Asarda orginal timsollar, o'xShatiShlar, badiiy ifodalar mavjud. U masnaviy Shaklida (qofiyalaniShi aa, bb, vv ...) mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur) vaznida yaratilgan. Ruknlari: fauvlun, fauvlun, fauvlun, faul (fauvl).

Turkiy Yozma adabiYotning yana bir nodir Yodgorligi A.Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asaridir. A.Yugnakiyning haYoti va faoliyati haqida juda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Taxminlarga ko'ra, "Hibatul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") XII asrning oxirlari va XIII asr boShlarida yaratilgan. U Dod-Sipohsolar degan hukmdorga bag'iShlangan. Asarning o'zidan olingan ma'lumotlardan aYon bo'ladiki, Shoirning nomi Ahmad, otasining ismi Mahmud, tug'ilgan yerining nomi Yugnak bo'lgan. Uning ko'zi tug'ma ojiz bo'lgani to'g'risida "Hibatul-haqoyiq"da Shunday deyilgan:

Tug'a ko'rmas edi adibning ko'zi,

Tuzatti bu o'n turt bob ichra so'zi.

A.Navoiy, "Nasoyimul - muhabbat" asarida A.Yugnakiyini eslab o'tgan va uning ko'zi ojiz bo'lsa-da, qalb ko'zi sog'lom kiShilarnikiga qaraganda ravShanroq ekanligini aytgan.

"Hibatul-haqoyiq" dostonida ko'tarilgan masalalar quyidagi sohalarga oid:

1. Ilm-ma'rifat.
2. Adab-axloq.
3. Din va Shariat.

Dostonning markaziy masalalaridan biri ilm-ma'rifatdir. Shoirning fikricha, baxtu saodatga bilim bilan eriShiShi mumkin.

Bilik birla bilnur saodat Yo'li,

Bilik bil, saodat Yo'lini bula (izla).

A.Yugnakiy Shirinso'zlik, saxiylik, kamtarlik, ezgulikni ulug'laydi, Yolg'onchilik, baxillik, takabburlikni esa, aksincha, qoralaydi. FoniY dunYoning hoyu havaslariga berilmaslikka, dunYoda ezgu amallar bilan yaxShi nom oliShga chaqiradi.

"Hibatul-haqoyiq"da badiiy til vositalaridan unumli foydalanilgan. TaShbih, tazod, istiora, taShxis kabi badiiy san'at namunalari yaratilgan. Xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanilgan. Doston "Qutadg'u bilig" kabi mutaQoribi musammani maxzuf (maqsur) vaznida bitilgan.

### **Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy ijodi**

Ahmad Yassaviyning tug'ilgan yili ma'lum emas. U Yassi (Sayram)da Shayx Ibrohim xonadonida tavallud topgan. Yetti YoShida otasidan yetim qolgan. Buxoroga kelib, Yusuf Hamadoniydan tasavvuf ilmini o'rgangan. Ahmad Yassaviy tasavvufda Yassaviy (jahriya) tariqatining asoschisi hisoblanadi. Rivoyatlarga qaraganda Yassaviy payg'ambar YoShida -63 YoShdan ortiq umr ko'riShni naravo deb bilib, yerto'lada yaShaShni ixtiYor qilgan va 130 yil umr ko'rgan. Ilmiy adabiYotlarda u 1166 yilda vafot etganligi aytiladi.

A.Yassaviyning adabiy merosi "Hikmat"lardan iborat, She'rlar to'plami esa "Devoni hikmat" deb nomlanadi. Devonning ko'plab qo'lyozma va toShbosma nusxalari mavjud.

Tasavvuf - Yassaviy ijodining g'oyaviy negizi. Shoir haqiqiy iShq dardi bilan yaShaShga, nafsning xohiSh-istaklarini yengib, ma'naviy takomilga eriShiShga da'vat etadi. Tavba tazarru, sabr-toqat, xavf va tavakkul kabilar Yassaviy She'riyatida tarannum etilgan insoniy fazilatlaridir. Uningcha, ilohiy dard insonni tarbiyalaydi, johillikdan qutqaradi.

Dardsiz odam odam ermas, muni anglang,

iShqsiz odam hayvon jinsi, muni tinglang.

Nafs so'ziga quloq tutgan kiShi oxir oqibatda insonlik qiYofasidan mahrum bo'ladi. Dinu diYonatga xilof iShlarga qo'l uradi:

Nafs Yo'liga kirgan kiShi rasvo bo'lur,

Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.

Yassaviy gunoh iShlardan o'zni tiyiShga, halol mehnat bilan topilgan rizqqa qanoat qiliShga, molu dunYoga hirs qo'yimaslikka, "dunYoparast nojinslardan" bo'lmaslikka chaqiradi. Yassaviy ilohiy ma'rifat sohibi bo'liShga da'vat etadi, ilmu irfonga intilmaslikni nodonlik sanaydi.

Duo qiling nodonlarni yuzun ko'rmay,

Haq taolo rafiq bo'lsa birdam turmay.

Bemor bo'lsa nodonlarni holin so'rmay,

Nodonlardin yuz ming jafo ko'rdum mano, - deydi u hikmatlaridan birida.

Yassaviy hikmatlari bizgacha aynan yetib kelgan emas. "Devoni Hikmat"ning nusxalari ham bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Undagi She'rlar qisman g'azallardan, asosan xalq orasida tarqalgan to'rtliklarga o'xShaSh murabba' Shaklidagi She'rlardan taShkil topgan. Ular ko'proq a a a b v v v b Shaklidagi kifoyalangan. Hikmatlarning asosiy qismi barmoq vaznida yaratilgan bo'lib, 7 va 12 xijoladir.

Hikmatlar ravon, sodda, tuShunarli, xalqona tilda Yozilgan. Yassaviyning hikmatnavislik an'anasi uning Shogirdlari, muxlislari tomonidan davom ettirildi. Ular orasida, ayniqsa, Sulaymon Boqirg'oniy ijodi alohida diqqatga sazovordir.

Sulaymon Boqirg'oniy ilm-fan, adabiYot va ijtimoiy taraqqiYot markazlaridan bo'lgan Xorazmning Boqirg'on kasabasida dunYoga kelgan. Tug'ilgan yili aniq emas, vafoti taxminan 1186 yil deb belgilangan. U Haqim ota nomi bilan ham maShhur bo'lgan. Uning She'rlari Turkiston xalqlari orasida sevib o'qilgan. Husayn Voiz KoShifiy, AliSher Navoiylar o'z asarlarida S.Boqirg'oniy nomini zikr etganlar.

S.Boqirg'oniy tasavvufga ham, She'riyatda ham Yassaviy an'alarini davom ettirgan. Uning She'rlari "Boqirg'on kitobi" nomi bilan to'plam qilingan. Shoirning adabiy merosi "Oxir zamon" va "Bibi Maryam kitobi" nomli ikki She'riy dostonni ham o'z ichiga oladi. Ta'kidlanganidek, Boqirg'on She'rlari ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan Yassaviy hikmatlari bilan hamohangdir. Shoir lirik qahramonining haYotdan maqsadi - iShq- ma'rifatdan bahra topiSh. U Shu niyat Yo'lida har qancha iztirob chekiShga, ranju balolarni qabul qiliShga tayYor. U dunYoning moddiy boyliklaridan kechib, ko'nglini Yolgiz haqqa bergan, bu Yo'lda jonini ham fido etgan oShqdir.

OShiqdin surmangiz dunYovu uqbo,

OShiq ma'Shuq uchun har doim o'lodur.

OShiqni kuydurur iShq o'ti,

OShiqlar iShq o'tiga muftalodur.

Shoir inson farzandini kamsitmaslikka, uni e'zozlaShga chaqiradi. "Har kim ko'rsang Xizr bil, Har tun ko'rsang qadr bil", deydi u.

### **ABULQOSIM FIRDAVSIY**

Abulqosim Firdavsiy nomi jahonga maShhur bo'lib,Sharqda ming yildan beri kiShilar zavqi Shavqini qo'zg'ab kelmoqda.Yevropa kitobxonlari qalbini asir etganiga ham ikki asr bo'ldi. Shoirga boqiy umr etgan asar "Shohnoma"dir.Bu asar "Shohnoma"- "Shohlar kitobi" deb atalgan. "Shohnoma" "Shohlar haqidagikitob " sifatida emas, xalqning orzu-umidlarini ifodalagan. "Shoh kitob" sifatida Shuhrat qozondi. U faqat forsiy tilda so'zlaShuvchilar orasidagina emas, balki butun O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, bora-bora butun jahon Shuhratiga sazovor bo'ldi. Zamonlar o'zgardi,ammo "Shohnoma"ning Shuhrati so'nmadi.Aksincha, bu Shon-Shuhrat yillar o'tgan sayin barq urib yaShnab bormoqda. "Shohnoma" dunYoning turli tillariga tarjima qilinib, yaratiladigan san'at asarlariga ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Abulqosim Firdavsiy 940-941-yillar atrofida Xuroson o'lkasining poytaxti Tus Shahri yaqinidagi Boj qiShlog'ida tug'ilgan. "Uning ota-bobolari yer-suvini Yo'qotib,kambag'allaShib qolgan dehqonlardan edilar"( Sh.Shomammedov.Shoh kitob."Shohnoma" asariga so'z boShi.T.1975).Firdavsiy iqtisodiy qudrati bilan mamlakatda siYosiy mavqyeni qo'ldan bergan zodagonlar tabaqasining vakili edi.

Somoniylar saltanatining inqirozga Yo'z tutgan davri haqida Firdavsiy Shunday Yozadi:

Zamona sarosar chunon jang edi,

Toju taxt deganga jahon tang edi.

Bir tomondan Somoniylar davlatining ichki qarama-qarShiliklari kuchaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan dehqonchilik mulklariga ko'chmanchilar hujumi avj olgan edi. Ko'p yillik harbiy xizmatni o'tagan Shoir xalq og'zaki ijodini ham chuqur o'rgandi. ."Shohnoma" asarini 35 yil davomida Yozadi. Lekin tortiq etiShga munosib kiShi topa olmaydi. So'ng G'aznada o'z saroyiga olimlar va adiblarni to'plaYotgan Mahmud

G'aznaviyning tanlaydi, Shohga bag'ishlov Yozib, dostonni taqdim etadi.

Ulug' Shoir butun umrini sarflab Yozgan Shoh asarning qadriga yetmagan mahmud G'aznaviy va'da qilingan oltinlar o'rniga kumuSh tangalar beradi. Bundan g'azablangan Shoir Shohni pastkaShlikda ayblab, hajviya Yozadi. Mahmud in'om etgan tangalarni Shoir Sharbat sotuvchiga, hammom xodimiga bo'lib beradi. Rivoyatga ko'ra Shoh uni fil o'Yog'i ostiga taShlaSh haqida farmon beradi, lekin Fidavsiy uzoq yurtlarga qochib ketadi. Keksalik chog'ida ham quvg'inda yurib azob chekadi. Shohlar nomini tilga olmaslikka qasam ichib, "Yusuf va Zulayho" dostonini Yozadi. Vataniga qaytiSh orzusi bilan yaShagan, 80 dan oShib qolgan horg'in Shoir Bog'dodda yaShar edi. Qur'ondan olingan syujet asosida bu dostonni YoziShga majbur bo'lganini ta'kidlab o'tadi. Keksa Shoir umrining oxirida o'z vataniga kelib Tusda vafot etadi. Lekin ruhoniylar uni Shakkoklikda ayblab, musulmonlar mozoriga uning xokini qo'yiShga joy bermaydilar. 1025-yili Firdavsiyning jasadidan qolgan bog'ning bir chekkasiga dafn etildi.

Abulqosim Firdavsiydan bizgacha to'rt ming yillik tarixni o'z ichiga olgan "Shohnoma" asari va Qur'on qissalari asosida Yozilgan "Yusuf va Zulayho" dostoni yetib kelgan. Shoirning haYoti va ijodiga doir ma'lumotlar juda kam. OltmiSh ming baytni o'z ichiga olgan "Shohnoma" ni YoziShda Shoir o'z oldiga O'rta OsiYo, Eron xalqlari eposini chuqur o'rganib, to'rt ming yillik afsonaviy va haqiqiy tarixni o'zida mujassamlaShtirgan asar yaratishni maqsad qilib qo'ygan edi. Firdavsiy bu vazifani san'atkorlarga xos istedod bilan bajarib, Shoh asar yaratdi. Ulug' nemis Shoiri GYote: "Firdavsiy Eronning afsonaviy va tarixiy o'tmiShini Yozgach, keyingi avlodlarga umumiy gap va ba'zi talqinlardan boShqa hech narsa qolmadi",- deb qayd qilib o'tadi o'zining "G'arbi-Sharqiy devon"iga Yozgan Sharhlarida.

"Shohnoma" tadqiqotchilaridan prof.E.E.Bertels ko'rsatganidek, "X-XI asr boShlaridagi poeziya qanchalik porloq bo'lmasin, u genial Shoir Firdavsiyning "Shohnoma" dostoni oldida xiralaShib qoladi".

Bu ulkan dostonning ufqi Shunday keng, tubi Shu darajada chuqurki, uning boyligini, butun javohirini ta'riflab berolgani Yo'q.

Eron qahramonlik eposini bir kitobga yig'ish an'anasi Sosoniylar hukumronligi davri III-VII asrlarda vujudga kelgan. X asrda O'rta OsiYo va Xuroson qahramonlik eposi rivoyatlari to'planib, fors tilida kitob qilingan.

Abul Muayyad Balxiy (X asr) tomonidan yaratilgan, to'rt olim tomonidan Yozilib "Shohnomai mansuri" nomi bilan maShhur bo'lgan (957-yilda) nasriy Shohnomalar va Abu Ali Muhmmad ibn Ahmad Balxiy va Masudi Marvaziylarning She'riy "Shohnoma"si (966-yildan oldin yaratilgan) haqida ma'lumotlar bor. Ammo ular bizgacha yetib kelmagan. 977-yilda o'ldirilgan Abu Mansur Daqiqiy "Shohnoma"si bizgacha yetib kelgan. Chunki Daqiqiy Yozib ulgurgan ming baytni Firdavsiy o'z asariga kiritgan edi.

"Shohnoma"-o'lmas asar, noYob durdona hisoblanadi. She'riy Shaklda yaratilgan bu asar xalq tiliga yaqin sodda, ixcham bo'lishi bilan birga, g'oyatda falsafiy teran muShohadalari bilan kiShini hayratda qoldiradi. Asarda 50 podSholik tasvir etiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari rivoyat, afsonalaridan keng foygalanilgan. O'z zamonasining doniShmandlaridan biri bo'lgani uchun Shoir "hakim" laqabini oladi. "Shohnoma"ning batartib yaxlid asarga aylaniShida xalq yaratgan afsona va rivoyatlardan asar g'oyasini ochib beriShga xizmat qiladiganlarini oliShda ham Firdavsiy nihoyatda yuksak iste'dot, noYob qobiliyat egasi ekanini namoyon etadi. Asarda O'rta OsiYo va Eron xalqlarining bosqinchilarga qarshi el-yurtning baxtli taqdiri uchun kuraShlari o'z ifodasini topgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, o'tmiShni o'rganmay turib, kelajakni tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz bu asarni o'rganish orqali o'tmiShda yaShagan ajdodlarimiz madaniyatini, o'rganamiz.

Fidavsiy "Shohnoma"si o'lmas durdona ekanligining yana bir sababi, uning xalqchilligidadir. Garchi "Shohlar haqida" kitob bo'lsa ham, xalqning orzu- armonlarini ifodalaydi. "Shohnoma"da tasvirlangan 50 Shohning ba'zilariga minglab bayt, ba'zilariga 10-20 bayt bag'ishlanadi. Doston "Shohnoma" uchun qonunlaShtirilgan bo'lib, har bir Shohlik davrining tavsifi debocha, asosiy qism va xotimadan iborat. Rustam, Suxrob, Kova, IsfandiYor, Bahrom, SiYovuSh, Mazdak va boShqalar asarning qahramonlaridir.



“Shohnoma”da boSh qahramon Seyistonlik bahodir Rustami dostonidir. Rustam maShhur Eron pahlavoni , harbiy kuchlarning tayanchi, yengilmas va mag'rur bahodir, o'z yurtiga, Shohiga sadoqatli. Asarning boSh g'oyasi -vatanni ulug'laSh, xalq qudratini ko'z-ko'z qiliShdir.

XVII asr boShlarida “Shohnoma”dan olingan “SiYovuSh” dostoni o'zbekchaga tarjima qilingan. XVIII asrda esa bu kitob Shoh Hijron, Mulla Xomumiyy, Nurmuhammad Bahodiriylar tomonidan tarjima qilingan. Prof. Sh.Shomammedov “Shohnoma”ni o'zbekchaga mukammal tarjima qilgan. Fors-tojik Shoiri Tusiy (XI asr) “GerShaspnoma” asarini, Lutfiy (XV asr) “Zafarnoma” asarini “Shohnoma”dan ilhomlanib Yozgan.

“Shohnoma” mutaqorib bahrining maxzuf va maqsur tarmog'ida Yozilgan. Uning ruknlari faulun, faulun, faulun, faul Yoki faul (V - - V - - V - - (Yoki V - )) deb belgilangan. “Shohnoma” vaznini xalq og'zaki ijodida 11 lik barmoqda ijro etilaYotgan vaznda yaratilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Firdavsiyning ulkan “Shohnoma” dostoni avlodlar xotirasida mangu yaShaydi. Chunki Shoir insonni, butun mavjudotni eng barkamoli, taraqqiYot cho'qqisi deb ta'riflaydi.

Zanjirning oxirgi xalqasi inson,

U - kalit, bandlarni ochadi oson.

Sarvdek tik, boShini ko'tarmiSh mag'rur,

Borlig'i - yaxShi so'z, ruhu tafakkur.

Aql birla idrok faqat unga Yor,

Butun tilsiz olam farmoniga zor.

### **ABU ABDULLOH JA'FAR RO'DAKIY**

X-XII asrlarda fors-tojik tilidagi adabiYot juda katta yutuqlarga eriShdi. Tojik, eron va ozarbayjon xalqlaridan Ro'dakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Robia, Maxastixonim, Asadi Tusiy, Nosir Xusrav, Nizomiy Ganjaviy kabi eytuk so'z san'atkorlari eytiShib chiqdi. Buxoro, Termiz, Samarqand, Marv, Xorazm, NiShopur hamda Balx, Shirvon kabi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida yaShab ijod etgan va Shuhrat qozongan bu adiblar jahon adabiYoti xazinasini nodir asarlar bilan boyitdi.

O'zbek va tojik xalqlari qadimdan o'zaro YondoSh va qondoSh bo'lib yaShaganlar. O'zbek bilan tojikning kuylasa cholg'usi bir, yig'lasa qayg'usi bir deyiladi bobolardan qolgan bir hikmatda.«Ulug' ajdodlarimiz qoldirgan merosni o'zaro talaShmasdan , undan ma'naviy oziqlanib, bir chaShmadan suv ichgandek, har ikki xalq, ikki millat barobar bahramand bo'liShini ta'minlaSh , taShkil etiSh barchamiz uchun ham qarz, ham farz »- deb ta'kidlagan edi yurtboShimiz I.Karimov.(I.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T., 1999. 104-bet)

«OdamuSh-Shuaro»-Shoirlarning Odam Atosi nomi bilan Shuhrat qozongan

Abu Abdulloh Ja'far Ro'dakiy taxminan 860 yilda Samarqand yaqinidagi Panjrudak qiShlog'ida dehqon oilasida dunYoga kelgan. Ro'dakiy boShlang'ich ma'lumotni o'z qiShlog'ida oladi. O'z zamonasining maShhur cholg'uchisi Abul Abbos BaxtiYor qo'lida musiqadan ta'lim oladi. YoShligidan chang chaliSh , qo'Shiq aytiSh bilan Shuhrat qozonadi. So'ng Samarqand madrasasida tahsilni davom ettiradi. She'riyatga ixlos qo'ygan Ro'dakiy bu eyrda chuqur bilim olib , adabiYot va san'at sohasida dong chiqaradi.

Buxoro hukmdori Nasr 11 ibn Ahmad Somoniy (914-943) davrida Shoirning

Shuhrati Sharqqa , jumladan Buxoroga keng tarqaldi. Ro'dakiy She'riyatiga erkin obrazlilik, tabiatni seviSh, uni jonli tasavvur va tasvir etiSh , xalqona soddalik va musiqiylik, islomgacha bo'lgan davrlardagi poetik

obrazlarga moyillik xosdir.

O'z davrining ko'zga ko'ringan somoniylar davlatining yirik vakili Abufazl Bal'amiy Ro'dakiy haqida Shunday ma'lumot beradi: «U faqat maShhur Shoir bo'libgina qolmay, balki o'z davrining yetuk olimi ham edi». Ro'dakiy somoniy hukmdorlar hurmatiga sazovor bo'lgan bo'lib, davlat boShliqlari unga moddiy Yordam ko'rsatib turiShgan. Shu tufayli u katta boylikka ega bo'lgan. Lekin Ro'dakiy butun diqqat e'tiborini She'riyat va fanga qaratdi. Qadimgi manbalarda uning «Oftob davroni», «Arois an- nafis» («Nafis kurtaklar»), va «Sindbandnoma» dostonlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

To'rtlik va ruboiylarning dastlabki ijodkori ham Ro'dakiy bo'lgan degan fikrlar bor. Bu fikrlarda jon bor, albatta. Fors-tojik poeziyasidagi ruboiylar taraqqiyotida Ro'dakiyning ulkan xizmati borligi a'yon. Bizgacha adibning «Qarilik haqida qasida» si, «Modari may» (May onasi) qasidasi, «Bo'yi jo'yi Mo'liYon» g'azali va bir necha ruboiylarigina to'liq holda yetib kelgan. Uning boShqa asarlari ayrim parchalar tarzidagina saqlangan. Masalan, «Kalila va Dimna» dostonini manbalar 12 ming baytdan ortiqroq hajmda bo'lganini ko'rsatadi. Bizga uning 1000 misrachasi ma'lum xolos.

Lekin mavjud qismlarning o'ziYoq uning mutafakkirligi va kuchli poetik mahoratidan dalolat beradi. Har holda u fors-tojik adabiYotidagi g'azal janrining paydo bo'liShi, ShakllaniShi va rivojida ham alohida o'rin tutadi.

Ro'dakiyning barcha asarlarida xalqning orzu-umidlari, manfaatlari o'z ifodasini topgan. U dastlabki She'rlaridanoq inson va tabiat go'zalliklarini kuyladi. DoniShmandlik asosida mehnat va hunarni madh etdi. Qasidalarida Shohlarga adolat, saxovatning mamlakat taqdiridagi o'rnini targ'ib qildi.

Shoir asarlari haqida so'z borganda ko'pincha uning «Bo'yi jo'yi Mo'liYon» She'ri ayniqsa ahamiyatli. Bu haqda quyidagi rivoyat ham tarqalgan.

Somoniylar amiri Nasr Hirotda ziYofatlar ichida yuraveradi. Yurtni sog'ingan a'Yonlar amirga ta'sir ko'rsatiShni Ro'dakiydan iltimos qiliShadi. Shunda Ro'dakiy bir ziYofat chog'ida o'zining maShhur «Bo'yi jo'yi Mo'liYon oyad hami» («Dimog'imga Mo'liYon arig'ining hidlari urildi») degan qo'Shig'ini changda ijro etadi. Qo'Shiqdan amir Shunchalik ta'sirlanadiki, yalangoYoq holda otga minib, AmudarYo kechuviga qarab Yo'naladi. G'azalda insoniy his-tuyg'ularning ifodasi chuqur kuylanganligi bilan ajralib turadi.

G'azal Shunday boShlanadi:

Bo'yi jo'yi Mo'liYon oyad hame,

Yodi Yori mehribon oyad hame.

(Mo'liYon arig'ining hidlari (dimog'imga) kelmoqda. Unda mehribon Yor Yodi ham kelmoqda.)

Bu misralar amirning ko'z oldida olmazor bog'larni, Mo'liYon arig'ining suvlarini, ayni paytda uzoqda qolgan Yor va diYor xotirasi uyg'otadi. Keyingi misralarda ona yurt bilan bog'liq bo'lgan yanada nozik va ta'sirli tasvirlar keltirilgan.

«Ro'dakiy kiShiga eng birinchi muallim turmuSh ekannini qayta-qayta ta'kidlagan. Agar kiShi haYotning o'zi bergan o'gitlarini Yodlab olmasa, uni hech kim, hech narsa o'rgata olmasligini ko'rsatadi» (Sh. Shomuhamedov. Abadiylik yalovi. T.1974., 92-93 betlar.)

HaYot saboqlarin etolmasa Yod

Uni o'rgatolmas, hech qanday ustod.

lug' mutafakkir ilm kiShini turli balolardan saqlovchi qalqon deb ko'rsatadi :

Odamlar qalbining charog'i bilim,

Balodin saqlaniSh yarog'i bilim.

oShqalar mehnati soyasida engil haYot kechirib yurgan kiShilar turmuShdan tajriba ololmaydilar, aql idroklari ham kamolga etmaydi:

Qattiq balolarga bardoSh aylagan

Bo'lg'usi fozilu xuShYor ulug'vor.

Shoir kiShilar orasidagi do'stlik va o'zaro hamkorlik jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etiShini ta'kidlab o'tgan. Haqiqiy do'stlik uchun kiShilarning turli dinda bo'liShlari ham halal bermaydi, deb hisoblaydi.

Ro'dakiy asarlarida inson aql zakovati ulug'lanadi. Asarlarining tili, badiiy ifoda vositalari sodda va xalqchil. U birinchi bo'lib fors mumtoz adabiYotiga muhim ta'sir ko'rstganligi uchun eron olimlaridan professor Sayyid Nafisiy fors She'riyatining vatani Movarounnahr deb hisoblaydi. Tabiatni, vatanni tasvirlaSh, axloqiy pand-nasihatlar bilan asarni bezaSh Ro'dakiydan qolgan an'anadir.

Ro'dakiy ijodi o'zining buyuk insonparvarlik va haYotsevarlik ruhi bilan haligacha insoniyat ma'naviyati olamini boyitib kelmoqda. Adibning She'rlari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

## **UMAR XAYYOM**

Go'zal badiiy libos kiydirilgan ma'nolarning tuganmas xazinasini hisoblanmiSh ruboiy janri taraqqiYotini yangi bosqichga ko'targan Shoir, faylasuf, matematik va astranom hamda mohir kosib Umar XayYom 1040 yilda Eronning NiShopur Shahrida tug'iladi. Uning asl ismi Abulfatx Umar binni Ibrohim bo'lib, XayYom uning laqabidir. XayYom - «xayma» - chodir so'zidan olingan bo'lib, chodirdo'z ma'nosini beradi.

YoShligidan ajoyib iste'dod egasi bo'lgan Umar XayYom hisob, handasa, falsafa, jug'rofiya, ilmi hay'at, ilmi nujum, qur'on talqini, tarix, She'riyat, fors va arab adabiYoti kabi fanlarni qunt bilan o'qib o'rganadi. Qadim Yunon falsafasi va boShqa ilmlar bilan ham taniSha boShlaydi. Ilm o'rganiSh maqsadida o'Sha davrning ilm markazlariga boradi. Balx, Buxoro, Samarqand Shaharlarida tahsil oladi.

Olim sifatida Shuhrat qozona boShlagan XayYomni Buxoro hokimi Shamsulmulk o'z saroyiga taklif qiladi. MaShhur tarixchi Bayhaqiy bu haqda: «Xoqon Shamsulmulk Buxoriy imom Umarni katta obro'-e'tibor bilan kutib oldi, uni taxtga - o'z Yoniga o'ltirg'izdi», - deb ma'lumot beradi. (Qarang: Sh. Shomuhamedov. Xazinalar jilosi. T., 1981 y. 123-bet) XayYom Buxoroda ham ilm o'rganiShni davom ettiradi.

Malik Shohning vaziri Nizomulmulkning taklifi bilan olim 1074 yili Saljuqiylar poytaxti Isfaxonga keladi. Qomusiy bilimga ega bo'lgan Umar XayYom sulton saroyida munajjimlik va tabiblik vazifalarini bajaradi. Tarixchi olim Bayhaqiy falsafiy bilimlar bobida Abu Ali ibn Sinoga tenglaShtiradi va uning yuksak iste'dod egasi ekanligini Yozib qoldiradi.

Umar XayYom o'z zamonasida asosan falakkiYot ilmining bilimdoni va riYoziYotchi sifatida ko'proq tanilgan edi. Shu bois uzoq yillar Isfahon rasadxonasini boShqaradi va bu sohada jiddiy ilmiy samaralarga eriShadi. Shuningdek, u 1079 yilda hozirgi kunda amal qilinaYotgan kalendardan ham aniqroq taqvim iShlab chiqqan.

Butun sonlarning ildizini topiSh ilk bor XayYom tomonidan iShlab chiqilgan va fanda joriy etilgan.

Umar XayYom o'zining ilmiy kaShfiYotlari bilan ham manguликka dahldor edi, albatta. Lekin uning nomini Sharqu G'arbg maShhur qilgan narsa- uning She'riyati,yani ruboiylaridir.

Umar XayYom badiiy mahoratida yuksaklik va teranlik muhim o'rin tutadi. Shoir sodda va chuqur mazmunli timsollar , taShbeh va istioralar Yordamida badiiy yuksaklikka va mantiqiy teranlikka eriSha olgan. To'rt misraga g'oyat falsafiy fikrlarni sig'dira olgan . Shoir uslubi nihoyatda sodda, tabiiy , barchaga tuShunarli. Uning ruboiylari nafaqat fors-tojik , balki jahon adabiYotining nodir injularidir.Bir necha dunYo tillariga tarjima qilingan.

Birinchi marta ingliz Shoiri Xerald Fitsjerald uning ruboiylarini tarjima qilib naShr ettirdi.

Umar XayYom adabiy merosi faqat ruboiylardan iborat emas, u arab tilida ham She'rlar Yozgan, bulardan bir necha parchalargina saqlanib qolgan , xolos. 1859 yil Yevropa tillariga tarjima qilingandan so'ng, juda katta Shuhrat qozondi. XIX asrning ikkinchi yarmidaYoq 25 marta bosilib chiqdi. Shu vaqtdan boShlab Shoir ijodiga bag'iShlangan juda ko'p asarlar yuzaga keldi.

Eron olimi Mujtahob Minaviyning «XayYom haqida haqiqiy tadqiqotlar» to'plami ma'lumotlariga qaraganda , faqat 1929 yilgacha Yevropa va Amerikada Shoir Umar XayYom haqida Yozilgan kitoblar va maqolalar soni 1500 dan oShiqroq bo'lgan.Sayyid Nasafiyning YoziShicha , XayYom ruboiylari 32 marta ingliz tiliga , 16 marta frantsuzchaga , 11 marta urdu tiliga , 12 marta nemischaga , 8 marta arabchaga, 5 marta italyan, 4 marta turkiyga va 2 marta rus tiliga tarjima qilingan. Umar XayYom adabiy merosini o'rganiSh borasida rus olimlari V.Jukovskiy , K. Smirnov, A.Bolotnikov, S.Mornchik, M.Zand, frantsuz olimi Nikolas, daniyalik A.Kristensen, nemis olimi F.Rozen va G.Remnis, vengir olimi Sillik, hind olimi Svami Govinda Tirtxa hamda eron olimlari Muhammad Ali Furug'iy, doktor G'aniy, Sodiq Hidoyat, Sayyid Nasafiylarning olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

XayYom ijodini o'rganiShga o'zbek olimlaridan Fitrat, Sh.Shomuhamedov va J.Kamol singari bir qator ilm ahllari tadqiqotlar olib bordi hamda asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib naShr ettirdi.

XayYom ruboiylarida Shoirning voqelikda ko'rganlari , ko'ngilda paydo bo'lgan tuyg'ulari, olam hodisalari haqida fikr va mulohazalari g'oyat siqiq va lo'nda Shaklda o'z ifodasini topgan. Shoir ruboiylaridagi obrazlar va tamsillarni asl ma'nosini anglamay turib , undagi g'oyani tuShunib bo'lmaydi. Qadimgi Shoirilar, asosan, timsollar bilan fikr bildiriShgan. Bor narsani boricha aytib qo'yaveriSh Sharqda san'at hisoblanmagan. She'riy obrazlar ko'pincha Qur'on va Muhammad payg'ambarning hadislariga tayanilgan holda yaratilgan. Shu ma'noda XayYom ruboiylaridagi «may», «mayxo'r», «soqiy» obrazlari ham majoziy ma'noga ega .

Xulosa qilib aytganda , qomusiy bilimlar sohasida Shuhrat qozonib "Risolat ul kavn-vat-taklif" ("Koinot va uning vazifalari"), "Risola fil vujud"("Borliq haqida risola"), "Risola fi-kulliYotu vujud"("Borliqning umumiyliigi haqida risola"), "Risolai jabr" hamda "Navro'znoma" kabi asarlar muallifi Umar XayYom ijodi nafaqat badiiy adabiYot balki, jahon ilm- fanining taraqqiYotiga munosib hissa bo'lib qo'Shilganligi bilan ahamiyatlidir.

## **SA'DIY SHEROZIY**

TurmuSh saboqlarini izlab jahon kezman, mamlakatdan mamlakatga, o'lkadan o'lkaga, Shahardan Shaharga, qiShloqdan qiShloqqa o'tib kiShilar qalbini o'rgangan, haYot hikmatlari durdonalarini yig'ib, so'ng ularga sayqal berib nazm ipiga tizgan jahongaShta Shoir Sa'diy Sheroziydir.

Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn MuShrif ibn Muslih ibn MuShrif Sa'diy Sheroziy 1203-1208-yillar orasida Eronning janubida joylaShgan, Sherozda ruhoniylar oilasida tug'ilgan. U Sharqda Shayx Sa'diy nomi bilan Shuhrat qozongan. Sheroz Shahri fors-tojik adabiYotining ikki g'azalga'y bulbuliga oShYon bo'lgan. Biri Sa'diy Sheroziy bo'lsa, yana biri Hofiz Sheroziydir.

XIII asrda bu o'lkada Solg'uniylar avlodidan bo'lgan fors otabelkari hukmronlik qilardi. Xorazmshohlar yurishi, mo'g'ullar bosqini davrida ham Sheroz omon qoldi. Sababi Sherozning bir oz chetroqda joylashganligi va Sheroz hokimlarining tinchlik siyosati edi. Bu davrda tug'ilgan Sa'diy Sherozda o'sib ulg'aydi. Shoirning otasi MuShrif Sheroziy o'rtamiyona ruhoniylardan bo'lib, Sheroz hokimi Sa'd binni Zangi huzurida xizmat qilardi. Otasi o'g'lini ham ruhoniylikka tayyorlab, uni o'qitib bo'shladi. Sa'diy o'z otasini yumshoq tabiatli, mehribon kishi sifatida tasvirlaydi va uni saboqlarini, vasiyatini eslaydi. Shoir 10-11 yoshlarga yetganda otasi vafot etadi. Sa'diy va ukasiga saroy nafaqasi tayinlangan bo'lsada, oilaviy ahvoli og'ir bo'lgan. Toj - taxt uchun kurash avj olgach, u Bog'dodga ketadi. Sa'diy Sheroziy 1226-yilda Bog'dodning "Nizomiya" va "Mustansiriya" madrasalarida tahsil oldi. 50 yoshgacha dunyo kezib sayohat qildi.

Fors-tojik adabiyoti tarixida Sa'diyning mavqei juda baland. U o'z zamonasining mashhur olimu adiblari: mashhur donishmand mutasavvuf olimlari adib Shahobiddin Suhrovordiy va Abulfaraj Abdurahmon ibn Jazvinlar qo'lida tarbiyalandi.

Bog'dod madrasasini tugatgan Shoir vataniga qaymadi. "Jahongashta er mardu oqil bo'lur" deb ishongan Sa'diy Sharq mamlakatlarini kezdirdi. Eron, Janubiy Ovro'pa, Kichik Osiyo, Arabiston, O'rta Osiyo, Hindiston va Xitoy mamlakatlari bo'ylab 30 yil sayohat qildi. 1292-yilda vafot etgan.

Quddus biyoboniga bosh olib ketganda faranglar qo'lga asir tushadi. Xalab akobirlaridan bo'lgan do'sti uni yahudiylar bilan handak qazayotganini ko'radi va 10 dinor to'lab asirlikdan qutqazadi. Mahri moliga o'zidan yo'z dinor qoshib, o'z qiziga nikohlab beradi. Biroq Shoir bu yomon xulqi xotindan qochib qutuladi. U Yamanda bo'lgan vaqtda Yolg'iz o'g'li vafot etadi. Sa'diy Sheroziy haqida tadqiqotlar olib borgan Rustam Aliyev Shoir haqiqati va ijodini o'rganishda uning asarlari qimmatli ma'lumotlar berishini ta'kidlaydi.

Sa'diy Sheroziy fors-tojik adabiyotini yuksak cho'qqiga ko'targan adiblardan biridir. U birinchi bo'lib g'azal formasini mustaqil janr darajasiga ko'tardi. Sa'diy turli janrlarda juda ko'p asarlar muallifidir. Uning kulliyoti janrlar bo'yicha 19 bobdan iborat bo'lib, unda prozaik va poetik asarlar to'plangan. Sa'diy "Kulliyoti"ga 4 devon (g'azallar to'plami) kiritilgan. "Kulliyot"ga kiritilgan badiiy asarlar ichida eng mashhurlari 1257-yilda yozilgan "Bo'ston" va 1258-yilda yozilgan "Guliston" bo'lib, bular jahon madaniyatining durdonalari hisoblanadi. "Guliston" 8 bobdan iborat. Asar o'ziga xos didaktik hikoyalar va she'riy aforizmlar to'plami sanaladi. Adabiyotshunoslar nazdida fors klassik poeziyasining eng porloq asari Firdavsiyning "Shohnoma"si bo'lsa, nasriy asarlarning eng barjastasi "Guliston" hisoblanadi. (Sh. Shomammedov. Inson tinchligini ko'zlab. T.1981.122-bet). Shoir "Guliston" asarini "munosib bo'lsin, jannat ravzasiga o'xshasin va o'qigan kishi zerikmasin" degan maqsadda 8 bobga taqsim qilganini yozadi. 1-bob "Podshohlar tabiati haqida" deb nomlanib, turli hikoyat va rivoyatlar yordamida shohlarga pandu nasihat qilinadi. 2-bobda darveshlar axloqi, 3-bobda qanoat fazilati, 4-bobda gapirmaslik foydasi, 5-bobda yoshlik va ishq haqida, 6-bobda qarilik va zaiflik haqida, 7-bobda tarbiya ta'siri haqida, 8-bobda suhbat odobi haqida so'z yuritiladi.

O'n bobdan iborat "Bo'ston" ham "Guliston" ga o'xshash, lekin uboshdan-o'yoq she'r bilan yozilgan. Sa'diy "Kulliyoti"da qasidalar bo'limi ham bor, u qasida janrida ham she'r yozgan. Sa'diy ilmu hunar o'rganishga katta e'tibor berib, bu yo'lda har qancha mashaaqqatlardan qochmaslik lozimligini ta'kidlaydi.

Baniy odam ilmdin topmish kamol,

Bekor bunda mansabu, boyligu mol.

Yoki:

Istar esang otangdan meros,

Bog'la otang ilmiga ixlos.

Shoir ilm o'rganiSh bilan birga, unga amal qiliSh lozimligini ham uqtiradi.

Harchand o'qib sen ilmdonsan,  
Agar amal qilmading, nodonsan.  
Ustiga kitob ortilgan eShak -  
Na olim va na donodur, beShak.

Sa'diy ijodiga eronShunos olim I.S.Braginskiy Shunday baho beradi: "Sa'diy o'zining nasihatimiz asarlarini keksalarcha salmoqlanibgina emas, balki chollarcha sudralib Yozdi "(И.С.Брагинский. Из истории таджикской народной поэзии.М.1956). Shoirning axloqiy fikrkari haqida ingliz SharqShunosi Eduard Braun ham o'z fikrini bildirgan. Shoir yaxShilikka qaratilgan Yolg'on-Yomonlik so'zlagan chindan yaxShiroq ,degan fikrni ilgari suradi. E.Braun Shunday Yozadi: "Sa'diy odatda axloq o'rgatuvchi o'qtuvchi Shoir hisoblanadi. Uning etikasi G'arbiy Yevropada qabul qilingan umumiy axloq qoidalaridan farq qiladi ". Bu bilan E.Braun Sharqda Yolg'on gapiriSh mumkin(yaxShilik uchun), ammo G'arbiga to'g'ri kelmaydi demoqchi bo'ladi. Sa'diyning axloqiy qaraShlari o'z muhiti va zamonasidan ham, ta'sir doirasi esa o'z yurti va davriy chegarasidan ham chiqib ketadi. Uning ilg'or orzulari umumbaShariyat orzulariga hamohang. Shuning uchun ham bu asar jahon adabiYoti durdonalari qatorida 700 yildan beri sevib o'qilib kelinmoqda.

"KulliYot" bir necha qismlardan iborat. Unga "ShaSh risola", "Guliston", "Bo'ston", "Qasoidi arabiy"(Arabcha qasidalar), "Qasoidi forsiy"(Forsiy qasidalar), "G'azaliYoti qadim"(Qadim g'azallar devoni), "Badoe'"(Badiiy g'azallar devoni), "Havotim"(Xotima g'azallar devoni), "Sohibiya", "MasnaviYot", "Qitaaot", "Mulammaot"(She'ru Shakar She'rlar), "Mufradot" (Fardlar) va boShqa bir qancha asarlar kirgan. Sa'diy fors, arab, urdu tillarida ijod qilgan.

Sa'diy Sheroziy jo'Shqin g'azallar ustodi sanaladi. Prof.Bertels Movaraunnahrda Sa'diy g'azallchilikka zamin hozirlaganini qayd etadi. Fors-tojik adabiYotida g'azal taraqqiYoti haqida tadqiqotlar olib borgan olim Abdulg'ani Mirzayev ham g'azal tarixida Shoirning tutgan o'rni yuksak deb baholaydi. "Haqiqatdan ham, Sa'diyning katta xizmatlaridan biri g'azal tilini iShlab voyaga yetkazishi bo'ldi. U ravon , nazokatli, latif Shirin boliShi , qasida va boShqa She'r formalaridan farq qiliShi kerak... Sa'diyning bu sohadagi xizmatlari katta".

Sa'diy so'fiYona (orifona) , oShiqona , yani dunYoviy g'azallar Yozgan. Uning otaShnafas g'azallarida YoShlik zavqi ,bahor nafasi, tabiat go'zalligi, inson muhabbati tarannum etilgan.

Ey sarbon, ohista ron, oromi jonam meravad,  
On dilki, bo xud doShtam bo dilistonam meravad.  
(Ey sarbon, ohista yur, oromi jonim ketadur,  
Tandin dilu jonim olur, ham dilistonim ketadur ).

Sadiyning buyukligi, ijodining o'lmasligi Shundaki, u oliyjanob isoniy xislatlar uchun , inson so'zining qiymati uchun , tinchlik va farovonlik uchun , odamlar o'rtasida do'stlik uchun kuraShdi. O'z aSh'orlarini ham xalq uchun , xalq baxtu saodati uchun bag'iShladi. Shuning uchun uning asarlari maqollarga aylanib , xalqning sevimli ma'naviy mulkiga aylandi.

Nizomiy Ganjaviy (taxallusi; asl ismi Sharifi Abu Muhammad IIYos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad) ozarbayjon Shoiri va ma'rifatparvari. Nizomiyning ota bobolari Eronning Qum Shahridan bo'lib, onasi (Ganja atrofidagi qishloqlardagi) Kurd sarkardalaridan birining qizi bo'lgan. Nizomiy tug'ilgan Ganja Shahri XI-XII asrlarda Ozarbayjonning yerik siyosiy, iqtisodiy va ma'daniy markazlaridan biri, Arron davlatining poytaxti edi.

Nizomiy ilm-fan va badiiy adabiyotga juda erta mehr qo'yadi. U qunt bilan xalq ijodini, yozma adabiyotni, ro'dakiy va firdavsiy kabi ulug' san'atkorlarning, zamondosh ijodkorlarining asarlarini o'rganadi, ulardan ilhom va ta'lim oladi. Bu bilan birga u arab va fors tillarini mukammal o'rganadi. Falsafa, mantiq, tarix va falakkiyot fanlari bilan shug'ullanadi.

XII asrda Xuroson va Movaraunnahrning ko'plab shaharlari, jumladan Ganjada ham javonmardlik yoki axiylik bilan mashhur harakat keng yoyilgan. Harakat a'zolari asosan kosib va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular zolim hukmdor va amaldorlarga qarshi kura shgan, keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qilgan. Ezgulik, adolat va muruvvatni shior qilib olgan bu toifa ilmu ma'rifatga katta ahamiyat bergan. Nizomiy Ganjaviy bu harakat qoidalarini hurmat qilgan va ularga moil bo'lgan. U o'z asarlarida mana shu g'oyalarni kuylagan, dostonlarini o'sha zamonlardagi shoh va shahzodalarga bag'ishlagan bo'lsa-da, lekin saroy shoiri bo'lishni istamagan, bu haqdagi taklifni rad etgan.

Nizomiyning adabiy merosi lirik va epik asarlardan iborat. Uning 20 ming baytdan iborat she'riy devoni bo'lgan. Shoirning lirik she'rlari turli bayoz va to'plamlardan tarkib topib, jamlangan. Lekin undan ayirim parchalar: 16 qasida, 192 g'azal, 5 qit'a, 68 ruboiy va 17 bayt saqlanib qolgan xolos.

Shoir adabiy merosida uning "Xamsa"si alohida o'rin tutadi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa" yozgan kishi ham Nizomiydir. Asar quyidagi dostonlarni o'z ichiga oladi:

1. "Mahzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi", 1173-1179-yillar) Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlangan. Muqaddima va xotimadan tashqari 20 maqola bo'lib, har maqolaga oid 20 hikoya mavjud. Asarda shoir yashagan davrning muhim ijtimoiy siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalar aks etgan. Keyinchlik bu asarga javoban forsiy va turkiy adabiyotlarda 40 dan ortiq dostonlar (Navoiy "Hayrat ul-abror") yaratilgan.

2. "Xisrav va Shirin" (1180-81-yillar) sevgi va sadoqat mavzuida bo'lib, Iroq hukmdori Turg'ul II ning iltimosiga ko'ra yaratilgan.

3. "Layli va Majnun" (1181-yil) Shirvon shohlaridan Axsatan I buyrug'i va topshirig'i bilan yozilgan bo'lib, arab rivoyatlari asosida yaratilgan.

4. "Haft paykar" 1196-yilda hukmdor Alovuddin Ko'rpa Arslonning topshirig'i bilan Bahrom Go'r va uning nomi bilan bog'liq voqealarga asoslangan asar. Doston hikoya ichida hikoya tarzida yozilgan bo'lib, ularda inson tarbiyasi, xulq atvori bilan bog'liq g'oyalar ilgari surilgan. Hikoyalarida xalq etaklari ta'siri sezilib turadi.

5. "Iskandarnoma" dostoni (1190-1200-yillar)da Nizomiy Ganjaviy o'zining odil va ma'rifatli shoh, komil inson, ideal jamiyat haqidagi orzularini Iskandar obrazi va hayoliy tasvirlar orqali ifodalagan.

Shu tariqa 1173-1200-yillar oralig'ida - 28 yil davomida beSh doston dunyo yuzini ko'radi va ular "Panj ganj" ("BeSh xazina") nomi bilan shuhrat topadi.

Navoiydan tortib barcha o'zbek shoirlari Nizomiyning o'zlariga ustoz deb bilishgan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da uni Shayxlar qatorida zikr etadi, dostonlarining avvalgi boblarida uni faxr bilan ta'rifu tavsif etadi, o'ziga ustoz sanaydi. XIV asr o'rtalarida Qutb Xorazmiy "Xisrav va Shirin" dostonini turkiy tilga tarjima qilgan. Haydar Xorazmiy shoirning "Mahzan ul-asror" asariga javoban "Gulshan ul-asror" dostonini yaratgan. Mavlono Gadoyi g'azallaridan birida "Xisrav va Shirin" dostonini yozi shda Nizomiyning asosiy maqsadi Farhod qissasini bayon etishdir, deydi:

Desa bo'lmas , Gado, harbul havasni oShiqi sodiq,  
Hadisi "Xisravu Shirin" g'araz Farhod emiSh bulduk.

O'zbek adabiYotShunosligida Nizomiy Ganjaviy ijodini o'rganiSh bo'yicha , asarlarini naShr qildiriSh borasida bir qator iShlar amalgam oShirildi. "Nizomiy She'riyatidan" to'plami Shoislom Shomammedov tarjimasida chop etilgan. Unda Shoir qasidalari , g'azallari, qit'alari, ruboiylari va hikmatlaridan namunalar, Shuningdek, "Mahzan ul-asror" va "Haft paykar" dostonlaridan parchalar o'rin olgan. Bundan taShqari Shoir ijodini ilmiy tadqiq qiliSh borasida Ye. Bertels, S.Erkinov, M.G'anixonov, H.Homidiy, A.Hayetmetov va E.Ocihlovlarning tadqiqotlarini e'tirof etiSh mumkin.

Ulug' Shoir va mutafakkir Nizomiy Ganjaviy o'zi to'g'risida baShorat qilib bunday degan edi:

Nihon, kay boShad az tu jilvasoze,  
Ki dar har bayt go'yad bat u roze.  
Pas az sad sol agar go'yi: kujo o'?'  
Z-har bayte nido xezadki:ho, o'!

(Har bir baytda senga biron sir aytib turgan u jilvasoz sendan qanday qilib nihon bo'liShi mumkin? Yuz yildan keyin ham , agar u qaerda deb so'rasang , har bir baytdan: ha, u Shu yerda! – deb nido chiqar.)

Nizomiy yangliShmadi. Uning sozi va ovozi yuz yil emas, balki bugungi kunimizga qadar ham o'z mavqeyini Yo'qotmay kelmoqda.

## PAHLAVON MAHMUD

Pahlavon Mahmud mo'g'ullar istilosidan keyin yuzaga kelgan Xorazm madaniyatining atoqli vakillaridan biridir. Shahar hunarmandlari orasidan yetiShib chiqqan bu ko'p qirrali iste'dod egasi o'zining Shaxsiy fazilatlarini va badiiy ijodiYoti bilan keng Shuhrat qozongan va keyinchalik ko'plab rivoyatlarning yuzaga chiqiShiga sababchi bo'lgan.

Pahlavon Mahmudning bir qancha ruboiylari uning qabri ustiga o'rnatilgan maqbara devorlari peShtoqlariga badiiy naqSh sifatida tuShirilgan. Ularning bizgacha yetib keliShida ana Shu maqbaradagi Yozuvlar muhim o'rin tutadi. Adibning asarlari turli qo'lyozmalar orqali etib kelgan bo'liShiga qaramay , ular asosan XIX asrda ko'chirilgan. Qadimiy manbalar haligacha topilgan emas.

Shoir va uning taxalluslari xususida «Charog'i hidoyat», «Bahori ajam» hamda «G'iYos ul-lug'at» singari asarlarda ayrim ma'lumotlar uchraydi. 1881 yilda Bombayda naShr etilgan «OtaShkadai Ozariy» nomli maShhur Sharq tazkirasida Pahlavon Mahmud haqida quyidagi ma'lumot uchraydi: «Ismi Pahlavon Mahmud. PurYoyvaliy laqabi bilan Shuhrat topgan, uning pahlavonlik ovozi olamni tutgan, o'z asrining yagonasi bo'lgan.She'riyatda qudratli; «Kanzul haqoyiq» nomli masnaviysi bor. Keyingi vaqtlarda tasavvuf mavzuida Yozgan ruboiylari ancha yaxshi chiqqan»(Bu haqda qarang: T.Jalolov. Nafosat olamida. T., 1974. 105-bet)

Kamoliddin Husayni Fanoyidan boShlab Pahlavon Mahmud nomini tilga olgan barcha tazkiranavislar uning «Kanzul -haqoyiq» nomli masnaviy Yozganligini qayd etadi. «Majolis ul-uShShoq» (Kamoliddin Husayni Fanoyi)da esa mazkur asardan olti bayt keltirilgan. Shunday bo'lsa-da mazkur asarning to'liq nusxasi haligacha topilmagan.



MaShhur turk olimi Shamsiddin Somibek ham «Qomus ul -a'lom» asarining 5 va 6 jildlarida Pahlavon Mahmud xususida ba'zi ma'lumotlar keltirgan. Xorazmda Yozilgan qo'lyozma manobalarda Shoir haYoti haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shoirning haYoti va adabiy merosining o'rganilishga asosan XX asrda kirishildi. Sadridin Ayniy o'zining «Namunai adabiYoti tojik» asarida, Yahyo G'ulomovning «Pamyatniki goroda Xiva» nomli tarixiy monografiyasida , Shuningdek adabiYotShunos To'xtasin Jalolovning bir qator tadqiqotlarida Pahlavon Mahmud adabiy merosi o'rganilgan. Uning ruboiylarini Ulfat (Imomiddin Qosimov), Boqir (Omonulla Valixonov), Muinzoda, Shoislom Shomuhamedov, To'xtasin Jalolov, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, ErgaSh Ochilovlar tarjima qiliShgan.

Pahlavon Mahmud lirik merosi asosan fors tilidagi asarlardan iborat. Fors va turkiy xalqlar adabiYotida Umar XayYomdan so'ng faqat ruboiy Yozgan Shoir Pahlavon Mahmuddir. U XayYomning oddiy taqlidchisi bo'lmay , muShohada kuchi jihatidan u bilan barobar turgan.

Pahlavon Mahmud Shahar-hunarmand kasiblarning futuvsat-javonmardlik harakati (XII-XV asrlar) taShkilotchisi, ma'naviy rahnamosi bo'lgan. Ko'pchilik ruboiylari mardlik, marhamat va Shavqat , saxovat va

olijjanoblik kabi javonmardlik prinsiplari asosida Yozilgan. Asarlarida tasavvuf ta'limotining nazariy g'oyalari bilan javonmardlik tariqatining amaliy qoidalari o'zaro omuxta holda baYon qilingan. Unga ko'ra, Ollah diydori koinotdagi barcha mavjudotlarda aks etadi.

Pahlavon Mahmud «Qitoliy »taxallusida ham ijod qilgan. Uning bu taxallusi ham pahlavonlik bilan bog'liq bo'lib, «qitol» ning ma'nosi «bir-biri bilan jang qilmoq, kuraShmoq» demakdir. «Kanzul- haqoyiq» tasavvuf masalalari va uning mazmun mohiyatini SharhlaShga, muhokama yuritiShga bag'iShlangan She'riy asardir. Unda muallif o'zining mulohazalarini rivoyatlar, kichik hikoyalar bilan asoslaShga harakat qiladi. Shu jihatdan u tasavvuf She'riyatining atoqli vakillari Jaloliddin Rumi va Fariddin Attor an'analari zaminida yaratilgan o'ziga xos falsafiy-didaktik asar hisoblanadi.

Xalq orasida keng tarqalib , Pahlavon Mahmudga Shoir sifatida Shuhrat keltirgan asarlar uning ruboiylaridir. Shoir ruboiylarining umumiy soni aniq emas. Chunki, hozirga qadar Shoir ruboiylarini o'z ichiga olgan birorta qadimiy qo'lyozma topilganicha Yo'q. Pahlavon Mahmud ruboiylarida uning falsafiy , ijtimoiy qaraShlari o'zining Yorqin ifodasini topgan. Ruboiylardagi tasvir hamma o'rinda aniq, ixcham, ta'sirchan.Pahlavon Mahmud moddiy borliqning manguligi, , inson va tabiat, Yor vasli va uning lazzati haqida fikr yuritadi.

Ruboiylari fikrning ravShanligi , mazmunining teranligi, obrazlarining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

DunYo bamisoli bir zar4rin ko'za,  
Suvi goh Shirinu, goh achchiq bo'za,  
Ey g'ofil , umringga bino qo'yma ko'p.  
Qazoyi muallaq turar boSh uza.

Adib She'riyati haYotiy falsafa bilan Yo'g'rilgan. Ularni o'qiSh orqali haYotdagi sabab va oqibat , butun va qism , tasodif va qonuniyat orasidagi bog'laniShlar tahliliga duch kelamiz:

Gurkiragan olov - dilim Yo'ldoShi,  
To'lqin urgan darYo- ko'zlarim YoShi.

Ko'zagar yasaYotgan har ko'za-

Ko'hna do'stlar xoki – qo'li Yo boShi.

XayYomona mazkur ruboiyda Pahlavon Mahmud badbinlik, tuShkunlik kayfiyatlari emas, balki haYot hodisotlariga ochiq ko'z bilan qaraShga da'vat etadi.

Pahlavon Mahmud ruboiylarini ko'zdan kechirgan taqdirda , ular uslubiga xos umumiy xususiyatlar yaqqol ko'zga taShlanadi. Jumladan mazkur ruboiylarda ko'rganimizdek, ularda asosan haYotiy falsafa inson umrining mazmun- mohiyati, mardlik hamda nomardlik bilan bog'langan tuShunchalar muShohada etiladi. She'rning mazmuni va Shoirning ijtimoiy She'riyati bilan uzviy bog'langan bu hodisalar Pahlavon Mahmud She'riy uslubining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda Pahlavon Mahmud ruboiylari Shoirning muayyan vaziyatdagi kayfiyati, o'tkinchi kechinmalarning tasodifiy ifodasi emas, balki faylasuf Shoirning jamiyat hodisalari va insoniy munosabatlardan olgan taassurotlar natijasi bo'lmiSh chuqur muShohadalari hamda falsafiy -axloqiy qaraShlarining Yorqin poetik ifodasidir.

Pahlavon Mahmud XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boShlarida yaShab ijod etgan mutafakkir-faylasuf Shoirdir. Mahmud ota-onasi Ko'hna O'rganchdan Xivaga ko'chib kelaYotganlarida, 645 (1248) yilda Xiva yaqinida tug'iladi. Mahmud jismoniy jihatdan juda baquvvat yigit bo'lib yetiShadi, polvonlik bilan Shug'ullanadi. Xorazmning ko'p Shaharlari va Hindistonga borib kuraSh tuShadi, doim g'alaba qozonadi. Pahlavon Mahmud ilm-fan va badiiy adabiYot bilan Shug'ullanadi. Umar XayYomning izidan borib fors-tojik tilida ko'p original ruboiylar yaratadi: Shamsiddin Somibekning «Qomusul-a'lam» («Atoqli kiShilar qomusi») va Lutf Alibek Ozarning «OtaShkadai Ozariy» asarlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, u «Kanzul-haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasi») nomli bir masnaviy ham yaratadi. Pahlavon Mahmud 725 (1326) yilda Xivada vafot etadi.

Pahlavon Mahmudning bizga qadar bir necha yuz ruboiysi yetib kelgan. Bularning birmunchasida Pahlavon Mahmud iste'dodli faylasuf Shoirdir. U haYotining so'nggi yillarida o'z ruboiylarida moddiy borliqning manguligi va inson hamda tabiat haqida fikr yuritadi, axloq-odob, vatan iShtiYoqi, sevgining Shavq-zavqi va boShqalar haqida so'zlaydi, riYokor ruhoniylarni foSh etadi. Binobarin, uni Xorazm XayYomi deb ataymiz. Mana Pahlavon Mahmudning ruboiysi:

OtaShki alanga mezanad sinai most,

DarYoki chu mavj mezanad didai most.

In ko'zagaronki ko'zaho mesozand,

Az xoki barodaroni dirinai most.

### **SULAYMON BOQIRG'ONIY**

O'zbek Yozma adabiYotining ilk yuksaliSh davri XI-XII asrlarga to'g'ri keldi. Bu davrda Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviyning yuksak She'riy iste'dodi Yorqin namoYon bo'ldi. Sulaymon Boqirg'oniyning ana Shu asrlar adabiYotida alohida o'rni bor.

U Ahmad Yassaviyning Shogirdi, eng sadoqatli izdoShi sifatida qalam tebratgan. She'rlari Yassaviyning maShhur hikmatlariga har jihatdan – ham mazmun, ham badiiy uslub e'tibori bilan hamohang. Sulaymon Boqirg'oniY Yassaviydan farqli o'laroq, o'zbek She'riyatini yangi janrlar, xususan, epik She'riyat bilan to'ldirgan va kengaytirgan. Binobarin, u She'riyatda hikoya uslubida, qissachilik Shaklida ham dadil qalam tebratgan.

Sulaymon Boqirg'onyidan ancha boy va badiiy jihatdan yetuk adabiy meros qolgan. Sulaymon Boqirg'onyi She'rlar (to'rtliklar) dan taShqari, "Oxiri zamon", "Bibi Maryam kitobi" deb nomlangan ikki doston ham yaratgan. AdabiYotShunos A.Hayitmetov Shoir merosi xususida Shunday Yozadi: "Boqirg'onyi "Ismoil qissasi", "Me'rojnama", "Bibi Maryam", "Sobit qissasi", "No'mon hikoyasi", "Oxir zamon" manzumalarini ham kichik dostonlar sirasiga kiritish mumkin .

"Ismoil qissasi" 37, "Oxir zamon" 49, "Me'rojnama" 57, "Bibi Maryam" 53, "Sobit qissasi" 34 to'rtlikdan taShkil topgan. Payg'ambarimiz to'g'risidagi qissani ham qo'Shsak, bular hammasi 245 to'rtlik Yoki 1000 ga yaqin misrani taShkil etadi." (A.Hayitmetov. Hakim ota dostonlari. Tafakkur jurnali. 2003-yil, № 2.36-39-betlar.). Bu esa uning lirik She'riyati hajmidan ancha katta. Demak, Sulaymon Boqirg'onyi ko'proq epik, yani qissanavis, dostonnavis Shoirdir.

Lekin bu boy adabiy meros adabiYotShunosligimizda na tarixiy-adabiy, na matnShunoslik, na She'rShunoslik jihatidan jiddiy o'rganilgan. Buning ustiga ,ko'p vaqt Sulaymon Boqirg'onyi She'riyati Ahmad Yassaviyijodi soyasida qolib ketgan. Bu haqda, jumladan, oliy o'quv yurtlari uchun tuzilgan darsliklarda ham "Boqirg'on kitobi, undagi She'rlar g'oyasi, uslubi va tili jihatdan A.Yassaviy She'rlariga Shunchalik yaqin va monandki, ba'zan ularni bir-biridan ajratiSh ham amrimahol ekanligi ta'kidlanib, Shoir merosiga zamon ta'siri kuchli bo'lganligi ko'rinadi ".

Boqirg'onyi hikmatlari o'quchini, ayniqsa nafs va ruh ziddiyatlaridan kengroq ogoh qiladi. "Bu beSh kunlik tiriklikda, davron sur, tanni yayrat", deydi nafs. Ruh bunga qarSh: "Ilm birla tariqatning Yo'lini bilib, Sahar vaqtda uyg'oqlikni odat qil", deydi.

Sulaymon Boqirg'onyi She'rlari "Boqirg'on kitobi" nomi bilan Qozonda bir necha bor naShr qilingan. Keyingi yillarda adabiYotShunos olimlar I.Haqqulov va S.Rafiddinov tomonidan SharqShunoslik institutida saqlanaYotgan (Inv.№ 12646, № 289) kitoblar asosida so'zboShi va izohlar bilan naShrga tayYorlandi.( Sulaymon Boqirg'onyi. Boqirg'on kitobi. T. "Yozuvchi", 1991-yil).

Sulaymon Boqirg'onyi ijodi o'zbek adabiYoti tarixida tasodifiy hodisa emas. Uni o'rganiSh, liro-epik asarlarini tadqiq etiSh adabiYotShunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

## **XO'JANDIY**

XIV asrning ikkinchiyarmi va XV asrning birinchi choragida yaShab ijod etgan, o'zining "Latofatnoma" asari bilan o'zbek adabiYotini rivojlantiriShga katta hissa qo'Shgan Shoirlardan biri Xo'jandiydir. Shoirning tug'ilgan yili va vafot etgan yili haqida hech qanday ma'lumot Yo'q. Taxallusidan Xo'janddan ekanligi bilinadi.

Xo'jandiyning "Latofatnoma" asari XV asr boShlarida (1411-yillarda) Xorazmda hukumronlik qilgan Amir Temurning avlodlaridan biri Sulton Mahmudga bag'iShlangan.

Shuni ta'kidlaSh kerakki, bu asarda Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidagidek har bir nomadan so'ng g'azal keltirilmaydi, fard, qit'a va munojatlar ham Yo'q. "Latofatnoma" masnaviy Shaklida (aa, bb, ...) Yozilgan va qofiyalangan. Asarda iShlatilgan badiiy tasvirlaSh vositalari, usullari an'anaviy ko'riniShga ega. Mana bu baytlarda Xo'jandiy kitobat sa,'atini qo'llab, ma'Shuqani Shunday tasvirlaydi:

Aliftek to'g'ri bo'yliq qoShlari nun,

Jahon Laylilari husningg'a Majnun.

Tor og'zing mimu fatton ko'zlaring sod,

Jahonda siz bikin Yo'q odamizod.

Husni ta'lil san'ati:

Ko'zingni Zuhra ko'rsa xira qolg'ay,

To'lun oy sizni ko'rsa yarim o'lg'ay.

kabi badiiy san'at va tasviriy vositalarni asarda ko'p uchratiSh mumkin.

Bizgacha "Latofatnoma"ning to'rt nusxasi yetib kelgan. Uning 2 tasi Kobul kutubxonasining muzeyida, bir nusxasi Istambulda va yana bir esa Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Qo'lyozma hijriy 893 (milodiy 1488) yilda ko'chirilgan bo'lib, 313 baytdan iborat.

"Latofatnoma" asarining Kobulda saqlanaYotgan uyg'ur Yozuvidagi matni fotonusxasi asosida hamda Istambul va Londondagi matnlarning fotonusxalaridan foydalangan holda uning transkripsiyadagi matni 1980-yilda ToShkentda turkolog olim E.Fozilov tomonidan tayyorlanib, naShr etildi. Shuningdek, bu asarning Britaniyadagi fotonusxasidan ayrim parchalar "O'zbek adabiYoti" 4 tomlikning 1-kitobida naShr etilgan. Keyinchalik asar "Muborak maktublar", "Navoiyning nigohi tuShgan" kabi to'plamlarda naShr qilindi.

## **YUSUF AMIRIY**

Shoir Yusuf Amiriy XV asrda yaShagan bo'lib, uning devoni, Dahnoma», «Bang va Chog'ir»munozarasi (to'liq nomi «Bang va Chog'ir orasinda munozara») asarlari bizgacha yetib kelgan.

Yusuf Amiriy haYoti va ijodi haqida aniqroq ma'lumot beruvchi manbaga ega emasmiz. UShbu asarlarning Yozilgan vaqti ham aniq emas. Shoir to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlar AliSher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida uchraydi. Navoiy bu haqda Shunday Yozadi: «Mavlono Amiriy turk erdi va turkcha She'ri yaxshi voqe' bo'lubdur, ammo Shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning «Dahnoma» sidindur:

Ne emakdin, ne uyqudin solib so'z,

Emakdin tuyub, uyqudin yumib ko'z.

Va forsiyda Shayx Kamol tatabbu'i qilibdur. Bu matla' aningdurkim:

Ro'zi qismat har kase az aySh baxshi xud satand,

G'ayri zohid k-u riYozatho kaShidu xuShk mand.

Aning qabri BadahShon sari Arxang saroyidadir...»(AliSher Navoiy.Asarlar. O'n beSh jildlik, o'n ikkinchi jild. ToShkent., 1966 y. 22-bet)

Yusuf Amiriy haqida DavlatShoh Samarqandiyning «Tazkirat uSh-Shuaro» asarida ham qisqacha ma'lumot berilgan. Uning YoziShicha, Yusuf Amiriy Shohruh Mirzo zamonida Shuxrat qozongan Shoirlardan biri bo'lib, Shohruh va uning avlodlariga, jumladan, Boysung'ur sultonga qasidalar bag'iShlagan. E.Rustamovning taxminiga ko'ra, Yusuf Amiriy haqidagi ma'lumotni DavlatShoh Samarqandiy AliSher Navoiyning «Majolis un-nafois»tazkirasidan olgan bo'liShi mumkin.(Bu haqda qarang:.. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. М. 1963. S.204.)

Amiriyning «Dahnoma» asari nomachilik an'anelariga qat'iy rioya qilingan holda Yozilgan. Shunday

bo'lsa-da u Xorazmiy , Xo'jandiy va Sayyid Ahmaddan farqli o'laroq o'z asarida sevgi mavzusini ma'lum syujet asosida Yoritishga intiladi. «Dahnoma» da, oShiq obrazidan taShqari, bevosita ma'Shuqa obrazi ham yaratilgan. OShiq -ma'Shuq bir-biriga maktub Yo'llaydilar, uchraShadilar va o'zaro munozara qiladilar. (Munozara dialog Shaklida berilgan). Bu bilan Yusuf Amiriy noma janrini dostonlarga yaqinlaShtirib, unga liro-epik tus beradi. Amiriy mazkur asarini Ulugbekning akasi Boysung'ur mirzoga bag'iShlagan, chunki Shoir o'zining uning himoyasida yaShaganligini alohida ta'kidlaydi.

«Dahnoma » Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si YoziliSh uslubini bir qadar takrorlagan bo'lsa-da, undan tili ravonligi va syujeti piShiqligi bilan ajralib uradi.Amiriy bu o'rinda o'ziga xos original uslubni qo'llagan.

Yusuf Amiriyning «Bang va Chog'ir munozarasi» asari o'zbek adabiYotida mustaqil adabiy janr namunasi sifatida birinchi marta adabiYotShunos E.Rustamov tomonidan maxsus o'rganildi. Keyingi yillarda bu munozaralar adabiYotShunos olimi M.Abduvohidovaning o'zbek adabiYotida munozara janrining taraqqiYoti haqidagi tadqiqotlarida ancha keng va qiYosiy tahlil qilindi. Amiriy nasrda Yozgan «Bang va Chog'ir» munozarasida majoziy tarzda maqtanchoqlik va mutakkabirlikni tanqid qiladi, iShratparastlikni qoralaydi. Bang va Chog'ir o'z «sifat» va xosiyat»lari bilan maqtanib munozara qiladilar, goh biri, goh ikkinchisi «ustun» keladi. Buni asardagi quyidagi parchada ham ko'riShimiz mumkin: «Bu fanda sehr qulursanki, odamini bir damda eShak etarsen. Fahmning og'ir qilg'uchisi va vahmning zohir qilg'uchisi. Misra':

Kimki ko'proq er seni bo'lur eShak.

Andoqni aytibdurlar.Nazm:

Har kaski alafvar xo'rad xar gardad.

Va Shakling tag'i eShak tezagiga o'xShar borchadin nozikroq bukim to'qum

va pordum bila tilarsenkim, bayt:

Tezak yanglig' quyuShqonga qisilib,

QuSh otlig'lar bila Yo'l teng yurusang.

Va sen bag'oyat Shum giYohedursan.Nazm:

KiShikim, bir sening Yo'zungni ko'rdi,

Ul o'zga yaxShilik Yo'zini ko'rmas.»

Oxiri o'rtaga bol tuShib, muxoliflarni bir-biridan ajratadi. Bol Bangi ham Chog'irni ham engadi. Munozarada M.Abduvohidova qayd qilganidek, masal , askiya, lof singari epik janrlar ham qamrab olinadiki, bu hol munozara tilining xalq so'zlaShuv tiliga yaqin bo'liShiga, ularda xalq so'zlaShuv tili xususiyatlarining keng ko'lamda aks etiShiga imkon yaratadi.

Yusuf Amiriy haYoti va adabiy merosi 1960 yillardan boShlab o'rganila boShlandi. Bu borada adabiYotShunoslardan E.Rustamov, X. Bektemirov, Abduvohidova, H.Muxtorovalarning olib borgan tadqiqotlarini sanab o'tiSh mumkin.

Umuman, Yusuf Amiriy mumtoz adabiYotning Navoiyga qadar etiShgan yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi o'zbek mumtoz adabiYotining ravnaq topiShiga ma'lum hissa bo'lib qo'Shildi.

## **YAQINIY**

XV asrda o'zbek adabiYotida munozara janriga oid uchta asar yaratilgani ma'lum. Bular Yusuf Amiriyning "Bang va Chog'ir orasinda munozara", Yaqiniyning "O'q va Yoy orasinda munozara",

Ahmadiyning "Rudjomaning orasinda munozara va mubohasa" asarlaridir.

O'zbek adabiYotida munozara janrining ildizlari "Devonu lug'otit-turk" Yodgorliklariga , undagi "QiSh va Yoz munozarasi"ga borib taqaladi. Xalq ijodida uzoq tarixga ega bo'lgan bu janr XV asr o'zbek adabiYotida ancha ravnaq topdi. Xalq og'zaki ijodidagi munozara janrining Yozma adabiYotga ko'chiShi hamda fors-tojik tilidagi munozara janri tajribasidan (Asadi Tusiy) ijodiy foydalaniSh bu davr adabiYotiga xos. Shoir Ahmadiy "Sozlar munozara"sida majoziy tarzda xudbin va maqtanchoq kiShilarni tanqid qiladi. Yaqiniy esa "O'q va Yoy" nasriy munozarasida xuShomatgo'y va mansabparast kiShilarni aYovsiz tanqid qilib, "...bu munozaradin maqsud ulkim , bu davrning kaj ta'blarining qoShinda har kim Yoydek egri bo'lsa, Yonlaridan yiroq bo'lmas va har kim o'qdek rost bo'lub, to'z yurusa Yaqiniydek yiroq tuShar" deb o'z davrining hukumdorlaridan Shikoyat qiladi va Asiy degan Shoirning quydagi qit'asini keltiradi:

Har ki Shut rost andrin maydon,

Har kujo raft beho'zur uftod.

Az kaji Shut kamon ba taxliyi Shoh

Tir az rosti ba dur uftod.

(Kimki bu maydonda rost bo'lsa , qayerga borsa ham bahalovat bo'lib tuShadi. Yoy egriligi tufayli Shoh Yonidan joy oldi, o'q esa rostlikdan uzoqlarga borib tuShdi.)

Yaqiniy munozaraga Hofiz,Xisraf Dehlaviy, Qosim Anvor, Yusuf Amiriy,Atoiy, Sakkokiy , Lutfiy va boShqa Shoirlarning o'q va Yoy haqidagi She'rlaridan parchalar keltiradi.Jumladan, Atoiyning :

Ul Shaxsuvor tirkaShining o'qining yungi

Jom quShining tiriklata yulg'on qanotidur.

Sakkokiy nazmidan:

Jonu fido bo'lsin sening g'amzang o'qina necha kim,

Har necha quShing egmasi o'qtik buyumni Yo qilur.

Yana bir o'rida Lutfiyning mana bu oShiqona baytidan parcha keltiriladi:

Xadangi g'amzasini ko'rgach ayttim:

"Maning jonimg'a o't solg'on sen - o'qsen!"

Yaqiniy haqida uning ijodi haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Manbalarda , xususan, AliSher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Muhokamatul-lug'atayn" asarlarida Shoir haqida Shunday deyiladi: "Hulogixon zamonidin sulton sohibquron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonining oxirig'cha turk tili bila Shuaro paydo bo'ldilar... Shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqumiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar"( A.Navoiy. Asarlar. O'n beSh tomlik.14-tom.T.1967-yil, 128-bet). AliSher Navoiy yana bir o'rinda , ya'ni "Majolis un-nafois"da Shoir Yaqiniy haqida aniqroq ma'lumot beradi: "Mavlono Yaqiniy tundroq maShrabliq kiShi erdi.Turkchasidin bu matlain ko'p mubohotlar bila o'qur erdikim:

Ohkim, jonimga ettim Yori nodon ilgidin,

Dodu farYod ul jafochi ofati jon ilgidin...

Oxiri damida beadabona so'zlardin tavba qilib, ahli saloh tariyqi bilan kechti. Ummidkim mafu bo'ImiSh

bo'lg'ay.

Qabri darai Dubarorondadur.”( A.Navoiy. Asarlar. O'n beSh tomlik.14-tom.Majolis un-nafois.T.1967-yil).

XV asrning birinch yarmi o'zbek adabiYotida munozara janrining taraqqiYotida Yaqiniyning “O'q va Yoy” munozarasi alohida o'rin tutadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek asardagi majoziy obrazlar orqali tasvirlagan sujet voqealari va unda ilgari surilgan masalalar hamma davrda dolzarbligi bilan ajralib turadi.

### ABDURAHMON JOMIY

Fors-tojik adabiYotining yirik namoyandasi o'rta asr Sharqining ulug' olimi va mutaffakiri Abdurahmon Jomiy o'z davrining muhim, haYotiy masalalari va talablarining aks ettirgan va qo'ya bilgan. Shu jumladan, o'zining turli janrlarga oid ko'pgina asarlarida adabiYot va san'atning ijtimoiy va estetik ahamiyatini, Shakl bilan mundarija o'rtasidagi munosabat qanday bo'liShi kerakligini, poetik mahorat va novatorlik masalalarini chuqur iShlab chiqdi. U adabiYot va san'at haqidagi fikrlari bilan O'rta OsiYo xalqlarining estetik tafakkuri va badiiy ijodi taraqqiYotiga katta hissa qo'Shdi .

Nuriddin Abdurahmon Jomiy 1414-yilning 7-noyabrida Xurosonning Jom Shahrida tug'ilgan. Bu haqida uning zamondoShi DavlatShoh Samarqandiy o'zining “Tazkirat uSh-Shuaro” asarida Shunday ma'lumot beradi: “Mavlononing asli va tug'ilgan joyi Jom viloyatida, vatani Xarjerd qiShlog'i, o'sgan va kun kechirgan yeri esa poytaxt Hirotidir. Dastlab ilmu adab o'rganiSh bilan maShg'ul bo'ldi va bora-bora zamon ulamolarining yetakchisiga aylandi. Tabiatda ilmu fazl yanada yuqoriroq darajaga ko'tariliShini istadi ”. Uning otasi Nizomiddin Ahmad yirik ruhoniylar- Shayxulislom edi. Jomiyning go'dakilk chog'ida oilasi Hirotga ko'chib boradi va o'Sha yerda yaShab qoladi.

Abdurahmon Jomiy o'qiShga juda erta kiriShadi. U tez orada xat-savodini chiqarib oladi va turli xil ilmlarni qunt bilan o'rgana boShlaydi. Maktabni tugatgach Hirotning DilkaSh madrasasida buyuk adabiYotShunos olim Mavlono Jo'nayd qo'lida saboq ola boShlaydi. Jomiy, xususan O'rta OsiYoning maShhur filologi Sa'daddin Mas'ud Taftazoniyning (1322-1389) “Muxtasar al-maoni “ va “Mutavval” kitoblarini katta iShtiYoq bilan o'qidi. Keyinchalik Jomiy Taftazoniyning Shogirdi Shahobiddin Muhammad Jojarmiy va maShhur mudarris Alouddin Ali Samarqandiydan ta'lim oladi.

U Hirot tahsili bilan qanoatlanib qolmay , bilimini oShiriSh maqsadida Samarqandga keladi, Ulug'bek madrasasida o'qiydi, Qozizoda Rumiy va boShqa maShhur olimlarning maShg'ulotlariga qatnaydi. U butun kuch- quvvatini ilmga , badiiy ijodga bag'iShlaydi, filologiya , falsafa , matematika , astronomiya va boShqa fanlar bilan Shug'ullandi, ilmiy va adabiy musohabalarda qatnaShib muvaffaqiyat va obro' qozonadi.

DunYoviy ilmlar va abadiiy ijodiYot bilan birga , Jomiy din va tasavvuf bilan ham Shug'ullandi. Bahovuddin NaqShbandiyning izdoShlaridan bo'lgan Shayx Sa'daddin KoShg'ariyga (1456-yilda vafot etgan) murid tuShib , tasavvuf bo'yicha ta'lim oladi. Biroq Jomiy tasavvufning ko'proq nazariy masalalari bilan , ayniqsa Shayx Muhyiddin ibn al-Arabiy (1165-1240) kabi tasavvuf faylasuflarining asarlari bilan Shug'ullanadi,o'zi ham bu borada bir qator asarlar yaratadi.

Uning Shogirdlaridan bo'lgan Abdulg'afur Loriy “Ustoz Jomiy o'z vaqtlarini ko'proq foydali iShlarga sarf qilar edilar va qolgan vaqtlarini kiShilar tarbiyasi hamda xalq xizmatiga bag'iShlar edilar...” deydi. Kitob Jomiyning yaqin do'sti , ajralmas hamrohi, mutolaa va ijodiYot esa uning doimiy maShg'uloti edi. Shuning uchun ham u bunday degan edi:

XuShtar zi kitob dar jahon Yore nest,

Dar g'amkadai zamona g'amxore nest.

Har lahza az o' ba go'Shan tanhoyi

Sad rohatu lek hargiz ozore nest.

(Jahonda kitobdan yaxshi Yor bo'lmas,  
Davrg'amxonasida g'amgusor bo'lmas.  
Yolg'izlik kunjida undan har qachon  
Yuz rohat yetar , lek bir ozor bo'lmas.)

Jomiy bir qator badiiy , ilmiy va diniy- tasavvufiy asarlar yaratdi, Hirot va boShqa Shaharlarning ko'pgina ilm va san'at-adabiYot ahllariga ustoz hamda ilmiy va adabiy tortiShuvlarning hakami bo'ladi. Uning obro'-e'tibori kundan- kunga oShib bordi.

Jomiy juda sermaxsul olim va Yozuvchidir. U 50 yil chamasi davom etgan ijodiy faoliyatida ko'p badiiy , falsafiy, ilmiy va diniy - tasavvufiy asarlar yaratdi. Bu asarlarning turli davrlarga mansub bo'lgan qo'lyozma nusxalari va naShrlari ko'pdir. Uning Shaxsiy qo'lyozmasi ham saqlanib qolgan. Masalan, O'zFA SharqShunoslik institutida Jomiyning o'z qo'li bilan Yozilgan «Sabhat ul- abror» («Yaxshi kiShilarning tasbihi») , dostoni, Tehronda tasavvuf tarixiga doir «Nafohat ul-unis» nomli asarining qo'lyozmasi (avtografi) bor.

Jomiy asarlarining boShqa nodir qo'lyozmalari XXI asrga mansubdir. Bulardan eng muhimi 16 asr boShlarida ko'chirilgan va O'zFA SharqShunoslik institutida saqlanaYotgan «Kulliyoti Jomiy» bo'lib, u 37 asarni o'z ichiga oladi. Jomiy asarlari O'rta Osiyo, Eron, Hindistonda va boShqa joylarda bir necha bor naShr qilingan. Abdurahmon Jomiy ijodini o'z davridaYoq o'rganiShga kishiShilganligini DavlatShoh Samarqandiy , Navoiy kabi zamondoShlarining asar va tazkiralari bilan biliSh mumkin. O'zbek va tojik adabiYotShunosligida A.Mirzoyev, S.Ayniy, S.Braginskiy hamda A.Hayitmetov, R.Vohidov, J.Xolmo'minovlar tadqiqotlarida Jomiy haYoti va ijodi, adabiy merosi alohida o'rganilgan.

Jomiy adabiy merosida lirika asosiy o'rin tutadi. Bu sohada Sa'diy , Hofiz va Kamol Xo'jandiylar bilan bir qatorda turgan Jomiy uch devon tuzib qoldirdi. Shoir Navoiyning taklifi bilan o'z devonlarini rasmiy nomladi:

1. «Fotihat uSh-Shabob»- «Yigitlik ibtidosi»(1479 yilda to'zilgan);
2. «Vasat ul- iqd»- «O'rtacha marvarid Shodasi» (1489 yilda tuzilgan);
3. «Xotimat ul-haYot»- «HaYotning xotimasi» (1491 yilda to'zilgan)

Bu devonlar lirik turning g'azal, ruboiy , qit'a, tarjiband, tarkiband, marsiya, qasida va boShqa janrlarida Yozilgan She'rlardan iborat. BoShqa zamondoShlarida bo'lgani kabi Jomiy devonlarining ham yetakchi janri g'azaldir.U o'z She'rlarida haYot va sevgini, insonning oliyjanob fazilatlarini kuylaydi, kiShilarga pand-nasihat qiladi. Shoir uchinchi devonida lirik She'rlarining mavzui va g'oyaviy mohiyatini ta'riflab Shunday Yozadi:

Xas devoni She'ri man aksar

G'azal oShiqona Shaydoyi



Yo fununi nasoi x astu hukom,  
Munbais az Shuuri donoyi  
Zikri dunon naYobi andarvay  
Ki -on buvad naqdi umr farsoyi...

(She'larim devoni aksar Shaydoyi oShiqlarning g'azalidir Yoki aqllilik Shuuri bilan vujudga kelgan pand-nasihat va hikmatli so'zlardir.Ularda sen razil kiShilarning zikrini topa olmasan, zeroki bu umrni zoe ketgaziShdir...)

Abdurahmon Jomiy ulug' lirik Shoirgina bo'lib qolmay, Shu bilan birga iste'dodli va sermahsul epik Shoir-dostonnavis hamdir. Jomiy jami yetti doston yaratdi. U dastlabki ikki dostonidan 1472 yilda Yozgan «Silsilat ul-zahab» («Oltin zanjir») va 1480-1481 yillarda Yozgan «Salamon va Ibsol» dostonlaridan keyin «Xamsa» YoziShga kiriShdi. 1481-1482 yillarda «Xamsa»sining birinchi dostoni «Tuhfat ul-axror» («Hur kiShilarning tuhfasini»), 1482-83 yillarda «Sabhat ul-abror» («Yaxshi kiShilarning tasbihi»), 1483 yilda «Yusuf va Zulayxo», 1484 yilda «Layli va Majnun» hamda 1485 yilda «Xiradnomai Iskandar» dostonlarini yaratdi. U avvalgi ikki dostoni bilan «Xamsa»sini qo'Shib bir kitob qildi va bu kitobga «Haft avrang» («Yetti taxt») deb nom berdi. Shunga ko'ra Jomiyning dostonlar kitobi «Xamsa» nomi bilan emas, balki «Haft avrang» nomi bilan Shuhrat qozongan.

«Silsilat ul-zahab» falsafiy -didaktik doston bo'lib, unda Jomiy tasavvuf va tasavvuf falsafasi, islom dini va asoslari (1 qism),iShq, sevgi- muhabbat (2 qism) va mamlakatni boShqariSh , adolat va odil hukmdor (3 qism) haqida so'zlaydi.

«Salomon va Ibsol» iShqiy- majoziy asar hisoblanadi. Jomiy o'zining diniy-falsafiy fikrlarini Salomon va Ibsol sevgisi orqali insonning insonga bo'lgan muhabbatini kuylaydi, ularning fojeasiga nisbatan achiniSh hislarini uyg'otadi.

«Tuhfat ul-axror» ham «Silsilat ul-zahab» singari falsafiy -didaktik dostonidir. «Tuhfat ul-axror», Nizomiyning «Mahzanul-asror»dostoni kabi, 20 asosiy bob - maqolaga bo'linadi, maqolalar kichik hajmli hikoya va masallar bilan tugaydi.

«Sabhat ul-abror» ham falsafiy- didaktik doston bo'lib, u ijtimoiy-siyosiy , axloqiy-ta'limiy va diniy-tasavvufiy masalalarga bag'iShlangan 40 bobdan taShkil topgan. «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun» iShqiy-romantik dostonlar hisoblanib, sodda uslub va ravon til bilan Yozilganligi hamda insoniy iShqni tarannum etganligi bilan ajralib turadi.

«Xiradnomai Iskandar» falsafiy-didaktik dostonidir.Jomiy bu dostoni orqali adolatparvar va odil hukmdor haqidagi g'oyalarini ilgari surib , bir qancha falsafiy va axloqiy-ta'limiy masalalar ustida mulohaza yuritiSh, o'git beriSh vazifasini o'z oldiga qo'yadi.(Jomiy ijodidagi mazkur masalalar Abduqodir Hayitmetovning «Abdurahmon Jomiy ijodida pand-nasihat»nomli maqolasida teran tahlil etilgan. "Adabiy merosimiz ufqlari"T. 1997. 28-36 betlar).

Bundan taShqari Abdurahmon Jomiy badiiy, ilmiy : adabiYotShunoslik, tilShunoslik, tasavvuf ilmiga doir asarlar yaratdi. «Risolai aruz», «Risolai qofiya», «Risolai muammo»kabi adabiYotShunoslikka doir «Naqshi fusus», «Naqd un-nusus» (Nusus tanqidi), «AShi'at ul-lama'ot » («Sho'lalar ziYosi»), «Nafohat ul-uns» («Do'stlarning nafasi»)kabi bir qancha asarlar va risolalar Yozdi.

Abdurahmon Jomiy ulug' o'zbek Shoiri AliSher Navoiyning eng yaqin ustoz va piri, ayni damda eng yaqin kiShisi bo'lgan. Navoiy uni ulug'lab , o'z asarlarida maxsus boblar bag'iShlaydi hamda «Nuran mahdum», «nazm elining Shohi», «piri Jom» kabi iboralar orqali ulug'laydi, unga atab «Xamsatul-mutahayyirin» («BeSh hayrat» ) asarini yaratdi. «Tuhfat ul-afkor» («Fikrlar sovg'asi») asarini unga

bag'ishladi.

Abdurahmon Jomiy ijodi o'zbek adabiyotida ham alohida o'rin tutadi: ko'p Shoirlar undan ilhomlandilar, g'azallariga taxmis bitdilar, o'zbek xattolari uning asarlarini hurmat va ishtiyoq bilan qayta-qayta ko'chirdilar. Muhammadrizo Ogahiy uning «Salomon va Ibsol», «Yusuf va Zulayho» dostonlarini hamda «Bahoriston» asarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

#### XIV-XVI asrlar adabiyoti

XIV asr o'rtalaridan XVI asrgacha bo'lgan davr O'rta Osiyo xalqlari, san'ati va adabiyoti tarixiy taraqqiyotining yangi va sermahsul bir davridir. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlari ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, musiqa va boshqa sohalarda hamda badiiy adabiyotda juda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar, ulkan olimlar, san'atkorlar va shoirlarni yetishtirib, jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shishdilar. Shu jihatlarini ko'zda tutib tadqiqotchilar bu davrni Sharq renessansi - Uyg'otish davri deb ham nomlaydilar.

Avvalgi davrlarda bo'lgani singari bu davrda ham madaniyat, san'at va adabiyot o'ziga xos kuraishlar, keskin ziddiyatlar jaryonida taraqqiy etdi. O'rta Osiyo xalqlarining Mo'g'ullar istibdodiga qarshi ozodlik harakatlari tobora kengayib, keskin tus oldi. «Sarbadorlar harakati» deb atalgan katta xalq harakati boshlanadi. Biroq bular xalqning ijodiy kuchlarini, yaratuvchilik qudratini mahv etolmadi. «Oltin O'rda madaniyati» deb nomlangan madaniyatning vujudga kelishi va ravnaq topishida O'rta Osiyo xalqlari katta rol o'ynaydi. Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si, Qutbning «Xisrav va Shirin»i, Sayfi Saroyining «Guliston» tarjimasini, tabiiy va gumanitar (ijtimoiy) fanlar sohasida Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Hofizi Abruning «Zubtadud-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlaus-sa'dayn», Mirxondning «Ravzatus-safo», Xondamirning «Xulosatul-axbor» va «Habibus-siyar», Zayniddin Vosifiyning «Badoyiul-vaqoe», Boburning «Boburnoma»si ayni shu davr mahsulidir. Ayrim olimlar va yozuvchilar bir necha tilda ijod eta boshladilar. Masalan, asli balxlik bo'lgan Jaloliddin Rumi Kichik Osiyoga borib, fors-tojik tilidagina emas, balki turk tilida ham asarlar yaratadi. Bu davrda mulamma' - Shiru Shakar janri tarakkiy etdi.

Dunyoviy va diniy adabiyotning muhtarak yo'nalishi Pahlavon Mahmud va Badriddin Chochiy ijodida yaqqol ko'rinadi. Bu davrda eski o'zbek adabiy tilining shakllanish protsessi asosan tugallandi, dunyoviy adabiyot adabiyotning yetakchi yo'nalishiga aylandi. Qutb, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih, Majlisiy, Hoja va o'zbek klassik adabiyotining chuqqisi AliSher Navoiy etishdi.

#### Rabg'uziy

Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan. U Xorazmning Raboti o'g'uz degan joyidan bo'lgan. Rabg'uziyning haYotiga doir uning «Qisasi Rabg'uziy» asarining muqaddimasidagi «Bu kitobni tuzgan, toat Yo'lida tizgan, ma'siyat Yobonin kezman, oz ozuqlig, ko'p Yozug'lig Rabot qozisi Burhoniddin o'g'li Nosiriddin» degan so'zlaridan bo'lak ma'lumot saqlanib qolmagan.

Nosiriddin Rabg'uziydan bizga qadar Yolg'iz «Qissai Rabg'uziy» asari saqlanib qolgan. Avtor bu asarini bir yil zahmat chekib, 710 yilning hut oyida (1311 yilning mart oyida) tugallagan;

Ush tugattim bu kitobni ey Yoronlar, er yuzi,

Bir yil ichra kechti oning Yoy, kishi, Yozi, kuzi,

Oy ko'pordim, o'zim uzdim, suzni tuzdim tunla men -

Erta turdim, xoma urdum, emganib tun-kunduzi.

Yetti yuz o'n erdi yilgakim bitildi bu kitob,

Tug'miSh erdi ul ugurda Hut-saodat yulduzi.

«Qisasi Rabg'uziy» jami 72 qissadan taShkil topgan. Asarda kichik hajmli qissa-hikoya bilan birga katta hajmdagi qissalar ham bor. Muso, Solih, Yusuf va boShqalar haqidagi qissalar hajm jihatidan ancha katta bo'lib, ular bir necha fasl – bo'lim qilib tuzilgan.

### **Badridin CHochiy**

Mo'g'ul yag'mosi davrida boShpana izlab boShqa o'lkalarga ketib, o'Sha yerlarda turg'un bo'lib qolgan ilm-fan, san'at va adabiYot ahllaridan biri Badridin Chochiydir. U 1285 yilda Chochda (ToShkentda) tug'iladi, yigitlik pallasi va taxsil yillari Samarqand va Buxoroda o'tadi. U 1332-1333 yillarda Makkadan qaytiShda Dehliga tuShib, o'Sha yerda qolib ketgan. Afsuski, Badridin Chochiyning «Shohnoma»si ham, devonining mukammal nusxalari ham no'malum bo'lib kelmoqda. Uning bizgacha saqlanib qolgan asari o'limidan bir yil muqaddam 744 yilda (1343-1344 yillarda) tuzilgan «Sharhi Badri Chochiy»dir. U 70 dan ziyod qasida, ko'pgina ruboiy, qit'a va g'azallarni o'z ichiga oladi.

Dar iShq har on, ki sim kamtar dorad,

Monandi bunafSha puShti chanbar dorad.

Gul bo du ruxi surxu dahoni xandon,

Z-on ast hama, ki dar miYon zar dorad.

Bu davrda badiiy adabiYotda eriShgan katta muvaffaqiyatlar zaminida adabiYotShunoslik ham ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritadi. Bir necha buyuk Yozuvchilarning asarlari to'planadi, kitobat qilinadi. Masalan, XV asrning birinchi yarmida Firdavsiy «Shohnoma»sining chogiShtirma matni tuziladi. XV asrning ikkinchi yarmida esa Xisrav Dehlaviyning lirik asarlari to'planib, tadvin (devon) qilinadi. X-XV asrlar adabiYoti bo'yicha yanga tazkiralalar tuziladi.

Sayfi Buxoriy «Radoiful-aSh'or» («She'rlarning radiflari») asarini yaratadi. Navoiy asarlari asosida «Badoyiul-lug'at» kitobi vujudga keladi. Aruz vazni, qofiya, muammo janri va boShqalar haqida bir necha asarlar paydo bo'ladi. Saybekning aruzga doir ikki risolasi, Sayfi Buxoriyning «Aruz» risolasi, Kamoliddin Husaynning muammo haqidagi risolasi, Jomiyning muammo va qofiya yuzasidan yaratgan risolalari, Navoiyning «Mezonul-avzon», «Majolisun-nafois» va «Risolai muammo» asarlari, Boburning aruz haqidagi risolasi, Hiloliyning «Risolai qofiya»si, Atoulloh Husayniyning «Badoe' us-sanoe» asari va boShqalar Shular jumlasidandir.

XV asr tazkirachilik taraqqiYotida alohida bir bosqich bo'ldi. Bu davrda bevosita tazkira sifatida ikki asar yaratildi: «TazkiratuSh-Shuaro» (DavlatShoh Samarqandiy) va «Majolisun-nafois» (AliSher Navoiy). Shu bilan birga, tazkirachilikning taraqqiysida Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asari ham katta ahamiyatga egadir. Chunki «Bahoriston»ning 7-ravzasi (bobi) tazkira xarakteridadir.

### **Xorazmiyning «MuHabbatnoma» asari.**

#### **Sayfi Saroyi ijodi**

Xorazmiy «Muhabbatnoma»sining ikki qo'l Yozma nusxasi bor. Ulardan biri uyg'ur Yozuvida, ikkinchisi arab Yozuvida ko'chirilgan. Bu ikki qo'l Yozma bir-biridan birmuncha farq qiladi. Arab Yozuvidagi nusxada asarning hajmi kattaroq (unda fors-tojik tilidagi misralar ko'proq) bo'lib, ayrim misralarning o'rni, ba'zi so'zlarning YoziliShida farq bor. Bu nusxa «Muhabbatnoma»ga ilova qilingan «hikoyat» bilan birga 473 baytdan iboratdir. «Muhabbatnoma» hamd, Shoirning Muhammadxoja bilan ko'riShganining baYoni, 3

g'azal (bittasi fors-tojik tilida), masnaviy, «Muhammadxojabek madhi» va «Vasful-hol»dan taShkil topgan. Asarning asosiy qismini nomalar taShkil etadi. Shoir boShda asarning o'n noma qilib Yozmoqchi bo'lgan ekan, lekin oxirida asarga yana bir noma qo'Shib, uni o'n bir nomadan iborat qiladi:

Bu yerga yetdi so'z ta'xir bo'ldi,

Burun o'n dedim, u o'n bir bo'ldi.

O'n bir nomadan uchtasi: 4-, 8- va 11-nomalar fors-tojik tilida bo'lib, qolgan 8 noma o'zbek tilidadir. Ko'pchilik nomalar masnaviy-nomadani taShqari, gazal va kichik soqiynomani ham o'z ichiga oladi. (Birinchi nomadagi g'azal Xorazmiyning g'azali bo'lmay, balki Muhammadxojaning g'azalidir) Asarning xotimasi «G'azal», «Munojot», «Qit'a», «Xotimatul-kitob», «Hikoyat» (mustaqil asar) va «Iltimosin aytur» qismlaridan iborat bo'lib, asar teksti bir fard bilan tugaydi.

Demak, «Muhabbatnoma» xilma-hil janrlardan (noma, masnaviy, g'azal, qit'a, madhiya va boShqalardir) taShkil topgan asardir. Noma asarning yetakchi janri bo'lib unda Shoir sevgilisining xusn-jamolini tasvirlaydi, visol iShtiYoqi va hijron iztirobini kuylaydi va ko'pincha sabo orqali unga salom Yo'llaydi. Masnaviy Shoirning soqiyga murojaat qilib aytgan She'ri bo'lib uni soqiynoma deb ham ataSh mumkin. Bu kichik She'rda (ko'pincha 3 bayt) Shoir soqiydan may suraydi, o'z qayg'u-alamini yengillaShtirmoqchi bo'ladi va uni:

Sabrdin yaxShi yuqtur peSha qilsam,

Bu Yo'lda sabr Yo'q andeSha qilsam.

naqorati bilan tugallaydi.

«Muhabbatnoma» o'z nomi bilan ham iShq-sevgi asaridir. «Muhabbatnoma»dagi sevgi dunYoviy moxiyatga ega bo'lib, u insonning insonga bo'lgan sevgisining kuylaydi, uni e'tirof qiladi, u insonni tarkidunYo qiliShga emas, balki yaShaShga va haYotning qadr-qimmatini biliShga chaqiradi.

Erurman vaslingga doim talabgor,

Nechakim tun uzun bo'lsa, tongi bor.

Topilgay maqsudim topqungda bori,

Saodat qilsa Xorazmiyga Yori.

Og'ir uyquchi baxtim necha Yotkay,

Visoling maShriqidin ham tong otkay.

Xorazmiyning ma'lumotiga qaraganda, Muhammadxoja bekkina emas, balki ma'rifatparvar va qobiliyatli Shoir ham bo'lgan.

Kilichtek til bila tuttum jahonni

Qanoat mulki ichra podShomen.

Xarobot ichra masjidida yerim bor,

Kim uSh ham rind men, ham porso men

Necha haShmatli sulton bo'lsa bo'lsin,

Ayitmon mol uchun madhu sano men.

Sayfi Saroyi XIV asr o'zbek dunYoviy adabiYotining yirik namoyandalaridan biridir. U lirik va epik Shoir, noShir va tarjimon sifatida o'zbek dunYoviy adabiYoti va o'zbek adabiy tili taraqqiYotiga muhim xissa qo'Shdi.

Sayfi Saroyining haYoti va faoliyati haqida nihoyatda oz ma'lumotga egamiz. Sayfi Saroyi XIV asrning 20-yillari boShida tug'ildi. Uning quyidagi misralari muhim biografik ma'lumot beradi.

QamiShli yurt manim tuvgon elimdi,

Bilik g'urbatga kelturg'on bilimdi.

Kelib o'ldim saroyda She'r fidoyi,

Saroyning Shoiri, elning gadoyi.

Demak, Sayfi Saroyi «QamiShli yurt»da (bu hozirgi Xorazm oblastining SariqamiSh qiShlog'i deb taxmin qilinadi) tug'uldi, bilim olmoq uchun g'urbatga-musofirlikka yuz tutadi. Saroyga kelib She'riyat bilan Shug'ullanadi, She'riyat fidoysi bo'ladi. Shoir taxallusini ham Saroydan oladi. Sayfi Saroyi nomi bilan Shuhrat topadi. «Saroyning Shoiri, elning gadoyi» misrasi Shoir saroyda xukmdorlar saroyida bo'lgan deb faraz qiliShga Yo'llaydi. Muhimi Shundaki, qaerda bo'lmasin Shoir o'zini elning gadoyi hisoblaydi.

O'z davrining yetuk Shoirlaridan bo'lgan Sayfi Saroyi badiiy asarning originalligiga, mazmuni va Shaklining uyg'unligiga alohida e'tibor bergan, qobiliyatsiz, didsiz Shoirlarni kattik tanqid qilgan:

Jahon Shoirlari, ey gulShani bog',

Kimi bulbul durur so'zda, kimi zog'.

Kimi to'ti bekin chaynar Shakarni

Kimi lafzi bilan o'rtar durarni.

Sayfi Saroyi iste'dodli lirik Shoirdir. U ijodiy faoliyatini lirika bilan boShladi. Sayfi Saroyi butun umri davomida, Shubxasiz, katta lirik mahsulot yaratgan, ehtimol u lirik asarlarini tadvin qilgan, devon yaratgan. Afsuski, Sayfi Saroyining to'la lirik bisoti saqlanib qolmagan Yoki u hozirgacha topilmay keladi. «Gulistoni bit -turkiy» qo'lyozmasi, Shuningdek «Suhayl va Guldursun» qo'lyozmasi orqali bizga Sayfi Saroyi lirikasining ayrim namunalari ma'lum. Bu meros o'ndan ziYod g'azal, ikki qasida, ikki qit'a, ikki bayt She'rdan iborat. («Guliston» qo'l Yozmasiga ilova qilingan fors-tojik tilidagi 3 falsafiy ruboiy ham Sayfi Saroyi ijodiga mansub bo'liShi mumkin). Mana Shu namunalarning o'ziYoq Sayfi Saroyi lirikasining yetakchi xususiyati uning dunYoviy moxiyati, haYotiyigidir.

«Suhayl va Guldursun» dostoni XIV asr o'zbek dunYoviy adabiYoti bisotiga muhim hissa bo'lib qo'Shildi. Bu kichik doston dunYoviy Yo'naliShi, sevgi va sadoqatni, mardlik va jasoratni kuylaShi hamda tili va badiiy uslubi bilan o'zbek dunYoviy adabiYoti taraqqiYotiga, o'zbek adabiy tili kamolotiga hizmat qildi.

Dostonda tarixiy voqealarning, Temur va To'xtamiSh janglari hamda ularning oqibatining ma'lum aks-sadosi bor. Binobarin doston:

Emas afsona chin uShbu bitilmiSh,

Bu chin afsonadek iShqda yetilmiSh.

Ayttim og'labon davrim jafosin,

Bir yerning qissasi, axchi vafosin.

Temur O'rganja tortib keldi laShkar,

Ko'rib ko'z-ko'r, bo'lib qoldi quloq kar.

Mana Shu janglarda ko'p kiShi asir olinadi, asirlar qatorida To'xtamiShning o'g'li Suhayl ham bor ekan. Suhayl juda bahodir hamda go'zal yigit ekan. Temurning qizi Guldursun uni sevib qoladi.

Sayfi Saroyi hijriy 793 (milodiy 1390-91) yillarda Shayx Sa'diyning maShhur «Guliston» asarini o'zbek tiliga tarjima qiladi:

Muddati hijrat edi yuz to'qson uch,

Yil edikim oz edi olamda kuch.

Avvali Shavval edi kim ey aziz,

Xat o'ldi bu Gulustonomamiz.

Sayfi Saroyi buyuk fors-tojik klassigi Shayx Sa'diyning «Guluston» asarini tarjima qiliSh bilan birga Sharqning bu buyuk mutafakkiri va adibning axloqiy-ta'limiy qaraShlarini targ'ib etiSh, uning ijodiYoti bilan o'zbek va boShqa turkiy xalqlarni taniShtiriSh maqsadida uni tarjima qiladi.

### **Atoiy va Sakkokiy ijodi**

Atoiyning haYoti va faoliyati haqida uning o'z devoni va AliSher Navoiyning ayrim asarlarida ba'zi ma'lumotlar bor.

AliSher Navoiy «Majolisun-nafois»da mana bunday deydi: «Mavlon o Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveShvaSh va xuShhulq, munbasit kiShi erdi. O'z zamonida She'ri atrok orasida ko'p Shuhrat tutdi. Bu matla' aningdurkim:

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek ulturur,

G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bulur.

Qofiyasida aybginasi bor. Ammo Mavlon o ko'p turkona aytur erdi. Qofiya ehtiYojiga muqayyad emas erdi. Kabri Balx navohisidadur».

Yuqorida nomi zikr etilgan Ismoil ota haqida Navoiy «Nasoyimul-muhabbat»da quyidagicha Yozadi: «Ismoil ota ... zohiran Xuja Ahmad Yassaviy ... ning Ibrohim ota otlig inisining o'g'lidir... YoShi yuzga yaqin va avlodi o'n yetti Yo o'n sakkiz bor erdi. Avlodi orasidin IShoq otani o'z qoyim maqomi qilib olamdan o'tibdur ...» Husayn Voiz KoShifiy «RaShohot» asarida Ismoil otaning XuziYonda (ToShkent bilan Sayram O'rtasidagi qadimgi viloyat) tug'ilgani va Ahmad Yassaviyning tasavvuf oqimini davom ettiruvchilardan bo'lganini aytadi.

Bizga Atoiy devoning yagona qo'l Yozma sifatidagi nusxasi ma'lum. Bu qo'lyozma Atoiyning jami 260 g'azalini o'z ichiga oladi. Biroq Atoiy g'azallarining soni bundan ko'p bo'lgan bo'liShi va Shoir lirik turning boShqa janrlarida ham She'rlar bitib, ularni devonga kiritgan bo'liShi, lekin bu She'rlar bizgacha yetib kelgan qo'lyozmaga kirmagan bo'liShi mumkin. Ammo Shunga qaramay, devonning mavjud qo'lyozmasi ham Atoiyning o'zbek dunYoviy lirikasining iste'dodli va zakovatli yirik bir vakili sifatida gavdalantiradi.

Atoiy g'azallarida dunYoviy sevgini kuylaydi, tabiat ko'rki va insonning fazilatlarini ta'rif va tavsif qiladi, tarkidunYochilik va badbinlikka qarShi kuraShadi, xilma-xil badiiy lavxalar va obrazlar yaratadi. Xalq og'zaki ijodi boyliklaridan va Yozma adabiYot tajribalaridan foydalanadi, sodda, ravon, jo'Shqin va nafis baytlar tizadi:

Kel, ey dilbar, ki bo'ston vaqti bo'ldi,

Gul ochildi, guliston vaqti bo'ldi.

Qilay nola, boqib guldek yuzingga,

Chu bulbullarga afg'on vaqti bo'ldi...

Uqub gul baxtini majlisda har dam,

Bo'lub sarxush, gul afshon vaqti bo'ldi...

Mug'annilarga bulbullar bikin zor,

Hazonon nav'i ilhon vaqti bo'ldi.

Bu damkim, gul qilur bulbulga altof,

Atoiyga ham ehson vaqti bo'ldi.

Atoiy g'azal janrining ustoz san'atkorlaridandir.

Atoiyning ko'pchilik g'azallari, boShqa o'zbek klassik Shoirlariniki singari, 7 baytli g'azallardir. Atoiyning g'azallari orasida «Ul sanamkim suv yaqosinda paritek ulturur», «Jamoling vasfini qildim chamanda» va «Bu xusnu malohatki bizning Yorda bordur» kabi bir necha voqeaband g'azallar ham bor.

Atoiyning g'azallari ramal, hazaj va boShqa bahrlarda yaratilgan. Devonidagi 260 g'azaldan 109 tasi, akademik A.Samoylovich ta'kidlaganidek, romali musammani maqsur (foilotun failotun failotun failun) vaznida bitilgan. Bu baxr o'zbek klassik poeziyasida juda keng tarqalgan bo'lib, «turkiy» deb yutilgan o'zbek xalq qo'shiqlari Shu bahrda ijod qilingan.

### Sakkokiy

Atoqli lirik Shoir Sakkokiyning haYoti va faoliyati haqida juda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Sakkokiyning o'z devoni va AliSher Navoiyning «Majolisun-nafois» va «Xutbai davovin» asarlari uning yaShagan davri, adabiy faoliyati va XV asr adabiy haYotida tutgan o'rni haqida birmuncha ma'lumot beradi. Shu bilan birga, Shoir Yaqiniy o'zining «O'q va Yoy» munozarasida Sakkokiyni «turk (o'zbek) Shoirlarining mujtahidi (gayratlisi)» deb ta'riflaydi.

Sakkokiy Movarounnahrlikdir. U temuriylarning poytaxt Shaharlaridan bo'lgan Samarqandda yaShadi va ijod etdi. Sakkokiy devonidagi:

DaSht elidin Hoji Tarxonga yetuShsa bu g'azal,

Tark etar har baytiga osuda dunYosin Saroy

bayti uning boShqa yerlarda ham bo'lganini ko'rsatadi. Sakkokiy devonining bir necha qo'lyozma nusxasi ma'lum. Jumladan, Londonda, Britaniya muzeyida uning taxminan XVI asr O'rtalarida ko'chirilgan bir nusxasi va ToShkentda, O'zbekiston Fanlar akademiyasining SharqShunoslik institutida 1937 yilda Shomelan kotib tomonidan qandaydir manba asosida ko'chirilgan nusxasi saqlanmoqda. Sakkokiy devoni, o'z davrining an'alariga muvofiq, xudoga bag'iShlangan hamd va na't bilan boShlanadi. Keyin 10 qasida beriladi: bir qasida - naqShbandiy Shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida - Xalil Sultonga, to'rt qasida - Mirzo Ulug'bekka va to'rt qasida - Arslonxuja tarxonga bag'iShlanadi. Biroq nusxalarda «alif»dan tortib «nun»ga qadar bo'lgan g'azallar Yo'q. G'azal Sakkokiy lirikasining yetakchi janridir. Atoiy g'azallari kabi, Sakkokiy g'azallarining ham asosiy temasi sevgidir. Sakkokiy insonning insonga bo'lgan samimiy sevgisini kuylaydi va Sharafaydi. Bu sevgi haYotga, uning zavq-Shavqi, tabiat ko'rki va ezgu insoniy xislatlarga bo'lgan mehr-muhabbat bilan uzviy bog'lanadi. Sakkokiy gazallarida uch obraz: oShiq, Yor va raqib obrazlari yaratiladi. OShiq Shoirning o'zi. U samimiy va sadoqatli kiShi. Yorning visoliga oShiqdir, hijron azobi bilan o'rtanadi. Sevgining zavq-Shavqi va Yorning lutf-inoyatini orzu qilgan oShiq turli-tuman moneliklarga, alam-uqubatlarga giriftor bo'ladi.

IShq iShin Sakkokiy avval bilmayin oson ko'rib,

Oxiri o'z jonining iShini duShvor ayladi.

Agar Shirin uchun Farhod iShqi ko'hkan bo'lsa,

Netong Sakkokiy ham, jono Yo'lingda jonkan bo'ldi.

Sakkokiy g'azallarining ko'pi, boShqa lirik Shoirlarda bo'lganidek, 7 baytli g'azallardir. Sakkokiy devonining muhim bir qismini qasidalar taShkil etadi. Qasida elementlari o'zbek klassik adabiYotida ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lsa ham, lekin qasida maxsus adabiy janr sifatida o'zbek adabiYotida XIV-XV asrda vujudga keldi. Sakkokiy o'zbek qasidachiligining asoschilaridan biri bo'ldi. Sakkokiy hukmdorlardan Xalil Sulton va Mirzo Ulug'bekka, nufuzli ruxoniy va amaldorlardan Xoja Muhammad Porso va Arslon Xoja Tarxonga bag'iShlab qasidalar Yozdi. Sakkokiy Ulug'bekka bag'iShlangan qasidalaridan birida xalqqa murojaat qilib:

Jahondin ketti taShviShu mabodiyi amon keldi,

Xaloyiq, aySh eting bu kun, sururi jovidon keldi.

Tan erdi bu ulus barcha, aningdek joni bor Yo Yo'q,

Bihamdilloh, ug'on fazli bila ul tanga jon kedi,-

### **LUTFIYNING HAYOTI VA IJODI**

Lutfiyning haYoti va faoliyati haqida Navoiyning «Majolisun-nafois», «Muhokamatul lug'atayn», «Manoqibi Pahlavon Muhammad», «Xutbai davonin» va boShqa asarlarida, Shuningdek, DavlatShoh Samarqandiyning «TazkiratuSh-Shuaro», Xondamirning «Habibus-siyar», «Makorimul-axloq», Abdulla Qobuliyning «Tazkiratut-tavorix», Shamsiddin Somiyning «Qomusul-a'lam», Vozihning «Majmuai manzum va mansur» asarlarida ba'zi ma'lumot va mulhazalar baYon etiladi.

Biroq bu manbalardagi ma'lumotlar, Lutfiyning bizga qadar saqlanib qolgan asarlari ham uning biografiyasini to'la Yoritib bermaydi.

Barcha manbalarda ko'rsatiliShicha, taxallusi Lutfiy bo'lgan bu atoqli so'z san'atkori 1366 (Yoki 1367) yilda Hirot chekkasidagi Dehqanor degan joyda tug'ilgan va o'Sha yerda yaShab ijod etgan. Shuning uchun u manbalarda Lutfiyi Hiriy deb yuritiladi hamda sabzavorlik, niShopurlik, kaShmirlik, maShhadlik va boShqa Lutfiylardan farqlanadi. Lutfiy 99 yil umr ko'rib, Xuroson va Mavoraunnahrdagi turli tarixiy voqealarning Shohidi bo'ldi. Lutfiy iste'dodli Shoir va nozik didli tarjimon ham bo'lgan. U Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari tarjimasini boShlab qo'ygan edi.

Adibning ikkita devoni bizgacha yetib kelgan. Devon muayyan tartibga, ko'pincha, radif va qofiyalariga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tuzilgan top'liq She'rlar to'plamidir. Lutfiy o'zbek adabiYotini o'z g'azal, tuyuq va qit'alari bilan boyitgan adibdir.

Lutfiy g'azaliYotidagi asosiy mavzu - iShq. Adib tasviridagi oShiq - sadoqat timsoli. U o'z iShqiga maxbubining ham to'la iShoniShini istaydi:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Shoir ijodida Yordan Shikoyat qiliSh ohanglari asta-sekin boShqa tusga kirib, ijtimoiy haYotning ayrim illatlariga qarShi Shikoyat motivlari kuchayib boradi.

Xo'Sh, Lutfiy o'zi yaShagan muxitning qaysi illatlaridan Shikoyat qiladi? Lutviy zolim hukmdorlardan, mamlakatni harob va xalqni xonavayron qiluvchi bema'ni o'zaro urushlardan, «nodon»larning «dono»larga jabr-sitam ko'rsatiShidan Shikoyat qiladi, xasis va ximmatsiz davlatmandlardan g'azablanadi, miskin va benavo kiShilarning ahvoliga achinadi. U agar, sulton bedod (insofsiz) bo'lsa, o'zgalardan dod (insof) ko'tiSh amri mahol, deydi.



Lutfiy lirikasi Navoiy va Jomiy kabi ulug' so'z san'atkorlarining maqtovigiga sazovor bo'ladi, o'zbek, ozarbayjon, tojik va boShqa xalqlarning bir qator Yozuvchilari undan o'rnak oldilar, u xalq orasida Shuhrat qozonib, sevilib kuylanadigan bo'ldi.

Lutfiy lirikasining sehrlovchi kuchi nimada? Lutfiy lirikasining sehrlovchi kuchi uning dunYoviy (haYotiy)ligidir va yuksak san'atkorlik bilan yaratilganligidadir. Lutfiy lirikasi sodda, ravon va musikiy, tili boy va Shirali, badiiy usul va vositalari xilma-xil va original, xalq ijodining samarali ta'siri bilan kamol topgan lirikadir.

Lutfiy g'azallari ko'proq 5-7 baytlik g'azallardir. She'ning musiqiyligiga alohida e'tibor bergan. Lutfiy She'riyat bilan muzikani uzviy raviShda bir-biriga bog'laydi, o'z She'rlarini xalq kuylari va klassik kuylarga moslab bitadi, turli kuylarning nomini tilga oladi va bu nomlardan quyidagicha so'z o'yinlari ham yasaydi.

Lutfiy Hirida qolmadi She'ringa muShtari,

Azmi Hijoz qilki, maqoming Iroq emiSh.

(Hijoz va Iroq so'zlari ham o'lka, ham kuylar nomini ifodalagan).

Qutbning «Xisrav va Shirin» dostoni.

Haydar Xorazmiyning «Maxzanul – asror» dostoni

O'zbek dunYoviy adabiYotining XIV asrda etiShgan iste'dodli namoyandasi Shoir Qutbning adabiy merosidan bizga qadar faqat «Xisrav va Shirin» dostonigina yetib kelgan, xolos. «Xisrav va Shirin» ulug' Ozorbayjon Shoiri Nizomiy Ganjaviy dostonining erkin tarjimasi va ayni chog'da o'zbek epik poeziyasining yirik Yodgorligidir. «Xisrav va Shirin»ning muvaffaqiyat bilan tarjima qiliniShi va originalga kiritilgan bir qator yangiliklar (jumladan, muqaddimadagi original lirik She'rlar) Qutbning ko'p yillik adabiy tajriba egasi bo'lganini va asarlari bilan Shuhrat qozonganini ko'rsatadi. Biroq bu asarlar bizga qadar yetib kelmagan, ular haqida ma'lumot ham Yozib qoldirilmagan.

Nizomiy Ganjaviyning «Xisrav va Shirin» dostoni xorazmlik Shoir Qutbning diqqat e'tiborini o'ziga jalb etdi. Qutb Nizomiy badiiy daxosini qudratini taqdirladi. «Xisrav va Shirin» dostonida qo'yilgan problemalarning o'z aktualligi va qimmatini saqlab kelaYotganini tuShundi va bu dostonni tarjima qiliSh fikriga keldi. Biroq moddiy muhtojlik bunday katta va mas'uliyatli vazifani amalga oShiriShga imkon bermadi. Shuning uchun Qutb malikaga va uning eri Tanibekka murojaat qilib, o'z muddaosini aytadi. Ular Qutbni qabul qilib, unga moddiy Yordam beradilar.

Aftidan, Qutb «Xisrav va Shirin»ni Oq O'rdaning o'zida ijod qilgan bo'lsa kerak. Chunki malika madhida Yozilgan She'ning quyidagi bayti Shundan dalolat beradi:

Jamilaxon mulki ul baxt ulki,

Oq O'rda davlati ul taxt ko'rki.

«Xisrav va Shirin»ning yagona qo'l Yozma nusxasigina ma'lum. «Xisrav va Shirin» qo'l Yozmasi 120 varaq (240 bet) bo'lib, 4740 baytni o'z ichiga oladi. Bundan 4685 bayt bevosita Qutbning o'ziniki bo'lib, qolgani kotib tomonidan ko'Shilgan ilovadir. Doston 91 bobdan iborat. Dastlabki boblar traditsion «hamd», «na't» va boShqalarni hamda «Shahzoda Tanibekxon madhi», «Kitob nazm kilmoqqa sabab baYon ayur» qismlarini o'z ichiga oladi. Dostondagi asosiy voqea «Xisrav va Shirin hikoyasini avvali» bobi bilan boShlanadi. Qolgan barcha boblar Xisrav bilan Shirin sarguzaShtiga doir voqealar baYoniga bagiShlangan bo'lib, har bir bob dostonning muhim bir epizodini, kompozitsion xalqasini taShkil etadi va matn «Necha so'z xotimatul-kitobda aytur» bilan tugaydi.

Qutb Nizomiyning xotin-qizlarga insonparvarlik bilan qaraShini «Xisrav va Shirin»ning tarjimasida ham

mukammal aks ettiriSh bilan xotin-qizlar obrazini yangi sifatlar bilan birmuncha boyitadi.

Sadaf ichra tizilmiSh tiShlari dur,

TiShimning Shu'lasini durga berur nur.

Ajoyibroq ikki la'li badaxShon,

Ko'rarman bo'lmiSh ul dur uzra g'alton.

Qaroki jodusi ko'rganni o'rtar,

Yomon ko'zlik ko'zin kun birla o'rtar.

Tilin tebratsa ul, el ko'nglin ovlar,

So'zi afsun mensiz tillarni bog'lar.

### **Haydar Xorazmiy**

Haydar Xorazmiy XIV asrning oxirlari va XV asrning birinchi yarmida yaShab ijod etgan va «Maxzanul-asror» dostoni bilan o'zbek adabiYoti va adabiy tilining rivojiga xissa qo'Shdi, fors-tojik tilidagi She'rlari bilan ham adabiYot axllari tomonidan e'tirof etildi.

Haydar Xorazmiyning haYoti va faoliyati haqida nihoyatda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Bu Shoir haqida Navoiy «Majolisun-nafois» va «Muhokamatul-lug'atayn»da, DavlatShoh Samarqandiy «TazkiratuSh-Shuaro»da ba'zi bir ma'lumotlar beradilar, uni ta'riflaydilar.

Haydar Xorazmiy lirik merosi saqlanib qolmagan Yoki no'malum qolib kelmoqda. Undan bizga qadar Nizomiy Ganjaviyning (1141-1209) «Panj-ganji»ga kirgan birinchi dostoni «Maxzanul asror»dan ilhomlanib va unga javoban bitgan Shu nomdagi doston etib kelgan. Bu dostondagi ayrim satrlar Shoirning biografiyasi va ijodiy faoliyati haqida ayrim ma'lumot va iShoralar beradi.

Haydar asli Xorazmdandir. Uning Haydar Xorazmiy deb ataliShdan ham Shu boisdandir. U qachonlardir Fors viloyatiga kelgan. Birmuncha vaqt, Navoiy va DavlatShoh ta'kidlaganlaridek, Sulton Iskandar huzurida bo'lgan, unga hizmat qilgan.

Nizomiyning «Maxzanul-asror» dostoni falsafiy-ta'limiy dostondir. U 59 bobdan taShkil topgan bo'lib, 18 bobi muqaddimadir. Dostonning asosini 20 maqolot, 20 hikoya taShkil etadi. Doston xotima qismi bilan tugallanadi. Maqolotlarda Shoir yaShagan davrining muhim ijtimoiy-siyosiy va axloqiyta'limiy masalalari haqida fikr yuritadi, hikmatli o'git beradi, gumanizm g'oyalarini ilgari suradi, saroy muxitining bir qator illatlarini tanqid qiladi. Maqolotlardan keyin Shoir kichik hajmli biror hikoya keltiradi. Bu hikoyalar maqolotlardagi masalalarni chuqurroq Yoritish va xulosalar chiqarishga Yordam beradigan ko'rgazma vazifasini bajaradi Yoki navbatdagi maqolotga o'tish uchun bir vosita-ko'pri bo'lib hizmat qiladi.

Maqolotlarda Shoir adolat, mamlakatni boShqarish va xalqqa munosabat, zolim podSholardan Shikoyat, mehnat va uning foydasi, kiShilarga yaxShilik qilish va qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, raShk va xasadning zarari, saxovatning foydasi, baxillikning Yomon oqibati va boShqalar haqida davrining ulug' mutafakkiri sifatida fikr yuritadi.

Haydar Xorazmiy axloq-odob haqida, taraqqiyparvarlik fikr-muloxazalarini ilgari suradi. Olijanob insoniy fazilatlarini targ'ib qiladi. U kiShilarni yaxshi-xulk odobga ega bo'lishga, jamiyatga foyda keltirish, muruvvatli va ximmatli bo'lishga chaqiradi, ximmatsiz va saxovatsiz kiShilarni kattik qoralaydi:

... Boy daguldur dirami bor esa,

Faqir ganiydur karami bor esa...

Yarim oYoq oShki toparsen nasib,

Yarmini berki, esun bir g'arib.

Me'da tamug'ikim erur duShmaning,

Ko'nmagusidur agar ichsa qoning.

Odam atongonga muruvvat kerak,

Orifu omiyga futuvvat kerak.

Sarvdek ozoda bulu rostkor,

Yo o'riku olma bikin mevador.

Haydar Xorazmiy hikoyalarida biz Hotami Toy, Bahlul, Mahmud Gaznaviy, Sulaymon, Yoqub va Yusuf kabi an'anaviy obrazlarni, Shu bilan birga, yangi haYotiy obrazlarni ko'ramiz.

Markaziy OsiYoda ijtimoiy-tarixiy tuzum murakkab tus oldi. Keyingi asrlarda mayda bekliklarga bo`linib ketiSh, turli xonliklarga ajraliSh harakati ko`chayib, millat va davlat parokandalikka yuz to`tdi. Xiva, Buxoro va Qo`qon xonliklari Shakllandi. Bu hol davlat va jamiyatning barcha sohalarini tuShkunlik va tanazzulga mahkum etdi.

Xonliklar o`rtasida ta`sir doirasi uchun har doim uruShlar, nizolar davom etdi. Umuman, XVII-XIX asrning birinchi yarmi siYosiy, iqtisodiy, madaniy haYotda, xalqaro munosabatlarda oldingi yutuqlarni Yo`qotiSh, ko`p sohalarda ortga ketiSh bilan tarixda ma`lumdir.

SiYosiy haYot mayda mustaqil davlatlar vujudga keliShi bilan xarakterlansa-da, bu omilning o`zi madaniy yuksaliSh uchun yetarli emas ekanligini namoyon etdi.

Iqtisodiy haYotda ham o`zaro uruSh-nizolardan hunarmandchilik, dehqonchilik savdo-sotiq iShlariga katta zarar keltirdi, taShqi savdo aloqalari susaydi.

Albatta, bu ulkan hudud maydonlarida qadim zamonlardan buYon rivojlanib kelgan binokorlik, me`morchilik, kitobat, badiiy ijod sohalari, zargarlik, kulolchilik, tikuvchilik, qozonchilik, pichoqchilik, temirchilik kabi xalq amaliy san`ati turlari davom etdi. O`zaro uruShlar, qirg`inlar davrida ham xalq san`ati o`lmadi, nodir mo`jizalar yaratiliShi tufayli jon saqladi.

Madaniy haYotda an'anaviy islom, aqidaparastlikning ta`siri kuchaydi, maorif, ma`rifat sohasida ham asosan diniy ta`limotlar ustunlikni egallay boShladi, oldingi ma`naviy yutuqlarning ta`siri kamaydi, diniy ilmlar yetakchi o`ringa chiqdi. Lekin, Shunga qaramay, madaniy haYotda qator ijobiy o`zgariShlar yuz berganini ham ko`ramiz. Xususan, adabiYot, tarixiy ilmlar, san`atning ayrim turlari sohasida yirik adib, Shaxslar yetiShib chiqdi. Tasavvuf ham o`zining oldingi ahamiyatini o`zgartirib, ijtimoiy rolini Yo`qota bordi. O`zbek tilining mavqei kuchayib, undan adabiYotda borgan sari keng foydalanila boShlandi. XIX asrning birinchi yarmida har uch xonlikda madaniyat, adabiYot va tarixnavislikda muhim jonlaniSh vujudga keldi.

### **Boborahim MaShrab**

Boborahim MaShrab 1640-yilda Namanganda kosib oilasida dunYoga kelgan. YoShligida Sharqning Ahmad Yassaviy, Hofiz Sheroziy, Lutfiy, Navoiy, Rumiy, Nasimiy kabi namoyandalari ijodini yaqindan o`rgangan. MaShrabning Shoir sifatida ShakllaniShida uShbu ijodkorlarning ta`siri katta bo`lgan. Namangandagi birinchi ustozi Mullo Bozor Oxund ma`lum mudoga ulaShgan MaShrabni QaShqardagi maShhur eShon Ofoqxo`ja huzuriga yuboradi. O`z She`riy is`tedodi va Yoqimli She`rlari bilan Ofoqxo`jada yaxshi taassurot uyg`otadi. Ayrim rivoyatlarga qaraganda, Shoirga MaShrab taxallusini ham Ofoqxo`ja bergan.

MaShrab 18 yillik safardan Namanganga qaytib kelgandan keyin 1 yil Movarounnahr Shahar-qishloqlari

bo`ylab saYohat qiladi. 1691-yilda Pirmat Setoriy bilan 20 yillik uzoq safarda bo`ladi. 1711-yili Balx hokimi Mahmud Qatag`on MaShrabni dag`al muomalada ayblab, dorga osib o`ldiriShga hukm qiladi. Shoir jasadi Afg`onistonning Mozori Sharif Shahridan 400 km chamas naridagi Xonobod nohiyasining IShlamiSh qiShlog`ida dafn qilingan.

MaShrab ijodiga ilmiy nuqtai nazardan YondaShiSh ilk bor XIX asr boShlarida Evropa olimlari tomonidan boShlab berilgan. Keyinroq esa 1900-yil Parijda SharqShunoslarning birinchi xalqaro kongressi bo`lib o`tadi. Unda I.Goldsner "Forlarda islom" nomli muqaddas qadamjolar haqidagi dokladi bilan qatnaShgan. Bu dokladga javoban nemis olimi Martin Xortman qo`lida mavjud "Devoni MaShrab" va "Shoh MaShrab" qissalaridan foydalanib "Dono darveSh va avliYo dahriy" (1902), "Qadamjo" (1903) maqolalarini Yozgan.

Evropa olimlari e`tiborini ko`proq MaShrab nomi bilan bog`liq sarguzaShtlarga boy xalq kitoblari o`ziga tortadi. 1900-yilda bo`lib o`tgan kongressda fransuz olimlari Dmitrey de Renn va Bernar Grenerlar "Buyuk OsiYoga safar" ma`ruzasida MaShrabni "sabr-toqatli, goho aqlli, goho telba, haYotini zoe o`tkazadigan va Shu bilan birga, jiddiy"- deya ta`riflaShgan. Biroq ular MaShrab yaShagan ijtimoiy muhit, uning tarjimai holi va maslagini deyarli e`tiborga olmaganlar, Shunday bo`lsada, Evropa olimlarining MaShrab haYoti va ijodiga qiziqiShi keyinchalik ham so`ngani Yo`q. 1992-yilda MaShrab yubileyi munosabati bilan Fransiyada "Qissai MaShrab" naShr qilingan edi. AdabiYotShunos Xalilbekov 1993-yilda MaShrab She`rlari Parijda naShr qilingani haqida ma`lumot beradi.

Rus SharqShunoslarining tadqiqotlarida MaShrab nomi bilan bog`liq qaydlar XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin uchraydi. A.P.XoroShxin, V.P.Nalifkin, N.I.Viselovskiy, LikoShin, Vyatkin, Snisarev kabi olimlar Shoir haYoti va ijodini o`rganiShga o`z hissalarini qo`shganlar. Rus SharqShunoslarining "Islom" ensiklopediya lug`atlarida ham Shoir haYot Yo`li va faoliyatiga alohida o`rin ajratilgan. MaShrabShunoslikning ilk bosqichida Shoirning tarixiy haYotini manobalardan farqlamay, ko`proq xalq og`zaki ijodiga suyangan holda o`rganiSh ba`zi bir munozaralarning yuzaga keliShiga sabab bo`ldi. 1926-yilda Sadridin Ayniy o`z asarida MaShrab haqida qisqacha ma`lumot bergan edi. (A.S.Namunai adabiYoti tojik. Samarqand. 1926, 169-bet). Ammo bunday bahslarga nisbatan yaratilgan professor Abdurauf Fitratning "MaShrab" ilmiy maqolasi o`zbek adabiYotida Shoir haYoti va ijodiga oid jiddiy tadqiqotdir. Ustoz Fitratdan keyin Izzat Sulton, G`afur G`ulom, Vohid Abdullayev, Abduqodir Hayitmetov, AbduraShid Abdug`ofurov, Muhsin Zokirov, Ibrohim Haqqulov, Najmiddin Komilov, Jaloliddin Yusupov, Ismatillo Abdullayev, Abdulhakim Shar`i Juzjoniylar MaShrabShunoslikka muhim hissa qo`shdilar. Bugungi kunda MaShrabShunoslik asosan ikki yunaliShda:

-Shoir merosini naShr ettiriSh;

-Shoir haYoti va ijodini o`rganiSh yunaliShida davom etmoqda.

Boborahim MaShrabning adabiy ijodiy merosi ham xuddi uning haYot Yo`li kabi zamonlar o`tiShi bilan afsonalar pardasiga chulg`anib, parokanda bir holatda bizgacha yetib kelgan. MaShrabning bizgacha yetib kelgan adabiy merosi, asosan, 3 ta manba orqali amalga oShgan:

"Devoni MaShrab" qissalari.

BaYozlar.

Turli majmualar.

Qissalar "Devoni MaShrab", "Devonai MaShrab", "Eshon MaShrab", "Eshoniy Shox MaShrab" kabi nomlar bilan atalib kelingan. Bu nomlar ichida eng ommaviylaShgan "Devoni MaShrab" dir. Biroq bu kitoblar "Devoni MaShrab" nomi bilan yuritilsa ham, ularning hozirgacha ma`lum nusxalarining birontasida ham devonga xos xususiyat Yo`q. Ularning tuziliShi xalq dostonlariga o`Shxab ketadi. "Qissa" larning aksariyati "Ammo roviylar andog` rivoyat qilibdurlarkim..." deb boShlanadi va "Xolo xazrati EShoni Shoh MaShrabning qabrlari IShkonneShdadur" deb tugallanadi.

Qissalardagi rivoyatlar oraisda Shoir She`rlaridan namunalar keltiriladi. She`rlarining hammasi ham rivoyat mazmuniga bog`lanmaydi. She`rlar qissaning bo`shdan oxirigacha betartib joylashtirilgan. Bunda devoniy tartib haqida so`z ham bo`lishi mumkin emas. Ular taxminan rivoyat -g`azal, rivoyat-muxammas, rivoyat-mustazod, rivoyat-murabba` holatida beriladi. Shuningdek, turli davrlarda ko`chirilgan "Devoni MaShrab" lar ham bir xillikka ega emas. Ular rivoyatlarining turlligi, She`rlar soni va hajmining bir-biriga mos kelmasligi, ko`chirilgan joyiga ko`ra dialektik nuqtai nazardan matnlardagi Shevaga xoslik kabi xussiyatlari bilan ham farqlanadi.

B.MaShrab ijodiy merosi professional kotiblar, Shuningdek, She`riyat muxlislari tomonidan tuzilgan baYozlarda ham keng o`rin olgan. XVIII asrning oxiri XIX asrning bo`shlarida tuzilgan baYozlardan MaShrab She`rlaridan ko`plab namunalar keltirilgan.

Ba`zi jihatlari bilan baYozlarga o`xshaydigan, ammo ulardan jiddiy farqlanuvchi to`plamlar ham bor. Bunday to`plamlarni baYozlar sirasiga qo`shib bo`lmaydi. Chunki bu majmualar hajm jihatdan katta bo`lib, uning tarkibiga kiritilgan Shoir She`rlariga keng o`rin berilgan. Ularda faqat lirik She`rlar emas, balki epik asarlardan ham namunalar joy olgan. XVIII-XIX asrlarda ko`chirilgan bir qancha to`plamlarda MaShrab She`rlaridan namunalar keltirilgan, ularning ayrimlarida afsona va rivoyatlar, Shoir She`rlaridan berilgan namunalar alohida berilgan.

Ana Shu manbalarga asosanlangan holda 1990-yilda MaShrabShunos olim Jaloliddin Yusupov tomonidan MaShrab She`rlari to`planib "Mehribonim, qaydasan" nomi bilan nashr qilindi. Unga Shoir qalamiga mansub bo`lgan 224 ta g`azal, 18 ta mustazod, 4 ta murabba`, 39 ta muxammas, 2 ta musaddas, 1 ta musabba` kiritilgan.

MaShrab insonda ilohiy fazilatni ko`rish va seviSh, ayni vaqtda ilohda ham inson xislatini ko`rishni targ`ib etadi. Bu maslakning mantig`i Shuki, barcha yaxshiliklar, ezguliklar ilohdan, Shuning uchun ilohni sevgan kiShi yerdagi yaxshi odamlarni, Yoru birodarlarni, ota-onasi, elu yurtini ham sevadi, karamli saxovatli bo`ladi.

Shoirning ko`pchilik tasavvufiy g`azallarida haqiqiy iShqning baland nuqtasini belgilaydigan sufiYona hislar, favqulodda tug`Yonli kechinmalar tasvirlangan. Shunday g`azallardan birida o`qiymiz:

Onqadar darYo bo`libman osmong`a sig`madim,

Toqi arShu kursiyu lavhu jihong`a sig`madim.

Shoir forsiy g`azallaridan birida "Ijodimni Anal xaqlik desang, men iShqning tajalliparvariman," - deb Yozgandi. Yuqoridagi misralar bilan bo`shlanuvchi g`azalning g`oyaviy tarkibi Anal-haqlik va tajalliparvarlik mohiyatidan tarkib topgan. G`azalning navbatdagi baytlarida bu haqiqat to`liq ravshanlashadi:

Kimga soyam tuShsa bir nuri yaqin bo`ldi u ham,

Daftari ruhi qudsdurman, zabonga sig`madim.

Jannatu kavsar manam, ham do`zaxu saqar manam,

Bir o`zumdurman bu dam, haft osmonga sig`madim.

Bor edim Nuh vaqtida, g`arq etmadi to`foni ham,

Hamrohi Muso bo`lib Turu Sinonga sig`madim.

Ellik yil Iso bilan yurdum o`lukni tirguzib,

Boisi bir nuqtadin, MaShrab, zamonga sig`madim.

G`azalda ilohiy "iShq sirin baYoni" berilgan. Bu iShq o`tidan kiShiga "zarrae yetsa" kifoya, u na zaminga, na osmonga, na zamonga sig`maydi. Chunki u olamu bu olamni o`zida birlashtiradigan poYonsiz kenglikka tuShadi. She`ridagi Nuh, Muso, Isoga tegiShli talmehlardan oq tavid holatining tasvirini muShohada qiliSh mumkin. Lekin Shoir "haft osmonga", "Turu Sinonga" va "zamonga" sig`maslik sababining boisi "bir nuqtadin", deb ta`kidlaydiki, bu nuqta-Anal Xaqlik zavqidir. MaShrab buni "Ajab Majnunlik", "ajab devonalik" deb ham xarakterlaydi.

Xalq orasida qalandardek yurib o`tli misralar bitgan MaShrab g`azallari asrlar davomida nasllar orasida qalblardan qalblarga qalqib ko`chib kelaYotir. Buyuk is`tedodli Shoirning so`zi Sharqda hamon betakror, hamon haqiqat uchun dadil jangga kirganlarga hamdam maslakdoSh: ammo kechayu kunduz mol tilagida yurgan "o`z nafi bilan sargardon" kiShilarning esa qattol duShmani, ogoh etuvchi hoziru nozir bir ovoz.

### Jahon Otin Uvaysiy

Jahon Otin Uvaysiy XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yaShab ijod etgan maShhur o`zbek Shoirasi.

Jahon Otin qadimiy madaniyat markazlaridan bo`lgan Marg`ilon Shahring Childuxtaron mahallasida taxminan 1780-yilda dunYoga kelgan. U o`z davrining ma`rifatli oilasidan bo`lib, uning otasi She`rlar Yozgan, onasi Chinni bibi maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon Hofiz ham taniqli madaniyat va san`at homiyalaridan edi. Uvaysiy oilada tahsil olib, savod chiqaradi. Keyinchalik uni marg`ilonlik kosib Xojixonga uzatadilar. Lekin Xojixon juda erta vafot etadi. Qizi QuYoShxon va o`g`li Muhammadxonlarni o`zi tarbiyalab voyaga yetkazadi. Maktabdor muallima va Shoira sifatida nom qozongan Uvaysiy Marg`ilonga Umarxon hokim etib tayinlangandan so`ng, saroyga taklif etiladi. U yerda Mohlaroyim bilan taniShadi. Saroyda She`riyat ilmidan dars berib, bir necha Shogirdlar yetiShtiradi. O`g`li Muhammadxon QaShqar yuriShiga jo`natilib, qaytib kelmaydi. Qizi QuYoShxon She`riyatga havasmand bo`lib, Xoniy taxallusi bilan She`rlar Yozadi. Uvaysiy Nodira vafotidan keyin Marg`ilonga qaytadi. 1850-yilda Shu yerda vafot etadi.

Shoiradan bizgacha katta hajmdagi lirik meros va qator dostonlar yetib kelgan. Ma`lumotlarga qaraganda, uning butun haYoti davomida Yozgan lirik asarlari 4 devonni taShkil etadi. Shuningdek, Shoira uchta doston ham Yozgan. Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi SharqShunoslik instituti qo`lyozmalar fondida 1837-raqam bilan Uvaysiyning mukammal qo`lyozma devoni saqlanadi.

Shoiraning "Karbonoma" Yoki "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husayn haqida doston", "Voqeoti Muhammad Alixon" (tugallanmay qolgan) dostonlari ham Shu devondan o`rin olgan. Devon tarkibida 269 ta g`azal, 29 ta muxammas, 55 ta musaddas, 1 ta murabba` jamlangan. Hamma asarlari o`zbek tilida 1857-1858-yillarda MuhammadShoh Yunusxon tomonidan ko`chirilgan bo`lib, 100 sahifadan iborat. XX asrning 60-yillarida Shoiraning Marhamat tumanida istiqomat qiluvchi avlodlari qo`lidan uchta topildi. U Andijon DPU da saqlanadi. Ulardagi She`rlarning katta bir qismi 1963-yilda kitobxonlar hukmiga havola etildi. Shuningdek, adabiYot xrestomatiyasi va to`plamlarida Uvaysiy ijodidan namunalar kiritilgan bo`lib, ular ham keng jamoatchilikka Shoira adabiy merosi, adabiy faoliyati haqida tasavvur hosil qiliShda muhim rol o`ynagan. Uvaysiy She`riyati bilan qiziqiSh, uni taShviq etiSh iShlari ancha vaqtlardan buYon davom etib keladi. Cho`lpon, Oybek, V.Zohidov, V.Abdullayev, A.Qayumov, E.Ibrohimova, T.Jalolov, M.Qodirovlarning amalga oShirgan tadqiqotlarida Uvaysiyning o`zbek adabiYoti tarixida o`ziga xos bo`lgan o`rni belgilab berilgan.

Uvaysiy lirikasi klassik adabiYotidagi bir qancha She`riy janrlar birligidan iborat. Ular orasida g`azal, ilhom bilan yaratilgan muxammaslar, musaddaslar, masnaviyalar, fardlar, chistonlar bor. Tuyuq turkiy She`riyatning qadimiy janrlaridan biri. Bu janrda ijod qiliShning o`ziga xos zavqli tomonlari bor. U Shoira ShakldoSh so`zlar, ya`ni tajnis vositasida jozibador mazmunlar kaShf etiSh imkoniyatini ochadi. Uvaysiyning tuyuqlari uning bu sohada ham e`tiborli natijalarga eriSha olganligidan dalolat beradi. U

tuyuqlardan birida Yozadi:

Majnuni devonlarg`a tuz kerak

Laylisi bo`lsa musaffo tuz kerak.

So`zlagil ey Yor, vasf aylay so`zing,

Jo`ShiShi nazmimg`a bo`ldi tuz kerak.

Bu tuyuq She`r va iShq to`g`risida. "Tuz" so`zi 3 o`rinda 3 xil ma`noda qo`llangan.

1) Tuz-daSht, sahro. U "Majnuni devonlarning makonini mayin qiladi".

Tuz-to`g`rilik. Gap oShiqlikning boSh mezoni-to`g`rilik xususida;

Tuz-mantiq-ma`no. Lirik qahramon aytmoqchiki: -ey Yor so`zlagil, men so`zlaringni vasf etay. Chunki nazmining jo`Sh uruShiga mazmun kerak.

iShqing bilsang, ko`ngilda saqlanur,

Mard esang albatta dilda saqla nur.

Majnuni devonadin qilma darig`,

Bir so`zing birla nechalar saqlanur.

UShbu to`rtlikning umumiy ma`nosi oson anglaShiladi:

1. iShqing saqlaniSh joyi ko`ngil;
2. mard bo`lsang albatta dilda nur saqla;
3. Majnuni devonaga Shavqat qil;
4. negaki bir so`zing bilan nechalar omon qoladi.

Uvaysiy murabba, muxammas, musaddaslari o`qilganda, beixtiYor uning "Hayrat chamani ichra qolding" degan so`zlari xaYolda jonlanadi. Haqiqatdan ham, ular hayrat chamaniga, Shu chamandagi yaShnoq va xilma-xil anvoyi gullarga o`xShaydi:

Yorab, o`z holi pariShonima tokay yig`lay,

To`kib oldimg`a bag`ir qonima tokay yig`lay,

Tinmayin tundagi afg`onima tokay yig`lay,

So`rmag`on holimi sultonima tokay yig`lay,

Toki iShq o`ti aro qil kabi sozon o`lay

Yo ajal jomini tutg`il, bu kun oson o`lay.

Uvaysiy yaratgan lirik asarlarning katta qismini g'azallar taShkil etadi. Uning g'azaliYoti markazida dahr bog`idan "hasrat gullari" ni tergan, "bu olam ahlidan bir dardmand" topmagan, bag`riqon, ruhi xazon oShiq qismati, uning ma`naviy tarjimai holi turadi. Bu Shaxs iShq, vafo, yaxShilik kuychisi. Uning dunYoda tayanadigan yagona haqiqati-muhabbat. U chin odamiylik Sharafini haYotiy va insoniy sevgida ko`radi. Shoiraning lirik qahramoni o`zini "UShbu dunYo ichra", "misli mehmon" biladi. Lekin, uningcha, eng oliy maqsadi dunYoning mehmoniy his tuyg`ulariga aldanmaslik. Uning ma`rifati-iShq. Ta`lim maskani "iShq maktabxonasi":

Ey, ki iShq atfolisan, qaddi niholidin o`qi,  
Tonibon qaddini, ondin so`ng xaYolimdin o`qi.  
To Zulayhodek sazovor o`lmay urma lofi qof,  
Majmari iShq ila san Yusuf jamolidin o`qi...

Uvaysiy ijodida to`liq Shakllardagi orifona g'azallar bo`lmasada, Shoira devonida oriflik bilan aytilgan baytlar juda ko`p. Uning "DarYoi ilm jo`Sh uribon mavji nazmidin, vasiyni Sha`biy chaShmasidin chiqti bu zulol", degan so`zlari orifona baytlarga nisbat berilsa, xato bo`lmaydi. Qanoat odamni tarbiyalaydi, u ruhning farog`ati. Qanoat odamni har kuni har soat tozalab, mol dunYo, mansab, Shahvatu hirs kabi balolardan xalos etib boradi. Uvaysiy klassik adabiYotimizdagi qanoat kuychilariga izdoSh bo`lgan. U qanoatni "dard ahlining darmoni" deb biladi.

Nafs illatin, ey Vaysiy, judo ayla Yoqangdin,  
Tutqil sen o`zing o`lguncha domosi qanoat.

Uvaysiy Sharq She`riyati maktabidan puxta ta`lim olib, poetik mahoratini takomillaShtirgan. Uvaysiy nuqtai nazaricha, jozibali She`r- "muxtasar va mutaassir" She`r. U muxtasar Yozadi. So`zni ta`sir quramiga aylantiradi. Bunga esa xilma-xil badiiy usul va vositalar izlaSh, ularni mohirlik bilan qo`llaSh orqali eriShiladi.

### **Mohlaroyim Nodira**

Mohlaroyim Nodira XIX asrning birinchi yarmida yaShab ijod etgan maShhur Shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiYot homiysidir.

Nodiraning tarjimai holi o`Sha davrda va undan keyin Yozilgan tarixiy va adabiy majmualarda ancha keng Yoritilgan.

Mohlaroyim 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulbiy oilasida tug`iladi. Rahmonqulbiy Ming urug`iga mansub zadogonlardan bo`lib, Farg`ona hukmdori Olimxonning tog`asi edi. Onasi OyShabegim ma`rifatli aYol bo`lib, oilasi Bobur nasliga mansub bo`lgan. Nodira tahsil olgan yillarida xalqimizning tarixi, madaniyati, ma`naviyatidan yaxShigina xabardor bo`lib o`sdi. O`zi ham aql-farosati, go`zalligi va She`riy qobiliyati bilan tanildi. 1807-yilda Marg`ulon hokimi Umarxonga turmuShga chiqadi. Umar Amirxon 1810-yildan keyin (Olimxon qatlidan so`ng) Qo`qon xonligi taxtiga o`tiradi. Shundan boShlab Mohlaroyim taqdiri Qo`qon bilan bog`lanib qoladi. Qo`qondalik paytida Nodira Sharq klassiklari asarlarini qunt bilan o`qiydi, o`zining dilkaSh g'azallari bilan tanildi. Nodiraning She`riy qobiliyatini rivojlantirishda uning haYot Yo`lidoShi, Amiriy taxallusi bilan She`rlar Yozgan Umarxonning homiyligi sezilarli edi. Shoiraning katta o`g`li Muhammad Ali ham Xon taxallusi bilan She`rlar Yozadi. Kichik o`g`li Sulton Mahmudxon esa doniShmand bir Shaxs bo`lib yetiShadi. 1822-yilda Umarxon bevaqt vafot etadi. Nodiraning 14 yaShar



o`g`li Muhammad Alixon xon qilib ko`tariladi. Lekin katta hududni o`z ichiga olgan davlatni 14 yaShar bola idora qila olmasligini nazarda tutgan Mohlaroyim mamlakat boShqariSh iShlarida faol iShtirok eta boShlaydi.

Shoiraning zamondoShi Xotifning guvohlik beriShicha, Nodira Umarxon vafotidan keyin Farg`ona, ToShkent, Xo`jand, Andijon kabi Shaharlardan olimlar, xattotlar, naqqoShlarni Qo`qonga chaqirtirib keladi. Madrasalar, kutubxonalar qurdiradi. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, MaShrab, Amiriy singari Shoirlarning asarlarini nasta`liq xatida ko`chirtirib, muqovalatadi. Manbalarda aytiliShicha, o`Sha paytda yuzaga kelgan madaniy va adabiy haYot yangiliklarining aksariyati Nodira nomi bilan bog`liq edi. Xotif Nodiraning aqli doniSh, adolat, saxovat, insof, muruvvat kabi yaxShi fazilatlari tufayli "Nodira davron" laqabi bilan tanilganini Yozadi.

Nodira nihoyatda murakkab bir Sharoitda yaShadi. U mamlakatning ichki va taShqi haYotidagi o`ta ziddiyatli vaziyatning guvohi bo`ldi. Xonliklar o`rtasidagi muttasil keliShmovchiliklar Mohlaroyim faoliyatining keng ravnaq topiShiga rahna solib turardi. Oqibatda Buxoro amiri Nasrullo turli bahonalar bilan Qo`qonga bostirib boradi. Go`Yo bu yerda izdan chiqqan Shariat ahkomlarini nizomga solmoqchi bo`ladi. Mohlaroyimning ikki o`g`li-Muhammad Alixon, Sulton Mahmudxon, nabirasi Muhammad Alixonlar bilan birgalikda vahShiylarcha o`ldiradi. Shoira bu paytda 50 YoShda edi.

Badiiy ijodga katta e`tiqod bilan qaragan Shoiraning bizgacha 3 ta devoni yetib kelgan. Ularda Shoira Komila, Nodira, Maknuna taxalluslari bilan ijod qiladi. Shoira g`azallari o`zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan. Shoira o`zbekcha devoniga Yozgan debochasida Navoiy, Fuzuliy, Amiriy devonlari qatori saroydagi aYollar iShtirokida o`zining ham devonlari tuzilgani haqida ma`lumot bersada, haligacha Shoiraning o`z davrida ko`chirilgan Yoki dastxat holiday devoni bizgacha yetib kelmagan. O`zbekiston Respublikasi FA Beruniy SharqShunoslik institutida, H.Sulaymonov nomidagi qo`lyozmalar institutida saqlanaYotgan, Namangandan topilgan devonlari XIX asrning ikkinchi yarmida ko`chirilgan.

1988-yilda Samarqandda istiqomat qiluvchi Shoir Mahmud DiYoriyning Shaxsiy kutubxonasida Shoiraning o`zbek tilidagi She`rlari Komila taxallusi bilan kiritilganligi aniqlandi. Bu devonda hali kitobxonlarga ma`lum bo`lmagan yangi She`rlari ham mavjud. Bugungi kunda Nodiraning aniqlangan She`rlar miqdori 15000 misradan iboratdir.

Nodira ijodiga bo`lgan qiziqiSh Shoira haYotligi davridaYoq boShlangan edi. DilShodi Barno Nodirani "ilm-adab va nazm osmonining yulduzi, ShakarafShon bulbul" deya ta`riflagan edi. Shoira g`azallariga Xotif, Furqat, Muqimiy kabi zamondoSh va izdoSh Shoirlar naziralar Yozdilar, muxammaslar bog`ladilar.

AdabiYotShunoslikda Nodira haYoti va ijodi ko`p yillardan buYon o`rganilib kelinadi. V.Zohidov, V.Abdullayev, Fitrat, S.Ayniy, O`tkir RaShid, T.Jalolov, M.Qodirova, A.Qayumovlarning Nodira haqidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Nodira "Sohibi devon" bo`libgina qolmasdan, zillisonayn ijodkordir. O`z asarlarini 2 tilda yaratar ekan, 2 tilni mukammal bo`libgina qolmasdan, ikki xalq madaniyatini ham mukammal o`rganadi, o`zlaShtiradi. O`z tuyg`u-kechinmalarini 2 tilda baYon qila oliSh, o`y-kechinmalarini barobar badiiy tasvirlaSh zullisonaynlik mahoratini taqozo etadi. Buni Shoiraning quyidagi faxriyasi ham tasdiqlaydi:

Bo`lubdur Nodira mumtozi ma`ni,

Kalomi ravShani aSh`ori farrux.

Nodira badiiyat ilmidagi san`atlarni mukammal egallagan va She`riyatga tatbiq eta olgan. U badiiy usul imkoniyatlaridan foydalanib, aqlni hayratga soluvchi manzaralar ijod qilgan.

Masalan:

Litota

Belining borlig`in qildi kamar-bandi aYon,  
Og`zi Yo`q erdi, ani qildi nadidor hadis.

Tajnis

Bu ko`zdin, Komila, ko`p YoSh to`karkim  
Ki bergay tangri bir YoShingga yuz YoSh.

Husni ta`lil

Adab elni baland iqbol aylar,  
Tavozu`din erur ko`z ustida qoSh...  
Bo`lib xam ikki qoShing bir-biriga  
Qilurlar qatlima payvasta kengaSh...

Tanosib

Ul sarvki, bordur ani mavzui qadi ozod,  
MaShShota uchun Shona chekar zulfiga ShamShod.

Sarvning ozod, tik, to`g`ri qaddiga asr bo`lgan ShamShod maShShota o`rnida uning sochlariga taroq uradi. Sarv go`zal inson ekanligidan kelib chiqilsa, Nodira taroq ShamShod daraxtidan yasaliShini ham nazarda tutgan.

Shoirlar She`riyatining Shoirlar nazmidan farqi, o`zgacha xosiyati ixlosmandlarni juda qiziqtiradigan muammo. UShbu muammo kaliti badiiy mahoratni tadqiq etiSh Yo`li bilan qo`lga kiritiladi. Nodira yetuk mahorat sohibasi va uning nazmida aYollarga xos fikriy muShohada uslubi, ramzu timsollar tizimi mujassam.

Ijtimoiy-ma`naviy haYotning barcha jabhalarini yangilaShni ko`zda tutgan jadidchilik harakatining adabiYotdagi ifodasi o`laroq dunYoga kelgan milliy uyg`oniSh davri o`zbek adabiYoti uch bosqichga bo`linadi: ilk bosqich (1865-1905), jadidchilik davri (1905-1917), ijtimoiy-siyosiy hamda mafkuraviy kuraShlar davri (1917-1929). Bunday har bir sana muayyan ma`no taShiydi. 1865 yil - ToShkent istislo qilingan sana. 1929 esa tarixda jadidchilik harakatining Sho`rolar esa tarixda jadidchilik harakatining Sho`rolar siYosati tomonidan mahv etiliShi sanasi sifatida muhrlangan.

### **Milliy uyg`oniSh davri o`zbek adabiYoti ilk bosqichi**

#### **Komil Xorazmiy (1825-1899)**

OtaShzabon Shoir Komil haYotlik chog`idaYoq xalqning e`tiboriga tuShgan va ijodiga bo`lgan qiziqiSh paydo bo`la boShlagan hamda zamondagi Shoirlari tomonidan tan olingan edi. Shuning uchun ham Shu

davrda tuzilgan ko'plab qo'lyozma va toshbosma ba'yo'z-majmualarda shoir ijodidan namunalar kiritildi. Shuningdek, XIX asr o'zbek adabiyoti va tarixida yirik manba sanalmish Ogahiyning "Gulshani davlat" (1855-1856), Muhammad Yusuf Ba'yoniyning "Shajarai xorazmshohiy" (1911-1913), Ahmad Tabibiyning "Majmuat-u-sh-shuaro" (1908), H.Laffasiyning «Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari» (1920) kabi asarlarda Komil Xorazmiy o'z ijodiy faoliyati bilan fazlu kamolotga erishgan shoir, tiyran aql hamda fikrda sobit davlat va jamoat arbobi sifatida yuqori baholangan.

Shayx Sulaymon Buxoriy "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" (1880-1881) asarida ayrim so'zlar izohi uchun "maShohir Shuaro"larning she'rlaridan misollar olgan. Munis, Ogahiy qatorida Komil Xorazmiy she'rlaridan misollar keltirishi shoirning ha'yotlik chog'ida yoq maShhur bo'lganligidan dalolatdir.

Ingliz va rus tarixchilari tomonidan Komil shaxsiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Sankt-Peterburgda chop etilgan "1873 yilgi Xiva yurishi" nomli ruscha rasmiy manbada, F.M.Lobosevichning "1873 yilgi Xiva yurishining ba'yoniy" nomli asarida, Mak-Gaxanning ingliz tilidan tarjima qilingan "Oksusdagi harbiy harakatlar va Xivaning taslim bo'lishi" ("Voyenniye deystviya na Oksuse i padeniye Xivi", Moskva 1875) kabi kitoblarda shoir faoliyatiga maxsus to'xtalangan. Qolaversa, N.Ostroumov muharrirlik qilgan "Turkiston viloyatining gazetasi" (1891-1894 yillardagi) sahifalarida bir qancha she'rlari bosilib turdi. Komil Xorazmiyning musiqa sohasidagi xizmatlari B. Rahimov va M.Yusuf Devonzodalarning "Xorazm musiqiy tarixchisi" (Moskva, 1925) kitobida, keyinroq esa V.Belyayevning "O'zbekiston muzika asboblari" ("Muzikalniye instrumenti Uzbekistana, M. 1933) asarlarida alohida e'tirof etilgan.

Shoir Komilning ha'yoti va ijodini ommalashtiri sh va ilmiy tadqiq etish, asosan, 1945 yildan bo'shlandi. 1945 yilda na'shr etilgan O.Sharafiddinovning "O'zbek adabiyoti tarixi" xrestomatiyasida, 1947 yilda chop etilgan "O'zbek poeziyasi antologiyasi" da keng kitobxonlar ommasiga shoir ijodi taqdim etildi. 1947 yilda adabiyotshunos M.Yunusov Komil ijodiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, 1958 yilda shoirning ha'yoti va ijodini yorituvchi "Komil Xorazmiy" nomli kitobini na'shr ettirdi. 1961 yilda shoirning "Tanlangan asarlari" (na'shrga tayyorlovchi R.Majidiy), 1975 yil shoir "Devon"i na'shrdan chiqdi.

Komil Xorazmiy ijodi maktab va oliy o'quv yurtlarida o'rganila bo'shlandi. G'.Karimovning "O'zbek adabiyoti tarixi" (III kitob) darsligida shoir Komil ha'yoti va ijodiga alohida fasl ajratilgan. Shuningdek, "O'zbek adabiyoti tarixi be'sh tomlik" (1980) ning 5-tomida K.Xorazmiyning ha'yoti va ijodiy merosining tahlili uchun 32 sahifa ajratilgan.

Bulardan ta'shqari adabiyotshunoslar A.Hayitmetov, V.Zohidov, A.Qayumov, N.Qobilov, N.Jumaxo'ja va I.Adizovalarning shoirning turli jihatlarini ochuvchi bir necha maqolalari e'lon qilingan. Ko'rinadiki, Komil Xorazmiy milliy adabiyotimizda mustahkam o'rin topdi.

Muhammadniyoz Komil 1825 yilda Xivada zi'oli xonadonida tug'ildi. Uning otasi Abdulla Oxund madrasa mudarrisi bo'lib, o'z davrining peShqadamlaridan edi. Shoirning asli ismi Muhammadniyoz bo'lib, ba'zi manbalarda Niyozmuhammad, Polvonniyoz deb yuritilgan. Xorazmliklar qisqartirib "Matniyoz" deb chaqirganlar. Komil (yetuk, mukammal) Xorazmiy esa nisba taxallusdir. Pahlavon laqabi esa uning jang maydonlaridagi jasorati evaziga berilgan. Muhammad Yusuf Ba'yoniyning "Shajarai xorazmshohiy" asarida Komil navqiron Yo'shlaridagi jasorati shunday lavhalarda beriladi: "Bir kun ko'rganli bir yamutkim, Qorabaloq laqabi bila mulaqqab erdi, bag'oyat zabardast va mergan edi. Bir miqdor yamutga bo'sh bo'lub, Muhammadmurod devonbening sangariga kelib urush bo'shladi, laShkarga ondin ko'p dastburdlar (zi'yon-zahmatlar-T.M.)yetdi, bir kun Muhammadmurod devonbegi dedi: "Har kiShi uShbu Qorabaloqni otini ursa, be'sh yuz tillo va o'zini ursa, ming tillo berurman". Pahlavonniyoz yuz bo'shi bu so'zni e'shitib, bir qo'hna Yof (ariq-T.M.)ning ichi bila buqub yurub maydonning bir tarafida bir qo'hna devor bor edi, oning panohiga bordi, ul vaqtda qarabaloq maydonga ot solib keldi. Pahlavonniyoz onga bir o'q otdi. O'q otiga tegib yiqildi. Qorabaloq otdin judl bo'lub bildikim, ul devorning orqasida kiShi bordur, ul yerda bir necha to'p yulg'un bor erdi, oning panohiga kirib turdi. Ul vaqtda Pahlavonniyoz bo'shig'a kiygan nimani miltuqning uchig'a ildurub, ohista yuqoriga ko'tardi. Ul vaqtda yamutlar bildilarkim, endi ul mergan (Komil nazarda tutilyapdi-T.M.) Qorabaloqning ustiga borib oni qatl etar. Filhol, hujum etib ot soldilar va

Qoraboloqni olib qayttilar”1.

Ko`rinadiki, hech kim bas kela olmaydigan zabardast pahlavon Qoraboloqqa MuhammadniYoz Komil bas keldi, uni chekiniShiga majbur qildi. Jangdagi bunday jasoratdan keyin MuhammadniYoz Komil adabiy siyimosini bezaguvchi “Pahlavon” nomi bilan maShhur bo`ldi.

Komil ibtidoiy ta`limni eski maktabda, yuqori tahsilni Xiva madrasalarida oldi. Ammo oilaviy Sharoit, ya`ni otasining bevaqt vafoti tufayli o`qiShni biroz to`xtatiShga majbur bo`ladi, keyinchalik oila tirikchiligini ma`lum izga solib olgach, yana tahsilni davom ettiradi.

Madrassa tahsilida u arab va fors tillarini mukammal o`rganib, bu tildagi adabiYotlarni, mumtozlarimiz ijodini chuqur o`rgandi. Keyinchalik o`zi “Komil” taxallusi bilan She`rlar Yoza boShladi. Ogahiydek ulug` Shoirning “GulShani davlat” kitobida nomining zikr etiliShi ijod olamida tezda Shuhrat qozonganidan darak beradi.

Komil Xorazmiy yaxshi xattot ham edi. U bu san`atni yuqori darajada egalladi, xatto Muhammad Panoh, Xudoybergan muhrikon devon, Muhammad Sharif G`arro kabi Shuhratbardor Shogirdlar yetiShtirdi. Uning o`g`li Muhammad Rasul ham xattotlik ilmini o`rgandi, yaxshigina xattot bo`ldi. “Mirzo” taxallusi bilan She`rlar Yozib, “Devon” tuzdi. Komil Shoir sifatida el orasida erta Shuhrat qozondi. Uning dovrug`ini eShitgan o`Sha davrdagi Xiva xoni Sayid Muhammadxon uni saroyga xizmatga chaqiradi. Moddiy va ma`naviy suyanchig`i bo`lmagan Shoir uchun bu taklif qo`l keladi va u saroyda mirzalik lavozimida iShlay boShlaydi. Saroy muhitini yaxshi tuShungan Komil tiyraklik bilan iSh olib boradi. Sayyid Muhammadning vafotidan keyin taxtga uning o`g`li Muhammad Raximxon Soniy (1865) o`tiradi. Hukmfarmon Muhammad Raximxon II uni tez orada mirzaboShilik (mirzalarga boShliq) vazifasiga tayinlaydi.

Bu lavozim Komilga Shoirlikdan taShqari davlat siYosatchisi mas`uliyatini ham yuklagan edi, ayni Shu lavozimdalik chog`ida davlatning ahvoli tang, ya`ni Xiva Rossiya vassaliga aylaniSh arafasida edi. 1873 yilning oxirlarida devonbegilik lavozimiga ko`tariladi. Bu vazifa esa bugungi boSh vazir vazifasiga to`g`ri keladi. Demak, Komil zimmasidagi yuk juda og`ir edi. U har taraflama aql va idrok bilan iSh tutiShi lozim edi. Bu vaqtda Xiva ruslar tomonidan egallangan, yurt erkinligi deyarli qo`ldan ketgan edi. Turkiston general gubernatori fon Kaufman boShchiligidagi rus qo`shinining xonlik qo`shiniga bergan zarbalari hamda to`kilgan behuda qonlarni ko`rgan MuhammadniYoz Komil Shu suronli vaziyatdan kelib chiqib iSh ko`riShni lozim topadi, ya`ni huquq va ekrleri cheklangan xonlikni Shu holatida saqlab qoliShni mutlaqo Yo`q bo`lib ketiShdan ko`ra ma`qulroq Yo`l deb biladi va natijada uning taklifi bilan 1873 yilning 12 avgustida Xiva yaqinidagi GandimiYon qiShlog`ida Rossiya bilan Xiva xonligi o`rtasida sulh tuzildi. Bu voqea tarixda “GandimiYon Shartnomasi” nomini oldi. Sulhparvar va tadbirkor devonbegi Komil Shu Yo`l bilan o`z xalqini behuda qirg`indan ozroq muddatga bo`lsa-da saqlab qoladi. Komilning siYosiy arbob sifatida tutgan bunday oqilona tadbirlari ingliz va rus siYosatdonlarini-da e`tiborini tortadi. Chunonchi, Mak-Ga Xan 1873 yil Xiva xonligi voqealari haqidagi ingliz tilidagi maxsus kitobida Komil Xorazmiyni sulhparvar va dono tadbirkor sifatida e`tirof etadi. F.I.Lobosevich bu janglarning bevosita iShtirokchisi bo`lganligi uchun ham bu voqeadan ta`sirlanib “MatniYozning bu vaqtda o`z vataniga ko`rsatgan xizmati beqiyos katta bo`ldi”deb Yozadi. Komil devonbegi vazifasidaligida Xiva madaniy haYotining rivoji uchun ham ko`p xayrli iShlarni qilgan 1874 yili chet ellardan tipografiya uskunalarini keltirtirib, O`rta OsiYoda ilk bora toShbosma Yo`lidagi kitob naShr etishi Yo`lga qo`ydi. Bir so`z bilan aytganda, eng yirik ma`naviy tadbirga taShkilotchilik qildi, albatta bunga Xiva xoni Feruz moddiy va ma`naviy rahnamo edi.

AnglaShiladiki, Komilning butun sa`y-harakatlari yurt tinchligi, osoyiShtaligi Yo`lida xonlikning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarini yaxshilash, xalqning madaniy haYotini rivojlantiriSh uchun edi. Afsuski, uning bunday xayrli amallari qadrlanmadi, aksincha, asta-sekin barham topib, uning o`rnini hasad, tahqir va kamsitiSh egallaydi. Xiva xoni Muhammad Raximxon II Feruz sobiq devonbegi Matmurod Kaluga surgunidan ozod bo`lib qaytgach, “Shajarai XorazmShohiy”da alohida e`tirof etilganidek, “mirzaboShini (Komil Xorazmiyni – T.M) burung`i mirzaboShlik mansabida barqaror etib, Muhammadmurod devonbegiga devonbegilik mansabin” qaytarib beradi. Bu voqea Muhammadmurodga qanchalik qanot bergan bo`lsa,

Komilga Shunchalik og'ir bo'ladi. Taqdirning bu kabi ko'p iztiroblari uning sog'ligiga ham ta'sir qiladi. Laffasiy tazkirasida umrining oxirida ko'zi ojizlanib qolgani haqida Shunday ma'lumot bor: "Komil pariShonhol bo'lganidin g'amu hasratlar tortib, natijada ikki ko'zig'a qaro suv kelib, ojiz bo'lib qoladur... Xeva tabiblarig'a bir necha muolaja qildursa-da, hech bir foyda bermay, balki avvalgidan yamonlaShadi. Shul sababli, Komil xondin ruxsat olib ToShkondga borib ko'z do'xtirlarga muolaja qildiradur. Ammo ko'zining og'rig'i kundan-kun Shiddatlig' bo'lg'onin baYon qilib xong'a ariza beradur. Xon dog'i ancha tasalliyi xotir bo'lg'udek hech bir marhamat iltifotlar qilmaydur. Ammo mirzaboShlig' mansabin o'g'li Muhammad Rasulboyg'a marhamat qiladur. Komil juda ham dard chekib, Shikastxotirlikda aSholi xastalig'a duchor bo'lub, uch kun muddat Yostuqqa boSh qo'yub, 1315 (1897-98) yil, it yilida 72 YoShida yuz ming nadomatlar bilan oxirotg'a safar qiladur".

Tarixiy manbalarda qayd etilganidek, Shoir Komil Xorazmiy 1897 yilda, 72 YoShida vafot etadi.

Shoir Komil Xorazmiyning haYot mundarijasini kuzatsak, ma'lumotlar uni Moskva va Peterburg Shaharlarida 2 marta: birinchisi 1873, ikkinchisi 1883 yilda Feruz boShchiligidagi 17 kiShilik hay'at tarkibi bilan borganligi, 1891, 1896-97 yillarda ToShkentda bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, Shoir saYohatlarda juda kam bo'lgan. U o'zining butun haYotini xalq xizmatiga, badiiy ijodga va san'atga baxShida qilgan.

Komil Xorazmiy ana Shunday otaShzabon Shoir va fidoiy san'atkordir.

Sohibidevon Komil Xorazmiy qoldirgan adabiy merosning asosiy qismini g'azallar, muxammas, musaddas, musabba', murabba', muammo, ruboiy, qasida va masnaviyalar taShkil etadi. Shoir lirikasi o'z mazmuni, umumiy ruhi va uslubi jihatidan o'ziga xoski, unda haYot va insoniy kechinmalar obyektiv va real kuylanadi.

Komil Xorazmiy ijodiYotining asosiy qismini iShqiy lirika taShkil qiladi. Shoir hijron qiynoqlari, ma'Shuqa vasfi, u bilan bog'liq kechinmalarni o'ziga xos tarzda mahorat bilan tasvirlaydiki, o'quvchi ko'z oldida chin muhabbat manzarasi paydo bo'ladi. Shoir bir iShqiy manzumasida:

Ul quYoSh meni vahkim, asru zor etib ketti,

Zarradek dilu jonim beqaror etib ketti

deya quYoShga mengzagan, quYoSh deb atagan sevgilisini vasliga zor, uning hajrida dilu jonu beqaror ekanligidan kuyunsa, yana bir iShqiy She'rida Yorning tavsifini, uning baland sarv qomatiyu, o'ynoqi fusunkor ko'zlarini erkalabgina jozibalik misralarda ifodalaydiki, ko'z oldiningizda malaksiymo bir pari suratlanadi:

Qomatim ham aylagan ul sarvi sarafrozlar,

Ko'zlarim nam aylagan ul chaShmi afsunsozlar.

Lirik qahramonimizga mahbubaning Yoqimli harakatlariyu nozu karaShmalarigacha Yoqadi va Shuning izhorini iShqqa to'la iliq sartlarda beradi:

Bani Shaydo edon ul mahvaShi tannozlardurlar,

NiYozim qilmayin manzuri masti nozlardurlar.

OShiq mutlaqo asir bo'lgach, Laylini sevgan Majnun kabi iShq tuzog'iga tuShadi, sahrolar kezib sargardon, ma'Shuqa iShqi o'tida otaShparast bo'ladi:

Domi muhabbatingga to poybast bo'ldum,

Layli Yo'lida go'Yo Majnun mast bo'ldum,

Tun-kun urub toku po', sahroniShast bo'ldum,

Bu daSht aro quyundek bepou dast bo'ldum,

IShqing o`tig`a go`Yo otaShparast bo`ldum.

Komil yetuk so`z san`atkorlari ergaShib kamol topdi. Ayniqsa, Navoiy va Fuzuliy ijodidan ozuqalandi, ulardan ilhom oldi. SHE`rlaridagi salaflari bilan mavzu va ohang uyg`unligi boisi ham Shundan.

Chunonchi, Fuzuliyning

PariShon holing o`ldum, so`rmading holi pariShonim,

G`amingdin darda duShdum, qilmading tadbiri darmonim,

Ne dersan ro`zigorim bo`ylami kechsun, go`zal xonim,

Go`zim, jonim, afandim, sevdigim davlatli sultonim

deb boShlanuvchi maShhur murabba`sga monand misralarni Komil ijodida uchratamiz:

O`tib ko`b oyu yillar, so`rmading holi pariShonim,

Ijoring Shiddatidin og`zima yetmiShdurur jonim,

Ne din bir demading yillarda, ey kamtar sana xonim,

Chu Yusuf Misri izzat masnadida mohi Kan`onim.

Yoki Navoiyning do`stlik, unga sadoqatda bo`liShlik, bevafo do`stlikning iztiroblarini aks ettiruvchi "Bo`lmangiz" radifli g`azaliga Komilning bog`langan muxammas taxmisi:

Zinhor el ixtiloji birla hurram bo`lmangiz,

Mehnatni har dam fuzulu rohati kam bo`lmangiz,

Men kabi bori nadomatdin qadi ham bo`lmangiz,

Do`stlar, odam eliga Yoru hamdam bo`lmangiz,

Yor ila hamdam demaykim, oShno ham bo`lmangiz.

Bu misralarda mavzu va ohang uyg`unligi tabiiy, ammo Navoiy satrlariga Komil misralari Shunday mos tuShganki, Shoir ijodida bunday navoiYona ruhning ufuriShi uning ulkan She`riyat sohibi bo`lib yetilganidan niShona. Yana bir misol:

Sen husn Shohidursen, men kamtarin g`uloming,

Gar zulm, var karam qil,-bordur mango muborak.

O`lsam dog`i Yo`lungdin boSh olmog`um, nigoro,

Mendin vafo munosib, sendin jafo muborak.

So`z san`atining nafis bu namunasi Shoh va Shoir Boburning:

Sen gulsenu, men faqir bulbuldurmen,

Sen Shu`lasenu, ul Shu`laga kuldurmen.

Nisbat Yo`q deb ijtinob aylamakim,

Shohmen elga, vale senga quldurmen

barchaga maShhur ruboiysini eslatadi.

K.Xorazmiy ijodida real voqelikda ro'y beraYotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalarga to'g'ri (obyektiv) YondoShib mulohaza yuritadi. Ayniqsa, saroy muhitidagi nosog' kayfiyat Shoirni chuqur iztirobga soladi. Siyosat borasidagi tadbirlari, fidoiyligiga qaramay devonbegilikdan chetlashtirilib Shoirga og'ir botadi, bu hol ruhiy azob bo'lib vujudini kemira bo'shladi. Bunday nohaq munosabatga javoban Shoir "Aylama" radiflig'alida nazmiy norozilik bildirdi. Shuningdek, Shoir saroydagi hamda jamiyatdagi illatlarni foSh hajv xarakteridagi "Fuzalo", "Juhalo" She'rlari bilan ham maydonga chiqdi. "Fuzalo" Shunday bo'shlanadi:

Yutubon bu zamonda qon fuzalo,

Kulfat o'qigadur niShon fuzalo.

"Juhalo"da esa pok insonlarga turli ig'voyu-illatlari bilan ozor beraYotgan ichi qora razil kimsalarni ochiqdan-ochiq qoralab, ularning portretini Shunday tasvirlaydi:

No'sh etib, riSh va mayin, yetmay ulus dodig'a,

Bilmadilar dame oyini adolat juhalo.

Shoirning ijtimoiy mazmundagi She'rlaridan birida "Ochg'ali otlandi to sultoni jamiqbol suv" deya Muhammad Rahimxonning ariq qazdiraYotganini obodonchilikka qo'shgan hissa sifatida baholaydi.

Komilning ijtimoiy-siyosiy She'rlari orasida "Dar baYoni ta'rif va tavsifi ToShkand" qasidasi e'tiborlidir. Negaki, u o'zbek tilida bitilgan ToShkent haqidagi ilk qasida edi. Qasida o'Sha davrdaYoq "Turkiston viloyati gazetasi"da bosilib chiqdi. Hajman 100 misrani taShkil etuvchi bu qasidada Shoir ToShkent safari taassurotlari baYon etiladi. She'rda an'anaviy lirik bo'shlanma ("nasib")dan keyin saYohat to'g'risida xabar qisqa beriladi-da, to'g'ridan-to'g'ri ToShkentning ta'rif-tavsifiga o'tiladi. ToShkentning go'zal bog'lari, zilol ariqlari, suvlari, uning "ayYomi xazon"i (kuzi) Shunday tasvirlanadi:

Bo'ldi mehmon joyimiz haq lutfidin, bir, bog'kim,

Mevazoru, lolazoru, naxlzori ToShkand.

Komil Xorazmiy nafaqat Shoir, balki yaxshigina musiqaShunos va bastakor ham edi. O'zi soz ham chalardi. Bu san'atni YoShligidan egallagandi. U Rossiya va ToShkent safarlarida ham u yerlarning musiqasi bilan qiziqadi. Xorazm musiqiy merosini Yozib oliShda jonbozlik ko'rsatadi. Xalq musiqasini Yozib oliSh maqsadida tanbur asbobini tanlaydi. "Tanbur nota"si Shundan maShhur bo'lgan. Komil "Rost" maqominigina Yozib ulguradi, xolos. Uning bu xayrli iShini o'g'li Muhammad Rasul davom ettiradi.

Komil Xorazmiy bastakor sifatida "Murabbai Komil", "PeShravi Komil"ni yaratdi. Bu kuylar "Rost" maqomiga bog'lab yaratildi va notaga ko'chirildi. Komil musiqiy merosining qimmatini Shundaki, u yangi kuylar yaratish bilan birga Yevropa notasini o'zbek musiqasiga tatbiq qildi, xorazm notasini joriy etdi.

Komil Xorazmiyning ijodiy faoliyati serqirra. Uning faoliyatida tarjimonlik ham muhim o'rin tutadi. XVIII asr fors-tojik adabiYoti namunalaridan Mumtoz taxallusli Barxurdor bin Mahmud Turkman Farohiyning "Mahbub-ul-qulub" (xalq orasida "Mahfil oro" nomi bilan maShhur) asarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Faxriddin Ali Sayfiyning "Latoyifut-tavoyif" (XVI) asarini forschadan o'zbekchaga o'girdi. Tarjimon Komil asarni qayta iShlab, bir qismini yangilaydi. Prof. Sh. Yusupovning qaydicha, 452 hikoyatdan 345 tasini keltirib, eskirganlarini tuShirib qoldiradi. Shu tariqa kitob "Latoyifuz-zaroyif" (Zarif latifalar) nomi bilan tarjima qilinadi.

Komil Xorazmiyning ziddiyatlarga boy haYoti va mahsuldor ijodi XIX asr o'zbek adabiYotini Yorqin sahifasini taShkil etadi.

**Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910)**

Feruz, Muhammad Rahimxon II (1845, Xiva, 1910) Xiva xoni (1864—1910); Shoir va bastakor. Ko'ng'irotlar sulolasidan. Xiva Shahridagi Arab Muhammadxon madrasasida tahsil ko'rgan, davlat, huquq ilmini zamonasining mashhur mudarrisi, Shoir va olim Doiy, Yusufxo'ja oxun va boShqadan o'rgangan. Ogahiy Feruzga ustozlik qilgan, unga She'riyat sirlarini urgatgan, tarix, tarjima ilmidan saboq bergan.

Otasi Sayid Muhammadxon vafotidan so'ng (1864) Xiva taxtiga o'tirgan. Bu voqea munosabati bilan Ogahiy Feruzga bag'ishlab qasidalar bitgan. 1873 yil Xiva xonligiga K.P. fon Kaufman boShchiligidagi Rossiya armiyasi hujum qilib, xonlikning asosiy Shaharlari va poytaxtni bosib olgan. GandimiYon Shartnomasi (1873 yil 12 avgust)ga ko'ra, Xiva xonligi podSho Rossiyasiga qaram bo'lib qolgan. Feruz ana Shunday murakkab Sharoitda yarim asrga yaqin muddat davomida Xiva xonligini boShqargan. Feruz saroyga adabiYot va san'at arboblari to'plagan. Ogahiy, Komil, Tabibiy va boShqa ta'sirida o'zi ham Feruz (baxtli, g'olib) taxallusi bilan She'rlar Yozgan.

Feruz kitobat ishlariga katta ahamiyat bergan: devon tuzish, tarix YoziSh, tarjima ishlarini rivojlantirgan. Xorazmda tarjima maktabi yaratgan. Fors va arab adabiYotining eng nodir tarixiy, adabiy, ilmiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildirgan. Uning hukmronligi davrida Ogahiy va BaYo'niylar tomonidan Xorazm tarixiga oid asarlar Yozilgan. Komil Xorazmiy mumtoz maqomlar uchun nota Yozuvini ixtiro qilgan. Xivada bosmaxona (toShbosma) taShkil ettirgan. Unda Xorazm Shoirlari haqidagi «Majmuat uSh-Shuaro» tazkisasi, AliSher Navoiy asarlari, Xorazm Shoirlari devonlari naShr qilingan.

Feruz Hindiston, Arabiston, Eron, Turkiya savdogarlari orqali Xorazmga chet ellardan noYob kitoblar keltirtirgan va ularni ko'p nusxalarda ko'chirtirgan, tarix va adabiYotga oid kitoblardan iborat boy kutubxona yaratgan. Feruz me'morlik, naqqoshlik, xattotlik kabi san'at turlarini ham rivojlantirgan. Bu davrda fotografiya va kino san'ati vujudga kelgan, obodonchilik ishlarini amalga oshirilgan.

Feruz 1871 yil Ko'hna Ark karShisida o'z nomi bilan ataluvchi 2 qavatli madrasa qurdirgan. Feruzning bevosita rahbarligi va taShabbusi bilan 30 dan ortiq madrasa, masjid, minora, xonaqolar qad rostlagan. Feruz yerlarni suv bilan ta'minlash, bog'-rog'lar barpo etish ishiga ham alohida ahamiyat bergan. Uning buyrug'iga muvofiq, Qo'ng'irot tumani sarhadida katta ariq bunYod etilgan. Hozirda uShbu ariq «Xon arigi» deb ataladi.

Feruz mumtoz She'riyatning an'anaviy janrlarida lirik She'rlar yaratgan. She'rlari, asosan, ishq-muhabbat mavzuida. Inson va haYot, sevgi va sadoqat Feruz ijodining g'oyaviy asosini taShkil qiladi. Ular ohangdorligi, tasviriy-ifodaviy bo'yoqlarga boyligi va Shaklan rang-barangligi bilan ajralib turadi. Uning ko'pchilik g'azallari o'z zamonasida sozandalar va go'yandalar tomonidan kuyga solib kuylanib kelingan.

She'rlariga «Devoni Feruz» nomi bilan tartib bergan (1879). Bu devon Muhammad Sharif tomonidan qayta kuchirilgan (1900). Feruzning o'zi Pahlavon Mahmudning 350 ruboiysini qo'lda ko'chirib, kitob holiga keltirgan. Feruz ShaShmaqom kuylarini o'rgangan, saroyda maqom ansamblini tuzgan. «Navo», «Dugoh», «Segoh» maqomlariga bog'lab kuylar yaratgan. Feruz Sayd Mahruyjon majmuasidagi Sayid Mohi Ruyi Jahon maqbarasida dafn qilingan.

She'rlar devoni nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi SharqShunoslik instituti (inv. № 3442, 1119)da saqlanadi.

**Ahmad Tabibiy (1969-1911)**

Ahmad Tabibiy XIX asrning oxiri va XX asrning boShlarida Xivada yaShab, ijod etgan sarmahsul Shoirlardan biridir. Tabibiy haqidagi dastlabki ilmiy ma'lumotni rus olimi A.N. Samoylovich bergan. Uning 1908 yilda Xivaga qilgan ilmiy safari haqida Yozgan axborotlaridan birida Shoir Tabibiy va uning «MaShmuatuSh Shuaro» tazkisasi to'g'risida ham ma'lumot bor. A.N.Samaylovich o'z axborotida tazkiraning mazmuni va mundarijasini qisqacha xarakterlab Feruz, Mirzo, BaYoniy, Shinosiy, Xabibiy, Xaqiriy kabi Shoirlarning She'rlaridan tarjima qilib keltiradi.



Shoirning zamondoShi Muhammadamin Laffasiy Yozib qoldirgan «Xiva Shoir va adabiYotchilarning tarjimaixollari» taskirasida Munisdan boShlab 65 Shoir va adibning tarjimai xoli tadriji xolda berilgan. Tazkirada Tabibiy tarjimai xoli va uning zamondoShlari to`g`risida qiziqarli ma`lumotlar bor.

Tabibiyning haYoti va ijodi 1945 yilda tuzilgan «O`zbek adabiYoti tarixi xrestomatiyasi» ga kiritilgan. Umuman XX asr adabiYotShunoslari, Rahmat Majidiy, M.Yunusov, V.Mirzayev, Y. Yusupov va /.Karimovlar o`zlarining darslik va monografiyalarida Tabibiy ijodiy merosi haqida qisqa-qisqa to`xtalgan bo`lsalar, F. /anixo`jayev A. Tabibiyning haYoti va ijodi yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini Yozib, himoya qildi va 1978 yilda «Tabibiy» nomi bilan naShr qildirdi.

Nima uchun Ahmad Tabibiy She`rlarini o`rganiShdan cho`chiganlar? U qanday oilada tarbiyalangan? Tabibiy qanday ijtimoiy muhitda voyaga yetgan? U mumtoz nazmning qaysi turlarida ijod qilgan? Siz uning She`rlaridan namuna o`qiganmisiz? Siz uning ijodi haqida qanday tuShunchadasiz?

Ahmad Tabibiy 1869 yilda Hiva Shaxrida tug`ildi. Shoirning otasi Ali Muhammad Xivadagi maShxur tabiblardan edi. Afg`onistonlik bu honim keyinchalik Xorazmga kelib turg`un bo`lib qolgan va Muhammad Rahimxon Feruzning qaynisi Otatoyto`ra xizmatida bo`lgan. Shu bilan birga u attorlik bilan ro`zg`or tebratgan. Shoirning ismi Ahmad Tabibiy uning adabiy tahalusidir. Ali Muhammad o`g`li Ahmadni YoShlikdan maktab va madrasada o`qitib, fors tilini o`rganadi. Ahmad o`zining g`ayrati tufayli tez orada savodli bo`lib yetiShadi. Otasiga Shogird tuShib tabiblik ilmida ham xabar topadi. U tib ilmiga juda qiziqqanidan zamonasining maShhur tabibi, Shoir BaYoniyning akasi YaxShimurodbek xuzurida uzoq vaqt iShlab, undan ilm o`rganadi.

Lafasiyning ta`rifiga, Ahmad past bo`yli ochiq yuzli, Shirin tilli, nozik tabiat, xuShmomila bir kiShi edi, ko`pincha Shoir Avaz bilan birga bo`lar edi. U Shaxmat o`yiniga g`oyat usta, bundan taShqari musiqa san`atini ham yaxshi egallagan. Shoirning zamondoShi Xodimning hikoya qiliShiga, agar u soz va tanburni qo`lga olib «navo» maqomini chalsa, kiShilarni maftun qilib qo`yar edi.

Ahmad adabiYot va san`atga mehr qo`yib, mumtoz adabiYotni, fors – tojik va ozarbayjon adabiYotining suhbatida, turli adabiy majlislarda iShtirok etib tez orada Shoirlikda ham Shuhrat topadi.

Xon Feruz Ahmadning bilimdonligini, She`riyatdagi mahoratini ko`rgach, uni saroyga taklif qiladi. Tabibiyning zamon Sharoiti bilan keliShmaslikka iloji Yo`q edi. U xon saroyida tabib bo`lib xizmat qilarkan, ijodiy iSh-Shoirlikni ham davom ettirgan. Tabibiy juda ko`p kiShilarga g`amho`rlik qiladi, Yordamini ayamaydi. U ayniqsa Avaz O`tar o`g`li bilan yaqin munosabatda bo`lib, unga ilm, ahloq va She`riyat bobida ko`p narsa o`rgatadi. Avaz ham uni ustoz deb biladi:

Ne g`am emdi, Avaz, nazm ilmida bo`lsang Tabibiydek,

Ki derlar, ko`rgan el nazmingni, ustozingga sallamno.

Tabibiy saroyda xizmat qilib xurmat qozongan bo`lsa-da, ortiqcha manfaat ko`rmagan. U do`kon ochib bemorlarga dori – darmon sotiSh bilan ro`zg`or tebratgan.

Tabibiy Arabiston, Eron, Afg`oniston va Xindistondan kelgan savdogarlar bilan ular tilida bemalol gaplaShar, ulardan dori -darmonlar bilan birga turli kitoblar sotib olardi. O`rta hol turmuSh kechirardi. Tabibiy umrining oxirlarida oddiy halq qatorida beorom haYot kechirganligi haqida Laffasiy tazkirasida o`qiymiz: «Ahmadjon Tabibiy Feruzning vafotidan keyin hech bironta fuzalo amaldor va sipohiyilar bilan aloqa qilmadi. U o`pka kasalga chalinib natijada Shu kasal bilan qirq ikki YoShida 1910 yilda hasrat va nadomat bilan dunYodan o`tdi».

Tabibiy o`z davrining o`qimiShli, taraqqiyparvar kiShilaridan edi. Xorazmning tarixchisi BaYoniy «Shajarai XorazmShoxiy»sida Tabibiyini:

Tabibiykidur Shoiri muhtaram,  
Naylay oning atvorin aylab raqam,  
Maorifda bordir bag`oyat orif,  
Majlisda dog`i harifu zarif,  
Pur oyinadur so`zlari sarbasar,  
Rumuz oni aksidadur jilvagar,  
Surar nuqta lutfila ul nuqtadon,  
Ko`rib so`zlarini dedim: «Al`amon!» - deya ta`riflaydi.

Ahmad Tabibiy YoShlik chog`idaYoq, o`z asarlari bilan xalq orasida tanilgan Shoir bo`lsa-da devon tuziShga jur`at etmagan. Uning Yozgan She`rlari parokanda holda edi. Kunlarning birida Feruz xon Tabibiyga o`z She`rlarini to`plab devon tuziShni buyuradi. Tabibiy o`zbekcha va tojikcha She`rlarini alohida-alohida devon holiga keltiradi. Shoir bu haqda o`zining «Munisul uShShoq» devoniga Yozgan «debocha»sidagi Yozganini o`qiyimiz: «Bu faqir qo`lida jam` bo`lg`on kitobning soni beSh devondir. Alarning uchtasi turkiy va ikkitasi tojikchadir. Birinchisini adolatli Shohga hadya qiliSh sababidin «Tuxfatus-sulton» deb atadim, ikkinchi devong`a oShiqlar unsiyati sababidin «Munisul-uShShoq» nomi berildi. Uchinchisiga faqat iShq holatlaridin gapirilgani vajhidin «Mir`otul-iShq» deb nom -qo`ydim. To`rtinchi devong`a oShiqlar o`qib hayron bo`lsinlar deb, «Hayratul-oShiqin» deb nom qo`yildi. BeShinchisi bedillar iShtiYoqi jilvagohi bo`lg`oni sababidin «Mazxarul-iShtiYoq» deb ataldi» - deyiladi.

Tabibiyning butun adabiy merosi, Shoir umrining so`nggi yillari 1906-1910 yillar oralig`ida ko`chirilib chop etilgan. Bunga qadar Tabibiyning lirik asarlari o`Sha davrda tuzilgan baYozlarga kiritilgan. Ulardan 12 tasi hozirgacha saqlanmoqda. Bulardan taShqari faqat Tabibiy g`azallarini o`z ichiga olgan 8 ta to`plam bizgacha saqlangan.

Tabibiy devonlariga mumtoz lirikamizning g`azal, muxammas, musaddas, musammal, murabba, masnaviy, qasida, ruboiy kabi janrlari kiritilgan. Bundan ko`rinadiki, Shoir o`z saflari ijodidan yuzaga chiqqan va adabiy haYotda rasm bo`lib qolgan hamma janrlardan unumli foydalnib uni rivojlantirgan.

Tabibiy lirikasining asosiy mavzularidan biri iShq-muhabbatdir. Shoirning iShqiy She`rlari o`zining mazmundorligi, ohangdorligi, turli bo`Yoqlarga boyligi va Shaklining har tomonlama rang-barangligi bilan diqqatga sazovordir. Tabibiy lirikasining mazmunini Yorga haqiqiy muhabbat, unga cheksiz sadoqat, hijron bilan kuraShiSh, har qanday azob-uqubatlarga bardoSh berib, uning vasliga intiliSh, uning sevgisi bilan faxrlaniSh g`oyalari taShkil etadi. Tabibiyning iShqiy g`azallari orasida yurak harorati va to`lqini bilan iShqni, uning hayajonlarini, go`zallikni dildan xis qilib yaratilgan g`azallar talaygina.

Bog` aro to orazu zulfing namoYon aylading,  
So`ldirib gulniyu sunbulni pariShon aylading,  
Sarv ila ShamShod bottilar xijolat loyig`a,  
Chun chamanda noz ila qadding xiromon aylading.  
Jodu ko`z birla boqib girYon nigohi fitnasoz,  
Nargisi bechorani mabxutu hayron aylading.  
Ochibon mehri sahar yangliq binogo`Shingni ham,  
Oqibatdin subhi ma`zulu urYon aylading.

Keltirilgan misoldan ko`rinadiki, Shoir bu g`azalda chiroyli bir epizod yaratgan. Bog` deganda kiShi ko`z

oldiga ajoyib manzara keladi. Uning o`ziga xos go`zalligi bor: unda ko`m-ko`k daraxtlar, anvoyi gullar, zilol suvlar va bulbullar bo`liShi tabiiy. Lekin Shoir tasvirlaYotgan mahbub Shu qadar go`zalki, u boqqa kirgach, uning xusnu-latofati, odob-haYosini ko`rib ochilgan gullar xijolatga tuShadi, zulfiga yuzma-yuz kelgan sunbul aqldan ozadi, Yor qomatini ko`rgan sarv daraxtlari iztirobga tuShadilar. Yor o`tli ko`zlari atrofga Shunday ibo bilan qaraydiki, uni ko`rgan nargis bu fazilatlariga hayron qoladi.

Tabibiy lirikasida oShiqlar ko`pincha xursandchilikdan ko`ra o`z maqsadlariga - maShuqalariga yeta olmaslik xususida chuqur hayajon bilan hasrat qiladilar. Buning chuqur haYotiy ildizlari bor, albatta. Yuqoridagi fikrlarimizning tasdig`ini Shoirning mana bu murabbasida yaqqol his qilamiz.

Men kabi Yo`qdir jahonda bir asiru notovon,

Kim sarig` yuz uzra qon YoShim erur doim ravon,

Ko`rsa holim yig`lagusi begumon qizu juvon,

Xotirimda ul sanam iShqi g`ami ozoridur.

Tabibiy lirikasidagi bu kabi qalb nidolari uning faqat Shaxsiy tuyg`usigina emas, balki zamon, davr sadosining real aksi hamdir. Shoir inson sevgisini qadrlab uni Shu daraja ko`klarga ko`taradiki, uning davosini xatto Luqmon-tabobatning otasi bo`lgan Shaxs ham topa olmaydi:

Ilojin aylay olmassen, Tabibiy, iShq dardining

Tabobat fanni ilmi ichra gar Luqmoni davronsen.

Bunday She`rlar Tabibiyning go`zallik, muhabbat, vafodorlik kuychisi ekanligini, pok sevgining olijanob kechinmalarini samimiy kuylaganini ko`rsatadi.

Tabibiy lirikasida o`z davri ijtimoiy - siYosiy tuzumi, xalqning turmuShi qanday Yoritilgan?

Tabibiy devonlarida faqat iShqiy g`azallargina emas, balki ijtimoiy-falsafiy g`oyalarni ifoda etuvchi Shu`rlar ham ko`p uchraydi. Uning qator g`azal va ruboiylarida davr sadosi o`z ifodasini topgan. Ma`lumki, Tabibiy davrida xalq nihoyatda og`ir ahvolda yaShar, mahalliy feodallar tomonidan qattiq zug`um o`tkazilar edi. Bu masala Tabibiy va boShqa taraqqiyparvar Shoirlar ijodida aks etmay qolmadi, albatta. Tabibiy ham o`zining ana Shu noroziligini g`azallarida turli Yo`llar baYon qildi. U Shkoyatning asosiy mazmunini boShqa Shoirlar kabi falak, ba`zi bir johil amaldorlar, bevafo Yor va Shunga o`xShaSh narsalar bilan bog`ladi:

Olamga boqsang, hosili boShdin-oYoq kulfat erur,

Bir rohatining keynida behadu son mehnat erur.

Bir oShiqi kim lahzai topsa visoli dilbarin,

Doim hamul bechorag`a, so`ngra g`ami furqat erur.

Yo`qtur jahong`a e`timod uShbu jihatdin, ey ko`ngul,

Kim inqilob etmak anga davron aro odat erur.

Tabibiy o`zining zamon to`g`risidagi qaraShlarini dastlab sevgi haqidagi g`azallarida ifoda etadi. Shu o`rinda aytiSh kerakki, ayrim adabiYotShunoslarimiz yaqin o`tmiShimizgacha, g`azal janrida faqat intim tuyg`ulari kuylanadi, degan yangliSh fikrida edilar. /azal janring paydo bo`lgan dastlabki davrlari uchun bu fikr to`g`ri bo`lsa bo`lgandir, biroq g`azal janrining umumiy mazmunini to`g`ri ifodalash uchun xarakterli emas.

A.Mirzayev, A.Hayitmetov, /.Karimov singari olimlarimiz o`zlarining bu masalaga bag`iShlagan ilmiy iShlarida g`azal janrining barcha xususiyatlarini chuqur tahlil qiliSh asosida, g`azalda sevgi tuyg`ulari bilan bir qatorda juda muhim haYotiy masalalar, falsafiy muShohadalar ham o`z ifodasini topiShi mumkinligini

qayd qilib o'tganlar. Ularning fikrlarini tasdiqlovchi misralarni Tabibiy g'azallaridan ham ko'plab uchratish mumkin. Bu yerda biz baxri, radifi, qofiyasi, o'zining butun Yo'naliShi bilan muhabbat masalalariga bag'ishlangan, intim lirika, bayt, misralarda qisqartma tariqasida aytiladigan muhim ijtimoiy masalalar - jamiyat, haYot, odob-ahloq to'g'risida baYon qilingan fikrlarga e'tiborni qaratmoqchimiz:

Mexri jamoli hajrida tun-kun chekib oxu fig'on,

Bo'limiSh Tabibiy boShig'a bu dahr zindon o'zgacha.

Yoki

Ko'nglumki zulmingdin xarob bo'lg'on ajab koShonadur,

Bug'on oni ko'zungdagi ul g'amzai mastonadur.

Keltirilgan har ikki baytdan Shoirning o'z davri va ijtimoiy tuzumga nisbatan bo'lgan munosabati ko'rinib turibdi.

Shunday qilib, biz yuqorida ko'rib o'tgan misollarda Tabibiyning g'azallarida an'anaviy mavzular bilan birga haYotiy masalalar anchagina o'rinni egallaganini ko'rdik.

Ma'lumki, o'zbek adabiYotida muhammas janri juda keng tarqalib muhim rol o'ynagan. Muhammad asosan uch usulda yaratiladi.

Shoir to'g'ridan-to'g'ri har biri misradan iborat She'r-beShlik yaratadi. Bandlarning soni cheklanmaydi. Shoir o'zining biron-bir g'azalini qo'Shib muhammas yaratadi. Yoki Shoir xuddi Shu tarzda boShqa Shoirlarning g'azallariga muhammas bog'laydi. Muhammad yaratishda avvalo Shoir o'zining didiga, fikr va tuyg'usiga yaqin bo'lgan g'azalga muhammas bog'laShga xarakter qiladi. Demak, muhammas bog'laSh oddiy ish emas, balki Shoirning dunYoqaraShi, orzu-umidi bilan bevosita bog'langan bir hodisa hamdir. Har bir davrning ilg'or Shoirlari o'zlaridan oldin o'tgan taraqqiyparvar Shoirlarning g'azallariga muhammas bog'lab, uning ilg'or fikrlarini targ'ib qiliShga harakat qilganlar.

Muhammas bog'laSh ikkinchi tomondan, juda ham katta san'at, mahorat va bilim talab qiladigan ijoddir. Chunki muhammas bog'laYotgan Shoir g'azaldagi g'oya, maqsad va badiiy san'at namunalarini saqlamog'i Shart. Shuning uchun muhammas muShoira xarakteriga ham ega. Zotan Navoiy, Jomiy, Sa'diy kabi ulug' san'atkorlar g'azallaridagi fikr va g'oyalarni Shular darajasida ifodalaSh Yohud rivojlantirish uchun katta mahorat, kuchli bilim zarurkim, bunga har qanday ijodkor ham muSharraf bo'la olmaydi. Lekin Tabibiyning bu sohada bilimi, mahorati chakana emasligi ma'lum bo'ldi. Uning devonlaridagi muhammaslar jami 518 ta bo'lsa, Shundan yigirmadan ortig'rog'i Navoiy g'azallariga bog'langan muhammaslardir.

Tabibiy lirik merosida g'azallar bilan bir qatorda ruboiy, qit'a, tuyuqdan iborat to'rtliklar ham muhim o'rin tutadi. Har biri qisqa, lekin ma'lum syujetga, chuqur g'oyaviy mazmunga, yuksak badiiylikka ega bo'lgan asarlari bilan Shoir bu janrlarning ham taraqqiYotiga katta hissa qo'Shgan:

Siz bilan majlisda ichdik to qimiz,

Dahr aro uShShoq haylin toqimiz.

Vaslingiz mahsulimiz aylang yana,

Kim oning subhi maso muShtoqimiz.

Bu tuyuqda ketma-ket so'z o'yinlari bor. Birinchi misradagi to qomiz ichgunimizgacha, ikkinchi misradagi toqimiz-Yolg'izimiz, turtinchi misradagi «muShtoqlik» ma'nolarida ketmoqda.

Tabibiy devonlarida, Shuningdek qasida va masnaviylar ham anchagina. Ammo aksariyat qasidalar o'z davri adabiyoti uchun xarakterli bo'lgan xukmdorlarni maqtaShga qaratilgandir.

Tabibiy Ogahiy singari g'azallarning tuziliShiga, kompozitsiyasiga alohida e'tibor bergan. Uning g'azallari ko'p mavzuli emas. Shoir asosan bir mavzuni oladi va Shu mavzu bilan bog'liq fikr, tuyg'u, hisni real raviShda keng Yoritadi. /azaldagi har bir misra o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular hodisa, his, tuyg'uning mantiqiy rivoji sifatida bir-birini to'ldirib boradi. Tabibiy o'z lirikasida aruzning juda ko'p va hilma-xil bahrlaridan foydalangan. Ayniqsa, unda hazaj, ramal va rajaz bahrlari ko'proq uchraydi.

Xazaji musammani solim

(Mafoyilun mafoyilun mafoyilun mafoyilun )

Falak zole ki andoq bor durur bir tur fa sayYora,

Ki har kim juft anga bo'lsa qilur, albat ta, avvora.

Ramali musammani maqsur.

Foilotun Foilotun Foilotun Foilotun

Ko'zlaring hij ron qorong'u Shomida be dor

Javir tig'i din Tabibiy dek diling af kor edi

Hazaji musaddasi mahsuf

(Mafoiylun mafoiylun faulun

Ul oydin to ki iShq ichra judomen,

Tuganmas dar du g'amga mub talomen.

Rajazi musammani matviyi mahbui

Muftailun mafoilun muftailun mafoilun

Garchi ul oy vafosi Yo`q, bo`lmasa bo`l masun netay

Yuz sitamu jafosi Yo`q bo`lmasa bul masun netay

Ma`lumki, vazn, qofiya, ham nazmda juda zarur va muhim omildir. Ular mazmunga kuchli ta`sir etib uni Yoritishga xizmat qiladi. Bu jihatdan qaraganimizda tabibiy She`rlaridagi qofiya bilan radif ham puxta va mohirona ishlagan, u misralarga uzviy raviShda bog'lanib ketadi.

IShqingda men devona,ey zebo sanam,zebo sanam,

Olam aro afsona, ey zebo sanam,zebo sanam,

IShqingda bo`lg`ach oShno huShi xiraddin bo`lmuSham,

Subhu maso begona, ey zebo sanam, zebo sanam.

Bu g'azalda «devona», «afsona», «begona» soʻzlari qofiya, «zebo sanam» soʻz birikmasi esa radifdir. Bu yerda ifoda vositasi sifatida har bir qofiyadagi maʼnoni kuchaytiruvchi tovuShlar juda ustalik bilan berilgan.

Tabibiy lirikasida koʻplab adabiy-lafziy sanʼatlar qoʻllanilganini koʻramiz. Jumladan u takror sanʼatini maʼno kuchaytirishga ham xizmat qildirgan:

Kimki olim birla suhbat tutsa ul

Porsdur, porsodur, porso.

Johilu nodong`a Yor o`lg`on kiShi,

Norasodur, norosodur, noroso.

Yoki:

Ey Tabibiy ko`r o`zing fazl ahlidin

Kamtarinu, kamtarinu, kamtarin.

Xullas, Tabibiy haYotsevar Shoir sifatida tabiat goʻzalliklari, doʻstlik, sevgi vasadoqatni ulugʻlaSh, ilm-maʼrifatni, targʻib qilib, kelajakka iShonch ruhdagi gʻoyalarni, etirof etiShi uning ijodini Muqimiy, Furqatlar ijodi bilan hamohang ekanligidan dalolatdir.

### **Muqimiy (1850-1903)**

Muqimiy (taxallusi; asl ism-Sharifi Muhammad Aminxoʻja Mirzaxoʻja oʻgʻli) (1850 — Qoʻqon —1903.25.5) — Shoir va mutafakkir. Oʻzbek demokratik adabiYoti asoschilaridan. Otasi toShkentlik, onasi OyShabibi xoʻjandlik boʻlib, Qoʻqonda yaShaganlar. Muqimiy boShlangʻich maʼlumotni mahallasidagi maktabda olgan. Onasi Muhammad Aminxoʻjada Sheʼriyatga havas uygʻotgan.

Muqimiy Qoʻqondagi Nodira bino qildirgan «Moxlar oyim» madrasasida, soʻng Buxoro madrasalaridan birida oʻqigan (1864—65; 1875—76). 1876 yilda Qoʻqonga qaytgach, yer quriliShi mahkamasida mirzalik qilgan. 70-yillar oxirlarida Qoʻqonga qaytgan va ijod bilan Shugʻullangan. Otasi vafotidan soʻng moddiy ahvoli ogʻirlaShgach, «Hazrat» madrasasining kichik bir hujrasiga koʻchib oʻtgan (1885), butun umri qaShShoklikda kechgan.

Bir necha bor ToShkentga saYohat qilgan (1887—88, 1892), ToShkentdagi yangiliklar bilan taniShgan. ToShkent madaniy va adabiy haYotini chuqur oʻrgangan. Almaiy, Nodim kabi ilgʻor ruhdagi ijodkorlar bilan aloqa bogʻlab, ijodiy hamkorlik qilgan.

Muqimiy yaShab ijod etgan davr adabiy haYoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli taʼsir koʻrsatdi. Ijodining ilk davrida qisman Shaklbozlik unsurlari, sanʼatpardozlik mayllariga beriliSh ham uchraydi. Lekin tezda bu xil anʼanalardan voz kechib, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliydan oʻrgandi, ular gʻazallariga muxammaslar bogʻladi. Jomiyning oʻziga ustoz bildi. Oʻzbek, fors mumtoz Shoirlari anʼanalarini davom ettirdi. Oʻzbek adabiYotida demokratik YoʻnaliShning vujudga keliShi va ShakllaniShi Muqimiy nomi bilan bogʻliq. U boShliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil kabi ilgʻor fikrli Shoirlar oʻzbek adabiYoti tarixida yangi sahifa ochdilar.

Muqimiy lirikasi chuqur optimizm bilan sugʻorilgan, haYotiylik uShbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. Sheʼrlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kuraShlari taShkil etgan. Ularda doʻstlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, sabot va matonat ulugʻlangan va bular orqali Shoir kiShilarda yaxshi xususiyatlarni

tarbiyalaShga intilgan. Adolatli va baxtli zamoni orzu qilgan, Shunday kunlar keliShiga iShongan («Kelur oxir seni ham Yo'qlag'udek bir zamon yaxShi» va b.). Hasrat, Shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo'lgan She'rlarida ham kelajakka iShonch, farovon haYot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.

Muqimiy dunYoqaraShi va intiliShlari bilan muhit o'rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy Yo'naliShni maydonga keltirgan. Bu uning hajviYotida ko'proq aks etgan. HajviYoti mazmunan satira va yumorga bo'linadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib taShlangan («Tanobchilar» va b.). «Saylov», «Dar mazammati zamona» va boShqada o'lkaga kirib kelaYotgan kapitalistik va g'ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlarini ko'rsatilgan. Ba'zan, o'Sha davrdagi hukmron qaraShlarga ergaShib, Dukchi eShon haqida ham hajviy asarlar Yozgan («Hajvi halifai Mingtepa»).

Ot, arava, loy, paShSha, bezgak kabi mavzularda 30 ga yaqin hajviy asar yaratgan. Ularda Shoir turmuShning qoloq va chirkin tomonlari, ijtimoiy ong'dagi nuqsonlar ustidan kulgan, mustamlakachilik azobi, xarobalikni zaharxandalik bilan tasvirlagan («Devonamen», «Ko'samen» «Hayron qildi loy», «PaShShalar», «Shikoyati bezak» va b.). BoShqa bir qator hajviyalarida jamiyat haYotidagi o'zgarishlarga yangicha munosabat aks etgan («Ta'rifi pech», «Aroba qursin», «Loy» va b.).

Muqimiy o'zbek adabiYotiga iShchilar mavzuini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi («Maskovchi boy ta'rifida», «Voqeai Viktor» va b.). Turli Shahar va qiShloqlarga qilgan saYohatlari taassurotlari asosida 4 qismli «SaYohatnoma» asarini Yozdi. Asar yengil, o'ynoqi vaznda Yozilgan, 4 misrali bandlardan taShkil topgan. Unda xalq turmuShining og'irligi, qiShloklarning vayronaligi realistik tasvirlangan. Shoir yaxShilikni ma'qullab, go'zallikni madh etgan, kamchiliklar ustidan kulib, tanbeh bergan, Yovuzlikni, turli illatlarni tanqid qilgan. Muqimiyning nasr va nazmdagi maktublari epistolyar adabiYot namunasi hisoblanadi. 10 She'riy, 20 ga yaqin nasriy maktublari saqlangan. She'rlari qo'lyozmalar, baYozlar, 20-asr boShlarida litografiyada naShr qilingan kitoblar, ToShkent va Peterburgda bosilgan vaqtli matbuot sahifalarida bizgacha yetib kelgan.

Muqimiy ijodini o'rganiSh, asarlarini to'plaSh va naShr ettiriSh u haYot davridaYoq boShlangan. Dastlab Ostroumov «Devoni Muqimiy» to'plamini (T., 1907) naShr qilgan, so'ng 1910, 1912 yillarda «Devoni Muqimiy maa hajviYot» nomi bilan asarlari to'plami bosilgan. Keyingi davrlarda G'. G'ulom, Oybek, H. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov, G'. Karimov, A. Hayitmetov va boShqalar Muqimiy ijodini tadqiq etganlar. She'rlaridan namunalar chet tillarga tarjima qilingan. Qo'qonda uy-muzeyi taShkil etilgan. Farg'ona viloyatidagi Shaharcha, ToShkent ko'chalaridan biri, O'zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoir haqida Sobir Abdulla «Mavlono Muqimiy» romani va «Muqimiy» dramasi yaratgan. Muqimiyning aksariyat g'azallari aShulaga aylangan.

### **ISHOQXON IBRAT (1862-1937)**

ISHOQXON Junaydullox'o'ja o'g'li 1862 (xijriy 1279) yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qiShlog'ida tug'ilgan. Uning' otasi sohibkor bog'bonlardan bo'lib, «Xodim» taxallusi bilan She'rlar Yozgan. Onasi Huribibi qiShloq qizlarini o'qitgan. Ibrat dastlab qiShloq maktabida, so'ngra onasi qo'lida tahsil oldi.

1878-1886 yillarda Qo'qondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida o'qidi. Ibrat madrasani bitirg'an yili o'z qiShlog'iga qaytadi va maktab ochadi, U o'z maktabida savtiya (tovuSh) metodini tatbiq qilgan. Shoir o'ziga «Ibrat» taxallusini tanlagan. 1887-92 yillarda Ibrat Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Qobul, Jidda Shaharlarida, 1892-95 yillarda esa Bombay va Kalkutta Shaharlarida bo'lib, arab, fors, ingliz, hind, urdu tillarini o'rgangan.

U 1896 yilda Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so'ngra QaShqarga o'tdi, QaShqardan o'z vatani Namanganga qaytib keldi. 1907-1918 yillarda yangi usuldagi maktablar taShkil etgan, o'z qiShlog'ida uning «Maktabai iShoqiya» nomli bosmaxonasi ham bo'lgan. Sermahsul Shoir, Yozuvchi, musiqaShunos, pedagog ISHOQXON Ibrat qatog'on qurboni bo'ldi.

U 1937 yil Andijon turmasida 2 oy Yotgandan so'ng vafot etdi. Uning qabri qaerdaligi noma'lum. Adib o'z asarlarida xalq ozodligi, Vatan mustaqilligi uchun kuraShganlarni va tarixiy voqealarni aks ettirdi. Masalan: «Tarixi Farg'ona» asarida Shunday Yozadi: «Xo'jand va O'ratepa va Dizzax qo'ldan ketdi. Rusiya zabt etdi. Ming ikki yuz sakson beShinchi hijriyda (1866) Samarqand olindi. Andan Kattaqo'rg'on olindi. So'ngra o'rtada amir ila musolaha bo'lub, islohot joriy bo'ldi... ».

Asarlari: «Tarixi chopxona», «Madaniyat» haqida masnaviy, «Gazeta xususida», «Qalam», «Lug'at sitta alsina» («Olti tilli lug'at», 1907), «Jome' ul-hutut» («Xatlar majmui», 1912), «Tarixi Farg'ona» (1916), «Mezon uz-zamon» (1926), «San'ati Ibrat», «Ilmi Ibrat» va boShq.

### **Karimbek Kamiy (1865 - 1922)**

Karimbek Kamiy — milliy uyg'oniSh davri o'zbek adabiYo-ting yirik vakillaridan biri. Shoir Amoniyning «Dar madhi janobi mavlono Kamiy ToShkandiy» She'rida Shunday misralarni o'qiyimiz:

Ayladi Farg'onani bul dam musaxxar har so'zi,  
Balki Islombulni oldi qavli mavlono Kamiy.

Kamiy so'zlarining Farg'onaga yetib borganligiga Shubha Yo'q. Uning She'rlari asr boShida boShqa bir xonlik hududida — Kogonda chop etilgan baYozlarda uchraydi. Xorazmlik Shoir Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fining Kamiy g'azaliga Yozgan muxammasi bor. Shoirning «Murabba'i dar ta'rifi maktab» She'ri 1906 yildaYoq Sankt-Peterburgda chiqadigan «Ulfat» gazetasida bosilgan. Bularning barchasi Kamiy She'rlari asrning dastlabki yillaridaYoq Turkiston chegarasidan chiqa boShlaganini ko'rsatadi. Amoniy aytmoqchi, mavlono Kamiy so'zlari «balki Islombulni oldi». Darhaqiqat, Shunday. 1918 yil Istanbulda chop etilgan M.F.Ko'prulizodaning «Turk adabiYotida ilk mutasavviflar» kitobida Kamiy ijodidan namunalar uchraydi. Bu 10-yillarda Shoir She'rlarining Turkiyaga qadar yetib borganiga dalolat qiladi.

Ijodini o'rganiSh tarixidan

Shoir Karimbek Kamiy ijodi o'z davrida ham e'tiborsiz qolmadi. Unga She'riyatning pastu baland ko'chalarida yurgan keksayu YoSh avlod o'z munosabatini bildirdi. Shulardan biri Muqimiydir. Mavlono Muqimiy do'stiga Yozgan maktublaridan birini «Birodari kiromiy mavlaviy Kamiy» deb boShlaydi. Bu yerda Muqimiyning Kamiyga munosabati, qolaversa, unga bergan bahosi o'z aksini topgan. Kamiyning Shogirdlaridan biri Sidqiy Xondayliqiy o'z ustozini «suxanvarliq iqlimida Shuhrabardoru oliyShon» deb ta'rif etadi. O'Shlik Shoir Amoniy esa Shoir tavsifiga alohida She'r bag'ishladi. Unda Kamiyni «xushfasohat iqlimiga Shoh», «lisonul-g'ayb» deya vasf etdi. Uning Shoirlik fitratida «fayzi ilohiydan asar» ko'rdi. Lekin Shoir ijodiga munosabat bir xilda bo'lib qolmadi. Anbar Otin, Ibrohim Davronlarning Kamiy ijodiga nisbatan tanqidiy fikrlari ham borki, bu — ular orasidagi adabiy-estetik va falsafiy qaraShlarining turli xilligi bilan izohlanadi.

Shoir vafotidan keyin uning ijodi va Shaxsiga baho beriSh Sho'ro adabiYotShunosligi zimmasiga tuShdi. G'ayri milliy mafkuraga asoslangan mazkur adabiYotShunoslik ilmi ba'zi hollarda Shoirni «Vatan xoini», «xalq duShmani», «millatchi jadid», «kontrrevolyudion» Shoir sifatida baholab keldi. Natijada Kamiy ijodi o'nlab yillar xalq nigohi va tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib ketdi. Lekin XIX asr oxiri XX asr boShlari o'zbek adabiYo-ti, mazkur davr ma'rifatparvarligi va ayniqsa, ToShkent adabiy muhiti haqida so'z ketganda Kamiy ijodi va uning nomini chetlab o'tiShning iloji Yo'q edi. Shu bois Sho'ro mafkurasi davrida ham ba'zi xolis adabiYotShunoslarimiz uning Shaxsini oqlab, ijodini Yoqlab chiqiShga harakat qildilar. AdabiYotShunos M.B.Solihov Shoirning «Soldi beilmliq xatolarg'a» deb boShlanadigan muxammagini «Jadidizmning go'zal adabiYoti»ga kiritdi va o'z kitobidan (O'zbek adabiYotida millatchilik ko'rinishlari. T., 1932, 14-bet) joy berdi. 1950 yili Moskvada «Antologiya uzbekskoy poezii» majmuasi bosmadan chiqdi. Majmuada Kamiy haqida muxtasar ma'lumotnoma va S.Someva tarjimasida Shoirning «Murabba'i dar ta'rifi maktab» She'ri



kiritildi. Ma'lumotnomada «Kamiy O'zbekistonda ilg'or fikrning namoyandalaridan biri» deyiladi. 1960 yil bosmadan chiqqan «O'zbek adabiYoti» majmuasida (4-jild 1-kitob) Kamiy ijodidan ba'zi namunalar berildi. 70-yillardan boShlab G'.Karimov, B.Qosimov, A.Jalolov, M.Hamidova, M.Zokirovlarning maqola va tadqiqotlarida Kamiy Shaxsi va uning ijodiga mo'tadil YondoShiSh boShlandi. 90-yillarga kelib Shoir ijodini maxsus tadqiq etiShga kiriShildi. Vaqtli matbuot sahifalarida uning haYot va ijod Yo'liga oid maqolalar, adabiy merosidan ba'zi namunalar chop etila boShladi. Nihoyat, 1998 yili Kamiyning 4500 misraga yaqin She'rlar majmuasi «Dilni obod aylangiz...» nomi bilan naShr etildi. Bu bilan Shoir ijodini xalqqa tanitiSh, ilmiy muomalaga olib kiriSh va adabiYotdagi o'rnini belgilaSh imkoni yaratildi.

Kamiy ijodi Milliy uyg'oniSh davri o'zbek adabiYotining ajralmas bir qismi ekanligiga XX asrda tuzilgan Mo'minjon ToShqinning «ToShkent Shoirilari» (1948), Po'latjon Qayyumiyning «Tazkirai Qayyumiy» (60-yillar) tazkiralari ham guvohlik beradi. Bularning har ikkalasida ham Kamiy ijodiga to'xtab o'tilgan. Ayniqsa, M.ToShqin tazkisasi Shoir haYoti va ijodini o'rganiShda asosiy manba bo'lib turibdi.

Tarjimai holi Karimbek Kamiy 1865 yili ToShkent Shahrida, choponfuruSh savdogarlar oilasida dunYoga keldi. Otasi Sharifbek zamonasining savdogar boylaridan bo'liShi barobarida, ilmu ma'rifatga xayrixoh, adabiYotga ixlosmand kiShilardan edi. Oilada bo'lajak Shoirning o'qiShiga alohida e'tibor berildi. BoShlang'ich ta'limni Mozorxon mahallalik Mansurxon domladan oldi. Maktab o'quv dasturi doirasida Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, So'fi OlloYor She'riyati bilan ta-niShdi. Bu - YoSh, qiziquvchan Karimbek ko'ngliga She'r iShqini soldi. BoShlang'ich maktabni tugatgach, «Beklarbegi» madrasasiga o'tib o'qiShni davom ettirdi. Shu madrasaning maShhur mudarrisi Shomahmud Oxundda «xatmi kutub» qildi. Kamiy talabalikdan keyin ham Shu madrasa hujralarida qolib, faqirona haYot kechirdi. Oila ham qurmadi. Shoirning:

To'lmasinmu hasratu g'amg'a ichu toShim mening,  
TaShlabon ketsa pari ruxsor Yo'ldoShim mening.

Ko'z tutardim bir kuni qilg'ay vafo deb, ohkim,  
Bevafolig' zohir etti ul qalam qoShim mening,—

baytlari va yana bir necha g'azallari uning so'qqaboSh haYoti sabablarini ma'lum darajada izohlaydi. 90-yillarga kelib Kamiy ustoz Shoirilar qatoridan o'rin oldi. Endi uning hujrasi zamonasining katta Shoirilari va She'r ix-losmandlarining markaziga aylandi. Bu yerda ko'ngilochar adabiy suhbatlar qurildi, yangi ijodiy kuch baxSh etuvchi She'rxonliklar taShkil etildi. Chunonchi, Kamiyning:

Eduk afsurdatab'u tiyraxotir necha muddatdin,  
Ko'ngil bo'ldi munavvar, chaShmimiz ravShan bu suhbatdin.

Ochildi g'unchai maqsud, ko'kardi sabzai ummid,  
Bahori suhbat, arbobi fazlu ahli fitnatdin,-

baytlarini o'z ichiga olgan g'azali mana Shunday fayzoso suhbatlardan biri haqida bo'lgan edi. Shoirning ba'zi bir She'rlari va ayrim manbalar uning 1899 yili Chimkent, 1911 yili Andijon va Qo'qon, 1912 yilda esa Chimkent, Sayram, AvliYoota safarlarida bo'lganligidan dalolat beradi. Shoir Kamiy 1922 yilning Yozida 57 YoShida vafot etdi.

Ijodi va hayoti

Kamiy sermahsul mumtoz She'riyatimizning g'azal, murabba', muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a, fard kabi janrlarida qalam tebratdi. Ijtimoiy-falsafiy ruhaagi manzumalar Yozdi. Adabiy-ijtimoiy haYotdagi eng muhim voqealar sanasini o'zida darj etgan ta'rixlar yaratdi. Shoiridan 6000 misraga yaqinroq adabiy meros qolgan.

Kamiy She'riyati Shaklan va mazmunan xilma-xil. Shoirning jo'Shqin iShqiy g'azallari, zaharxanda va dadil ijtimoiy manzu-malari, millat kelajagiga kuyunib, uning farzandlarini ilm-ma'rifatga da'vat etgan She'rlari o'z davrida katta mavqega ega bo'lgan.

Kamiy o'z ijodining dastlabki bosqichida Yoq o'ziga xos badiiy tafakkur tarziga va o'z adabiy estetik qaraShlariga ega ijodkor ekanligini ko'rsata olgan. Shoirning 1894 yilgi baYozidan o'rin olgan:

O'qing aSh'ori bikru fikrni aylang tasarrufkim,  
Atorud taShlasun qo'ldin qalamni ko'kda hayratdin,-

misralari mana Shunday fikrga keliShimizga asos bo'la oladi. U o'z zamondoSh Shoirlari oldiga fikrni o'zgartiradigan, qotib qolgan tafakkurlarni isloh qiladigan mutlaqo yangi — bokira bir She'r YoziSh talabini qo'yadi.

Kamiyning ijodiy merosi, avvalo, o'z baYozlari va Shaxsiy arxividagi qo'lyozma varaqalar Shaklida bizgacha yetib kelgan. Qolaversa, keyinchalik tuzilgan qo'lyozma va toShbosma baYozlar hamda o'z davrida chiqqan ba'zi gazeta va jurnallar ham Shoir adabiy merosining asosiy manbalaridan bo'lib hisoblanadi.

iShqiy lirikasi

Kamiy ijodiYotining asosiy qismini iShqiy lirika taShkil qiladi. Xo'Sh, Shoir lug'atida iShq nima? Buni biz:

iShqdir olamda bir rohatfizoy komil asar,  
Mabdayi ayni siriShku mazhari ohi Sharar,-

misralaridan anglab olgandek bo'lamiz. Uning nazdida iShq barchani hayratga soluvchi bir «komil asar». Ko'z YoShining manbai ham u, o'tli ohning mazhari ham u. Aynan mana Shu yerda azaliy va abadiy iShqning tabiati ochilganday. Shunday iShq egasi bo'lmagan inson - inson emas. Shuning uchun ham Kamiy:

Dilekim, onda Yo'qdur otaShi iShq  
Ki, andin Sham' ila parvona yaxShi,-

deydi. Tabiiy, iShq har bir oShiq qalbida bir bor yangilanadi. Unda yangicha kechinmalar uyg'otadi, ohorli tuyg'ular tug'diradi.

Bunga o'Sha oShiqning ma'Shuqasi, uning fe'l-atvori, o'ziga xosliklari sabab bo'ladi. Kamiyning ham She'riyatda o'z iShqiy olami va o'z ma'Shuqasi bor. Bu Yor ham o'ziga xos suvratu siyratga ega. U husnu malohatda Shunday go'zalki, naqqoSh Moniy ko'rgan zamon hayratdan qotib, chizib turgan suvratini ham chizolmay qoladi. Bu Yorning ruxsori olamni Yoritadi. Hatto «ul zeb bul mohi tobonlarda Yo'q». Bu husn Shunday tarovatga egaki, undan o'zi mast qiliSh xususiyatiga ega bo'lgan Sharob mast emiSh: «Mast ermiSh Sharob husningdin». Uning jamoliga bir marta Oy bilan QuYoSh qarShi kelgan edi, ko'ring oqibatini: «Birin ruxsori dog' o'ldi, birin sorg'ordi siymosi».

Kamiy bir masnavisida suyukli Yor qiYofasini Shunday chizadi:

Ey, g'amzasi ofati zamona,  
Husn ichra jahonaro yagona.

Ey, qomati raShki sarvu ShamShod,  
Ey, kiprigi tig'u chaShmi jallod.

Ey, yuzlari mohu mehri anvar,  
Ey, xatlaru zulfi muShku anbar.

Ey, lablari ayni obi hayvon,  
Ey, so'zlari rohati dilu jon.

E'tibor bering, bu She'riy parchada Yorning husni, qomati, kiprigi, xattu zulfi, lablaridan keyin gap uning Shirin tilligiga, so'zining «rohati dilu jon»ligiga ko'chyapti. Til - kiShining ma'naviyatiga aloqador. Darhaqiqat, Kamiy She'rlarida Yorning nafaqat zohiriy suvrati, balki uning ma'naviy qiYofasi ham o'z aksini topgan. U g'azallaridan birida Yor tabiatining nozikligi, go'zal axloqi, ko'nglining ravShanligi, boodobu bohaYoligini Shunday ta'riflaydi:

Nozanin xo'yu neku axloq, ey ravShan zamir,  
Sharmu odobu haYo bobida Yo'q senga nazir.

Kamiy iShqiy She'rlarining aksari mana Shunday Yorning ta'rifu tavsifiga bag'iShlangan. Shoir bu Yorning vasliga muShtoq, lekin «baloyi firoqi»ga muhtalo. U hajr Shomi o'tib, vasl tongi otiShini istaydi, biroq orzulari armonga aylana boradi.

Xullas, Kamiyning iShqiy She'riyati, nafaqat sevimli Yorning suvratu siyrati, balki hijronzada Shoir qalbining so'ngsiz iztiroblari, hasratu amlarining ham badiiy in'ikosidir. Ayni paytda bu She'riyat o'z ijodkorining nozik ta'b, hissiYotga to'la Shoirona qalb egasi ekanligiga ham guvohlik beradi.

Ma'rifatparvarligi

Kamiyning ma'rifatparvarlik She'riyati gimnaziyani taniShtiruvchi She'rlari bilan boShlandi. Bu jihatdan u Furqat maktabining davomchisiga aylangan edi. Lekin, Shoir ijodida keyinchalik uslubiy o'zgarishlar yuz berdi. U, asosan, milliy madrasalarimizning tolibi ilmlarini ilmga chaqiruvchi da'vatkorona ruh oldi. Kamiyning «Dar ta'rifi tavsifi ilm...», «AYo, ey, mulla Foziljon qori», «Har makonda bo'lsang, ey xonim, farog'at birla bo'l» She'rlari mana Shular jumlasidandir. Shoir mazkur She'rlarida ilmni tar-g'ib qilar ekan, unga ikki dunYo saodatining kaliti deb qaradi:

Obro'yi dinu dunYo ilmdur, beShakku rayb,  
Kasbi ilm et, ikki dunYoda saodat birla bo'l.

Kamiy nazarida insonni e'tiborli qiladigan ham, uni bax-tu iqbolga, molu davlatga yetiShtiradigan ham ilm. Uningcha in-son molu dunYo, naslu nasabiga qarab emas, aynan ilmu odobiga qarab aziz va Sharafli sanaladi:

Azizlik sonmangiz molu nasabdur,  
Sharaf hosil etan ilmu adabdur.

Shoir «Dar ta'rifu tavsifi ilm» She'rini «Toliboni ilma dasturul-amal» deb atagan edi. Darhaqiqat, Kamiyning bu davr ma'rifatparvarlik She'riyati ilm toliblari uchun o'ziga xos dastur xarakteriga ega. Masalan, Shoir millat farzandlarini ilmga da'vat qilarkan, Shuning barobarida fazlga, adabga, haYoga ham chaqiradi. Bir ilm tolibini vasf etganda, uning nafaqat ilmni, balki fazlini ham ibrat qilib ko'rsatadi («Fazlu doniSh ichra yaktoi zamon Abdulg'ani»). Agar ulardan birini duo qiladigan bo'lsa:

Kamolul fazlu ilmingni ziYoda,  
Bazudi aylasun Xalloqi Boriy, -

deya Yaratgandan unga ilmgina emas, fazlu kamol ham so'raydi. Shoir nazarida maktab ilm bilan birgalikda «haYovu adab»ning ham koni. U fayz chaShmasi, fazl maskani... Bir so'z bilan aytganda «favki

har Shay», ya'ni, har narsadan ustun:

Maktabki, koni ilmu haYovu adab erur,  
Maktabki, fayz chaShmasiyu fazli Rab erur.  
Maktabki, obro'yu kamola sabab erur,  
Maktabki, favqi har Shayyu kulli nasab erur.

Shuningdek, Kamiy ma'rifatparvarlik She'riyati ilm toliblariga ilmni xolislik va pok niyat bilan o'rganiShni tavsiya qiladi:

Bo'lib pokizavu ham pok niyat,  
HamiSha jahd qilg'il ilm sari.

Albatta, Shoir ilmga da'vat qilarkan, amalni ham Yoddan chi-qarmadi. U talabalarga qarata: Boamal bo'l, boadab bo'l, behiyal,— deya ta'lim berdi. Zero, amalsiz ilm insonni ziYonu zahmatlarga olib boriShi tayin. Kamiyning ma'rifiy qaraShlari bo'yicha ilm o'rganiSh erkaklar singari aYollarga ham Shart. Hatto bu Olohning farzi ekanligini Shoir alohida ta'kidlaydi. Bu haqdagi maShhur hadisga iShora qiladi:

Mardu zang'a ilm farz o'lg'onlig'i,  
Barchaga maShhur bu Shirin masal.

10-yillarga kelib Kamiy ma'rifatparvarligi yangi bosqichga ko'tarildi. Endi uning da'vati ilm toliblariga emas, millatga qaratildi. Uni milliy uyg'oniShga, taraqqiYotga chorladi, kamchiliklaridan, nuqsonlaridan so'z ochdi:

Qilmag'ay ilm sari kimsa nazar,  
Xalq behuda kasba mayl aylar.  
Qolmadi hech qadri ilmu hunar,  
Ko'rdi beilm qavm necha zarar.  
Dilki, millat g'amidin qon o'ldi,  
Doimo sudimiz ziYon o'ldi.

Nainki birgina foydaning ziYonga aylaniShi, balki millatning Yo'ldan ozganligi, balolar girdobida bir xas singari qolib ketganligi, hatto birovlariga qaram bo'lib, butun mol-mulki qo'ldan ketganligi ham, Shoir nazdida, ilmsizlik oqibati edi:

Ilmsizlik chiqordi tuz Yo'ldin,  
Oldi qoplab balo o'ngu so'ldin,  
Bizda na qoldi sarvatu puldin,  
Ketdi mol ila mulkimiz qo'ldin  
G'arbiylar, ya'ni O'vrupolarg'a.

Davr Shiddatkor hodisalarga boy edi. Fevral voqealari yuz berdi. Chor hukumati ag'darildi. Millat boShidan «jahannamiy zulumat» chekindi, «subhi najot» tobora yaqinroq ko'rina boShladi. Mana Shunday bir vaziyatda ham Kamiy ma'rifatga sodiq qoldi.

Millat uchun, Vatan uchun najotni ilmda ko'rdi, maorifda deb bildi:

Najot istasang ilmu maorifa YopiSh,  
HamiSha ilmni tahsil ayla-Yozu qiSh -

Senga ulumu maorif kerak, na zar, na kumuSh,  
Bu so'zni tingla, pandi tamomi mazhabi kiSh.

Chekildi ufqi Vatandin jahannamiy zulumot,  
UYon Vatan, uYon, ortiq ko'rindi subhi najot.

Kamiy haYotining so'nggi yillariga qadar ma'rifatga chorlovchi She'rlar Yozdi, maktab-maorif iShlariga faol qatnaShdi. Hatto kutubxonalar taShkil qiliSh va maktablar ochiShda zo'r faoliyat ko'rsatganligi haqida ma'lumotlar bor.

Ijtimoiy She'riyati

Kamiy She'rlarida charxning «raviShi kaj» ligidan to zolim podShohning zulmigacha, ochlik yillarining «suubatu alami»dan Fevralning su-rurigacha, Oktyabrning «ranju zulmi»dan boShlab Turkiston muxtoriyatini qonga botirgan bolSheviklarning «fe'li bad»igacha o'z ifodasini topgan. Shoirning mana Shunday She'rlaridan biri «Alhazar, ey Shohi zolim, alhazar» deb boShlanadigan muxammasidir. Muxammas 25 misradan iborat bo'lib, zolim Shohni zulmdan saqlaniShga chaqiruvchi quyidagi misralar bilan boShlanadi:

Alhazar, ey Shohi zolim, alhazar,  
Rahm qun bar holi mazlumon nagar,  
In suxan xuSh guft on neku sar:  
Oh ursa piru zan vaqti sahar,  
Bo'lg'ay andin yuz tuman zeru zabar.

Xoh farmoningda bo'lsun bahru bar,  
Xoh bo'lsun sanda jam'i molu zar,  
Bas, keraqdur zulmdin qilmoq hazar,  
Oh ursa piru zan vaqti sahar,  
Bo'lg'ay andin yuz tuman zeru zabar.

She'r mana Shunday ruhda davom etadi. «Shohi zolim»ni «no-tavonlar holidan xabar» oliShga chaqiradi, «aftodalar»ning «Haq janobig'a niYoz aylab» oh uriShlaridan, oqibatda esa butun molu davlati «zeru zabar» (ostin-ustin) bo'liShidan ogoh etadi. Xuddi Shu paytlar mazlum Turkiston bir zolim podShoh - Aleksandr III ning zulmidan qon yutmoqda edi. Asrlar davomida o'ziga bek bo'lib yaShagan va ajdodlarining qaynoq qonlari tomirlarida jo'Sh urgan bu yurtning farzandlari hali-hali mustamlakachilikning haqoratomuz siYosatiga ko'nikolmay kelaYotgan edi. Shundan har joy-har joyda, tez-tez zulmga qarShi qo'zg'olonlar ko'tarilib turdi. Ularning eng dahShatlilaridan biri 1892 yili Kamiyning ko'z oldida yuz berdi. «Vabo qo'zg'oloni», «ToShotar voqeasi» nomlari bilan tarixga kirgan bu ToShkent qo'zg'olonida yuzlab mahalliy xalqning qoni to'kildi, o'nlab Yo'lboShchilarning boShi ketdi. Kamiyning mazkur muxammasi mana Shu qirg'indan keyin jabrdiyda xalqning Aleksandr III ga, mustamlakachilik siYosatiga nafrati o'laroq dunYoga kelgan edi.

1895 yili Rusiya imperatori vafot etdi. Shu munosabat bilan «Turkiston viloyatining gazetisi»da Kamiy qalamiga mansub ta'rix-marsiya chop etiladi. Sho'ro adabiYotShunosligi uzoq yillar Shoirni «oq podShohning maddohi» deb qoralab keldi. Lekin marsiya mazmuniga e'tibor bersak, bu da'voga butunlay teskari holatning guvohi bo'lamiz. Keling, matnga diqqatni qarataylik:

Taammul birla boqsoq, darhaqiqat,  
Qani Iskandaru Doro bila Jam?

Qani Kayxisravu Kaykovus, Bahman,  
Qani AfrosiYobu Zolu Rustam?

Qani Bahrom - haft iqlimni olg'on,  
Qani Qaysar, qani Fag'furi Chin ham?

Qani Xisrav, qani Parvizu Hurmuz,  
Qani No'Shiravoni odil, mukarram?

Kelib har birlari navbat-banavbat,  
Muaxxar ketti, ba'zisi muqaddam.

Bilurmusiz qaYon bordi bu bari,  
Bo'ling ogoh, ey avlodi Odam.

Ajal soqiysidin no'Sh ayladilar,  
Fanoning Sharbatin bari, ba hardam.

Jahonni sar-basar tasxir aylab,  
Aleksandr Aleksandruvich ham.

Demak, Kamiy aytmoqchi, tarihdan dunYoni so'raganlar ko'p edi. Ularning bari ketdi. Qay biri oddin, qay biri keyin, baribir, «ajal soqiysi»ning Sharbatidan «no'Sh ayladilar». Xuddi Shuningdek, «Aleksandr Aleksandruvich ham». Demak, bu bevafo dunYodan ketiShga barcha mahkum. Kamiy aytmoqchi: «Bale, hali hama Shundog' bo'lg'ay, Agar Shohu va gar bo'lg'ay gado ham». Unda Shohlikdan nima ma'ni? Butun dunYoni zabt etsa-yu, bu dunYodagi barcha «molu dirham»larni to'plab, ularning manfaati tegmaydigan boShqa bir dunYoga ketaversa. Undan nima qoladi? Kamiy bunga: «Valekin qolg'usi bir nomi neku», — deydi. Demak, faqat yaxshi nomgina qoliShi mumkin. Shoir buning isboti sifatida: «Guvohi odil erasmu bu so'zga, Biri No'Shiravonu biri Hotam», — deb No'Shiravonning odilligi-yu, Hotamning saxovatpeShaligini ibrat qilib ko'rsatadi:

Kerak erkan tariqi adl tutmak,  
Olib ibrat karamla, Shohi olam.

Shoir «kerak erkan» deb poetik sintaksisda o'tgan zamon for-masini tanladi. Chunki buni dunYodan o'tgan Aleksandrga aytaYotgan edi. Kamiy davom ettirib:

Qayu Shoh bu sifatga muttasif Yo'q,  
EShitgay to qiYomat ta'n ila zam,-

deydi. Darhaqiqat, qaysi Shoh odillik sifati bilan sifatlanmagan bo'lsa, u qiYomatga qadar ta'nayu daShnomga qoladi. Umuman Shunday. Lekin, bu Aleksandr III ga qarata aytilayapti. Ustiga-ustak bu marsiya Sharq She'riyatining poetik usullaridan ancha-muncha xabardor bo'lgan N.Ostroumovning farmoyiShiga ko'ra, uning gazetasi uchun Yozilgan. Mana Shunday bir holatda Kamiyning o'ris podShosining zolimligiyu, uning adolatsizligini bundanda oShkorroq suratda aytishi muShkul edi.

Kamiyning yuqorida to'xtalganimiz bir podShoh haqidagi ikki She'ri qay vaziyatda va qay uslubda YoziliShidan qat'i nazar Turkiston xalqi ustiga Yog'dirgan zulmu bedodliklarini oShkor etadi.

Kamiy ijtimoiy She'riyatining bir qismi zamona va ahli zamonadan Shikoyat tarzida Yozilgan. Shoirning «Muqarrar har kimning bo'lsa kamoli», «Al-amon...», «Yo rab, zamona xalqi...», «Yaxshi», «Ey sabo, kel...», «Bir mayxo'r yigit xususida» kabi She'rlari mana Shunday asarlar sirasiga kiradi. 10-yillarga kelib

Kamiyning bunday xarakterdagi She'rlari milliy-ma'rifiy ruh bilan uyg'unlaShib, Shoir ijodida millatparvarlik She'riyatining yuzaga keliShiga sabab bo'ldi. Uning «Ahvoli zamona» She'ri Shular jumlasidan:

Ming asaf, bir ajib zamon o'ldi,  
Yaxshi kim ersa, ul yamon o'ldi.

Ba'zi el tolibi zanon o'ldi,  
Ba'zisi moyili javon o'ldi.

Dilki, millat g'amidin qon o'ldi,  
Dardu hasrat nasibi jon o'ldi.

1916 yili ocharchilik boShlandi. Bu haqda Zavqiy «Payambar bo'lsa non, oSh avliYodur», — degan edi. Kamiy bu davrdagi xalqning ahvolini Shunday tasvirlaydi:

Ochlik suubatu alami cho'q yamon erur,  
Bir luqma hasratida yuz ohu fig'on erur,  
Bir non alarning nazdida go'Yoki jon erur...

Darhaqiqat, 1916-1919 yillar Yomon keldi. Ochlik va kasallikdan xalq qirila boShladi. «Biz hozir Shunday vaqtga yetib keldikki, — deb Yozgan edi o'Sha yillari Turor Risqulov, — har kuni o'n minglab kiShilar qirilib ketmoqda va Shunday payt keliShi mumkinki, butun bir millat Yo'q bo'lib ketadi». Bunday ochlik dahShati Kamiy qalbini larzaga soldi. U zamona boylariga murojaat qilib, xalqqa madad beriShga chaqirdi.

Alg'ov-dalg'ovli 17 yil ham kirib keldi. Shu yilning 17 fevralida chor hukumati ag'darildi. Ikkinchi martda Muvaqqat hukumat tuzildi. Turkiston ziYolilari bu inqilobni xursandchilik bilan kutib oldilar. Vaktli hukumat bizga hurriyat beradi, deb qat'iy umid qildilar. Shulardan biri Kamiy edi. U «Najot» gazetasida inqilobni olqiShlab, Shunday satrlarni Yozdi:

Tulu' aylab bu kun bo'rk Sharqdin oftoboso,  
Munavvar ayladi olam, bo'lay qurboni hurriyat.

TaShakkurlar qilib tabrik aylang, ey musulmonlar,  
NaShast etti adolat taxtiga xoqoni hurriyat...

Biroq yuz bergan Oktyabr voqealari va uning oqibatlari Shoirni qattiq tuShkunlikka soldi. Buning misoli sifatida uning «Shikoyatnomai Kamiy az inqilobi zamona va ahli za-mona» She'rini keltiriSh mumkin. Shoir saboga murojaat etib, Shunday Yozadi:

Yetti de: ham zamon, zamon ahlidin  
Anga ko'b ranju zulm birla malol.

Chunki bu iShi zamona, ham xalqi  
Munqalib, inqilobi hol-behol.

Inqilobi zamona ermasmu,  
Qildi oliyni pastlar poymol.

Yo xaloyiq Yo'qotti maslahatin,  
Bo'ldi mundog' buzuq hama aqvol.

NarkuShu modaparvar o'limiSh xalq,  
Bu nechuk Shug'lu bu nechuk af'ol?!

Fevral inqilobidan keyin yerli ziYolilar Turkistonning istiqloli uchun harakatda bo'ldilar. Matbuot orqali o'z fikrlarini xalqqa yetkazdilar va Shu maslaku maslahat atrofida birika bo'Shladilar. Shoirning «Yo xaloyiq Yo'qotti maslahatin» misrasi mana Shunga iShora qiladi. Ularning sa'y-harakati va fidoyiligi bois 1917 yilning yigirma beShinchi noyabrida Qo'qonda Turkistonning mustaqilligi haqida rezolyudiya qabul qilindi. 28 noyabrda bo'lajak davlat tuzilmasining nomi «Turkiston muxtoriyati» deb belgilandi. Lekin, afsuski, bu muxtoriyat 81 kun umr ko'rdi, xolos. Chor hukumati yiqitilgan bo'lsa-da, endi bolSheviklik niqobini kiygan rus Shovinizmi yerli xalqlarning mustaqilligiga tiShtirnog'i bilan qarShi turdi. Turkiston muxtoriyatining markazi xisoblangan Qo'qon 19 fevral kuni ular tomonidan vayronaga aylantirildi. Turkiston O'lka harbiy komissari Perfilev barcha zambaraklardan Qo'qon aholisi ustiga o't ochiShni, bu ham yetmagandek, Yondiruvchi snaryadlardan foydalaniShni buyurdi. Shahar uch kun Yong'in ichida qoldi, yerli aholidan o'n ming kiShi halok bo'ldi. Bu haqda Kamiy «Xo'qand foje'asina» bag'iShlangan «Afsusnoma» She'rida Shunday Yozadi:

Voy, yuz voyki, Farg'ona xarob o'ldi, darig',  
Zulm o'qi birla bu kun gardi turob o'ldi, darig',  
Bu musibatdin ulus chaShmi purob o'ldi, darig',  
Ham bari katta-kichik bag'ri kabob o'ldi, darig',  
Shahri obod erdi, chun daShti sarob o'ldi, darig'.

She'rning ilk bandidanoq misralar taassufu dard ila Yozilganini payqaSh qiyin emas. Kamiy bir o'rinda Farg'ona xalqi «Sulh debon necha zamon rus elig'a ko'z tutti», - deydi. Lekin, ming afsuski, mazlum xalqning yana addaniShi ma'lum bo'ldi. Sulh o'rniga ular ustiga qahru g'azab Yog'ildi. Kamiy nadomat bilan buni «BolShiviklardin alar uzra itob o'ldi, darig'» Shaklida ifodalaydi. Shahar vayron qilindi, xalq qirib taShlandi, nomusi poymol etildi. Biroq, Shunda ham bolSheviklarning ko'ngli taskin topmaydi. Mazlumlar mol-mulkini talon-toroj qiladilar. Otning o'limi itningbayramiga aylanadi. Ularning bu qiYofasi Shoirning «BolSheviklarning zulmimu, fe'li badi, Zaru am-vollarin qo'ymadi, mundog' taladi, Bo'lmayin qolmadi toroj gilemu namadi» misralarida yanada ravShanroq namoYon bo'ladi.

Xullas, Kamiy ijtimoiy mavzudagi She'rlarida mumtoz She'riyatning qay bir usulidan foydalanmasin, mustamlakachi podShohning, istibdod tuzumining zulmu bedodliklarini foSh etdi. Hurriyatni baralla olqiShladi. Milliy davlatchiligimizga rahna solganlardan o'z qahru g'azabini yaShira olmadi. Bularning barchasi Shoirning istiqlolni naqadar orziqib kutib yaShaganligidan dalolat beradi.

### **Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914)**

GASPRINSKIY (Gaspralik) Ismoilbek (1851.21.3, Boqcharoy yaqinidagi Avjiko'y qiShlog'i —1914.11.9, Boqcharoy) — jadidchShShk harakatining asoschisi, Yozuvchi va publitsist. G.ning otasi Mustafu Gasprinskiy Rossiya harbiy dvoryani (praporShchik) bo'lib, Yalta Sh. yaqinidagi Gaspra qiShlog'idan edi. G. qiShloq musulmon maktabi, Oqmachit (hoz. Simferopol) gimnaziyasi va Voronejda, Moskva kadetlik korpusida o'qidi (1864—67). Qrimga qaytgach, rus tili o'qituvchisi bo'lib iShladi (1867—70). Istanbul va Sorbonna (Parij) universitetlarida o'qidi (1871—75). Jazoir, Tunis, Misr, Gresiyada bo'ldi. Parijda fransuz sotsialistlari va liberallariga yaqinlaShdi. Turkiyada YoSh turklar harakati rahbarlari bilan taniShdi (1875—77). Boq-chararoy Sh. meri qilibsaylandi(1877). G. turkiy xalqlar tarixi va adabiYotini o'rganib, Sharq bilan G'arb olamini taqqoslaSh imkoniyatiga ega bo'ldi. G. "Rusiya musulmonligi" (Simferopol, 1881) ilk risolasida Yevropa sivilizatsiyasidan ko'r-ko'rona andoza oliShga qarShi chiqib, uni tanqidiy qabul qiliShga, musulmonlarni ilm-fanni egallaShga, texnika yutuqlaridan foydalaniShga da'vat etdi. "Ovrupe madaniyatiga bir nazar muvozzini" (Istan-bul, 1885) asarida esa sotsializm g'oyalari bilan bahsga kiriShib,



uning asosiy tamoyillarini Shubha ostiga oldi. G. Rossiya mustamlakasidagi barcha musulmon xalqlar maorifini tubdan isloh qiliSh, dunYoviy fanlarni o'qitiSh masalasiga alohida e'tibor berdi. Boqchasaroyda dastlabki "usuli jadid" (yangi usul) maktabini ochdi (1884). Turkiston general-gubernatori N. O. Rozenbaxga musulmon maktablarini isloh qiliShga doir loyihagini yubordi. Rad javobini olgach, 1893 y. Turkistonga ozi keldi, Buxoro, Samarkand, ToShkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziYolilar bilan uchraShuvlar o'tkazdi.

G. jadidchilik g'oyalarini kengroq YoyiSh uchun "Tarjimon" (1883 y. 10 alr. dan), "Millat" (1908), "Bolalar olami" (1908—15), "Uyg'oniSh" (Qohira, 1908, arab tilida) gaz.lari, "AYollar olami" jur. (1908—10), "Xa-xa-xa!" hajviy haftanomasini chiqardi. Jadid maktablari uchun "Xo'jai sibYon" ("Bolalar muallimi") darsligini, "Rahbari muallimin Yoki muallimlarga Yo'ldoSh" (1898) kitobini Yozdi.

G. musulmon milliy ozodlik harakatining Yo'lboShchisi sifatida tanildi. U Kavkaz, Volgabo'yi, Misr va Hindistonga borib, umummusulmonlar qurultoyini chaqiriShga harakat qildi. Butun Rossiya musulmonlari 3 ta kongressi iShida faol qatnaShdi (1905—06). Dastlabki umummusulmon siYosiy partiyasi "Ittifoq ul-muslimin"ni tuziSh taShabbuskorlaridan biri bo'ldi (1906). "Dor ul-rohat musulmonlari" ilmiyfantastik asari, "Yuz yildan so'ng . 2000sana" badiiy-publitsistik romani, "Turkiston ulamosi" kitobining muallifi.

### **Mahmudho'ja Behbudiy (1875-1919)**

Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi Shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylaShur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yaygi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur.

Barcha madrasalarda Shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni dars kitobi —arabiy, muallim — turkiy, taqriru tarjimini forsiyligi xila ajibdur.

Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydur. Chunonchi, eski Yorliqlardan ma'lum bo'lurki, Turkistonda eski amir va xonlarni amri farmoyiSh va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulqazou adabiYot tahrirlari forsiy Yozilar ekan. Bu qoidalar zotan yaxShidur. Ammo bora-bora Yoinki kela-kela usuli ta'lim va kitobatg'a ehmol paydo bo'lub, hozir bnr darajag'a kelibdurki, ahli savod Yoinki ahli ilmni yuzdan to'qson to'qquzi bu uch tilda mukammal tahriri adabiyg'a molik Yo'qdur. Ya'ni usuli ta'lim va tadriski isloh etmak kerak. O'tayluk.

Turkistonning Samarqand va Farg'ona viloyatlarinda forscha so'yelayturgan bir necha Shahar va qiShloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiydur.

Fors Shoiru udabosi asarlari qiYomatg'acha lazzati ketmayturgan xazinai ma'naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar.

Bizg'a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsilisiz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsni turkin bilmog'i lozimdur.

Forsiy bilgan kiShi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, «Masnaviydan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoi zamoniY asarini turkiy tarjimasidan lazzat Shunday oladur.

Farang va rus doniShmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy Yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qazol turklari zamona ulamosi asarini turkiy'g'a tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kiShi zamoni bilur. Turk tilig'a har bir yangi va naf'lik kitoblar barcha tilda tarjima bo'lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamoni hozira madaniyati Tolsto'y, Jul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur. Maqsaddan uzoq tuShdik.

Bizg'a lozimki o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o'quylik. Davlat mansablarig'a kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizg'a xidmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat iShi, sanoat va mamlakat iShlari, hatto, dini islom va millatga xidmat ilmsiz bo'lmaydur. Masalan,

buguigi «podSholik дума»g'a o'z din va millatimiz naf'ig'a so'zlamog bizlar uchun mumkin bo'lur. Ammo anda borib so'ylaguvchi kiShi bizg'a Yo'q. Anda borib naf'i bir o'n-sana o'qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur.

Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqdir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.

Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunYo uchun lozimdur.

Hadisi Sharifdan ma'lum bo'ladurki, janobi payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar (Sahihi Buxoriy, juz 4, sahifa 156).

Holbuki, ul zoti bobarokot payg'ambarimiz quvvati hokima egasi edilar. Yahudiyalar mahkum va tobe' edi. Al-on Rusiya hokim, bizlar anga tobe' va o'z tirikligimiz uchun alar xatini bilmoq zarur va hadisi Sharif dalolaticha durustligig'a joyi inkor bo'lmasa kerakdur.

### **Abdulla Avloniy (1878-1934)**

Inson bolalari eng eski zamonlarda yirtqich hayvonlardan o'zlarini saqlamoq uchun tog' teShuklarida, g'or (mog'ora)larda yaShagan vaqtlarida tinch Yotmaganlar, jim turmaganlar.

Sekin-sekin tog' teShuklaridan boShlarini chiqarib, tabiatning yasagan va o'sdirgan, vujudga chiqargan jonliq va jonsiz narsalarini sinchiklab tekShirib qaray boShlaganlar. Ko'ngillariga YoqiShgan, ko'zlariga yaxShi ko'rungan hayvon va boShqa narsalarning rasm, haykallar (gavdalarin - A. A.) qanday qiyinchiliqlar bilan bo'lsa-da, toShlarga, toShlardan va temirlardan cho'kichlar yasab, suratlarini, rasmlarini o'yganlar. Kelgusi uchun Yodgor qoldirganlar.

Masalan, iki kiyik bir-biri bilan suziShib turganligi Yoxud bir tog' takasining semirub ko'grab yurganligi Yoki bir tog' buqasining baqirub, hayqirub, dumini xoda qilub, ozod va sarsin yurganligi Yoki yirtqich hayvonlarning boShqa hayvonlarga qilib turgan zo'rliq va yirtqichliqlarin ko'rganlarda, mutaassir bo'lganlar. Mana bu dillaridagi ta'sir va hissiYotni to'xtata olmaganlar va Shu hissiYot to'lqunini o'zlaridan so'ng qoladirgan bolalariga anglamoq niyati bilan ming maShaqqatlar bilan toShlarga o'yib qoldirg'onlar. Mana bu gavda (haykallar - A. A.) lar bizlarga iShlangan (Yodgor — A. A.) eskartmalardir.

Bargi daraxton sabz dar nazari huShYor,  
Har varaqaSh tabiati ro'zgor —

Mana bu dunYo yuzida inson bolalarining sanoe nafisaga qo'ygan birinchi odim (qadam — A. A.)lari hisoblanadir. Olar Shuning bilan to'xtab qoldilarmi?

- Yo'q!

Yana Shul tekShiriSh, sinchiklaShdiriShlarinda davom qildilar. Hayvonlarni tekShiruvdan so'ng quShlarni suriShdiriShga o'tdilar. Bahor mavsumlarida chechaklarning hajrida mast bo'lib sayragan quShlarning Yoqimli tovuSh (sado — A. A.)lari huShlariga o'tirdi-da, onlar ham ixtiYorsiz raviShda Shu quShlarga tovuShlarin o'xShatmoq, go'Yo quSh kabi sayramoqchi bo'ldilar.

«Sayra bulbul, sayra, chinorni Shoxi sinsun,  
Yor ayrilaman dedi ayrilib ko'ngli tinsun» —

deyub ular ham nag'ma aShula qila boShladilar. Mana bu davrni sanoe nafisaning adabiYot davri deyilur. Lekin avvalgi san'atlariga qaraganda so'nggi san'atlari avvalidan muhimroq va yaxShiroq bo'lib, mutaassir bo'lmoq har kimga nasib bo'lmas edi.

Uzoq yerlarda yaShovchi o'rtoqlari kelub ko'rmoqlari lozim kelardi. Ammo bul ikkinchi iShlab chiqargan san'atlarin Shundog' qulayligi bor edikim, tildan-tilga, og'izdan-og'izga, eldan-elga ko'chub yurardi.

Shundog' qilib Shodlik kunlarin Shodlik qo'Shiqlari bilan tasvir qilsalar, g'amlik kunlarin qayg'ulig aShulalari bilan izhor qililar edilar:

«Bulbulim uchdi qo'lumdan qayda mehmondir bukun,  
Bulbulimni Yo'qotib, ko'nglim pariShondir bukun».

Go'zallaridan, mahbubalaridan, borlaridan ajralganliklarin boShqa o'rtoqlariga ham ma'lum qilar edilar. Bora-bora Shunga ham qanoat qilmadilar.

Daraxtlarning Shoxlariga ilinib qolg'on hayvonlarning ichaklarin havoning ta'siri bilan qurib, Shamolning ta'siri bilan «ting'ir-ting'ir» qilgan tovuShi (sadosi — A. A.) ko'ngullariga o'turdi, xuSh keldi.

O'zlarining aShula va qo'Shiqlariga jo'r-jo'ravoz qilmoq uchun hayvon ichaklaridan «tor» yasab musiqiy asboblarni yuzaga chiqardilar. Bu san'atlari avvalgilariga qaraganda eng nafis, eng muhim, eng ruhlik bir san'at bo'lib chikdi.

Lekin onlar bu san'atlarni tekShiruv va qayg'iruv orqasida chiqordilar-da, bizlarga Yodgor o'laroq qoldirib, o'zlari ko'zdan nihon o'ldilar.

### **To'lagan Xo'jamYorov - Tavallo (1883-1937)**

To'lagan Xo'jamYorov Tavallo 1883 yili Ko'kcha dahasida dunYoga keldi. "Beklarbegi" madrasasida, rus-tuzem maktabida o'qidi. 1910-yillardan vaqtli matbuotda She'r va maqolalari bosila boShlagan. 1914 yili ToShkentda "NaShriYot" Shirkatini tuziShda iShtirok etadi. 1915 yilda esa "Turon" jamiyatida faoliyat ko'rsatadi.

Uning yagona She'riy to'plami "Ravnaq-ul Islom" alohida holda 1916 yili naShr qilindi. UShbu to'plam 1993 yili professor B. Qosimov tomonidan so'zboShi va izohlar bilan qayta naShr qilindi.

Tavalloning ijodkor sifatida ShakllaniShida ToShkent adabiy muhitining roli katta bo'ladi. Unga sayramlik Shoir Yusuf SarYomiy ustozlik qildi. Taxallusni ham unga Yusuf SarYomiy bergan.

U 20-yillarda "MuShtum" hajviy jurnalining faollaridan edi. "Mag'zava" imzosi bilan o'nlab hajviy She'rlari chop etilgan, ular yig'ilgan, o'rganilgan emas.

1937 yil 14 avgustda Tavallo aksilinqilobiy "Turon", "Sho'royi islom" "Ittihodi taraqqiy", "Milliy ittihad", "Milliy istiqlol" taShkilotlarining a'zosi, "Millionerning o'g'li", "She'rlarida millatchilik g'oyalarini ilgari surgan"likda ayblanib, qamoqqa olinadi va otib taShlanadi.

### **So'fizoda (1880-1937)**

So'fizoda o'zining xalqchilik, taraqqiyparvarlik ruhidagi She'rlari bilan xalqimizning milliy uyg'oniShiga hissa qo'Shgan ilg'or ziYolilaridan biridir. MuhammadSharif Egamberdi o'g'li 1869 yilning 29 yanvarida Namangan viloyati, Chust tumanida hunarmand - kosib oilasida tug'ilgan.

Otasi Egamberdi So'fi pichoqchilik, charxchilik iShlari bilan maShg'ul bo'lgan. Onasi Zaynab xola hoxiShiga ko'ra Manzura otindan xat-savod chiqaradi, eski maktablarda ta'lim oladi. «VahShiy» taxallusi bilan hajviy She'rlar va g'azallar Yozgan, «Turkiston viloyatining gazetasi», «Sadoi Turkiston» gazetalarida She'rlari bilan qatnaShib turgan.

Qo'qon adabiy muhitining maShhur Shoirlari Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nodim Namangoniy bilan yaqin munosabatda bo'ldi. So'fizoda 1893 yilda ona Shahri Chustda boYonlarni, chor amaldorlarini, mutaassiblarni hajv qiluvchi She'rlari uchun «Badasl», «Beadib», «Dahriy» deb ayblangan va o'limga hukm qilinadi.

Shoir nohaq ayblovlardan qochib 14 yil har mamlakatda umr kechiradi. Tiflis, Boku Shaharlarida bo'lib, Arabiston, Hindiston, Turkiya, Afg'onistonda yaShagan va o'qituvchilnk qilgan. 1913 yilda Chustda yangi usuldagi boShlang'ich maktab ochtan.

1918 yilda Afg'oniston maorif vazirining o'rinbosari sifatida Turkistonga afg'on vakolatxonasi tilmochi bo'lib tayinlanadi. Shu yili u U O'zbekistonga qaytib keladi va umrining oxirigacha xizmat qiladi, 1926 yil 27 fevralda «O'zbekiston xalq Shoiri» faxriy unvoniga birinchi bo'lib sazovor bo'lgan.

U 1937 yilda og'ir betoblikdan vafot etadi, qabrining qardaligi noma'lum.

Asarlari: «O'zbek xonimiga», «Xonimlar isminda», «Vatan», «Muslimalar», «XuShchaqchaq qalamlar», «Bayram naShidalarini» (1934), «BeSh Yorlar tilidan», «Alvido», «Ozodlik bayrami», «Dakaning», «Bedanang», «Saylovga», «Quvdi meni johillar o'Shandog' vatanimdin...» va boShq.

### **Abdurauf Fitrat (1886-1938)**

Yirik davlat va siYosat arbobi, Shoir va olim, nosir va dramaturg, ma'rifatparvar Fitrat 1886-yili Buxoroda ziYoli oilasida dunYoga keldi. Dastlab eski maktabda o'qidi, keyin Mirarab madrasasida tahsiini davom ettirdi.

Asrimiz boShlarida vujudga kelgan "Tarbiyayi atfol" jamiyati ko'magida 1909—1913-yillarda Istambulda tahsil oldi. Bu yerda qizg'in ijod qildi. Shuning samarasi o'laroq, 1911-yili "Sayha" ("Chorlov") nomli She'riy to'plamini chop ettiradi. Turkiyadan qaytgach, Buxoroda o'qituvchilik qiladi. "YoSh buxoroliklar" harakatida faol iShtirok etadi, uning boSh mafkurachisi, g'oyaviy Yo'lboShchilaridan biriga aylanadi.

1917-yil apreldan 1918-yil martigacha Samarqandda chiqib turgan "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qiladi. 1918-yili Fitrat ToShkentga keladi.

11 bu yerda asosan ilmiy, ijodiy, ma'rifiy iShlar bilan ko'proq band bo'ldi. U bir qator darsliklar tuzadi, "Chig'atoy gurungi" nomli ijtimoiy-adabiy taShkilotda faol iShtirok etadi.

1921-yili Buxoroga taklif etiladi. U xalq xo'jaligining bir qator sohalarini yaxShilaShda, ayniqsa, maorifsohasida sezilarli iShlarni amalga oShiradi. Uning taShabbusi bilan bir guruh iqtidorli YoShlar Istambul, Berlin, Moskva kabi Shaharlarga o'qiShga yuboriladi. Buxoro maktablari uchun o'quv qurollari, darslik va qo'llanmalar naShr etiSh Yo'lga qo'yiladi.

Fitrat 1921—1922-yillarda bir qator yuqori lavozimlarda iShlab, o'zining davlat arbobi sifatidagi iste'dodini ko'rsata oldi.

U 1923—1924-yillarda Moskva va Leningradda yaShadi, Sharq tillari institutida iShladi. Turk, arab, fors tillari va adabiYotidan YoShlarga dars berdi. Leningrad dorilfununi professorligiga saylandi. "Abulfayzxon", "Bedil", "QiYomat", "Shaytonning tangriga isYoni" kabi asarlar Yozib, chop ettirdi. Moskvadan qaytgach, respublikamizning ilmiy, madaniy-ma'rifiy haYotida faoliyat ko'rsatadi.

Fitrat tilShunos olim sifatida o'zbek tilining qoidalari to'g'risida "Sarf", "Nahv" asarlarini Yozdi.

Musiqashunos olim sifatida "ShaShmaqom", "O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi", "Sharq musiqasi" kabi tadqiqotlar yaratdi. 30-yillarda u ilmiy-tadqiqot muassasalarida, o'qituvchilar malakasini oShiriSh instituti va dorilfununda iShladi.

1937-yili "xalq duShmani" sifatida hibsga olinib, 1938-yili ToShkent Shahriining hozirgi Yunusobod tumani Bo'zsuv qirg'og'idagi qatlgohda otib taShlandi.

### **Hamza Hakimzoda NiYoziy (1889-1929)**

Yangi davr o'zbek adabiYotining namoyandalaridan biri, Shoir va dramaturg, bastakor va rejissYor, ma'rifatparvar-pedagog va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda NiYoziy 1889 yil 6 martda Qo'qon Shahrida tabib oilasida tug'ildi. Hamza avval eski maktab va madrasalarda o'qib, fors, arab tillarini, rus-tuzem

maktabida esa rus tilini o'rganiShga muvaffaq bo'lgan.

Hamzaning badiiy ijodga qiziqiShi barvaqt bo'Shlangan. Hamza 1903 — 1914 yillar orasida Nihoniy taxallusi bilan 197 ta She'r Yozib, ularni qo'lyozma devoni Shakliga keltirgan. Bu devonni taShkil etgan She'rlarida Hamza o'zbek mumtoz adabiYoti an'analarining davomchisi sifatida namoyon bo'ladi.

U 1909 — 1910 yillarda Toshkentda bo'lganida Munavvar qori, A. Avloniy, S. Rahimiy singari ma'rifatparvarlar bilan taniShib, ular ta'sirida jadidchilik harakatiga kelib qo'Shiladi. Bu — uch Yo'l bilan amalga oShiriladi. Avvalo, Toshkent, Marg'ilon va Qo'qonda yangi usul maktablarini ochib, muallimlik qiladi. Qolaversa, mazkur maktablar uchun «Yengil adabiYot», «O'qiSh kitobi», «Qiroat kitobi» kabi darsliklar ham yaratadi. Va, nihoyat, o'zining She'r va dramalari, publitsistik maqolalarida o'z xalqini ma'rifatga chorlaydi.

1915 — 1916 yillarda naShr etilgan «Milliy aShulalar» uchun milliy She'rlar majmuasi, «Oq gul», «Qizil gul», «Sariq gul» kabi She'riy to'plamlarida va «Yangi saodat» kabi nasriy asarlarida uning ma'rifatparvarlik g'oyalari to'la namoyon bo'lgan. Hamza Shu davrda Yozilgan «Yig'la, Turkiston», «Oqibatsiz Turkiston», «VatandoShlarimga xitob», «Dardiga darmon istamas» kabi She'rlarida xalqning «ruhsiz tandur, xanjar ura qoni sochulmas» holiga kelganligidan oh-zor chekadi, uni xurofot va jaholat botqog'idan chiqib, taraqqiy etgan xalqlar qatoridan o'rin olishga da'vat etadi. Shuningdek, «Ilm hidoyati», «Normuhammad domlaning kufr xatosi», «O'ch» va «Zaharli haYot» kabi ilk dramalarida ham zulm va xurofotdan xalos bo'lishning birdan-bir Yo'li ma'rifatdadir, degan fikrni olg'a suriShga harakat qiladi.

Hamza ijodida 1916 yilgi mardikorlikka olish voqealari ham o'z aksini topadi. Uning «Safsar gul» (1917) She'riy to'plami va «LoShman fojeasi» (1916 — 1918) trilogiyasi Shu jihatdan muhimdir.

1917 yil fevral inqilobidan keyin Hamza dunyoqarashida o'zgarish paydo bo'lib, u goh ishchilar, goh muxtoriyatchilar tarafiga o'tadi. Turkiston muxtoriyati tor-mor etilgandan keyin bolSheviklar tarafiga o'tib, sayyor dramatik truppasi bilan fuqarolar urushi frontlarida xizmat qiladi va 1917 yilda Yozgan «Boy ila xizmatchi» dramasi hamda inqilobiy She'rlarini Yozadi.

Bu davrda u «Kim to'g'ri» (1918), «Tuhmatchilar jazosi» (1918) singari pesalarini Yozadi.

Faoliyat doirasi benihoya keng bo'lgan Hamza 20-yillarning bo'Shlarida Xorazm Xalq Jumhuriyatiga borib, maktab va maorif ishlari bilan Shug'ullanadi. U yerdan qaytgach, faqat ijodiy ishlar bilan maShg'ul bo'lish istagida Avval qishlog'iga boradi va dramatik ijodining gultoji bo'lgan «Maysaraning ishi», «Paranji sirlari» (1926) asarlarini yaratadi.

Hamza 1928 yil avgust oyida Shohimardonga yuboriladi. U yerda madaniy-oqartuv ishlari, xotin-qizlar ozodligi masalalari bilan Shug'ullanadi. 1929 yil 18 martda u Shu yerda fojeali halok bo'ladi.

1926 yil 27 fevralida Hamzaga birinchilardan bo'lib «O'zbekiston xalq Yozuvchisi» unvoni berilgan.

### **Abdulla Qodiriy (1894-1938)**

Abdulla Qodiriy o'zbek milliy romanchiligining asoschisi, publitsist, hajv ustasi, tilshunos va tarjimon.

U 1894 yil 10 aprelda Toshkent Shahrida tug'ildi. Avval musulmon maktabida (1904—1906), keyin rus-tuzem maktabida (1908—1912), Abulqosim Shayx madrasasida (1916—1917) ta'lim oldi. Oilaviy Sharoit taqozosi bilan bolalikdan mahalliy savdogarlarga kotiblik qildi (1907—1915). 1917 yil Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng Eski Shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasi muharriri (1919), Kasaba uyuShmasi sarkotibi (1920) lavozimlarida ishladi. 1923 yili «MuShtum» jurnalini ta'sis etdi, bir necha yil jurnal tahririyatida xizmat qildi. Moskvadagi adabiYot kursida (1925—1926) o'qidi. 1919—1925 yillar oralig'ida matbuot naShrlarida 300 dan ortiq maqolalar e'lon qildi. Umrining oxirigacha tinimsiz ijod bilan Shug'ullandi.

Abdulla Qodiriy 1937 yil 31 dekabr kuni hibsga olindi. 1938 yil 4 oktyabrda Cho'lpon, Fitrat kabi maslakdoShlari bilan birga qatl etildi.

Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar 1914—1915 yillarda Abdulla Qodiriyning «Ahvolimiz», «To'y», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi She'rlari, «Juvonboz», «Uloqda», «Jinlar bazmi» kabi hikoyalari, «Baxtsiz kuYov» dramasi bosilib chiqdi. O'zbek adabiYotidagi birinchi roman «O'tgan kunlar»ni yaratdi (1919—1920). Asar 1922 yili «Inqilob» jurnalida, 1924—1926 yillarda har bir bo'limi alohida-alohida kitob holida bosildi. 1918 yil fevralida ikkinchi yirik romani — «Mehrobdan chaYon»ni Yozib tugatdi. Roman 1929 yili Samarqandda bosilib chiqdi. 1934 yili adib «Obid ketmon» qissasini Yozdi.

Abdulla Qodiriy tilShunos va tarjimon sifatida ham katta iShlar qildi. U tatar fizik olimi Abdulla Shinosiyning «Fizika» (1928), N.V. Gogolning «UylaniSh» (1935), A.R. Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Qozonda bosilgan «To'la ruscha-o'zbekcha lug'at»ni (1934) tuziShda iShtirok etdi.

Qodiriy 20-yillarning o'rtalarida Yozgan «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «ToShpo'lat tajang nima deydir?» hajviy asarlarida bid'at va xurofotni qoraladi. Ularda xalqning yaShaSh tarzi va ruhiy olamini o'zgartiriShga intilgan jadid adabiYoti maqsad va g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Ma'rifatparvarlik, millat ozodligi va istiqloq goyalari Abdulla Qodiriy asarlarining leytmotivini taShkil qiladi.

Abdulla Qodiriy asarlari, ayniqsa, romanlari jahon miqYosida keng tarqaldi. Uning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chaYon», «Obid ketmon» asarlari rus, ingliz, nemis, italyan, arab, ozarbayjon, tojik, qozoq, uyg'ur, tatar tillariga tarjima qilingan. Nemis adabiYotShunoslari N. Tun, I. Baldauf, amerikalik tadqiqotchilar E. Olvort, Xristofor Murfi, Eden Nabi kabi olimlar Abdulla Qodiriy ijodi bo'yicha jiddiy iShlar qilganlar.

O'zMU professorlari U. Normatov, M. Qo'Shjonov, B. Karimovlar Qodiriy haYoti va ijodi bo'yicha samarali ilmiy izlaniShlar olib bormoqdalar.

1991 yili O'zbekiston mustaqillikka eriShiShi bilanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra Abdulla Qodiriyga Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. 1994 yili adib «Mustaqillik» ordeni bilan taqdirlandi. Shu yili Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. ToShkent Madaniyat institutiga, ToShkentdagi madaniyat va istirohat bog'iga, katta ko'chalardan biriga, Xalq merosi naShriYotiga hamda ko'plab madaniyat muassasalariga Abdulla Qodiriy nomi berilgan.

### **Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938)**

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon yangi o'zbek She'riyatining asoschilaridandir.

Cho'lpon 1897-yili Andijon Shahrida ziYoli oilada dunYoga kelgan. Cho'lpon boShlab eski maktabda, so'ng madrasada o'qiydi. Andijondagi rus-tuzem maktabida ta'lim oladi. Sharq adabiYoti, arab, fors tillarini o'zlashtiradi, rus tili va adabiYotini o'rganadi. Cho'lpon 10-yillarning o'rtalaridan ijtimoiy va ijodiy faoliyat bilan Shug'ullana boShlaydi. U «Qalandar», «Andijonlik», «Cho'lpon» taxalluslari bilan matbuot naShrlarida maqola, She'r va turli xabarlar bilan chiqib turadi.

Uning «Do'xtir MuhammadYor», «Vatanimiz Turkistonda temir Yo'llar», «AdabiYot nadir?» kabi ilk hikoya va maqolalarida hamda o'nlab She'rlarida jadidchilik g'oyalarining oShkora ifodalanganini kuzatiShimiz mumkin.

Shoirning qisqa umri davomida «Tong sirlari», «Uyg'oniSh», «Buloqlar» kabi She'riy to'plamlari naShr etilgan. Uning teatr sohasida qilgan iShlari ham alohida e'tiborga sazovor. Cho'lpon o'zbek davlat drama teatrida adabiy emakdoSh vazifasida iShlaSh bilan birga o'nga yaqin pyesalar, teatr maqolalari yaratgan, uning «Yorqinoy», «O'rtoq QarShiboyev», «Cho'ring isYoni», «MuShtumzo'r», «Zamona xotuni» kabi sahna asarlari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiYotiga muhim hissa bo'lib qo'Shildi.

Cho'lpon «Kecha va kunduz» nomli roman e'lon qilib, o'zbek romanchiligi rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu asarida xalqimizning asr boShlaridagi haYoti manzaralarini tasvirlar ekan, istibdod va jaholat millatning

taraqqiyotini va hurrligini bo'g'uvchi manfur hodisalar ekanini badiiy aks ettiradi.

O'zbek adabiy tarjima maktabining rivojlaniShida ham Cho'lponning beqiyos hissasi bor. U M.Gorkiyning "Ona" romani, A.S.PuShkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov" hamda Shekspirning "Hamlet" tragediyasini va yana o'nlab xorijiy asarlarni o'zbek tiliga mohirlik bilan o'giradi.

Cho'lpon butun ongli haYoti davomida o'z Vatanining ozodligi, erki, kelajagi uchun qayg'urdi va Yonib She'rlar Yozdi, turli janrlarda asarlar yaratdi. U 1928-yildan boShlab to umrining oxirigacha tazyiq ostidayaShadi, chunki uning butun ijodida milliy g'oya qizil ip bo'lib o'tgan. U mustabid tuzum ostida ezilib Yotgan millatni, xalqni kuylar edi. Lekin tazyiqlar nihoyatda kuchaygan bir Sharoitda ham o'z e'tiqodidan qaytmadi. Ana Shu e'tiqodi va irodasi tufayli 1937-yil qatag'on qurboni bo'ldi.

Cho'lpon 1938-yil 4-oktabrda ToShkentda Bo'zsuv bo'yida qatl etiladi.

XX asr o'zbek adabiYoti taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy haYot bilan uzviy bog'liqligi va buning qonuniy hoi ekanligi, badiiy adabiYotning hukmron mafkura tazyiqida rivojlaniShi.

XX asr o'zbek adabiYoti taraqqiyotida uchta yirik bosqichning mavjudligi, ularning o'zaro birin-ketinlikda mustaqil va ayni paytda vorisilik asosida yuzaga kelganligi. Har bir taraqqiyot bosqichining nafaqat mavzu, g'oya va mafkuraviy jihatidan, balki voqelikni in'ikos ettirishning o'ziga xos estetik tamoyillari tizimi ekanligini asoslaSh.

Birinchi bosqich — jadid adabiYoti (1900—1930- yillar). Xalqni, millatni jaholat botqog'idan marifat osmoniga olib chiqish g'oyalarini olg'a surish va bu Yo'lda amaliy ishlariga bel bog'laSh jadidchilik harakatining Ok bosqichi sifatida (1900—1917- yillar). Marifatparvarlik g'oyalariga qo'Shimcha milliy ozodlik va mustaqillik g'oyalarining olg'a surilishi jadidchilik harakatining taraqqiy etgan so'nggi bosqichi sifatida (1918—1929- yillar).

Milliy uyg'oniSh g'oyalarining paydo bo'lishi, milliy teatrning «tug'iliShi», istiqlol g'oyalarining keng tarqalishida mahalliy matbuot va ijodiy uyuShmalarning o'rni. Voqelikning badiiy idrok etish va aks ettirishda yangicha estetik tamoyillarning yuzaga keliShi; adabiYotda milliylik va xalqchilikning qaror topishi, obrazli tafakkur va sodda xalqona uslubga moyillik, milliy madaniy meros hamda xalq tili boyliklariga ahamiyatning kuchayishi.

Ikkinchi bosqich — Sho'ro adabiYoti (1930—1980-yillar). XX asr o'zbek adabiYotining uShbu taraqqiyot bosqichi o'z navbatida ikki mustaqil bosqichdan taShkil topganligi:

a) adabiYotda siyosiy mafkura hukmronligining qaror topishi va bu hukmronlikni tola tan olish bosqichi (1930—1960- yillar), adabiYotning sinfiy vopartyaviyUkkabo'ysundirilishi, sotsialistik realizimning Sho'ro adabiYotidagi yagona ijodiy metod sifatida qabul qilinishi, adabiYotda sotsializm va sotsialistik qurush g'oyalarining «tarannum» etilishi, proletar adabiYotning boy-feodal hamda, diniy klerikal adabiYotga qarshi ayovsiz kurashga da'vat etilishi, sotsialistik ideal va kommunistik baynalmilallik g'oyalarining baralla ulug'lanishi. Bu davr adabiYotidagi g'oyaviylikning kuchayishi uning badiiylik jihatidan qashshoqlanishiga olib kelinishi.

Mamlakatda peShqadam ziyolilarning qatag'on qilinishi, adabiYotda soxtalik, Shoirbozlik va quruq ritorikaning yuksak mavqega ega bo'lishi. «Shaklan milliy, mazmunan-sotsialistik adabiYot»larning sun'iy bir-birlariga yaqinlashtirish va milliy adabiYotlar rang-barangligini yo'qotishning bir vositasi sifatida, adabiYotni zamona maddohiga aylantirish, mamlakatni qudratli san'atga ega bo'lgan mamlakatga, qishloq xo'jaligini kollektiv xo'jaligiga aylantirish, savodsizlikni tugatish va madaniy inqilobni amalga oshirish kabilarni adabiYotning boSh mavzuiga aylanishi;

b) rivojlangan sotsializm Yoxud turg'unlik davri adabiYoti (1960—1989- yillar) bosqichi. UShbu davrda mamlakat haYotida barqarorlik niqobi ostida turg'unlik holatining yuzaga keliShi, milhy adabiYotlarda qiyofasizlik, hamiSha va har bir joyda dono kommunist obrazining etalon darajasiga olib chiqilishi, sotsialistik mehnat qahramonlari obrazlarini yaratish adabiYotining yetakchi tamoyiliga

aylaniShi, bu tamoyilning ramziy, majoziy tasvir vositasi va usullari orqaii badiiy voqelikka aylantiriSh, poeziya, drama va epik asarlarda rmillat va inson qismatining main ostida aks ettiriliShi. Tasvir Yoki ifodada oaduy Shartlilik tamoyilini xig fcuchayiShi; badiiy tij va uslub borasida ijodkoriai tomonidan izianiShlai olib boriliShi, ijod raaydomga yangi-yangi YoSh iste'dodJaming kiiib keiiShi, She'riyatda sarbast She'riy tizimi va mansura kabi ShakUammg paydo bo'liShi. Turg'unlik davrida ijtimciy haYotda ulkan o'zgariShlar yuz berganligi, ammo badiiy tafakkurda muayyan yevriliShlar, oig'a siljiShlar yuz berganligi ko'zga taShlanadi.

c) Uchinchi bosqich — istiqlol davri o'zbek adabiYoti (1990- yil hozirga qadar). O'zbek xaiqi rmilliy rnustaqillikka eriShgach, milliy adabiYotning yangi taraqqiYot bosqichiga ko'farilganligi. bu ulkan hodisaniag ijtimoiy tarixiy ildizari. Istiqlol davri o'zbek adabiYotining boSh belgisi uning sinfiy, paitiyaviy va davlat adabiYoti emasligida, so'z san'atining hukmron mafkura quligidan ozod etilganiigida, ijod ahlming erkin ijodkorga, adabiYotning rang-baranglaShirva hamda uning haqiqiy vijdon iShiga aylanganligida. Hozirgi o'zbek adabiYotmmg sof badiiy san'at sifatida etirof etilaYotganligi, uning xalq, millat ma'naviyatiniyuksaltiriShdagi o'mi va ahaniyatining har qachongidan koYa oShganligi. Istiqlol davn adabiyptining dastlabki vdilarda turg'unlikYolari nuqsonlarmi foSh etiShga yuz buriShi qonuniy adabiy hodisa sifatida. Bu daw adabiYotida ijodkorga buyurtma berilmasligi, badiiy ijodnmg ko'ngil va viidon iShiga aylanganiigL Shunga qaramay ijodkor inson va jaraiyat rna'naviy kamolotioldida ma'sui ekanligi. Istiqlol davri adabiYotida ijod mahsulining miqdoran kamaykhi, sifat jihatidan yuksaliSh jaraYonining inkor qilib bo'lmas qonuniyat ekanligi.

### Avaz O'tar (1884-1919)

Avaz O'tar - Avaz PolvonniYoz (O'tar) o'g'li (1884.15.8- Xiva-1919) — o'zbek ma'rifatparvar Shoiri. Dastlab maktabda, so'ng Xivadagi Inoqiy madrasasida o'qidi. 18 YoShlarida Shoir sifatida xalq o'rtasida tanildi. Muhammad Rahim Soniy (Feruz) Avaz O'tar iste'dodiga katta e'tibor bergan, uni saroyga taklif qilib Tabibiyni unga ustoz tayin etgan. Ammo, Avaz O'tar saroy haYoti bilan chiqiSholmay, uni tark etadi. 20-asr boShlarida ko'zga taShlanaYotgan milliy uyg'oniSh, istiqlol g'oyalari Avaz O'tar ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Avaz O'tar ijodida erkparvarlik, ozodlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari, turmuSh illatlariga qarShi qaratilgan hajvlar paydo bo'la boShlaydi, bu davrda Shoir yuksak insoniy fazilatlarini, chinakam insoniy muhabbatni tarannum etuvchi lirik She'rlar, qitalar, ruboiylar Yozdi. Avaz O'tar ijodida alohida o'rin tutgan hajviy She'rlar turkumi — «Faloniy» ham Shu davr mahsuli. Avaz O'tar «Millat», «Hurriyat»; «Topar erkan, qachon», «Xalq», «Zamon» va boShqa She'rlarida millat taqdiri va kelajagini yangicha talqin etadi. Ayrim She'rlari o'Sha davr vaqtl matbuoti («Oyina», «Vaqt», «Mulla Nasriddin» va boShqa)da bosilgan. 2 devoni («Saodat ul-iqbol», «Devoni Avaz») va qator baYozlarga kiritilgan g'azallari yetib kelgan. Devonlarining qo'lyozma nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi SharqShunoslik institutida (inv. № 942, 7102, 3451) saqlanadi. Respublikada maktablar, ko'cha va xiYobonlarga Avaz O'tar nomi berilgan. Xivada uy-muzeyi taShkil etilgan, haykali o'rnatilgan. U haqda badiiy asarlar yaratilgan (E. Samandar «Erk sadosi» dostoni, A. Bobojon «G'azal fojiasi» dramasi, S. SiYoyev «Bir chora zamon istab» qissasi va boShqa).

Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,  
Anda o'quganlar bori yaktoi jahondir.

\*\*\*

Do'stlarim bo'lsun desang ahli jahon,  
Xulqi xuShluqni qil odat, ey Aziz.

\*\*\*

Ne yaxShi o'ylakim, ma'qulu manzur,  
Avaz xalqim uchun to'kulsa qonim.

\*\*\*

Gul kabi bevaqt g'uncha ochib noz qilma,  
Bulbul kabi beparda nag'ma-yu ovoz qilma!  
G'ayri tilni sa'y qiling bilg'ali YoShlar,  
Kim ilmu hunarlar rivoji andin aYondir.



Lozim sizga biluv har tilni ona tildek,  
Bilmakka oni g'ayrat eting, foydasi kondur.

\* \* \*

Agar har kimsa seni sevmas, borma aning sori.

\* \* \*

Gar puShaymon o'lmayin desang, yana,  
Bo'yla ahvoli qabohat aylama.

\* \* \*

Furqat boShingga tuShmayin vuslatni qadrin bilmading,  
Ranj ila mehnat chekmayin rohatni qadrin bilmading.

\* \* \*

Rostliqqa zavol bo'lmas emiSh, biling!  
Vafo ahliga ichmaklik jahonda,  
Haqiqatda erur duShvor savgand.

\* \* \*

Dikar nahle chekib mehnat birovlar,  
Vale andin kurar rohat birovlar.

TIL

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositai robitai olamiYondur.  
Qayri tilini sa'y qiling bilgali, YoShlar,  
Kim ilmu hunarlar bilonki andin aYondur.  
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka oni g'ayrat eting, foida kondur.  
Ilmu fan uyiqa yuboringlar bolangizni,  
Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur.  
Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,  
Til bilmaganidin oni bag'ri to'la qondur.

#### FIDOYI XALQIM

Fidoiy xalqim o'sun tanda jonim,  
Bo'lib qurbon anga ruhi ravonim.  
Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,  
Budur maqsudi qalbi notavonim.  
Mani solsa fano Yo'liga davron,  
Yurur ustimdin avlodi zamonim.  
Umidim: yaShasin maktab bolasi,  
Alar har biri bir Sheri jahonim.  
Na yaxShi o'ylakim, ma'qul-u manzur,  
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim.

#### SIPOHI PORA ISTAR

Sipohi pora istar  
Mulla ijora istar,  
Bechora chora istar,  
Bir chora zamon bormu?

#### BILING, USHBU ZAMON G'AMNOKIDURMAN

Biling, uShbu zamon g'amnokidurman,

Kuyib o'rtangan elning xokidurman,  
Avazkim, nazm ellin cholokidurman,  
BoShin olmoqqa xonning pokidurman.

Shoir haYoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot. Ma'rifatparvai Avaz O'tar She'riyatining yetakchi g'oyaviy xususiyatlaridan bin sifati Uning lirikasida inson ruhiyati va ijtimoiy haYotning ana'naviy Yo'sir nks ettiriSh ustunligi hamda ba'zi tanqidiy Yo'naliShlarning namoy ho'iiShi.

Avaz O'tar ijodida hajviy pafosning Yo'naliShi va bunda. AliSher Nav< hajviYotining ta'siri: «Faloni» turkumidagi She'rlar.Uning qit'alari ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik g'oyalarining qoralaniShi. «Biling, uSh zamon g'amnokidurman», «Sipohi pora istar». «YomonJami Yom( andoq odamdur jahon ichra» qit'alari tahlili.

Avaz O'tar ijodida erksevarlik va ozodlik motivlari. Uning She'riyat xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.

### **Abdulla Qahhor (1907-1968)**

Abdulla Qahhor XX asr o`zbek adabiYotining yirik namoyandalaridan va xalqning muhabbatini, hurmatini qozongan iste`dodli Yozuvchilardan biridir.

Abdulla Qahhor 1907 yilning 17 sentyabr kuni hozirgi O`zbekistonning Qo`qon Shahrida (ba`zi ma`lumotlarga qaraganda – Tojikistonning ASht tumanida) temirchi usta oilasida dunYoga kelgan. U oilada tug`ilgan o`n boladan tirik qolgan yagona farzand edi. Abdullaning bolalik yillari qaShShoqlik va darbadarlikda o`tdi. Uning oilasi yaxShiroq haYot ilinjida Farg`ona vodiysi bo`ylab qiShloqma-qiShloq ko`chib yuradi. Oqibatda Abdulla “Ko`chmanchi”, “Kelgindi” singari haqoratli laqablar oladiki, bu uning xotirasida bir umrga muhrlanib qoladi. Avval Abdulla qiShloqdagi diniy maktabda savodsiz Valixon so`fi degan domla qo`lida o`qiydi. Domlanning savodsizligidan g`azablangan otasi uni 1917 yil Okbyaridan keyin ochilgan Yangi maktabga o`qiShga beradi. Bu maktabda ancha yaxShi bilim olgan Abdulla 20-yillar boShida o`qiShni Qo`qondagi texnikumda davom ettiradi. Xuddi Shu vaqtda, ya`ni 20-yillar boShida Abdulla adabiYot sohasida ilk maShqlar qila boShlaydi va ularni ToShkentdagi gazeta, jurnallarga yuboradi. Ulardan biri, ya`ni “Oy kuyganda” She`ri “MuShtum” jurnalining 1924 yilgi 8-sonida bosilib chiqadi. Abdullaning matbuotda e`lon qilingan mana Shu birinchi She`riYoq unda ijod qiliShga qandaydir iste`dod borligidan, ya`ni adabiYot vositalari orqali muayyan g`oyani ifodalaShga qodirligidan dalolat bergan edi. Unda ma`rifatparvarlik g`oyasi adabiYotning birinchi unsuri bo`lgan badiiy timsollar vositasida ifodalangan edi. Abdullada iste`dod kurtaklari niSh uraYotganligi Shunda ko`rinardiki, She`rda “ma`rifat” so`zi biron marta ham iShlatilmagani holda, odamlar ilmi bo`lsalar, tabiat hodisalarining mohiyatini to`g`ri tuShuniShlari va ular oldida behudaga talvasaga tuShmasliklari haqidagi g`oya ilgari surilgan edi. “Oy kuyganda” She`ri bilan Abdulla Qahhor ijodining birinchi bosqichi boShlanadi. Mazkur izlaniShlar va maShqlar bosqichi qariyb o`n yil davom etadi. Bu davrda Abdulla avvalo taxallus izlaydi va 20-yillarda Yozgan ko`plab hikoyalarini, sakkizta She`rini, ellikta feletonini “Norin Shilpiq”, “Mavlon kufir”, “GulYor”, “Erkaboy” singari imzolar bilan e`lon qiladi. Ijodning ilk bosqichi, asosan, izlaniShlardan iboratligi Shu bilan belgilanar ediki, bu davrda Abdulla Yozgan “Ikki qonun”, “YoSh qizlar o`gay ota qo`lida” singari hikoyalar, feletonlar va She`rlar g`oyaviy-badiiy jihatdan juda nochor hamda zaif edi. Buni juda yaxShi fahmlagan Abdulla so`ngroq mazkur asarlarining ko`pchiligini keyingi ko`p jildlik kitoblariga kiritmagan edi. SHu bilan birga ijodning ilk bosqichidagi maShqlar muayyan ijobiy samaralar ham bergan edi. Ulardan biri Abdulla Qahhorning 1929 yilda e`lon qilingan “BoShsiz odam” hikoyasi bo`lib, mazkur asar muallifning inson xarakterini, ruhiy dunYosini teran tahlil qila biliSh mahorati etilib boraYotganligidan guvohlik beradi. Bu davrda Abdulla Qahhor ToShkentdagi O`rta OsiYo Davlat universitetida o`qir edi.

IzlaniSh davrining samaralari sifatida uning 1932 yilda “QiShloq hukm ostida”, 1933 yilda “Olam yaSharadir” va “Qotilning tug`iliShi” singari kitoblari bosilib chiqadi. Mazkur kitoblar maShqlar bosqichining o`ziga xos yakuni sifatida maydonga kelgan deb hisoblaSh mumkin, chunki 1934 yildan Abdulla Qahhor

yuqoridagi to'plamlardagi izlanishlarning nochor samaralaridan keskin farq qiluvchi asarlar yarata bo'shlaydi. 1934 yili Abdulla Qahhor "Maston", "Ko'r ko'zning ochilishi" singari asarlarini e'lon qilib, hikoyada haYotni realistik tasvirlash prinsiplari ijodida uzil-kesil qaror topganligini isbotlagan edi. SHunga ko'ra mazkur asarlar va "O'g'ri", "Mayiz emagan xotin" kabi hikoyalari bilan Abdulla Qahhor ijodining ikkinchi bosqichi, ya'ni chinakam realistik asarlar yaratish pallasi bo'shlangan deb hisoblash mumkin. Bu hikoyalarning bir guruhida ("O'g'ri", "Dahshat") Abdulla Qahhor o'tmishdagi mehnatkaSh xalq haYotining fojiviy manzaralarini gavdalantirgan bo'lsa, ikkinchi guruhida ("Mayiz emagan xotin", "Qanotsiz chittak", "BaShorat") 30-yillar turmushidagi ijtimoiy nobopliklarni, axloqiy tubanlik, ma'naviy qaShShoqlik singari illatlarni hajv olovi bilan kuydirishga intilgan.

30-yillarning o'rtalaridan Abdulla Qahhor ijodida yangi bosqich bo'shlanganligi yana shu bilan belgilanar ediki, bu davrda u o'zbek nasrida Yozuvchi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridan keyin ikkinchi cho'qqi hisoblanuvchi "Sarob" romanini e'lon qiladi. Romanda Abdulla Qahhorning inson ruhiyatini chuqur tahlil qila bilish mahorati nihoyatda ortganligi yaqqol sezilib turardi. Insoniy xarakterlarning teran psixologik tahlili vositasida Abdulla Qahhor o'sha davrda bizning mamlakatimizda millat taqdiri, ravnaqi, baxti uchun kurashganlar dahshatli fojiaga uchraganligini ochib bergan edi. Shu yo'l bilan romanda millatparvarlik g'oyasi tasdiq etilgan edi. Faqat adabiy tanqidchilik roman mag'ziga yaShiringan bu haqiqatni endi-endi anglab etmoqda.

UruShdan keyin Abdulla Qahhor bizning adabiyotimizda keng quloch Yozgan konfliktsizlik "nazariya"si ta'siriga berilib, "Kartina", "Hamqishloqlar" singari hikoyalar va "Qo'shchinor chiroqlari" romanini Yozib, ularda o'sha davrdagi xarob o'zbek qishlog'i manzaralarini sun'iy raviShda ancha yaltiratib, go'zallaShtirib aks ettiradi. Xuddi Shunday tasvirning tamg'asi Yozuvchining O'zbekistondan uzoq-uzoqlarga maShhur bo'lgan "Shohi so'zana" (1951) komediyasida ham o'z muhrini qoldirgan edi. Endi o'zlashtirilaYotgan Mirzacho'l erlari gulistondek qilib ko'rsatilgan bo'lsa-da, bu asar juda kulgili, qiziqarli sahnalarga boyligi, esda qoladigan insoniy xarakterlarga egaligi bilan Yozuvchining komediyavislik sohasida dadil qadam qo'yganligidan guvohlik berar edi. Balki shu kabi fazilatlar tufayli bu asar jahonning ko'plab sahnalarida qo'yilgan va sobiq ittifoqning Davlat mukofotiga sazovor bo'lgandir.

Dramaturgiya sohasidagi ilk muvaffaqiyatdan ruhlangan Abdulla Qahhor 1954 yilda "Og'riq tiShlar" nomli navbatdagi komediyasini e'lon qiladi. Bu asar Yozuvchi ijodida uchinchi davr, ya'ni etuklik pallasi bo'shlanganligidan dalolat berar edi, chunki unda balki o'zbek adabiyotida ilk bor sosializmning illatlari, ya'ni rahbarlikning nomukammalligi, axloqiy qaShShoqlik, ma'naviy tubanlik, iqtisodiy notenglik singari nuqsonlar haqida hajviYot vositalari orqali aYon ko'rinib turgan haqiqat ifodalangan edi. Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovuSh" (1962), "Ayajonlarim" (1967) kabi komediyalarida ham sosializmning yuqoridagi singari illatlariga nisbatan mahorat bilan hajv o'ti Yo'naltirilgan bo'lib, bu hol uning o'sha davr adabiyotida hukmron socialistik realizm metodining temir qoliplarini sekin-sekin Yorib chiqishga intila bo'shlanganligidan guvohlik beradi.

Faoliyatining etuklik bosqichida adib nasr sohasida ham unumli ijod qilib, "Ming bir jon", "Mahalla" kabi hikoyalar, "Sinchalak", "O'tmishdan ertaklar", "Muhabbat" singari qissalar va ko'plab adabiy-tanqidiy maqolalar yaratdiki, ularning ayrimlari adabiyotimizda sezilarli hodisa bo'lib qoldi. Xususan, "O'tmishdan ertaklar" qissasi Yozuvchining bolaligi o'tgan davr haYoti manzaralarini Shafqatsiz realistik bo'yoqlarda gavdalantirganligi sababli kitobxonlar e'tiborini qozondi va respublikaning Hamza nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi.

AYon bo'ladiki, O'zbekiston xalq Yozuvchisi Abdulla Qahhor o'zidan yuzlab hikoyalar, beShta qissa, ikki roman va to'rtta komediya qoldirdi hamda ularning ayrimlarida yuksak iste'dod sohibi ekanligini namoyon qildi. Uning eng yaxshi asarlari o'zbek realistik nasri va dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo'shilgan o'ziga xos hissa bo'lib qoldi.

### **Maqsud Shayxzoda (1908-1967)**

Maqsud Shayxzoda XX asr o'zbek adabiYoti taraqqiYotiga sezilarli hissa qo`Shgan iste`dodli Shoir, dramaturg, adabiYotShunos olim, tarjimon va mohir pedagogdir.

U 1908 yilning 25 oktyabrida Ozarbayjonning maShhur Ganja viloyatidagi OqtoSh Shahrida tabib oilasida dunYoga kelgan. Millati ozarbayjon bo`lgan bu yigit 1921-1925 yillarda Bokudagi Dorulmualliminda Abdulla Shoiq, Husain Jovid kabi maShhur Shoirlardan ta`lim olgan. So`ng Dog`istondagi Darband, Bo`ynoq Shaharlarida o`qituvchilik qilgan hamda Boku Pedagogika institutining sirtqi bo`limini tugatgan. O`Sha yillari Shayxzoda ba`zi qaraShlari uchun nohaq raviShda millatchilikda ayblanib, 1928 yilda ToShkentga surgun qilinadi va umrining oxirigacha Shu erda qolib ketadi. O`zbekistonda Shayxzoda Narimonov nomli maktabda dars berdi, "Sharq haqiqati", "Qizil O`zbekiston", "YoSh leninchi" gazetalarida iShladi. 1933-1935 yillarda u O`zbekiston Fanlar Komiteti aspiranturasida o`qidi, so`ngra til va adabiYot institutida ilmiy xodim (1935-1938 yillar) sifatida tadqiqot iShlari olib bordi. 1938 yildan to umrining oxirigacha Nizomiy nomidagi ToShkent Davlat Pedagogika institutida o`zbek adabiYoti tarixidan dars berdi.

Maqsud Shayxzoda Ozarbayjondalik chog`idaYoq badiiy ijod sohasida maShqlar qila boShlagan bo`lib, 1921 yilda "Kommunist" gazetasida "Qizil askar qo`Shiqi" sarlavhali birinchi She`ri bosilib chiqqan edi. 1923 yili ozarbayjon tilida uning "28 aprel inqilobi" dramasi naShr etilgan bo`lib, havaskorlar tomonidan sahnaga qo`yilgan, lekin badiiy jihatdan zaif bo`lganligi uchun keyinchalik biron marta ham qayta bosilmagan edi. 1927 yilda Shayxzodaning Ozarbayjondagi "Maorif va madaniyat" jurnalida "Narimon haqida xalq masali" degan ilk dostoni e`lon qilingan bo`lib, u YoSh Shoirning haYotni kengroq ko`lamda qamrab oliShga intilaYotganligidan, izlaniShlar jaraYonini boShidan kechiraYotganligidan dalolat berardi.

ToShkentda Shayxzoda o`z ona lisoniga juda yaqin bo`lgan o`zbek tilida ijod qila boShlaydi hamda badiiy adabiYot olamidagi izlaniShlarini davom ettiradi. Shu izlaniShlarning dastlabki samarasi sifatida 1929 yilda "Sharq haqiqati" gazetasida Shayxzodaning "Traktor" deb atalgan o`zbek tilidagi birinchi She`ri bosilib chiqadi. Bu She`r badiiy jihatdan zaif bo`lsa-da, YoSh Shoirning o`z oldiga inson mehnatini ulug`laSh uchun munosib taShbehlar topiShga intiliShdek ezgu maqsad qo`yganligidan guvohlik berar edi. Shundan keyin birin-ketin YoSh Shoir Maqsud Shayxzodaning She`riy kitoblari naShr etiladi. Ular jumlasiga "Loyiq soqchi" (1932), "O`n She`r", "UndoShlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935), "O`n ikki", "Yangi devon" (1937), "Saylov qo`Shiqlari" (1938) She`riy to`plamlari kiradi. Mazkur kitoblardagi She`rlarida Shayxzoda rus mumtoz poeziyasidan, ayniqsa, V.V.Mayakovskiy ijodidan ta`sirlanib, o`zbek adabiYotida erkin vazni qo`llay boShladi hamda rus va Sharq She`riyati an`analarini chambarchas chatiShtirib yuboriShga muvaffaq bo`ldi. Natijada, haYotda eriShilaYotgan yutuqlar, o`lkamizning go`zal tabiati, oddiy odamlarning kundalik taShviShlari, mehnati va muhabbati masalalari Shayxzoda She`rlaridan katta o`rin ola boShladi. Ayniqsa, Shayxzoda o`zbek kiShisining boy ma`naviy dunYosini o`ziga xos, takrorlanmas ranglarda ochib beriShga intildi. Uning She`rlarida jo`Shqin publisistik ruh falsafiy teranlik bilan qo`shila boShladi. Dastlabki to`plamlarga kirgan She`rlarning aksariyati davr va siYosat bilan boqlanganligi, zamon ruhi ufurib turganligi, qofiya hamda vaznda g`alizliklari borligiga ko`ra ajralib ko`zga taShlanar edi. Bunga iqror bo`lmoq uchun "Jumhuriyat" She`ridan quyidagi misralarni o`qiSh kifoya:

Burjua oynagidan ko`zing albatta,  
 Sayr etarkan, rostlikni chetda.  
 Biz yasagan inqilob kurradan katta...  
 Sevgili jumhuriyat oltin kabi joy  
 Eng Ulug` boYonlardan ming marta biz boy!

Ilk kitoblaridagi She`rlarida Shayxzoda hali go`Yo o`ziga mos uslub, ovoz qidirardi, Shuning uchun ham ayni bir so`zni Yoki taShbehni qayta-qayta qo`llar, maShqdan-maShqqa ko`chirardi. Bunga iqror bo`lmoq uchun "YUlduzlarga bo`ldim hamsoya" She`ridan quyidagi misralarni o`qiSh mumkin:

Uch Vatan, uch Vatan,

YAShin kabi tez,

Ilonlar boShini

YAShin kabi ez!

Uning dastlabki kitoblarida hali izlaniShlar davom etaYotgani Shunda ko`rinardiki, Shoir o`ziga Yoqib qolgan tasviriy vositalarni, timsollarni She`rdan-She`rga ko`chirar Yoki ayni bir asarning o`zida qayta-qayta takrorlar edi. Buning misoli "Vatan" She`rida uchraydi:

YOndirmoqchi bo`laman labimdagi

Papirosni OsiYo quYoShidan, -

Xuddi Shu timsolni YoSh Shoir "YUrtim" She`rida mana bu tarzda takror qo`llaydi:

Bunga fayz Yog`dirar sendagi otaSh,

Sendan papirosni tutatay Yo`ldoSh.

30-yillarda Shayxzoda ko`plab dostonlar yaratib, o`Sha davr ruhini, siYosiy vaziyat haroratini o`zicha ifodalaShga urindi. Bunday asarlar jumlasiga "O`rtoq mulk", "CHiroq", "O`rtoq", "Meros", "Tuproq va haq" singari dostonlar kiradi va Shoirning mazkur janrda jiddiy muvaffaqiyatga eriShmaganligidan dalolat beradi.

Maqsud Shayxzodaning ijodiy izlaniShlari uruSh yillari birmuncha yaxShiroq samaralar berdi, ya`ni uning badiiy jihatdan muvaffaqiyatliroq asarlari tug`iliShiga olib keldi. UruSh yillari Shayxzodaning "KuraSh nechun?", "Jang va qo`Shiq", "Ko`ngil deydiki" kabi She`riy to`plamlari, "O`n birlar", "Jenya", "Uchinchi o`qil" dostonlari e`lon qilindi. Ularda Shoir inson ruhiy dunYosiga chuqurroq kiriShga va duShmanga nafrat hamda Vatanga muhabbat tuyg`ularini ta`sirchan Shakllarda ifodalaShga muvaffaq bo`ldi. Xuddi Shunday ifodaning Yorqin namunasi sifatida Shayxzodaning "KuraSh nechun" She`rini eslaSh kifoya:

Ertaning iqboli kechadan bazo`r,

Bu kundan kechamas erta tug`ilar.

Shu uchun, Shu uchun muqaddas kuraSh,

O`g`ri pachoqlangach, dermiz: "Bas, kuraSh!"

Zafarning naSh`asin totigan erlar:

"Erk desang, uruShda engib chiq!" - derlar!

Shu kabi She`rlar, maShhur tarixiy Shaxs Yo`ldoSh Oxunboboev haqidagi "Oqsoqol" dostoni Shayxzodaning uruSh yillari izlaniShlar pallasidan o`tib, haqiqiy ijod Yo`liga kirganligidan guvohlik berar edi. Uning badiiy adabiYotdagi eng qiyin janr hisoblanuvchi dramaga murojaat qilib, uruSh yillari "Jaloliddin" pesasini yaratiShi ham xuddi Shu xulosani tasdiqlardi. Shayxzodaning ilk dramasi o`z vaqtida g`oyaviy jihatdan qoralangan edi. Tanqidchilikda mazkur asarda Jaloliddin siymosi ideallaShtirilganligi qoralanib, muallifga nohaq ayblar qo`yilgandi. Xalqning mo`g`ul bosqinchilariga qarShi kuraShi manzaralarini gavdalantiruvchi "Jaloliddin" dramasida aslida g`oyaviy xatolar Yo`q edi. Faqat bu pesa badiiy jihatdan mukammal emas edi, chunki undagi ko`pchilik voqealar xususan, Jaloliddinning singlisiga aloqador syujet chizig`i dramaning asosiy Yo`naliShiga, ruhiga muvaffaqiyatli raviShda chatiShtirib yuborilmagandi. Bunday nuqsonning bo`liShi tabiiy edi, albatta, chunki mazkur asar muallifning dramaturgiya sohasidagi ilk tajribasi hisoblanardi.

Endi ijodning haqiqiy Yo`liga kirgan vaqtlarda, ya`ni uruShdan keyin Shayxzoda haYotida fojiali voqealar yuz berdi. 1952 yil sentyabr oyida Shayxzoda qamoqqa olinadi. Unga asarlarida aksilinqilobiy g`oyalar mavjudligi, o`zi esa Shunday yaShirin taShkilot etakchisi degan ayb qo`yildi. Bu aybnomaga o`Sha

davrning hammaga ma`lum va maShhur bo`lgan 12 ziYolisi Shohidlik beradi. Oqibatda Shayxzodani xalq duShmani sifatida ToShkent viloyat sudi 25 yil qamoq jazosiga, uni o`tagach, 8 yil fuqarolik huquqidan mahrum etiShga hukm qiladi. Stalin o`limidan keyin haYotda yuz bergan o`zgariShlar bilan bog`liq holda Shayxzoda 50-yillarning o`rtalarida qamoqdan qaytib keladi va ijodida Yangi, ya`ni etuklik bosqichi boShlanadi. Endi u g`oyaviy-badiiy jihatdan ancha mukammal asarlar yaratish pallasiga kiradi. Xuddi Shunday etuklik davri boShlanganligidan guvohlik beruvchi asarlar sifatida uning "Yillar va Yo`llar" (1961), "She`rlar" (1964), "XiYobon" (1967) kabi She`riy to`plamlari bosilib chiqadi. Bu kitoblarga kirgan She`rlarning asosiy xususiyati Shunda ediki, ularda Shoirning haYot, zamon, inson, san`atkor haqidagi falsafiy qaraShlari, o`ylari teranlaShgan edi:

KoShki edi qo`shig`im bir piYola suv bo`lsa,  
CHanqoqini bosgali Yo`lovchiga tutilsa!  
Shunday qo`shiq sanalgay safarning qatnovchisi,  
Shunday Shoir bo`lgay go`zallik yalovchisi!

Xuddi Shu xususiyatni Shoirning "ToShkentnoma" nomli dostonida (1958 yil) ham yaqqol ko`riSh mumkin. Unda muallif ko`proq ToShkent Shahri madh etsa-da, asosiy e`tiborini Shu erda yaShovchi kiShilar ruhini, o`y-kechinmalarini ochiShga, haYotning mohiyati, yaShaShning mazmuni to`g`risidagi falsafiy fikrlarini ifodalaShga qaratgan edi:

Har qachon, har qayda deyilsa "ToShkan",  
Degaysan Yozlarga Yozlar tutaShgan,  
Ha, "ToShkan" deyilsa, esga kelar Yoz...  
Ha, "ToShkan" deyilsa, quYoSh esda Shay.  
QuYoShki, umrzoq avlodga damsoz,  
Bu erda hamma der: - "QuYoShcha yaShay"...  
Shaharlar boqiydir, umr - o`tkinchi,  
DarYolar sobitdir, suvlar - ko`chkinchi.

Ijodining etuklik davrida, aniqrog`i, 60-yillarda Shayxzoda o`zining Shoh asari bo`lmiSh "Mirzo Ulug`bek" tragediyasini yaratadi. Unda Amir Temurning maShhur nabirasi Mirzo Ulug`bek haYotining so`nggi yillari jonlantirilgan bo`lib, mana Shu buyuk olim va fojiali taqdir egasi hisoblangan Shohning siymosi, kuraShlari, iztirobga to`liq ruhiy kechinmalari, olamShumul fikrlari ta`sirchan manzaralarda, ziddiyatlarda, uruShlar girdobida, Shekspirona bo`Yoqlarda gavdalantirilgan edi. Mazkur siymo tasviri orqali muallif o`zining adolatli hukmdor va ulug`olim haqidagi ezgu qaraShlarini, Shu xususdagi zamonlar idealini yuzaga chiqariShga intilgan edi. Faqat tragediyada Sho`ro zamonidagi haddan ortiq darajada sinfiy YondaShuvlar tazyiqida dramaturg tarix haqiqatiga zid holda Xo`ja Ahror qiYofasini o`ta reaksiya va mutaassib qilib ko`rsatgan edi. Shunga qaramay, umumiy saviyasiga ko`ra Fitratning "Abulfayzxon" tarixiy tragediyasidan keyin o`zbek adabiYotida mazkur janrda yaratilgan ikkinchi jiddiy namuna hisoblanuvchi "Mirzo Ulug`bek" pesasi 60-yillar dramaturgiyasining eng salmoqdor yutuqlari qatoridan o`rin oldi.

Deyarli butun ijodiy Yo`li davomida Shayxzoda tanqid va adabiYotShunoslik bilan ham Shug`ullandi. U 1948 yilda AliSher Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari haqida nomzodlik dissertasiyasini Yoqladi va ulug`o`zbek Shoiri ijodiga oid ko`plab ilmiy asarlar e`lon qildi. Ular jumlasiga "Navoiyda lirik qahramonning xarakteristikasiga doir" (1947), "Navoiyning badiiy uslubi haqida" (1958) singari mazmundor maqolalari kiradi. Shayxzodaning Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G`afur G`ulom va boShqa adiblar ijodi haqidagi tadqiqotlari ham katta ilmiy qiymatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Shayxzoda ijodining bir qismini badiiy tarjimalar taShkil qiladi. U A.S.PuShkinning “Mosart va Saleri” pesasini, “Mis chavandoz” dostonini, M.YU.Lermontov va N.A.Nekrasov She`rlarini, V.V.Mayakovskiy dostonlarini, Shota Rustaveli, Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Shekspir, Bayron, GYote, Esxil, Ezop asarlarini o`zbek tiliga tarjima qildi.

Demak, Maqsud Shayxzoda ko`pqirrali iste`dod sohibi va XX asr o`zbek adabiYotining yirik namoyandalardan biri hisoblanadi.

### **Hamid Olimjon (1909-1944)**

Hamid Olimjon XX asr o`zbek poeziyasining Yorqin siymolaridan biridir. U 1909 yil 12 dekabrda Jizzaxda tug`ilgan. Otasining ismi Olim buva, onasining ismi Komila aya bo`lib, ular Hamidning tarbiyasiga katta e`tibor berganlar. Hamid Olimjon avvalda eski maktabda, keyin Yangi maktabda o`qiydi. Undan so`ng Samarqanddagi Pedakademiya ta`hsil oladi.

Hamid Olimjonning dastlabki She`rlari 20-yillarning o`rtalarida paydo bo`ldi. Bu She`rlar “CHimYon daftari” turkumini taShkil etadi. Uning birinchi She`ri “Kimdir” e`lon qilinganda Shoir o`n etti, to`ng`ich kitobi – “Ko`klam” bosilib chiqqan vaqtda yigirma YoShda edi. Hamid Olimjon “Ko`klam” kitobidan boShlab haYot haqidagi o`z taassurotlarini beriShga, turmuShni dramatik holatlari bilan idrok etiShga, She`rdagi lirik qahramon kechinmasini ta`sirchan va iShonarli chiqariShga, ayniqsa, voqea-hodisadan ko`ra, undan hosil bo`lgan fikr, his-tuyg`ular, qalb holatini ifodalaShga urindi. Albatta, uning dastlabki She`rlari ijodining maShqlar va izlaniShlar bosqichini taShkil etadi. Uning “Oydinda” She`rida haYot o`Sha davr rasmicha ko`tarinki soxta talqin qilinadi. Bunda haYot g`amsiz, alamsiz, kadarsiz deb tasvirlanadi.

Hamid Olimjon ijodining ikkinchi bosqichi 30- va uruSh yillari hisoblanadi. Uning iShonch va umid ruhi “Yigitlarni frontga jo`natiSh”, “Qo`lingga qurol ol!”, “YAqinlik”, “Moskvani men bilaman”, “Jangchi Tursun”, “Rossiya”, “Nihol”, “Sevgi” kabi uruSh davri o`zbek lirikasining yutug`i bo`lgan asarlarning qon tomiriga singib ketgandi. “Muqanna” va “Jinoyat” dramalari ham uruSh yillarida Yozilgan bo`lib, “Muqanna” asari uruSh davri o`zbek adabiYotida muhim voqea bo`ldi. Dramaturg olis tarixiy voqeani hozirgi zamonning muhim siYosiy hodisasini aks ettiriShga, uruSh davri vazifalarini o`taSh hamda ehtiYojarini qondiriShga xizmat ettira oldi. “Jinoyat” pesasi esa Hamid Olimjonning haYotdagi murakkab, ziddiyatli muammolarni keskin to`qnaShuvlar va kolliziyalar vositasida talqin etiSh mahorati oShganligidan dalolat beruvchi drama bo`lib qoldi.

UruSh yillarida Shoir “Jangchi Tursun”, “1924 yilning yanvarida Samarqand”, “Rossiya”, “Roksananing ko`z YoShlari” kabi balladalarini Yozdi.

Hamid Olimjonning 9 ta doston, 7 ta She`rlar to`plami bor. “GriSha”, “Ota haYotidan”, “SHohimardon”, “Ikki qizning hikoyasi” dostonlari zaif dostonlar hisoblanadi. “Ikki qizning hikoyasi” dostoni Hamid Olimjonning haYot to`g`risidagi eng yaltiroq tasavvurini ifodalaydi.

“OyguL bilan BaxtiYor”, “Semurg` Yoki Parizod va BunYod”, “Zaynab va Omon” dostonlari maShhur hisoblanadi. “Zaynab va Omon” poemasi da She`riy san`atlar qalaShib ketgan deyiSh mumkin. Bu doston da adabiYotdagi uchlik an`anasi bor. Bular Zaynab, Omon va Sobir timsollari bo`lib, chinakam dunYoviy muhabbat tantanasini ko`rsatiSh maqsadiga bo`ysundirilgan. Faqat muallif bu dostonida ham “Baxtlar vodiysi”, “O`zbekiston”, “O`rik gullaganda” She`rlaridagi kabi “Zaynab o`sgan el husnga to`liq” deb 30-yillar haYotining ancha yaltiroq, ko`tarinki manzarasini beradi.

Hamid Olimjon nafaqat Shoir, balki tarjimon hamdir. U 1936 yilda PuShkinning 100 yilligi munosabati bilan “Kavkaz asiri” dostoni, “Suv parisi” dramasi ni, bir qator She`rlarini tarjima qilgan. PuShkin va Gorkiy haqida maqolalar Yozgan. Uyg`un bilan birgalikda “Sosialistik realizm ni egallaSh Yo`lida”, “Marksizm niqobi ostida menShevizm” maqolalarini YoziShgan. Bu maqolada A.Sa`diy ni adabiYot va san`at ni siYosatdan uzoqlaSh tirib yuboriSh da ayblaydilar. SHoirning “Fitratning ijodi haqida” maqolasi buyruqqa binoan Yozilgan bo`lib, adib ni millatchilik da va xalqqa duShmanlik da ayblaSh asosiga qurilgan.

Hamid Olimjon ijodini o`rganiSh 30-yillarning oxirlarida YUsof Sultonovning "Hamid Olimjon ertaklari" maqolasi bilan boShlangan. Lidiya Bat, G`.Karimov ham Shoir haqida maqolalar YoziShgan. Uyg`un esa, 1944 yil Yozilgan "SHodlik va baxt kuychisi" maqolasida uning siymosini bir Yoqlama talqin qiladi.

Hamid Olimjon o`zbek She`riyatining etuk namoyandasi sifatida xalqning muhabbatiga, tanqidchilarning qiziqiShlariga sazovor bo`ldi.

### Mirtemir

Mirtemir (Tursunov Mirtemir) 1910 yil 30 mayda Turkiston Shahrining Iqon qiShlog`ida tug`ilgan. O`zbekiston xalq Shoiri (1971). Eski maktabda ta`lim olgach (1919—20), ToShkentga kelib, Almaiy nomidagi namuna iSh maktabi (1920—23) va O`zbek erlar bilim yurtida taxsil ko`rgan (1925— 29). Ilk She`rlar to`plami — «Shu`lalar qo`ynida» (1928) milliy o`zbek She`riyati uchun yangi janr — sochma (nasriy She`r) janrida Yozilgan. «Zafar» (1929), «QaynaShlarim» va «Bong» (1932) She`riy to`plamlari muallifi. «Barot» (1930), «Xidir» (1932), «DilkuSho», «Suv qizi» (1937), «Oysanamning to`yida» (1938), «Ko`zi» (1939) kabi dostonlar Yozgan. «Qoraqalpok, daftari» (1957) turkumidan o`rin olgan «Surat» lirik qissasi esa 60—70-yillarda o`zbek She`riyatida doston janriga e`tiborning kuchayiShi va lirik doston janrining kamol topiShiga katta ta`sir ko`rsatgan. A. S. PuShkinning She`rlarini, N. A. Nekrasovning «Rusiyada kim yaxShi yaShaydi», Sh. Rustavelining «Yo`lbars terisini Yopingan pahlavon», Abay, Maxtumquli va Berdaq asarlarini hamda kirg`iz xalq, eposi «Manas»ni o`zbek tiliga tarjima qilgan. Hamza nomidagi O`zbekiston Davlat mukofoti (1979), Berdaq nomidagi Qoraqalpog`iston Davlat mukofoti (1977) laureati. 1978 yil 25 yanvarda ToShkentda vafot etgan. «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni soxibi (2002).

\* \* \*

Ka`bamsan, She`riyat, ezgu ehromim,  
Og`u ham bol to`liq bebaho jomim.  
Amalim va iShqim, umidu armon,  
Uyqusiz tunlarim - jindak ilhomim...  
Kerakmas inju ham sensiz, haqiq ham,  
Kerakmas Shaddod ham sensiz, daqiq ham,  
HaYot ham men uchun sensiz bema`ni,  
Sensiz o`tmasin-da hatto daqiqam.

\* \* \*

Qorong`ulik tuShar,  
Bag`rim uviShar,  
Tanholikda qayta tug`ilaman men.  
Yorilib ketguday  
Tamom yitguday,  
Toki tong otguncha bo`g`ilaman men.

Ko`zimga Yorug`lik,  
So`zimga Yorug`lik,  
Sog` jonga Yorug`lik so`rayman tongdan.  
Armonli Yo`lchiman,  
Armonli kuychiman,  
Jahonga Yorug`lik so`rayman tongdan.



## BETOBLIGIMDA

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,  
Qovrilmay g'aShlik alangasida,  
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,  
Nafasimni rostlay ko'lankasida.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,  
QuShlar ovozigina quloq solayin.  
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,  
XaYol og'uShida orom olayin.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,  
Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim.  
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,  
Men uchun yig'lasin men yig'lab bo'ldim.

\* \* \*

Ko'zingni o'ynatma, kulma, qarama,  
Nozli nigohlaring kerakmas sening.  
Bog'lab olarman, deb endi o'ylama...  
Tortgan u «oh»laring chin emas sening.

Ko'p kunlar sudrading tasmol Yo'llarda,  
Men-da tilsizlarcha ergaShdim-ketdim.  
AdaShgan ekanman, bilsam, cho'llarda,  
Mana endilikda tuShunib yetdim...

TuShundim: u totli xaYollar - xaYol,  
Aldanmas bu yurak Shirin so'zingta.  
Yo'qol, ey aldamchi, YondaShma, Yo'qol,  
TermuliSh Yo'q endi orsiz yuzingga!

Jilmayma, qarama, so'zlama menga,  
Eski afsonani kuylama menga...

## XO'RSINIQ...

Qo'limdan har nima keladi, yurtdoSh,  
G'ariblik, yupunlik - barin ko'rganman.  
Qo'Sh ham haydaganman, o'roq o'rganman,  
Ayrilikda ko'zdan to'kkanman ne YoSh...

G'o'za ham ekanman, juvari, kunjut,  
Qo'limda raqs etur teShayu randa,  
Yo'l ham, qo'nalg'a ham mo'l bu Vatanda,  
Kamchil ham bo'lganman, to'q, quvnoq va but...

Chuvak ham tikkanman, mol ham boqqanman,  
Kuduq ham qazganman naq o'n bir quloq,  
Zilol suvlarida yuviShardi soch,

Ne-ne qiz sochiga lola taqqanman.

Taqdirimga hech ham o'pka qilmayman,  
Qo'limdan kelmaydi degan peSha kam.  
Ba'zan ko'zlarimda tomchi-tomchi nam...  
Hanuz She'r YoziShni bilmayman.

O'LAN AVJLARIDA...

O'lan avjlarida gul ochadi daSht,  
O'lan avjlarida zamon uyg'onur.  
O'lan avjlarida dunYo-dunYo gaSht,  
O'lan avjlarida olam to'lg'onur.

O'lan avjlarida tug'ilur suygu,  
O'lan avjlarida tug'ilur jujuq.  
O'lansiz na rang bor, na Yorug' tuyg'u,  
HaYot lablariga toShadi uchuq...

O'ZIM BILAMAN...

Tagorga ergaShib...

Qulog'imda yangrar doim bir nido,  
Xo'rsinaman,ko'z YoShimni silaman.  
Shu nidoga ne sababdan jon fido -  
Bitta o'zim bilaman.

Yuragimda Yonar bir o't betutun,  
Go'Yoki der: qovuraman, tilaman.  
DoSh beraman nechun hanuz men beun -  
Bitta o'zim bilaman.

Oylar botar,tonglar otar,umr o'tar,  
Olislarni ko'zlab- ko'zlab jilaman.  
Mening qalbim kimni kutar,qon yutar -  
Bitta o'zim bilaman.

Kelurmikan ko'klam yanglig' kutganim,  
Umidvorman,iShonmay ne qilaman?  
Qachon kelur,qandoq u ko'z tutganim -  
Bitta o'zim bilaman.

SARATONDA

Saratonda soyaboning bolayin,  
Toqqa oShsang,ko'k dovoning bo'layin,  
Ketma,jonim, ayriliqdan jon bezor,  
Yarim kecha kahkaShoning bo'layin.

Ketar bo'lsang, xazon Yog'ar bog'imga,  
Sanchiq botar dilimdagi dog'imga,  
Ketma,jonim, ayriliqdan jon bezor,  
Og'u sochma mening xuShvaqt chog'imga.

Kerak emas sensiz gul ham, chaman ham,  
Kerak emas Qandahor ham, Yaman ham.  
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,  
Kerak emas bo'z tarlon ham, saman ham.

Pok olamim bulg'anmasdan jilmaygin,  
Olam g'amga chulg'anmasdan jilmaygin,  
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,  
Yurak dir-dir to'lg'anmasdan jilmaygin.

To tirikman, o'Sha qaysar bolaman,  
Na tinim bor, na izlaShdan tolaman,  
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,  
Bari bir men seni topib olaman.

"QORAQALPOQ DAFTARI" TURKUMIDAN

YENGAJON

Hazil

Yengajon! - dedim.  
Qaynim-ov ! - dedi.  
Berroq kel! - dedim.  
Aynima! - dedi.

Davra quvnoq edi, suhbat Sho'x edi,  
Ko'ngilda zarra ham g'ubor Yo'q edi.  
YoShlik esga tuShdi, avjida hazil,  
Hazilga ko'p qulay edi bu manzil.

Ko'z tikib, oh chekib:- Yengajon,-dedim,-  
Berroq kel, sadag'a senga jon,- dedim...

Qaynijon, inimsan, qaynim-ov,- dedi,-  
Esi past boladay aynima,- dedi.

AGAR MEN...

EShikko'l etagida qadimgi bir jangchining qabrini topiShibdi. Kafanigacha oltin emiSh. Xanjari, etigi, qilichi, dubulg'asi, engil-boShi, qo'yinq-chi, kosasi, piYolasigacha quyma oltin, tobuti ham...

Bu bizning bobolarimizning bobolariga xos burungi yer tagi sag'analaridan. Nomdor va saltanat egalaridan birining sag'anasi. Qabr ichida ustixonga bog'liq va Yonma-Yon to'rt yuzga yaqin o'likka kerakligu keraksiz oltin buyum sanaShibdi. Ettinchi asrga qadar ko'milgan o'lik - sahroyi yigit, jangchi. Yo o'n sakkiz, Yo yigirma uch yil umr ko'rgan, xolos.

Agar men mahgulik uyquga ketar kun biron bir buyum ola ketiSh erki berila qolsa...

Nima olib ketarkinman?

Eng avvalo hovlimdagi oq gullarning bir hovuch atri;  
Keyin Halimaxonim avjida Navoiyning o'sah bir satri;

Ustoz Oybek bermiSh o'Sha bir qalam;

Olis g'urbatlardan qaytganimda, onamning qabrini topolmaganim vajidan suyak-suyaklarimga singgan o'sa qirq yillik alam;

Suygulimning tirnoq yuzidekkina surati ham;

Nozim hikmatning dengiz suvlariday moviy ko'zlaridagi o'Sha mung, o'Sha uchqun, bir so'z bilan aytsam, uning xaYolimdagi armonli siyrati ham;

Bir g'ujum Farg'ona uzumi;

Samarqanddagi yigitlik bazmi;  
Qozoq qimizidan bir ko'za;  
ToShkent dengizidan bir ko'za;  
Hech bo'lmasa o'Sha Olatov yaylovida qimiz ichgan zarang kosa;  
O'Sha unutilmas o'g'rincha bo'sa;  
Oqsoq bobo\* sag'anasidan lojuvard g'iSht sinig'i;  
O'lganda ham otini ataShim nojo'ya birovning ko'zlaridagi tubsiz mehrdan kiprikchasi va tinig'i;  
Andijon adirlarida bitgan g'o'zadan bir lo'ppi chanoq ham;  
Tag'in nima? Bo'ldi, Shekilli.  
Yo'q,onamdan qolmiSh yagona esdalik - kichkina parqu boliSh - tobutimda boShimga qo'yilsa-yu,o'Sha boliSh tagiga bir juft rayhon Shoxchasi qo'yilsa...  
O'lgandan keyin biron buyum olib ketiSh erki berilsa,men Shularnigina ola ketiShni istar edim.Lekin hali o'ladigan tentak Yo'q,gap Shunda...

#### TONG QUSHLARI

Tong quShlari kuylaShur, bog'larda Shovqun...  
Buvijon, imtihonga boraman bugun.  
Takrorlayman qoldirmay Yorug' dilimda  
Biron chigal masala, savol Yo tugun...

Muallimlar o'tirar, zal to'lgan bo'lur,  
Qancha ko'zlar men sari termulgan bo'lur.  
Buvijon, a'lo o'tsam bu sinovdan ham —  
Otam dilida g'urur zab ulkan bo'lur!

Vatanim durdonamdir — aziz onamdir!  
Oq Yo'lga boShlaguvchi maktabxonamdir!  
YoShligim ko'p baxtiYor, bilaman buni,  
Yuksalaman, zab zamon — o'z zamonamdir!

Ha, imtihon damlari — zab talabgor dam,  
Burro javob beraman, hech bo'lmayman kam...  
Ma'rifat tarixida qolur umrbod,  
Daftarga naqShi tuShgan nom qanday ko'rkam!

Tong quShlari kuylaShur, bog'larda Shovqun...  
Buvijon, imtihonga boraman bugun.  
Takrorlayman, qoldirmay yurakkinamda  
Biron chigal masala, savol Yo tugun...

#### HANDALAK

Polizdan handalak hidi anqiydi,  
O'qariq bo'yida sahar uyg'onsam.  
Atir og'uShida odam balqiydi,  
Havo eliksirday, qaniydi qonsam...

Ko'krakka uradi Yoqimtoy salqin,  
Chechaklar tovlanur — chechaklarda noz.

Hammasi, hammasi ko'ngilga yaqin,  
Hammasi dilrabo, suyuk, so'lim, soz...

Handalak uzaman muzdek va Yorqin,  
Beqasam handalak — chipor handalak.  
Qo'limda lovullar go'Yoki Yolqin,  
Quymadek bejirim, ifor handalak.

Ha, aslida quYoSh zarrasi bu ham,  
Ona tuproq toti, tuproq Shirasi.  
YemiShlarning tengsiz barrasi bu ham,  
Jannatda Yo'q o'zi, gapning sirasi!..

#### JALA

Qo'qqis jala quyib o'tdi qiShloqdan,  
To'lqin urgay yaShil ko'kat dengizi,  
To'lqin urgay chechaklar oq, qirmizi,  
Bu darakchi sut, qaymoqdan, piShloqdan..  
Qo'qqis jala quyib o'tdi qiShloqdan,  
Chuchmoma-yu rovoch yesak arziydi,  
Qo'ziqorin, lola tersak arziydi,  
Tepalardan, soydan, hatto toShloqdan...

#### HALIHAM

... Onam non Yopadi bo'g'riqib-bo'rtib,  
Dam-badam kuyadi qo'li yengsakda.  
Chiviq toycham gijing, Yo'rg'alab-Yo'rtib,  
Hadeb aylanaman Shu tevarakda.

Nari ketolmayman o'choq boShidan,  
Yuguruk bo'lsa ham toycham nechog'lik.  
Mazaliroq ba'zan qiyma oShidan,  
Har gal bitta patir menga atog'liq...

Yalpizlik, rayhonlik Yo jindak jizza,  
So'lqildoq, yumaloq, cho'g'day va qumoq.  
Gohi bo'lsam hamki kimdandir izza,  
Sinib Yotsa hatto kichik arg'umoq.

Menga o'Sha patir tegsa bo'ldi, bas  
Otlanib, ovloqqa jo'nayman darrov.  
Ayiqli Yo qoplon — menga pisandmas,  
Patir to'qligida o'ljalik-da, ov.

...Dilda armon qoldi, umrga tatir,  
Ne kunlar bor ekan manglayginamda.

QiShloqda Yodimga tuShdi Shu patir,  
Hanuz ta'mi borday tanglayginamda.

#### BUVIM CHO'PCHAKLARIDAN

Ola qarg'a

Ola qarg'a yaShar emiSh uch yuz yil,  
Qarg'achalik yaSholmasmiSh hatto fil,  
Bobolar der: cho'qda emiSh bir ko'zi,  
Quv va sergak. O'qda emiSh bir ko'zi.  
OShYoni ham tik cho'qqida — tog'damiSh,  
Ne olg'ir quSh ololmayin dog'damiSh,  
Ola qarg'a taShlamasmiSh qo'Shog'in,  
ArdoqlarmiSh oShYonida uShog'in.  
Qo'Shog'iga hech olalik bilmasmiSh,  
UShog'iga hech dag'allik qilmasmiSh,  
Agar noxos qo'Shog'iga tegsa o'q,  
Bu ham darhol qilar emiSh o'zin Yo'q.  
VafodormiSh, ko'ngilchakmiSh, kuyinchoq,  
Shu vajdan ham qanotida Yo'l-Yo'l oq.  
Arzir emiSh oq qanotlik bo'lsa ham,  
To'kis-tugal yaxshi otlik bo'lsa ham...

Qora qarg'a

Qora qarg'a olasidan kam yemas,  
«Men sal kamroq yaShayman» deb g'am emas.  
Tik tog'larda qoraning ham uyasi,  
Elga aYon qanotining kuyasi.  
U ham qiShda tuShib kelar dovondan,  
Qolib ketmas qarg'a zotlik karvondan,  
U ham sergak, cho'qda doim bir ko'zi,  
Olazarak, o'qda doim bir ko'zi...  
U ham g'oyat sabrlik quSh, chapdast quSh,  
o'rgatolsang — el bo'lg'ulik bor es-huSh.  
Qadrlamas emiSh biroq qo'Shog'in,  
TaShlab ketar emiSh hatto uShog'in,  
Agar noxos qo'Shog'iga tegsa o'q,  
o'zgasini izlar emiSh — ko'ngli to'q.  
Shu sababdan qora emiSh yuzi ham,  
Yuz ham gapmi — qora emiSh o'zi ham...  
1975

QUNDUZ

Sochma

Esingdami, Qunduz! Salqin yellar sochlaringni to'lqinlatib es-gan, qalbimizda suyunch o'sgan bir kun?

Ko'klam.

QuYoSh tabassumkor, to uzoqlarda yaSharib ko'ringan qirlar jilodor, sen esang, ma'sum qiz! - nimalarnidir to'plovding, gunohlardan pok, iShsevar do'stim! - Esingdami, o'rim-o'rim sochlaring-la Shafaqday yuzingni qoplovding...

\* \* \*

Bolalik..

Yurakda qayg'u kezza-da, yurakni o'ragan muhitda baxtsizlik kezza-da, - o'yin sevgan bolalik!  
TuSh payti - barcha ko'lankaga oShiqadi, tol ostlariga oqadi. Bolalik mavj urgan sof qalbimiz buyrug'ida biz soy bo'ylab ketdik. UzoqlaShib, o'ynoqlaShib ketdik...

Suv bo'yi...

Ko'klam bezaklari to'la sochilgan suv bo'yi...

- Qo'chqor, huv... Qo'chq-oo-r!

Yoningta bordim, sening bilan ko'klam chechaklari terdim, senga berdim va tarqoq sochlaringga chechaklar takdim, chechaklardek ochilgan yuzingga suq bilan boqdim...

Esingdami Shu?

Erta ko'klamning Shunday Yoqimli kezlarida armon o'raydi meni...

Omochlar sudragan qirlar usti, baxtsizlik kezgan dalalar siynasi kulib turgan paytlarda orzular o'raydi meni!

Qetsammikin?

Balki, Qunduz - ma'sum Qunduz, tag'in, barno bo'lgandir... Kular yuz qiz bo'lib, to'lgandir...

Ketsammi?

\* \* \*

- Qunduz!

Esingdami, qirlarda uyquli omochlar tentirardi - bolalikda -biz o'ynab yurgan kunlarda...

Bu kunlarda o't omochlar kuylaydirgandir-a?

Sochlaring yellarda tarqalib, ko'zlaring o'ynaydirgandir-a?

Esingdami, to'lqin sochgan, bola qalbimizga so'ngsiz suyunch bag'iShlagan bir kun...

\* \* \*

Esingdami, Qunduz!

### Asqad Muxtor

Asqad Muxtor XX asr o'zbek adabiYotida She`riyat va ayniqsa romanchilik sohasiga sezilarli hissa qo`Shgan Yozuvchidir.

Asqad Muxtor 1920 yilning 23 dekabrda Farg`ona Shahrida iShchi oilasida tug`ildi. U 11 YoShga kirganda otasi vafot etdi. SHundan so`ng u bolalar uyida ta`lim va tarbiya oldi.

Unda fanlarni puxta o`zlashtirishga, badiiy ijodga bo`lgan qiziqish kuchayib bordi. U 1936 yilda Farg`onadan Toshkentga keladi va jurnalistika kursida o`qiydi. UruSh yillarida esa o`qishini O`zDUda davom ettiradi. 1943-1945 yillarda Asqad Muxtor Andijon pedagogika institutida dars beradi. SHundan keyingi iSh faoliyati esa gazeta-jurnallar bilan bog`liq holda kechadi. Uning ilk She`ri 1935 yilda bosilib chiqqan bo`lsa, 1938-1940 yillar davomida "Tilak", "Abadiyat", "Totli damlar", "She`r va haYot" kabi bir qancha She`rlari respublika gazeta va jurnallarida e`lon qilinadi. 1939 yilda uning "Bizning avlod" poemasi naShr qilindi.

Asqad Muxtor ham ustozlari G`ulom, Oybek, H.Olimjon, M.SHayxzoda, Mirtemirlar, tengdoshlari Hamid G`ulom, Turob To`la, Mirmuhsin, SHuhrat, SHukrullolar bilan bir qatorda o`z zamonasining dolzarb mavzularidagi She`riyatini yaratishda faol ishtirok etdi. SHu davrda Yozilgan “Bukunning xitobi”, “Ona xursand”, “G`alaba ishonchi”, “Jangchining bayram kechasi”, “Sog`iniSh” kabi She`rlari Shular jumlasidandir. Garchi bu She`rlarning barchasini g`oyaviy-badiiy jihatdan mukammal deb bo`lmasa-da, keyinchalik Shoir uslubida muhim o`rin tutgan alomatlar ko`zga taShlanadi. Asqad Muxtor o`z ijodiy izlanishlarini izchil davom ettirdi va 1966 yilda chiqqan “She`rlar” to`plamiga Yozgan “So`zboShi”sida Shunday deydi:

“O`ttiz yil davomida She`r haqida tinimsiz o`yladim. Uning ifoda Shakllari, vositalari, ruhi haqidagi fikrlarim juda ko`p marta o`zgardi: She`r turmuSh o`chog`idan olingan laxcha cho`g`, u haYotiy epizodga asoslangan bo`lishi kerak, deb, She`rning boShqa turlarini tan olmay ancha yil yurdim; She`r - yalt etgan oliy tuyg`u, zavq-Shavq tug`Yoni, uni faqat muzika janrlari bilan qiYos qiliSh mumkin”.

Davrdagi o`zgarishlar, zamonasining muammolari ham A.Muxtor ijodida o`z aksini topdi. Masalan, buni “TuShlarim, bezovta tuShlarim” She`rida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Asqad Muxtorning serqirra ijodida voqelikni ramziy vositalar va timsollar orqali idrok etish usuli ham alohida o`rin tutadi. Buni “Maysa mavj urar”, “Xazon”, “TovuShlar”, “Umr”, “Bog`im”, “Nihol”, “Tong”, “O`zak”, “Amu”, “Boychechak” kabi She`rlar misolida ko`ramiz. Asqad Muxtorning 1946 yilda Bekobodda bo`lgan ijodiy safari natijasida “Po`lat Shahri” ocherki, “Po`lat quyuvchi” poemasi, “DarYolar tutaShgan joyda” povesti vujudga keldi. Asqad Muxtor qirqinchi yillarning ikkinchi yarmidan boShlab nasriy epik janrlarda kuch sinaShga kiritilgan edi. U 1950 yilda “Po`lat Shahri”, 1956 yilda “HaYotga chaqiriq” nomli ocherk va hikoyalar to`plamlarini naShr ettirdi. Ular adib qalamining yanada o`tkirlaShuvida muhim rol o`ynadi. “HaYotga chaqiriq” to`plamiga kirgan “Oksana”, “Dog`”, “Xayri” kabi hikoyalar Asqad Muxtorning xarakter yaratish mahorati asta-sekin o`tib boraYotganligidan dalolat beradi.

Asqad Muxtorning “Opa-singillar” romani ham unga ancha muvaffaqiyat keltirdi. Uning boSh muammosi xotin-qizlar ozodligi masalasi edi. U 1958 yilda “Qoraqalpoq qissasi” povestini, 1961 yilda “Tug`iliSh” romanini naShr ettirdi. “Davr mening taqdirimda”, “CHinor” kabi romanlari ham 60-yillar prozasida alohida o`rin tutadi. Adib “Davr mening taqdirimda” asarini “Uch fasl dostoni” deb ham ataydi. Bunda u urushdan oldingi, urush davridagi va undan keyingi yillarni nazarda tutadi. Asarning boSh qahramoni Ahmadjon o`z Shaxsiy baxtini xalqi uchun fidokorona xizmat qiliShda deb biladi. Asqad Muxtor xalqimizning bosib o`tgan tarixiy o`tmishini, uning aniq lavhalarini “CHinor” romanida, “Buxoroning jinko`chalari”, “Jar Yoqasidagi chaqmoq” qissalarida tasvirlaydi. Umrining oxirlarida Yozilgan “Amu” romanida, “Bo`ronlarda bordek halovat”, “KumuSh tola” qissalarida Yozuvchi zamonning dolzarb muammolarini Yoritishga urindi, lekin ularning badiiy talqinida jiddiy muvaffaqiyatga erisha olmadi. “Samandar”, “Yaxshilikka yaxshilik”, “Mardlik cho`qqisi”, “Tong Yoritilgan sohilda” kabi pesalari bilan kitobxonlar davrasida tanilgan serqirra ijodkor Asqad Muxtor o`zbek adabiYotini boyitishga munosib hissa qo`shdi. Uning so`nggi ishlaridan biri “Tundaliklar” sarlavhasi ostida berib borilgan estetik, haYotiy-falsafiy fikrlari ham alohida diqqatga sazovordir. Ha, adib aytganidek, “Vaqt o`tyapti! deymiz! Aslida biz o`tyapmiz...” (“Tundaliklar”).

Asqad Muxtor juda ko`p xorijiy adabiYot namunalari bilan o`zbek kitobxonlarini taniShtirgan bo`lsa-da, tarjimachilik sohasida Sofoklning “SHoh Edip” asarini ona tilimizga o`giriShi eng katta muvaffaqiyati bo`lib qoldi. Uning tanqidchilik asarlari orasida esa tarjimachilikka va YoShlar ijodiga oid mazmundor maqolalari hozirga qadar o`z qimmatini Yo`qotgani Yo`q.

1. Muxtor «Tilak», «Tong edi», «Totli damlar» singari ilk She`rlari (1935—1938) da poeziyaning maqsad va vazifasini, Shoirning jamiyat oldidagi burchini aniklab olishga intildi. U poeziyaga «Qalbga qanot», «dardga davo» beruvchi deb qaraydi. Shoir Ulug` Vatan urushi boShlanishi bilan «G`alaba ishonchi», «Jangchining bayram kechasi», «Tug`ishganlar qaytdi», «Sog`iniSh», «Moskvaning qalbi» singari qator poetik asarlar yaratib, xalqni faShist bosqinchilari ustidan g`alaba qozonishga undadi. Vatan go`zalliklarini, tunganmas boyliklarini, xalq haYotidagi katta o`zgarishlarni tasvirlovchi «Po`lat



quyuvchi» (1947), «HamShaharlarim» (1949), «Rahmat, mehribonim» (1954), «Chin yurakdan» (1956) She`riy kitoblari Shoirning katta ijodiy yutuqlaridandir.

Muxtorning «Mardlik cho`qqisi» (1948), «YaxShilikka yaxShilik» (1949), «Samandar» kabi p`esalari dramaturgiyamizda bolalar haYotining, Shuningdek, iShchilar sinfi turmuShining YoritiliShi jihatidan muhim ahamiyatga ega.

Yozuvchining «DarYolar tutaShgan joyda» (1950), «Qoraqalpoq qissasi» (1958), «Buxoroning jin ko`chalari» kabi qissalari, «Opa-singillar» (1954—1955), «Tug`iliSh» (1963), «Davr mening taqdirimda» (1964), «Chinor» (1973) romanlarida zamonamizning muhim muammolari o`z ifodasini toptan.

“Chin yurakdan” (1956) She`riy kitobi, “HaYotga chaqiriq” (1956), “DunYo bolalari” (1962) hikoyalar to`plami o`zbek bolalar adabiYoti xazinasini boyitdi.

“99 miniatura”, «Karvon qo`ng`irog`i» She`riy kitoblari 60-70-yillar o`zbek Sho`ro She`riyatida katta voqea bo`ldi. Ularda inson qalbining tovlaniShlari chuqur intellectual his-tuyg`u vositasida badiiy barkamol talqin etilgan.

Muxtor tarjimasida Sofokl, Tagor, PuShkin, Lermontov, Mayakovskiy, Gorkiy, Shevchenko, Blok, Korneychuk, Pavlenko asarlari o`zbek kitobxonlarining \_ma`naviy mulkiga aylandi.

Lirik Shoir, taniqli adib, mohir tarjimon sifatida Muxtor madaniyatimizni boyitiShda o`zining munosib hissasini qo`shib kelaYotgan ijodkorlardandir.

#### QIYNALISH

Kitoblarim varaq-varaq,  
Siz qaylarda sarsari?  
Umrin edi yaShil daraxt,  
Sizlar uning barglari.

Men siz bilan nafas oldim,  
Dard bilan yaraldingiz.  
Har gal o`ksib qoldi qalbim,  
Yellar-la taraldingiz.

Oppoq bulut suzib o`tdi,  
Yana tomchi tommadi...  
Nahot bunga ham ko`nikdim,  
Dardli o`ylar qolmadi?

Mayli, agar to`ymasa  
Dilimning qaqqroqlari,  
Dovul tursin, to`kilsin  
Umrinning yaproqlari:

## QALBIM NOZIKLASHDI

Yangi yilning yaqin oppoq tuni:  
Bolalar orziqib tunni kutadi.  
O`tgani uchgan nafis qor uchquni  
Yangi yil sarhadin buzib o`tadi.

Bolalar hovliqib yangi yil kutadi,  
Menga esa yil kuzatish-g'am:  
Qilt etib uzilgan bitta yaproq ham  
Naq qalbimga tegib o`tadi...

**Said Ahmad****(1920 yilda tug`ilgan)**

Said Ahmad o`zining rang-barang hikoyalari, publisistik maqolalari, realistik qissayu romanlari, xuShchaqchaq komediyalari bilan hozirgi zamon o`zbek adabiYotida munosib o`rin egallaydi. U, ayniqsa, satira va yumor ustasi sifatida maShhur.

Said Ahmad Husanxo`jaev 1920 yilda ToShkent Shahrida tug`ildi. U Nizomiy nomidagi ToShkent Davlat pedagogika oliy ilmgohida ta`lim oldi (1938-1941). U adabiYotimizga avvalo jurnalist-ocherkchi sifatida kirib keldi. Adibning unib-o`siShida matbuot muhim rol o`ynadi. U "YoSh leninchi", "Qizil O`zbekiston" gazetalari, "MuShtum", "SHarq yulduzi" jurnallarida, O`zbekiston radio komitetida xizmat qildi.

Said Ahmad avvalo hikoyanavis sifatida tanildi. 1940 yilda uning birinchi hikoyalar to`plami - "Tortiq" yuzaga keldi.

Ko`plab hikoyalarni o`z ichiga olgan bu to`plamni Said Ahmad "maShq" deydi. Lekin YoShlarning ustozlari bo`lmiSh Abdulla Qahhor buni qattiq tanqid ostiga oladi. U: "Said Ahmad qo`liga tambur olibmi, qulog`ini buraShiga, parda bosishiga, chertishiga qaraganda tuzuk bir maShq chala oladiganga o`xshaydi, lekin hali maShq chalgani Yo`q. "Tortiq"dagi hamma hikoyalar Shuni ko`rsatadi" - deydi. SHuningdek, Abdulla Qahhor Yozuvchining o`z Yozganiga mas`uliyatsizlik bilan YondoShgani, hikoyada hech qanday mazmun-maqsdan Yo`qligini, hikoyalarning "bema`ni", "so`z bo`tqasi" bo`lib qolganini ta`kidlaydi. Qisqasi, YoSh ijodkorning adabiYotga kirib keliShi mana Shunday boShlandi. Bu davrlarda u yana "Qadrdon dalalar" qissasini Yozadi. Mana Shular Yozuvchi ijodining birinchi bosqichi mahsullari hisoblanadi (30-yillar oxiri-40-yillar boShi).

Said Ahmad ijodiy Yo`lining ikkinchi bosqichi 1956 yillardan boShlanadi. YOzuvchi bu davrda bir qator hikoyalar yaratdi. Ularni mazmuniga ko`ra ikki guruhga ajratiSh mumkin. Birinchi guruh hikoyalarda ("Ko`klam chechaklari", "Ko`klam taronalari", "Xazina", "Iqbol chiroqlari") lirizm kuchlidir. Bularda Yozuvchi iShchilar haYotida uchrovchi turli voqealarni, asosan uruShning odamlar turiSh-turmuShida, qalbida qoldirgan achchiq izlarini aks ettirar ekan, o`quvchi emosiylarini qo`zqatib yuboradi. Jumladan, "Turnalar" hikoyasidagi Sobir otaning boShidan kechirganlari, farzand dog`i tug`dirgan azobu iztiroblari, uruShdan jabr ko`rgan butun kiShilar, ota-onalarning, ayniqsa, dilidagi bitmas yarasi edi. "Ko`klam chechaklari" hikoyasida ham Said Ahmad uruSh tufayli to`Shakka mixlanib qolgan bemorning o`y-xaYollari (axir u erkak edi, aYoli qiynalib pul topaYotgan bir paytda to`Shakka mixlanib, Shipga tikilib YotiShni also xohlamasdi), uning xotini qalbidagi aYollarga xos his-tuyg`ularning jo`Shqinligi, bahoriyligi, Shu bilan birga o`z oilasiga vafodorligini ifodalab, kitobxon qalbiga osonlikcha Yo`l topa oladi.

Ikkinchi guruh hikoyalarda hajviy ruh asosiy o`ringa chiqadi. "CHO`l burguti", "CHO`l Shamollari" turkum hikoyalari, "Hindcha o`yin", "Kuchukcha", "Kolbasa qori", "O`rik domla" kabi asarlari Shular jumlasidandir. Bu hikoyalardagi xalqimizga xos so`z o`yinlari, askiya va mubolag`alar asar tilini nihoyatda jozibador qiladi. YOzuvchining "Begona", "Xanka va Tanka", "Mening do`stim Boboev" kabi hajviy hikoyalarda haYotda uchrab turuvchi manmanlik, ig`vogarlik, ko`zbo`yamachilik singari illatlar ustalik bilan foSh etiladi. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o`zbek radio va televideniesida quvnoq miniatyuralar teatriga asos soldi.

1964 yilda yaratilgan "Ufq" romani Yozuvchi ijodiy Yo`lidagi ikkinchi bosqichning eng katta yutug`i bo`ldi. Bu roman trilogiya bo`lib "Qirq beSh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo`sag`asida" nomli qismlardan iborat. Unda ijodkor qiShloq kiShilarining uruSh yillarida front orqasida ko`rsatgan mehnat qahramonliklari, o`zbek xalqiga xos bag`ri kenglik va oriyatlilik, fidoyilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini aks ettirgan. Roman Shunchalik muvaffaqiyatli chiqdiki, bir paytlar YoSh Yozuvchini qattiq tanqid qilgan Abdulla Qahhor 1965 yili o`zining "Ilhom va mahorat samarasi" nomli maqolasida asarni quyidagicha ijobiy baholadi: "Said Ahmad bundan ko`p yillar muqaddam qo`liga tanburini olib chertganida qo`li keliShganini ko`rib, yaxShi sozanda bo`lib, yaxShi-yaxShi maShqlar chaliShini orzu qilgan edik. SHu orzu uShalib kelaYotibdi. "Ufq" uning ilhom va mahorat bilan chalgan maShqidir".

Said Ahmad ijodiy Yo`lidagi uchinchi bosqich uning ijodkor sifatidagi etuklik davridir. Bu ayniqsa uning 1988 yilda yaratgan "Jimjitlik" romanida yaqqol ko`rindi. Asarda turg`unlik davri illatlar jamiyatning zaif tomonlari, rahbarlarning o`z obro`larini suiiste`mol qiliShlari, bu Yo`ldagi adolatsizligu poraxo`rliklar foSh etiladi. "Jimjitlik" romani turg`unlik yillarini kengroq va ko`ptomonlama qamrab olganligi, umumiy ruhini ochib beriShga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Asosiy e`tiborini davr mohiyatini ochiShga qaratgani uchun ham muallif romaniga "Jimjitlik" degan ramziy nom qo`ygan.

Romanning asosiy voqealari 80-yillarning boShlarida QaShqadarYo vohasidagi qiShloqlarda sodir bo`ladi. Xuddi Shu davrda asar qahramonlaridan Tolibjon qariyb yigirma yillik judolikdan so`ng ona qiShlog`iga qaytadi va uning quchog`ida xotirjam yaShamoqchi bo`ladi. Tolibjon qanday odam? U nega jimjitlik qidirib qoldi? Bu savollarga javob qaytariSh uchun muallif Tolibjonning qiShlog`ida qanday kiShilar yaShaShini, ularning ma`naviy ildizlari qaerlarga borib taqaliShini turli xildagi chekiniShlar va afsonalar vositasida ko`z o`ngimizda namoYon qiladi. U Kiyiksovdi momo to`g`risidagi afsona Yordamida qiShloq kiShilarining tarixiy ildizlarini go`Yo asrlar qa`ridan qazib chiqargandek va bizga ko`rsatgandek bo`ladi. Afsonaga ko`ra qadim zamonlarda bir kampir xalqini vabodan qutqariShga harakat qilgan. O`zaro janglarda xalq qirilib ketgach, u kiyiklarni parvariShlab, odamlaru hayvonlarning pokiza mehru muhabbatiga sazovor bo`lgan hamda Kiyiksovdi momo nomini olgan. Afsona bilan taniShib, biz Tolibjonning pokiza qalbli insonparvar kiShilar avlodidan ekanligini anglaymiz. Agar afsona romanning asosiy voqealariga uzviyroq bog`langanda va uning Tolibjon ruhiga ta`siri yaxShiroq ochilganda, biz qahramonning qiShloqqa kelgandagi ma`naviy holatini aniqroq tasavvur qilgan bo`lardik. Qanday bo`lmasin, afsona Yordamida Tolibjonning palagi toza inson ekanligiga iShora qilgach, Yozuvchi bizni bunga iShontiriShga va qahramonning jimjitlik izlaShi sabablarini badiiy tahlil etiShga intiladi. SHuning uchun u Tolibjonning qariyb yigirma yillik haYotini chekiniShlar vositasida go`Yo tasavvur ko`zgusidan o`tkazadi. Ko`zguga tikilar ekanmiz, go`Yo ko`z o`ngimizdan turg`unlik davrining dahShatlari, illatlari birma-bir o`tgandek bo`ladi. Oynai jahonda go`Yo Tolibjon dastlab aspiranturani tugatgan, bilimli obkom xodimi sifatida namoYon bo`ladi va katta yig`inda jumhuriyat rahbari SHavkat Rahimov oldida haYotimizdagi hamda uning faoliyatidagi nuqsonlarni tanqid qilib nutq so`zlaydi. Haqiqatni aytgani uchun u uzoq muddatga chet elga iShga jo`natib yuboriladi. U erda Tolibjon xotinidan, o`g`lidan judo bo`ladi. O`zi esa kasallik changalidan zo`rg`a qutulib qoladi.

SHu tariqa romanda turg`unlik yillaridagi illatlarning boSh sabablaridan biri haqiqatning bo`g`iliShi ekanligi to`g`risidagi g`oya ilgari suriladi va u voqealarning keyingi rivoji Yordamida dalillana boradi. Ular davomida, avvalo, Tolibjonning ko`plab insoniy fazilatlarini ochiladi. Xususan, SHavkat Rahimovga munosabatida Tolibjonning to`g`riso`zligi, Jayrona bilan yaqinligida samimiy insoniy tuyg`ular egasi ekanligi, Yangi charx yasaShida aqlining teranligi, kitoblarini qiShloqqa va yiqqan pullarini qarindoShlariga

berishida beqiyos saxovati, ota-onasidan ajragan Azizbekni ko'rib ezilishlarida o'ta nozik qalbi yaqqol anglaShiladi. YOzuvchi qahramonini mutlaqo benuqson qilib tasvirlamaydi. Ko'plab yuksak fazilatlariga qaramay, Tolibjon haqiqatgo'yiligi tufayli qarshisidan chiqqan g'ovlar oldida go'yo dovdirab qoladi va nohaqliklarga qarshi qanday kuraShiShni bilmaydi. Buni Jayrona ochiqdan-ochiq uning yuziga aytadi:

- Tolibjon aka, - deydi Jayrona, - siz kuraShga yaramaydigan, irodasi bo'sh odam ekansiz... Siz bir marta boSh ko'tarib erparchin bo'ldingiz. Ikkinchi boSh ko'tarishga yuragingiz dov bermay qo'ydi. Taqdirga tan berib, o'zga yurtlarda sarson bo'lib yuribsiz. Zo'ravonlikka qarshi boSh ko'tarishga ojizlik qilib qolgansiz... Men sizga qoyil emasman. Erkak odam olov bo'lib yaShaShi kerak. Butun irodasini, kuchini, aqlini o'zining haq ekanligini isbot qiliShga sarflaShi kerak.

Romanning g'oyaviy falsafasidan aYon bo'lishicha, xuddi mana Shunday ojizlik, haqsizliklarga qarshilik ko'rsata olmaslik, ya'ni odamlarning kuraShga noqobil qilib qo'yilganligi turg'unlik illatlarining ildiz otiShiga Yo'l ochgan jiddiy sabablardan hisoblanadi.

Romanda odamlarni kuraShga ojiz qilib qo'ygan, haqiqatning aYovsiz bo'qiliShiga sabab bo'lgan omillar juda keng tahlil qilingan. Buning uchun YOzuvchi Mirvali va SHavkat Rahimov obrazlarini keng ko'lamli oynai jahon ko'zgisida namoyon qilgan. Mirvali qarshimizda xuddi Tolibjon bilan Yonma-Yon turgandek, uning singari yaxshi ishlariga ham qodirdek, lekin mohiyatan butunlay uning aksi, zidi bo'lgan bir qiYofada gavdalanadi. YOzuvchi sovxoz direktori Mirvalini go'yo Tolibjon bilan parallel raviShda va o'zaro muqoyasa qilgan holda tasvirlab bergandek ko'rinadi. Natijada, tasvirdan Tolibjondan farqli holda, Mirvali insoniy qiYofasini butunlay Yo'qotgan, Shafqatsizlikda, Yovuzlikda Shaytonga dars beradigan, jirkanch bir mahluq qiYofasida ko'rinadi. Buni dalillovchi voqealar romanda juda ko'p. CHunonchi, Mirvali Bodomgul, Sedona kabi aYollarni Yo'ldan urib, oilalarining Yostig'ini quritgan, boyligidan va sirlaridan xabardor bo'lgani uchun Asqarali va Rasulbekni o'z qo'li bilan o'ldirgan; manman degan generalni dog'da qoldirgan; zo'rlik bilan otini tortib olib, Erali chavandozni jinni qilib qo'ygan... Nihoyat, Mirvali o'z sirlaridan ogoh bo'lgan Jayronani Yo'qotiShga urinib, Tolibjonning o'limiga sababchi bo'ladi.

Roman falsafasidan aYon bo'lishicha, bunday dahshatlarning ildizlari turg'unlik yillaridagi jamiyatga rahbarlikda mavjud bo'lgan illatlarga borib taqaladi. Ularning mujassami sifatida romanda SHavkat Rahimov va "o'zbek paxtakorlarining otasi" qiYofalari chiziladi. Bu chizgilarda biz SHavkat Rahimovning deyarli har doim Mirvalini qo'llab-quvvatlab turganligini, o'zboShimchaliklarini bilgani holda Yovuzliklar sari boShlaganini, katta unvonlar olib berganligini ravshan ko'ramiz. Ayniqsa, Tolibjonni olomon ichida tanib, SHavkat Rahimovning uni qiShloqdan badarg'a qiliShga fatvo beriShi kitobxonni larzaga soladi va haqiqatning asl bo'g'uvchilari kimlar ekanligini aniq tasavvur qiliShiga imkon tug'diradi.

Roman g'oyaviy falsafasidan anglaShiliShicha, jamiyatdagi illatlarning ildizlari rahbarlikning eng yuqori, ya'ni markaziy qatlamlariga borib taqaladi, chunki SHavkat Rahimovning qing'ir ishlarini, haqsizliklarini, qo'shib YoziShlarini eng oliy rahbar, ya'ni "o'zbek paxtakorlarining otasi" mohir dirijYordek o'z taYoqchasi bilan boShqarib, Yo'naltirib turadi. Bunga hayron bo'lgan Jayrona: "Biz qaysi mamlakatda yaShayapmiz? Kimga iShonsa bo'ladi? Kimga iShoniSh kerak? Bu marazlardan qachon qutulamiz?" - degan savollar olovida qovriladi.

Muallif falsafasiga ko'ra bunday holning abadiy davom etiShi mumkin emas, chunki Said Ahmad ko'p marta qayd qilganidek, inson tobutga qarab emas, beShikka qarab yaShaydi. SHuningdek, u oYoq ostiga qarab emas, balki olis ufqlarni ko'zlab olg'a intiladi. Roman qahramoni Tolibjon ham oqibatda "bu notinch XX asrda jimjitlik qidiriSh... telbalik ekaniga" iqror bo'ladi. Turg'unlik cheksiz davom eta olmasligining sabablaridan biri Shundaki, bizning jamiyatimizda haqiqat, adolat va ezgulik uchun kuraShchilarni butunlay Yo'qotib bo'lmaydi. Ularning Yorqin timsoli sifatida romanda Jayrona siymosi nur sochib turadi. Uning siymosi Shuning uchun nurliki, Jayronaning boShi "toShlarga urilib Yorilmagan, hech kimga egilmagan", maShaqqatli haYotiga esa sira "nopoklik aralaShmagan". Jayrona siymosini nurlantirgan bu fazilatlarini muallif ko'plab juda qiziqarli voqealarda ro'Yobga chiqaradi. CHunonchi, o'zga yurtlarda o'lim bilan oliShib Yotgan Tolibjonni Jayrona echintirib-kiyintiriShdan, yuvintiriShdan tortinmaydi; Mirvalining tog'lar orasidagi

yaShirin uyasidan uni foSh qiladigan hujjatlarni olib, Yo`l topib qochiShga muvaffaq bo`ladi. Eng muhimi, Jayrona o`zining ko`pqirrali bilimlariga, dunYo kezib, orttirgan tajribalariga iShonib, hech narsadan hayiqmaydi va haqiqat uchun kuraSh Yo`lidan aslo chekinmaydi. Tanqidchilikda uning ayrim xatti-harakatlari, ayniqsa, Mirvalining qarorgohidan qochiShi juda ham iShonarli chiqmaganligi qayd qilindi. To`g`ri, ayrim iShoniliShi qiyin o`rinlar bo`liShi mumkin. Lekin Shuni tan oliSh zarurki, Yozuvchi Jayronaning deyarli har bir xatti-harakatini imkon boricha mukammal dalillab boriShga intilgan. Balki Shuning uchundir, romanda Jayrona timsolida hozirgi o`zbek aYolining Yorqin, jozibador, samimiyatga to`liq va kuraShchan qiYofasi gavdalangan. Mana Shunday qahramonlarning xatti-harakatlari natija bera boShlaganligi va roman oxiridagi qator voqealar, xususan, "o`zbek paxtakorlari otasi"ning o`limi, SHavkat Rahimovning talvasaga tuShiShi va Mirvalining tubsiz jarlikka qulaShi turg`unlikning umri tugab boraYotganidan dalolat beradi.

SHu tariqa romanda turg`unlik jamiyatimiz tarixida o`tkinchi hodisa ekanligi, xalqimiz uning illatlaridan poklanib, adolatli haYot tomon Yo`l oliShi muqarrarligi haqidagi g`oya ancha iShonarli ifodalangan. Ba`zi kam-ko`stlari bo`limganda, roman adabiYotimizda yana ham kattaroq hodisa darajasiga ko`tariliShi mumkin edi. Bunday nuqsonlardan biri asarda qahramonlarning ruhiy olami hamma erda ham bir xilda teran ochilmaganligidir. Fikrimizning dalili sifatida Tolibjonning ruhiy olami tahlilini eslaSh kifoya. Tolibjon Mirvalining o`zboShimchaligidan, qing`ir iShlaridan, Yovuzligidan norozi bo`lib, ko`p marta uning oldiga boradi, lekin har gal ham deyarli hech narsa deYolmaydi, jiddiyroq harakat ham qila olmaydi. Xuddi Shuningdek, o`smir Azizbek o`z YoShiga to`g`ri kelmaydigan ko`p narsalardan xabardor bo`ladi va xuddi katta kiShilardek fikr yuritadi. Ayniqsa, uning onasining nopok iShlari to`g`risidagi gaplari g`ayritabiiy tuyuladi.

Hozirgi holda ham Said Ahmadning "Jimjitlik" romani jamiyatimizdagi turg`unlikning mohiyatini va undan qolgan sarqitlardan xalqimizning poklaniSh jaraYonini ancha keng, qiziqarli hamda ta`sirchan tarzda Yoritgan asarlardan hisoblanadi.

Said Ahmad Shuningdek, "Kelinlar qo`zg`oloni", "Farmonbibi arazladi", "KuYov" kabi komediyalari bilan ham Shuhrat qozondi.

Ijodkor tarjima iShlari bilan faol Shug`ullangan. U B.Polevoy, A.Musatov, O.Gonchar asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan.

Said Ahmadning haYotdagi yana bir yutug`i Shundaki, taqdir unga Saida Zunnunovadek bir ijodkor aYolni umr Yo`ldoShi qildi. YOzuvchi qatag`onga uchragan yillarda Saida opaga ko`p jabr-zulmlar, sitamlar o`tkazilgan bo`lsa-da, u o`z umr Yo`ldoShiga sadoqatli bo`lib qoldi. SHu sababli ham bu aYol buyuk ehtirom sohibasidir.

Said Ahmad o`zining quvnoq, orombaxSh hikoyalari va salmoqli romanlari bilan o`zbek prozasi rivojlaniShiga katta hissa qo`Shib kelaYotgan ilg`or Yozuvchidir.

### **Odil Yoqubov**

Odil Yoqubov yuksak iste`dodi, jurnalistik va ijodiy faoliyati bilan hozirgi adabiy jarayonga samarali ta`sir ko`rsatib kelmoqda. Uning qator qissalari hamda publisistik maqolalari, tarixiy va zamonaviy mavzulardagi romanlari keng jamoatchilik e`tiborini o`ziga tortdi, qizg`in bahs-munozaralar markazida turdi. Adib asarlari o`zining haqqoniyligi, davrning o`tkir ijtimoiy, ma`naviy-axloqiy masalalarini dadil o`rtaga qo`yganligi, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatni ochiShga qaratilgani, insonni yaShaShdan maqsadi xususidagi ehtirosli bahs-mulohazalari bilan ajralib turadi. Yozuvchi o`zbek romani poetikasiga ko`pgina yangiliklar olib kirdi.

Odil Yoqubovning bu darajaga ko`tariliShida iste`dod, adabiy muhit ta`siridan taShqari, undagi adabiyotga bo`lgan cheksiz mehr hamda adib boShidan o`tgan voqealar, hayotiy tajribalari katta rol o`ynadi.

Odil Yoqubov 1927 yili Turkiston Shahri yaqinidagi Qarnoq (hozirgi Otaboy) qishlog'ida tug'ilgan. Xalqimizning azaliy udumlari, mo'tabar an'analari yaxshi saqlangan, tabiiy go'zalligi bilan kishini maftun etuvchi bu qishloq bo'lg'usi yozuvchining ijodiy taqdirida chuqur iz qoldirdi.

Adib yoziShicha, otasi Egamberdi Yoqubov 1916 yili mardikorlikka olinib, Belorussiya o'rmonlarida daraxt kesgan, rus tilini o'rganib, Toshkentda SAGUni bitirgach, Chimkent viloyatida turli lavozimlarda ishlagan. Ota farzandlari tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Oilada "Ming bir kecha", "O'tkan kunlar" singari asarlar zo'r ishtiyok bilan mutolaa qilingan. Otasi tufayli bolaligidanoq rus tilini egallaShi bo'lajak yozuvchiga rus va jahon adabiyoti, madaniyati bilan taniShiShga yo'l ochgan. Keyinchalik tug'ilgan qishloqida ona tilida o'qishni davom ettirish, bilimdon muallimlarning ko'magi undagi adabiyotga bo'lgan maylni yanada kuchaytirgan.

1944 yilda o'rta maktabni tugatib, Odil Yoqubov 1945-1950 yillarda armiya safida xizmat qildi. YoSh askar Yaponiyaga qarshi urushda ishtirok etadi. 1951-1956 yillarda u Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakulteti rus tili va adabiyoti bo'limida o'qiydi. Odil Yoqubov salkam o'n yil "Literaturnaya gazeta"ning O'zbekiston bo'yicha muxbiri bo'lib ishlaydi. Yozuvchi muxbir bo'lib ishlab yurgan kezlarni maroq bilan eslaydi. "Bu davrda, - deb yozadi u, - men gazetaning topshiriqlariga binoan respublikamizni bo'shdan-oyoq aylanib chiqdim, oddiy paxtakor hayoti, taShviShlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim".

Adib biografiyasiga, hayot tajribasiga oid bu faktlarni eslatishdan maqsad Shuki, ular muallif asarlariga haYotiy zamin bo'lib xizmat etdi, bolalik taassurotlari, hayotda ko'rgan-kechirgan, ko'nglida chuqur iz qoldirgan voqea-hodisalar asarlarida aks etdi.

Odil Yoqubov ijodiy Yo'lini uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich 50-yillardan bo'shlanadi. Umuman, adib ijodi harbiy xizmatda yurgan kezlari bo'shlangan edi. Uning matbuot yuzini ko'rgan ilk asari "TengdoShlar" (1951) qissasi bo'ldi. "TengdoShlar"ga qadar ham u ko'plab hikoyalar, bir roman qoralagan ekan. Yozuvchi keyinchalik Yozgan "Farzandlar burchi" ocherkida ularni urushdan keyingi yillarda ancha keng Yoyilgan konfliktsizlik "nazariya"si ta'sirida yaratilgan asarlarning o'zbekcha muvaffaqiyatsiz varianti deb ataydi. "TengdoShlar"ni "o'rtacharoq" asar sanaydi, Hamza nomli teatr sahnasida qo'yilib, tanqidchilikda ijobiy baholangan qator dramatik asarlariga ham tanqidiy yondaShadi: "Mana endi bu asarlarning saviyasini ham, qimmatini ham yaxshi bilaman... Badiiy ijodning butun murakkabligini men endi Shuncha xatolardan keyin tuShundim", - deb eslaydi u. O'Sha zaifgina dramalar qatoriga "Birinchi muhabbat", "Olma gullaganda", "Yurak yonmog'i kerak", "Aytsam, tilim kuyadi, aytmasam, dilim..." kabi pesalar kirar edi. O.Yoqubovning so'nggi yillarda yaratilgan "Fotih Muzaffar yohud bir parivaSh asiri" dramasi ham bayonchilikning, go'yalarni jar solib aytiShning kuchliligi sababli adabiyotda sezilarli hodisa bo'ladigan pesa darajasiga ko'tarilmadi.

Odil Yoqubovni yozuvchi sifatida elga tanitgan "Muqaddas" (1961) qissasi bilan ijodiy yo'lining ikkinchi bosqichi bo'shlandi. Chunki "TengdoShlar"dan "Muqaddas" qissasiga qadar o'tgan davr go'yoki yozuvchi uchun ijodda o'zligini topish Yo'lidagi betinim izlanish, odat tusiga kirgan adabiy qoliplar bilan murosasiz olishish, kitobiylik inersiyasini engib o'tish yillari bo'ldi. Yozuvchi "Muqaddas" qissasida haYotdan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etdi, qalamga olgan voqealarni bor murakkabligi, ziddiyatlari, chinakam nafasoti bilan kitobxonga etkaza oladi. "Muqaddas" so'zi faqat qissa qahramoni nomi bilangina bog'liq bo'lmay, yozuvchi asarda go'yaviy-badiiy tadqiq etgan vijdon, burch, diYonat singari tuShunchalar talqinini ham o'z ichiga qamrab oladi. Adibning "Muqaddas"dan tortib "Diyonat" va "Oq quShlar, oppoq quShlar"ga qadar yaratilgan e'tiborga sazovor barcha asarlari ana Shu muammo tevaragida aylanadi. Adibning "Qanot juft bo'ladi" (1968) qissasi Yozuvchi ijodiy takomilida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi endi bir emas, ko'plab ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni ko'taradi.

Odil Yoqubov "Muqaddas"dan bo'shlab deyarli har bir asarida biror jiddiy masalani ko'tarish bilan barobar, qalamga olingan mojarolarning haYotiy ildizini, sabablarini ochiShga intildi.

Yozuvchining 70-80-yillarda yaratgan "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunYo" asarlari faqat adib ijodidagina

emas, o'zbek romanchiligi rivojida ham Yangi bir bosqichni taShkil etadi. Bu asarlar adib ijodiy Yo`lining etuklik bosqichini boShlab berdi.

Yozuvchi xoh zamondoShlari, xoh olis tarix haqida qalam tebratmasin, ko`pchilikni hayajonga soladigan katta ijtimoiy muammolarga e`tiborni tortadi, keskin dramatik xarakterlar yaratadi. Odil Yoqubovga Shuhrat keltirgan asar "Ulug`bek xazinasi" romani bo`ldi. Davrimizning ulkan adibi Chingiz Aytmatov "Ulug`bek xazinasi" romani haqida Shunday Yozadi: "Bu yuksak va olijanob proza namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi. Bu esa asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi Shundaki, romanni o`qirkanman, ko`nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg`usi jo`Sh urdi". Odil Yoqubov o`z romanida Mirzo Ulug`bekning adolatli sulton va buyuk olim ekanligi, katta kutubxonasi bo`lganligi hamda uni saqlab qoliSh Yo`lida kuraShlar borganligi, pirovardida Shohning taxtdan quvilib, Yovuzlarcha qatl etilganligi haqidagi tarixiy faktlarni keltiradi. Lekin Yozuvchi Shularning o`zi bilan cheklanmaydi. Agar cheklanganda, tarixiy roman emas, balki ilmiy kitob yuzaga kelar edi. Romanda Ulug`bekni "egnida odatda saroyda kiyib yuradigan zarbof to`n o`rniga ko`k yaShil movut chakmon, boShida rasadxonada va madrasada kiyadigan uchlik qora duxoba qalpoq, oYog`ida ichiga olmaxon mo`ynasi qoplangan qo`nji keng issiq etik"li holda ko`ramiz. Ulug`bekning taxtdan chetlatilib, boShi olinishi voqealari ham, avvallar arxar oviga chiqiShlari ham xuddi Shu taxlitda namoyon qilinadi. Romanda Ulug`bek obrazi kitoblar uchun kuraSh masalasi bilan uzviy bog`liqlikda ko`rsatiliShi ham Shu maqsadga xizmat qiladi. Yozuvchi qahramonini turli voqealar oqimida gavdalandirar ekan, ular ta`sirida personaj qalbida, ongida qanday o`zgariShlar sodir bo`lganligi, qanday o`y-fikrlar tug`ilganini ham tasvirlab beradi. Shu tariqa Ulug`bekning hazin kechinmalari, iztiroblari, kitoblarni saqlab qoliShdek muqaddas burchini unutmaganligi, ular haqida qayg`uriShi, ular uchun kuraShiShi o`zaro aloqadorlikda, o`quvchi ko`z o`ngida namoyon bo`ladi. Qahramonning so`zlash tarzida ham davr ruhi yaqqol seziladi. Yozuvchi Ulug`bek va uning davri kiShilari nutqini jonlantirar ekan, o`Sha zamon turkiy tilining xususiyatlarini me`yor bilan saqlagani holda personajlar so`zlashuvini individuallaShtirishga va uning hozirgi kunlarimizda ham tuShunarli bo`lishiga eriShgan.

Odil Yoqubov romanda maShhur tarixiy Shaxs Xo`ja Ahror siymosini gavdalandirishda ham ma`lum darajada Maqsud SHayxzoda an`analari izidan borib, tarix haqiqatiga nomuvofiqroq timsol yaratadi. Xo`ja Ahror romanda Shayxzodaning "Mirzo Ulug`bek" tragediyasidagi kabi o`ta reaksiya, Shafqatsiz, yovuz bo`lmasa-da, yozuvchi uning to`g`risida salbiy tasavvur tug`dirishga, ya`ni qay darajadadir adolatli Shohning duShmani qilib ko`rsatishga urinavergan.

Odil Yoqubov "Ko`hna dunyo" romanida ham tarixiy haqiqatni, tarixiy Shaxslar taqdirini, davrning ko`p qirrali ziddiyatlarini, o`tmiSh saboqlarini Yangicha badiiy kaShf etishga muvaffaq bo`ldi. Ko`pchilik o`zbek tarixiy romanlaridagidan farqli holda yozuvchi bu asari markaziga Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy obrazlarini qo`yib, ularni deyarli bir xil, boSh qahramonlardek Yonma-Yon tarzda tasvirlab boradi. Shu yo`l bilan u mazkur qahramonlarni mustaqil ong sohiblari, asosiy g`oyaviy maqsadni ifodalovchilar sifatida namoyon qiladi. Bu qahramonlar xatti-harakatlarida, umuman, romanning deyarli boShidan oxirigacha zulmga nisbatan xalqning isyonkorlik ruhi sezilib turadi. Oddiy xalq vakillarining buyuk olimlarga munosabatida haq va adolat matlabi rahnamodir. CHunonchi, qarmatiylar haqida Beruniy Yozgan risolani Abdusamad Avval o`ziniki deb e`lon qilib, dorga osiladi va Shu Yo`l bilan ulug`olimni o`limdan saqlab qoladi. Roman oxirida Ibn Sino saroydan haydalib, juda xavfli vaziyatga tuShib qolganida, qarmatiylar vakili Malikul Sharob uni qutqarib olib ketadi.

Demak, Shu yo`l bilan yozuvchi romanda: "olimni, insonni haqiqiy qadrlaSh tuyg`usi faqat mehnatkaSh xalqqa xosdir, haq va adolat maSh`ali, chinakam gumanizm bayrog`i uning qo`lidadir", - degan g`oyani yuzaga chiqaradi. Asar haqida taqriz Yozgan tanqidchilarning hech biri to`g`ri talqin etolmagan yaxlit konsepsiya asosida mana Shu teran g`oyaviy falsafa Yotadi.

Mazkur g`oyaviy falsafa va uni ifodalaSh maqsadida qalamga olingan uzoq o`tmiSh hayoti muammolari hozirgi zamon uchun ham nihoyatda muhimdir. "Literaturnaya gazeta" sahifalarida tanqidchi

A.Kondratovich bilan qilgan suhbatida Odil Yoqubov buni quyidagicha izohlagan edi: "Agar Ulug`bek taqdiri bilan bog`liq hamma narsa faqat tarixiy xaraktergagina ega bo`lib qolganda, men qo`limga qalam olmagan bo`lur edim. Amerika ochmayman, lekin Shu narsaga iymonim komilki, har qanday zamonaviy adib ham, uni faqat bugungi kun muammolari qizg`in hayajonga solgandagina tarixga murojaat qiladi"<sup>1</sup>.

Romandagi hozirgi zamon uchun muhim bo`lgan va davrimiz kiShilarini hayajonga solgan uzoq tarixiy hayot muammolarini hamda ulardan kelib chiqadigan g`oyaviy falsafani O.Yoqubov Ulug`rus yozuvchisi F.M.Dostoevskiy an`analari Yo`lidan borib, polifonik tasvir vositasida talqin etdi. Shunga ko`ra "Ko`hna dunyo" o`zbek adabiyotida yaratilgan birinchi tarixiy-polifonik roman hisoblanadi.

Demak, o`zining teran falsafiy mazmuni va original Shakli bilan "Ko`hna dunyo" romani adabiYotimizning zamonaviyligini, gumanistik mohiyatini chuqurlaShtiradi, janrlar doirasini kengaytiradi, uslublar palitrasini rang-baranglaShtiradi hamda xalqimiz ma`naviy olamini boyitadi.

Odil Yoqubov qissa va romanlarining katta guruhini zamonaviy mavzudagi asarlar taShkil etadi. Ularda, ya`ni "Larza", "Bir feleton qissasi", "Matluba", "Izlayman", "Billur qandillar" kabi qissalarida, "Er boShiga iSh tuShsa...", "Diyonat", "Oq quShlar, oppoq quShlar" va "Adolat manzili" romanlarida Yozuvchi o`z zamonining ko`plab murakkab, ziddiyatli muammolarini qalamga olib, turli-tuman taqdirli kiShilar timsoli hamda yangicha Shakllar yordamida yoritishga intildi. Bunday intilishning jiddiy namunalaridan biri sifatida yozuvchining "Adolat manzili" romani maydonga keldi. Insoniyatning va u yaShab turgan bu olamning kelajagiga iShonch ruhiga to`liq "Adolat manzili" romani o`ziga xos janr xususiyatlari bilan ajralib turadi. Unda jinoyat yo`q, lekin "jinoyat" deb atalgan hodisa bor. Asarda haqiqiy jinoyatchi yo`q, ammo "jinoyatchi" deb e`lon qilingan sofdil inson bor. Shular bilan bog`liq holda asarda jinoyat izlaSh yoki uni yaratishga intilish unsuri katta o`rin tutadi. Jinoyat izlaSh esa, detektiv asarning zaruriy unsuri hisoblanadi. Chinakam jinoyat bo`lmagani holda, mazkur unsur mavjudligini e`tiborga olib, "Adolat manzili" romanining janr xususiyatini belgilaShga jazm qilsak, uni "jinoyatsiz detektiv" deb ataSh o`rinli bo`ladi. Detektiv janrning mazkur o`ziga xos namunasi O.Yoqubov ijodida ham, o`zbek adabiyoti uchun ham yangilik bo`lsa ajab emas. Faqat undagi Lochinning o`limi otasi Suyun burgut halokati darajasida iShonarliroq aks ettirilganda, roman hozirgi o`zbek adabiYotida yanada sezilarliroq hodisa darajasiga ko`tarilishi mumkin edi. Umumiy saviyasiga ko`ra yozuvchi bu asarida roman janrining yangi imkoniyatlarini kaShf etgan holda biz yaShab turgan olamning adolat maskaniga aylaniShiga iShonch ruhi bilan sug`orilgan gumanistik g`oyani ancha yorqin va ta`sirchan tarzda ifodalaShga muvaffaq bo`ldi.

So`nggi yirik asarlarning tajribasi va qiymatidan ayon bo`lishicha, yozuvchi Odil Yoqubov hozirgi o`zbek adabiyotidagi eng etuk romannavislardan biri darajasiga ko`tarildi.

### **Pirimqul Qodirov**

**(1928 yilda tug`ilgan)**

XX asr o`zbek adabiyoti tarixida yozuvchi Pirimqul Qodirov o`ziga xos o`rin tutadi. Pirimqul Qodirov bir qator badiiy asarlar yaratish bilan adabiyot xazinasiga o`zining sezilarli hissasini qo`shdi. Ijodiy faoliyati davomida u ko`plab mazmundor badiiy, tarixiy, ilmiy, tarjima, publisistik asarlar yaratdi.

Hozirgi o`zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri yozuvchi Pirimqul Qodirov 1928 yili Tojikiston Respublikasining O`ratepa tumanidagi Keng qo`l qiShlog`ida tavallud topdi.

Pirimqul Qodirovning urushdan keyingi xo`jalikni izga solish yillarida jamoa xo`jaligidan boShlangan mehnat faoliyati yo`l qurilishi, so`ng Bekobod metallurgiya zavodida ishlaSh bilan davom etdi.

1951 yili ToShkent Davlat dorilfununini tugatib, u Maksim Gorkiy nomidagi jahon adabiyoti institutining aspiranturasiga o`qiShga kirdi. "Urushdan keyingi o`zbek nasri" mavzusiga oid nomzodlik ilmiy iShini himoya qildi.

Pirimqul Qodirov 1954-1963 yillar davomida Ittifoq YOzuvchilar uyuShmasi qoShida o`zbek adabiyoti



bo'yicha maslahatchi bo'lib ishlagan. U 1965-1976 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyoti instituti katta ilmiy xodimi vazifasini bajardi.

Adib ijodining debochasi talabalik yillarida e'lon etilib, tolibi ilmlar hayotini, ichki olamini badiiy aks ettirgan "Studentlar" hikoyasi 1950 yilda bosmadan chiqqan edi. Faqat bu hikoya juda zaif maShq bo'lgani uchun yozuvchi Abdulla Qahhor uni juda keskin tanqid qilgan edi. Tanqiddan to'g'ri xulosa chiqargan P.Qodirov katta ijodiy mehnat qilib, 1958 yilda xuddi quYoShli kunda momaqaldiraq bo'lib, chaqmoq chaqqandek, o'zining birinchi yirik asari - "Uch ildiz" romanini naShrdan chiqaradi. "Illiqlik" deb atalgan o'Sha davr ruhini, o'zgariShlarini, Yangiliklarini o'zida mujassamlaShtirgan bu roman tezda keng kitobxonlar ommasining va maShhur yozuvchilarning e'tiborini qozonadi. Xususan, 1959 yilda Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasi vaqtida dunyoga maShhur qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov "Uch ildiz" romanini zamon ruhini hamda kiShilar ma'naviy olamini yorqin aks ettirgan asar sifatida yuqori baholagan edi. Uning ketidan "Jon Shirin", "Kayf", "Olov" hikoyalari, "BeSh yilliklar farzandi" to'plami, "Qadrim", "Erk", "Meros" povestlari, "Najot" afsona-ertagi, "SarguzaShtlar", "YAyra institutga kirmoqchi" nomli qissa va hikoyalar kitoblari o'quvchilarga taqdim etildi.

"Uch ildiz", "Olmos kamar" romanlarida adib ijodiy mahoratining charxlanganligini ko'rsatib, o'zbek nasrini boyitdi. Bu har ikki roman Pirimqul Qodirov ijodining badiiy etuklik darajasini belgilovchi asarlardir. Ayniqsa, "Qora ko'zlar" romani 60-yillar bo'Shidagi qiShloq hayoti manzaralarini, turmuSh qiyinchiliklarini, murakkabliklarini, ziddiyatlarini ro'yi-rost ko'rsatganligi bilan ajralib turadigan asar edi. Unda hozirgi kunlarga hamohang muammolar talqinini ham uchratiSh mumkin edi. Xususan, roman rahbarlikdagi, xo'jalikdagi ko'zbo'yamachiliklarni, qo'Shib yoziShlarni, kiShilar axloqidagi tubanliklarni hamda ularga qarshi kuraShuvchilar borligini ochiq-oydin gavdalantiriShi bilan deyarli barcha davrlar uchun dolzarblik qiymati kasb etadi.

Xuddi "Qora ko'zlar" romanidagi hayot ziddiyatlarini butun keskinligi bilan yuzaga chiqariSh yo'lidan borib, P.Qodirov "Meros" qissasida paxta etiShtiriShdagi mehnatning og'irligi, maShaqqatlarga va hatto fojealarga to'liqligi to'g'risidagi haqiqatni chinakam san'at vositalari orqali ifodalaShga muvaffaq bo'ldi. O'z davri uchun yozuvchining bu iShi katta jasorat hisoblanar edi. Ulkan badiiy qiymatga ham ega bo'lganligi sababli "Meros" qissasi yozuvchining adabiyot sohasidagi eng jiddiy yutuqlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Afsuski, bunday xulosani P.Qodirovning metro quruvchilari hayoti lavhalarini, ichki dunyosi qirralarini yoritgan "Erk" qissasi va "Olmos kamar" romani haqida aytiSh qiyindek tuyuladi. Jumladan, "Erk" qissasida muallifning muhabbat sohasida haddan taShqari keng ozodlikka chaqiriShi munozarali tuyulsa, "Olmos kamar" asarida Shahar hayotining juda ko'p tomonlari, xususan, metro quriliShi, YoShlar tarbiyasi, to'y-haShamlardagi isrofgarchiliklar, oilaviy mojarolar kabi masalalar qamrab olingani holda, ular o'zaro uzviy birlaShtirib yuborilmagani oqibatida roman kompozision jihatdan nomukammal chiqqan.

Yuqorida tilga olingan qissa va romanlarning deyarli hammasi zamonaviy mavzuda edi. 60-yillarning o'rtalaridan P.Qodirov ijodida Yangilik bo'lgan drama va tarixiy roman janrlariga qo'l uradi. Chunonchi, u dastlab "Insof" dramasini e'lon qilib kiShilar e'tiborini o'Sha davrlar uchun muhim bo'lgan axloqiy muammolarga jalb etadi va ma'naviy soflik, go'zallik g'oyalari ilgari suradi. Faqat adibning bu asari dramaturgiya sohasidagi birinchi tajribasi bo'lganligi, ya'ni mukammallik darajasiga ko'tarilmaganligi sababli ezgu insonparvarlik g'oyalari yuksak jarangdorlik kasb etmagan edi.

P.Qodirovning o'zi asos e'tibori bilan Sharq tarixi bo'yicha mutaxassis bo'lganligi sababli keyinchalik uzoq vaqtlar mobaynida ona xalqining o'tmiShi, kuraShlari, qonli fojialari, buyuk Shaxslari uning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Oqibatda, oldin "Yulduzli tunlar" ("Bobur"), keyin "Avlodlar dovoni" asarlari bilan Pirimqul Qodirov o'zbek tarixiy romanchiligini ustoz Oybekdan so'ng Yangi pog'onaga ko'tardi. "Yulduzli tunlar" romanida yozuvchi Zahiriddin Muhammad Boburdek murakkab tarixiy Shaxs siymosini gavdalantirdi. Tarixiy faktlarni, ma'lumotlarni chuqur o'rgangan holda badiiy asar zamiriga, Bobur obraziga singdira oliShga muvaffaq bo'ldi. Pirimqul Qodirov bu romanida Bobur ichki dunyosini, butun murakkabligi,

ziddiyatlari bilan namoyon qiliShga intildi.

Shundan so`ng yozuvchi "Avlodlar dovoni" asarini "Yulduzli tunlar" romanining davomi sifatida yozdi. Ikkinchi roman ham birinchisi singari tarixiy asar bo`lib, unda Bobur mirzo avlodlarining dovonlari murakkab hayot bosqichlarida aks etgan. Asarda, asosan, Boburning to`ng`ich o`g`li Humoyun mirzo va nevarasi AkbarShoh hayoti manzaralari jonlantirilgan. Pirimqul Qodirov uShbu asar haqida quyidagilarni yozadi: "Men uShbu romanni ko`pchilik kitobxonlarning talablaridan kelib chiqqan holda yozdim va Shu asarni yaratish jarayonida XY-XYI asr xalqimiz tarixi, adabiyoti, madaniyatini chuqur o`rgangan holda asarimda aks ettirdim".

Bu ikki asar tarixiy ma`lumotlarga juda boy bo`lgan holda, badiiy jihatdan biroz nochordir. Yozuvchi tarixiy aniq faktlarga katta e`tibor bergani holda, asarning badiiyligini yuksaklikka ko`tara olmagan. Go`yoki yozuvchi badiiy asar yaratishni emas, tarixiy kitob yoziShni oldiga birlamchi maqsad qilib qo`ygandek tuyuladi.

"Avlodlar dovoni" asari yaqinda qaytadan "Humoyun va Akbar" nomi bilan Yangi kitob holida naShrdan chiqarildi.

Pirimqul Qodirov adabiy ijodning publisistikadek ommabop janrida ham qalam tebratdi. Natijada uning ilk ocherki "Oilamiz" 1953 yili chop etildi. "Xalq tili va realistik proza", "Til va dil" nomli ilmiy-ommabop iShlari adib va olim izlaniShlari mahsulidir.

Adib ssenariysi asosida zangori olov zahmatkaShlari haqida "Sening izlaring" badiiy filmi qo`yilgan.

Adib tarjimon sifatida L.Tolstoyning "Kazaklar", K.Fedinning "Dastlabki sevinchlar", N.Tomsenning "Iz", X.Deryaevning "Qismat" asarlarini ona tiliga o`girdi.

"Yulduzli tunlar" romani uchun Pirimqul Qodirov 1982 yili Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo`ldi. Pirimqul Qodirov O`zbekiston xalq yozuvchisidir.

### **Abdulla Oripov**

#### **(1941 yilda tug`ilgan)**

Abdulla Oripov 60-yillarda Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdieva, Oydin Hojjeva singari ijodkorlar bilan bir qatorda o`zbek adabiyotiga kirib keldi. SHoir ijodining ilk davridan boShlab o`z uslubi va o`ziga xos yangroq ovozi bilan She`riyatimizda Yangilik yaratib, ko`pchilikning diqqatini o`ziga jalb qildi.

Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko`z qiShlog`ida tug`ilgan. U 1958 yilda ToShkent Davlat Universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo`limiga kirib, 1963 yilda tamomlagan. So`ngra u 1963-74 yillar oralig`ida naShriyotda, 1974-80 yillarda "SHarq yulduzi", "Gulxan" jurnallarida iShladi. Undan keyin O`zbekiston Respublikasi YOzuvchilar uyuShmasida turli lavozimlarda faoliyat ko`rsatdi.

Abdulla Oripov qisqa vaqt davomida mualliflar huquqini himoya qiliSh qo`mitasiga rahbarlik qildi. Hozirgi kunda SHoir O`zbekiston YOzuvchilar uyuShmasining rahbaridir.

QiShloqdagi ma`sumona ma`yus hayot, tabiat sokinligi, muhabbat kabi tuyg`ular uni SHoirlikka undadi. SHoir ko`nglining ilhom bulog`i ochildi.

SHoirning ilk She`rlari talabalik davrida matbuotda e`lon qilina boShladi. Abdulla Oripovning birinchi to`plami 1965 yilda "Mitti yulduz" nomi bilan bosilib chiqdi. SHoirning ba`zi ilk She`rlarida mavhumlik alomatlarini, bahsli va ziddiyatli o`rinlar sezilardi. Biroq ularni g`oyaviy nuqson sifatida emas, balki o`siSh qiyinchiliklari tarzida qabul qiliSh lozim. "Mitti yulduz" to`plami SHoirning haqiqiy ijod yo`liga kirganligidan dalolat beruvchi kitob sifatida maydonga kelgan edi.

Abdulla Oripov bu to'plamga kiritilgan She'rlarida tabiat manzaralari tasviriga ko'proq o'rin beradi. Masalan "Archa" She'rida Shoir o'zining tuyg'ulari yuksak cho'qqiga ko'tarilganligini ko'rsatishga harakat qildi. ToShyo'nar usta nogahon archaning ustiga toSh tuShirib yuboradi. Ammo archa bukilmaydi. Yillar o'tib, qaytib kelgan usta hayratdan qotib qoladi: archa toShni boShida ko'targancha gurkirab o'sib turardi... Haqiqatdan uzoq bo'lgan bu voqea tasviri bilan Shoir nima demoqchi? Bu She'rdagi butun hayot haqiqati namoyon bo'ladi.

Dastlabki chog'larda Abdulla Oripov o'zining yaShaShdan kuzatgan maqsadlari va asosiy estetik prinsiplarini quyidagicha ifodalagan edi:

Men Shoirman  
Istasangiz Shu.  
O'zimniki erur Shu sozim.  
Birovlardan olmadim tuyg'u  
O'zgaga ham bermam ovozim.

SHoir A.Oripov "Mitti yulduz" She'riy to'plamidan keyin yana bir necha kitoblar e'lon qildi: "Ko'zlarim yo'lingda" (1966), "Onajon" (1969), "CHaShma", "Ruhim" (1971), "O'zbekiston" (1972), "Hayrat" (1974), "YUrtim Shamoli" (1976), "Najot qal'asi" (1980), "Yillar armoni" (1984), "IShonch ko'priklari" (1989), "Munojot" (1992), "Dunyo" (1995), "Haj daftari" (1995), "Saylanma" (1996) Shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda Abdulla Oripovni butun mamlakat yaxshi biladi va uning asarlarini sevib o'qiydi. U osonlikcha ijodiy kamolotga eriShmagan albatta. Zotan, Shoir YoShligidanoq ijodiy iShga katta mas'uliyat bilan qaradi. Binobarin, ustoz A.Qahhor: "Abdullaning bitta xislati menga ma'qul. U faqat o'zi ko'rgan va o'zi bilgan narsalarnigina yozadi", - deb bejiz aytmagan. Buning ustiga, Shoir asarga jilo va sayqal beriShdan aslo erinmaydi. CHunki u She'riyatni vijdon iShi deb biladi. SHuning uchun ham u samimiy ixlos va mamnuniyat bilan:

BoShin eggay hamiSha  
Ostonangda Abdullo,  
Eng oliy baxtim mening,  
Onajonim, She'riyat,  
Topgan toj-taxtim mening,  
Jonajonim She'riyat, -

deb kuylaydi.

Abdulla Oripov She'rlarida falsafiy teranlik bilan jo'Shqin lirizm uyg'unlaShib ketgan. Uning "O'zbekiston", "Munojot"ni tinglab, "Avlodlarga maktub", "O'ylarim", "Bahor", "Birinchi muhabbatim", "YUzma-yuz", "Otello", "Kuz", "Saraton", "Dengizga" va boShqa qator She'rlarida mana Shu xususiyat yaqqol seziladi. Bu fusunkor va teran She'rlar o'zbek milliy adabiyotining mumtoz namunalari bo'lib, yuksak badiiyligi, mantiqan kuchliligi, jo'Shqinligi, yoqimlilik va lirik tuyg'ulariga boyligi bilan ajralib turadi:

EShilib, to'lg'onib ingranadi kuy,  
Asrlar g'amini so'ylar "Munojot".  
Kuyi Shunday bo'lsa, g'amning o'ziga  
Qanday chiday olgan ekan odamzod.

Ko`rinadiki, Abdulla Oripov fikrlar va ehtiroslar Shoiridir. Uning ijodiy qamrovi keng, fikri teran va mustaqil, badiiy muShohadalari kuchli, ehtirosi jo`Shqin, parvozi yuksak. U loqaydlikni bilmaydi. Ana Shunga ko`ra, Shoir She`rlari jo`Shqinligi va lirik tuyg`ularga boyligi bilan o`quvchilarni maftun etadi.

Abdulla Oripovning "Jannatga yo`l" dramatik dostonida qiyomat va oxirat, do`zax va jannat, savob va gunohlarni o`lchaydigan afsonaviy tarozi singari tuShunchalar va fantastik voqealar haqida hikoya qilinadi. Yigit, Ona, Ota, Do`st, O`spirin, Qariya singari hayotiy qahramonlar bilan birga dostonida Tarozibon, FariShta, Hur qiz, YUGurdak, Sado kabi ramziy obrazlar ham yaratilgan. Bular orqali Shoir adolat va to`g`rilikka, vijdon va insofga, axloq-odob va yaxShilikka doir umuminsoniy qadriyatlarni, olijanob fazilatlarini targ`ib-taShviq etiShda diniy tuShunchalardan ham, ramziy obrazlardan ham donolik bilan foydalana olgan. SHoirning dostonidan ko`zlagan maqsadi oxirgi misralarda ifodalangan:

Bir rivoyat bamonay, doston so`yladim,

Turli-tuman taqdirlarni aylab mujassam,

Odamlarga ibrat bo`lsin, deya o`yladim.

Inson va uning hayoti haqidagi falsafiy o`ylarga hamda ularning Yangicha talqiniga boyligi sababli "Jannatga yo`l" dostoni va umuman, mazkur asar kiritilgan "Najot qal`asi" kitobi Abdulla Oripov ijodining gumanistik mohiyati chuqurlaShganligidan dalolat beradi. SHu bilan birga mazkur kitob Shoir ijodiy yo`lining etuklik bosqichi bo`shlanganligini bildiruvchi jiddiy adabiyot hodisasi sifatida maydonga kelgan edi va respublikaning "Hamza" nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo`lgan edi. SHoir o`zi aytganidek, haqiqiy insoniylik, ilm va zakovat, mehr-muhabbat insonni doimo yaxShilik va ezgulikka undaydi.

Xuddi mana Shu g`oyalar Shoirning "Haj daftari" turkum She`rlarida ham yaqqol namoyon bo`lgan:

Tegirmon toShidek aylandi taqdir,

Karvonlar to`zg`idi, sarbonlar basir,

Bandi bo`lgan edi, Ulug` yurt, axir,

Keldim, madad bergil, yo Ka`batulloh.

Avj oldi ig`voyu firib, razolat,

Yig`ladi bir chetda etim adolat.

Bormi saodatga, axir, kafolat,

Keldim, madad bergil, yo Ka`batulloh.

SHoir yaratgan dostonlardan yana biri "Ranjkom" (1988) deb ataladi. SHoir bunda falsafiy g`oyalarni ilgari suradi.

Azizim, dil qasriga beso`roq kira ko`rma,

Unda qo`sh-qo`sh ilonlar, ajdaholar yotadi.

Sen birovni toptay deb behuda ot surma -

Har kimning o`z quYoShi, o`z ufqiga botadi...

Dostonida jamiyatdagi insonlarning hayotidagi go`zallikni toptaShga bo`lgan harakat qiluvchilar Shirkati tuziliShi ko`rsatiladi. Doston voqeasi "Ranjkom" a`zolarining o`zaro suhbat va farroSh ayoldan dakki eb, Sharmanda bo`liShi asosiga qurilgan. Ko`rinadiki, "Ranjkom" dostonida noreal hayot hodisasi aks etgan, xayoliy taShkilot a`zolarining kirdikorlarini ko`rsatiShga harakat qilingan. Abdulla Oripovning "Hakim va

ajal" (1980) dostonida esa asar g'oyasini gavdalantirishda uzoq o'tmish manzaralaridan o'rinni foydalanilgan. Jahon tibbiyot ilmining buyuk dahosi Abu Ali ibn Sino haqida yozilgan bu dostonida umuman, inson hayotiga taalluqli va abadiy zamonaviy bo'lgan muammolar ko'tarilgan. Unda hayot va inson, ilm va o'lim, olijanoblik va hasadgo'ylik haqidagi teran ijtimoiy fikrlar badiiy tarzda gavdalantirilgan.

Dostonida hakimning hasadgo'y Shogirdi Mirzo malikaga bo'lgan muhabbatini yuragiga sig'dira olmay ustozini o'ldiradi va dunyo, sukut ichra bo'lgan donishmand tanasining uyg'oniShini kutadi:

Bu sukutning tugaydigan zamoni yo'qdir,

Bu umrning poyoni yo'q, u vaqtdan holi.

Ko'radi-yu, so'zlay desa zaboni yo'qdir,

EShitadi, turay desa yo'qdir majoli.

A.Oripovning She'riyatidagi o'ziga xoslik uning ajoyib obrazlar topa olishida ham ko'rinadi. Masalan, Shoir "Sabrning tagi sariq oltin" maqoliga o'xshab ketadigan nasihatimiz "SHoShmaslik haqida ballada" yaratgan va kutilmagan timsollar topa olish mahoratini yaqqol namoyon qilgan:

Zaminga ShoShmasdan qadam qo'y, bo'tam,

SHoShmasdan aylanar erning o'zi ham.

Abdulla Oripovning estetik qaraShlaridan ayon bo'lishicha, lirika insoniyat badiiy tafakkuri, yaratgan va yaratadigan mo'jizalardan biri bo'lib, kishining olam va borliqqa hissiy emosional munosabati orqali odamlarni ezgulikka, ruhiyatni poklashga chorlovchi ma'naviy boylik hisoblanadi. Har bir millat o'zining mana shunday ma'naviy boyligiga ega. Mana shunday boyliklar tarjimoni Shoiridir. Nodir iste'dod egasi A.Oripov tarjimon sifatida A.PuShkin, T.G.Shevchenko, V.CHarens, N.Ganjaviy, Q.Quliev She'rlarini, Dantening "Ilohiy komediya" asarini tarjima qildi. Ayniqsa, Dantening "Ilohiy komediya"sidagi falsafiy qaraShlar va majoziy timsollar A.Oripov She'riyatiga, xususan, "Jannatga yo'l" dostoni maydonga keliShiga kuchli ta'sir ko'rsatgan edi. Bunday ta'sirlaniShni Shoir quyidagi misralarda ifodalagan edi:

Endi xuSh suvlarda ko'targum elkan,

Daho iqtidorim charx urar tag'in,

G'addor mavjlarda u adaShib elgan.

Abdulla Qodiriy o'zining maShhur asarida "Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir" deb aytib o'tadi. A.Oripov Shoir sifatidagi yaratgan She'r va dostonlaridan taShqari dramaturgiyaga ham qo'l urdi. U "Sohibqiron" dramasi yozdi. Drama beSh pardadan iborat bo'lib, adib o'tmishdagi buyuk bobokalonimiz Temurning davlat boShqaruvi, hayoti va tuyg'ularini ko'rsatib berishga harakat qiladi. "Men nimani ko'rib, his etgan bo'lsam, Shuni qalamga olishga harakat qilganman", - deydi Shoir. SHu ma'noda A.Oripovning insonning sir-sinoatini bilishga, badiiy inkiShof etishga, murakkab ruhiy olami manzaralarini chizishga bo'lgan harakati, yurak mohiyatini ochishga ishtiyoqi mudom She'rlarida aks etadi:

Inson qalbi bilan hazillaShmang Siz,

Unda ona yaShar, yaShaydi Vatan.

Uni jo'n narsa deb o'ylamang hargiz,

Hayhot! Qo'zg'almasin bu Qalb daf'atan!..



Bolalik, o`spirinlik chog`larida dunyo, tevarak atrof, tabiat kiShi ko`ziga yanayam sirli-sinoatli tuyuladi, yam-yaShil maysalaru lolazor qirlar zavqingni toShiradi, uzoqdagi viqorli tog`lar tinmay o`ziga chorlaydi, oydin yoz osmonida milt-milt etgan yulduzlar sirli jilmayib, xayolingni olib qochadi. Shunday lahzalarda "zavqini qitiqlagan Shirin tuyg`ularini" ko`ksiga sig`dirolmagan o`n yetti yoShli o`smir hayratu hayajonini She`riy misralarda izhor qiliShga jazm etadi, tezroq voyaga yetib yurtga munosib farzand bo`liShni, yulduzlardek porlaShni orzu qiladi:

Ipak iz qoldirib uchar quvnoqlar.

Bir-birin quvlaShib, chaqiShar chaqin.

Osmon go`zallarini kumuSh yotoqlar

Qo`yniga chorlaydi, subhidam yaqin.

Deyman: osmonlarning hiloli bo`lsam,

Hulkar va Zuhrosi bo`lgim keladi.

Shu go`zal o`lkamda kamolga to`lsam,

Porloq yulduzlariday kulgim keladi

Garchi yoSh Shoirning keyinroq yozilgan "Miltiraydi mitti yulduz" deb nomlangan She`rida o`z to`dasidan ajralib qolgan, Shamdek titrab, ko`k gumbazining bir chetida "tanholikdan yoSh to`kayotgan" osmon jismi haqida so`z borsa ham oltniShinchi yillar o`rtalaridan boShlab She`r olamida chaqnagan "mitti yulduz" to`g`risida gapira boShladilar.

Yillar o`tdi, u o`zbek She`riyatini yangi bosqichga olib chiqqan yorqin yulduzga aylandi, Shu`lasi yiroq-yiroqlarga taralib, butun turkiy adabiyotning, Sharqning yirik siymolari qatoridan joy oldi, She`rlari ko`plab G`arb tillariga tarjima qilindi. Nafosat olamida "Abdulla Oripov She`riyati" degan tuShuncha mustahkam qaror topdi.

Insoniyat badiiy tafakkuri mo`jizalaridan biri bo`lgan She`riyat insonning olam va borliqqa hissiy-emotsional munosabati hosilasidir. Insoniyatning quvvai hofizasi zo`r Shoiri yaratgan She`riy durdonalar barcha xalqlarning, barcha avlodlarning ma`naviy mulki bo`lib qoladi. Vaqt o`tadi, davrlar yangilanadi, adabiyotga yangi avlodlar kirib keladi va bu ma`naviy boylikka o`z hissasini qo`shiShga chog`lanadilar.

Abdulla Oripov adabiyotda biryozlamalik, ritorika, deklarativlik, bayonchilik, "baxtli zamonaga" hamdu sano o`qiSh avj olgan, adabiyotning ijtimoiy-estetik qimmatini puturdan keta boShlagan bir davrda She`riyat ostonasiga qadam qo`ydi.

Har bir Shoir singari u ham havaskorlik, izlaniSh bosqichini bosib o`tdi. Yulduzlar, tog`lar, kapalak haqida yozdi.

Ulardan She`r izladi. Biroq u o`qiSh-o`rganiSh bosqichini tez bosib o`tdi, She`riyatning missiyasini, inson va jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyatini juda erta angladi. 1962 yilda matbuot yuzini ko`rgan "Kuz xayollari", 1964 yilda

"Sharq yulduzi" jurnali sahifalarida e`lon qilingan "Men nechun sevaman O`zbekistonni", "Miltiraydi mitti yulduz", "Burgut" kabi She`rlar o`z ovozi va uslubiga ega bo`lgan Shoir Shakllanayotganligidan darak berdi. Shoirning sobiq

ittifoqda stalincha zo`ravonlik Sharpalari hali butkul daf bo`lmagan, mustabid tuzum hukmronlik qiliShda davom etayotgan, adabiyot esa "sots. realizm" iskanjasi ostida eziliSh holatida bo`lgan bir Sharoitda isyonkor ruh bilan sug`orilgan tug`yonli, lirik-falsafiy, teran muShohadali, hayotni o`zicha ko`rgan chinakam milliy va xalqchil She`rlari og`ir sukunatni titratib yuborgan momaqaldiroq yanglig` yangradi.

"Albomga", "Yuzma-yuz", "Temir odam", "Ayol", "Munajotni tinglab", "O`zbekistonda kuz", "Tilla baliqcha", "Dorboz", "Otello", "Uyqu" kabi She`rlardagi o`ziga xos muShohada, dadillik, haqiqatni anglaShga intiliSh, xalqning dardini aytiSh, eng muhimi erkni ulug`laSh, istiqolga talpiniSh tug`ma iste`dod sohibining barchani mahliyo qilib qo`ygan, qizg`in bahs-munozaralarga mavzu bo`lgan muhim fazilatlar edi. Uning She`rlaridan bahramand bo`liSh "She`riyat bayrami"ga (Qaysin Quliev iborasi) aylanib ketardi.

Hayotning ichiga chuqur kirib boriSh, hayot haqiqatini tasvirlaShdagi qat`iyat va izchillik, chuqur obrazlilik, fikr va tuyg`uning ajoyib bir tarzda omuxtaligi, Shiddatkor ruh, ichki dramatism, poetik tafakkurning teranligi, Sharq va G`arb She`riyatining eng yaxshi an`analari uyg`unlaShganligi yoSh Shoir ijodiy evolyutsiyasini ta`minlagan omillar bo`ldi. Biroq yulduzday chaqnagan bu iste`dod uchqunlari vaqtincha emasmikan degan hadiklar ham yo`q emas edi:

Olti oykim, She`r yozmayman, yuragim zada:

Olti oykim, o`zgalarga tilayman omad.

Olti oykim, do`stlarim ham pana-panada

Iste`dodim so`nganidan qilar karomat.

Shukrlar bo`lsinkim, umumxalq ehtiromi, adabiy davralarning e`tirofi yoSh Shoirni havolantirib yubormadi. "Mitti yulduz"ning nurlari tobora avjlanib, ajib Shu`lalar tarata boShladi. Tez orada "Sarob", "Bahor", "Avlodlarga maktub", "Sovg`a", "Minarai kalon tepasidagi laylak", "Biznikilar", "Jannat" singari har biri adabiyotimizda voqea bo`lgan She`rlar yaratildi.

Bu jihatdan ko`p tarxli "Avlodlarga maktub", "Sarob" She`rlari e`tiborlidir. "Avlodlarga maktub" She`rining yoziliShiga 1966 yilgi ToShkent zilzilasi turtki bo`lgan. Shoir vaqtlar o`tib ma`Shum zilzila haqida yozilgan gazetalarga ko`zi tuShgan avlodlarni tasavvur qiladi. Ular qaraShsa-ki, sahifalarda azob-uqubat, vahima jabrini tortgan odamlarning emas, balki xuShnud odamlarning suratlarini iljayib turibdi. Bu ne hol? Yer osti qattiq silkinib, uy-joylar buzilsa-yu odamlarning chehrasida Shodmonlik? Shoir bu holning siridan avlodlarni voqif qiladi:

Do`stlarim, hayratda qolmangiz faqat,

Sirlilik bizlarning uslubga mosdir.

Tinchi yo`qolgan odamlarni jilmayiShga majbur etgan kuch - bu "Sovetlar" uslubi edi. Shoir tag ma`noli misralar, so`zlar vositasida yolg`on jamiyatning, erkinlikka yot tuzumning mohiyatini ochib beradi. Bu tuzum hatto "insonning azaliy kasbi bo`lgan, dunyoday qadim" do`stlikni ham sal bo`lmasa biz kaShf etdik, faqat bizga xos deb bong uradi:

Sizga falokatdan berganda xabar

Do`stlik borasida yozurlar albat.

Yozurlar: "...biz bo`ldik tengsiz birodar,

Bu xislat bizlarga xos erur faqat.

### Hozirgi adabiy jarayon

XX asr o'zbek adabiyotining xalqimizga xos qadimiy adabiy meros, boy madaniyat va badiiy tafakkur tarixida sifat jihatidan o'ziga xos alohida bosqichni tashkil etishi. XX asr o'zbek adabiyotining taraqqiyot yo'li — barkamol realistik tasvirning tadrijiy yo'lidan iborat ekanligi. Bu davrda adabiyotning haYot bilan aloqasi yanada chuqurlashganligi, zamonaviy mavzular va muammolarning adabiyotda keng aks etishi.

XX asr o'zbek adabiyotining dunYo adabiy jaraYoniga uyg'unligi. Adabiy jaraYonni taShkil etuvchi ijodkor—badiiy asar-o'quvchi (tanqid-chi) uzvlaridagi o'zaro munosabatlarning faollaShuvi. Jahon adabiyoti saboqlari, xalq ijodi va mumtoz adabiyotimiz ilg'or an'analaridan oziqlaniSh hozirgi adabiy jaraYonni harakatga keltirib turuvchi omillar ekanligi. Adabiyotimizning milliy o'ziga xosligi saqlangan holda voqelikni badiiy idrok etish va tasvirlaShda yangi-yangi ShakUarning istifoda etilishi. Adabiyotda ijobiy va salbiy obrazlar emas, balki butun murakkabghi

✘ bilan inson obrazi turganligi, unda insonga, vatanga va fidokor xalqqa muhabbat tuyg'ularining ustuvor tamoyiliga aylanganligi. Hozirgi adabiy jaraYonda Rauf Parfi, O. Matchon, H. Xudoyberdiyeva, O. Hojiyeva, U. Azim, Sh. Rahmon, X. Davronlar safiga A. Qutbiddin, S. Ahmad, B. Ro'zimhammad, R. Musurmon, Iqbol, S. AShur, F. Vafo, Z. Mirzayeva, H. Ahmedova kabi ko'plab YoSh iste'dodlarning qo'Shilib, faol ishtirok etayotganligi. Ular ijodida inson, dunYo va abadiyat muammolarining ko'plab qirralari butun murakkabligi bilan ifoda-lanaYotganligi.

Hozirgi o'zbek nasri rivojida O'. HoShimov, Sh. Xolmirzayev, M. Mansurov, A. Ibrohimov, T. Maliklar bilan bir qatorda O. Muxtor, E. A'zam, M. Muhammaddo'st, T. Murod, Z. Vafo, N. EShonqul, Sh. Bo'tayev, X. Do'stmuhammad, A. Said, N. Dilmurodov, B. Mu-rodali, N. Qilich kabi adiblarning qo'ShaYotgan hissalarini. Prozada inson ma'naviyati sarhadlarini yangicha qamrov, yangicha estetik sathlarda o'lchaShga intilishning vujudga kelishi. Nasrimiz badiiyati sathlarining rang-baranglanishi.

Hozirgi o'zbek dramaturgiyasi jahon va milliy dramaturgiyamizning eng yaxshi ana'nalarini davom ettirayotganligi. Bu jaraYonda S. Ahmad, O'. Umarbekov, M. Boboyev, Sh. BoShbekov, A. Ibrohimov kabi qalamkaShlarning tutgan o'rni.

Hozirgi o'zbek adabiy jaraYonida haYotni, voqelikni nisbiy tugallangan, mafkuraviy baholangan kesimlarda emas, balki davom etayotgan jaraYon sifatida aks ettirish tamoyilining yetakchilik qiliishi. Hozirgi o'zbek adabiyotiga xos ikkinchi estetik tamoyil adabiyotning boSh predmeti bo'lmiSh insonni faqat salbiy Yoki ijobiy nuqtayi nazardan emas, balki borligicha — bu butun va yaxht holda badiiy tadqiq etishdan iboratligi. Hozirgi adabiyotimizga endi singib kelayotgan voqelikni kitobxonga chaynab, tayyor xulosalar bilan yetkazib berish emas, faolligi, idroki va mulohazasi vositasida muayyan badiiy xulosalar chiqarish tamoyili.

XX asr o'zbek adabiyotining estetik saboqlari, erishgan yutuqlar va nuqsonli jihatlar. Ikki ming yillik o'zbek adabiyotining XX asrda jahon adabiy jaraYonining tarkibiy bir qismiga aylanganligi va o'zga xalqlar badiiy tajribalari bilan aloqadorlikda taraqqiy etishi. Asr so'ngida istiqbol davri adabiyotning vujudga kelishi va uning tarixiy — estetik ahamiyati.